O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“FILOLOGIYA MASALALARI – YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2020-yil 16-noyabr

Toshkent-2020

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent – 2020.

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, f.f.d, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori;

Z.Abdurashidov, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;

N. Jo‘raqo‘ziyev, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;

M. Xolmurodova, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati raisi;

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” nomli an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

Hurmatli ilmiy anjuman qatnashchilari!

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida: “Har qaysi millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur” – deb yozib, bu sohalar millatning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda mislsiz ahamiyatga ega ekanligini jonkuyarlik bilan ta’kidlab o‘tgan. Biz o‘ylaymizki, bugungi ilmiy-amaliy anjumanimizga ham jonkuyar, tiyrak, keng mushohadali yoshlar to‘plangan.

Bu galgi uchrashuvimizning ruhi o‘zgacha. Chunki konferensiya qatnashchilari ulug‘ va mashaqqatli ilm yo‘lidagi yosh olimlar, tarjimonlar, bo‘lg‘usi matnshunoslardir! Barchangizni ushbu yo‘lda dadil qadam tashlaganingiz bilan tabriklayman. Ma’lumki, universitetimiz tomonidan an’anaviy tarzda “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi Respublika talabalarining ilmiy-amaliy anjumani tashkil etib kelinmoqda. Ushbu konferensiyada har yili yangi iste’dodli yoshlar kashf qilinmoqda. Shuni mamnuniyat bilan ayta olamizki, bizning universitet siz, iqtidorli yoshlarning kelajakda yetuk olim bo‘lib yetishishingiz uchun har qanday yordamni berishga tayyor.

Prezidentimiz bir qator farmon, qarorlar bilan universitetimiz zimmasiga ulkan va sharafli vazifalarni yukladilar. Biz esa, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz yo‘lidan og‘ishmay harakat qilishimiz, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tilimizning, abadulabad ezgulikni targ‘ib qilgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning dunyoga bo‘y ko‘rsatishida fidoyilik bilan xizmat qilmog‘imiz darkor.

Qadrli anjuman ishtirokchilari! Komil ishonch bilan aytish mumkinki, sizlarning orangizdan ulkan salohiyatli olimlar yetishib chiqadi. Ilmiy va ijodiy ishlaringizda zafarlar tilaymiz.

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, professor

TILSHUNOSLIK

“BOBURNOMA”DAGI MAQOL VA MATALLARNI TARJIMA QILISH TAMOYILLARI

Dilafruz MUHAMMADIYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Asliyat va tarjima tillari maqol va matallarning tabiatini qiyosiy o‘rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo‘llari va imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi. Tadqiqot obyektimiz hisoblangan “Boburnoma”ning turkcha tarjimasida maqol, matal va aforizmlarni ifodalashda bir necha usullardan foydalanilgan. Maqolada ana shular haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *”Boburnoma”, asliyat, tarjima, parema, maqol, matal, aforizm.*

Annotation

By learning the nature of proverbs, adages of originality and translating languages comparatively, determining the meaning- correspondence states between them and defining the ways and opportunities of explaining one of them with the help of another makes the fundamentals for making absolute translation. This article is focused on the use of a number of methods applied in expressing the proverbs, adages and aphorisms in the Turkish translation of “Baburname” - the object of our investigation.

Key words: *“Baburname”, originality, translation, parema, proverb, aphorism.*

Paremalar leksik birliklarga nisbatan murakkab komponentli lisoniy hodisa bo‘lganligi sababli ularni tarjimada ifodalash ham tarjimondan alohida mas'uliyat talab qiladi. Chunki paremalar asardagi badiiy-tasviriy vositalar sifatida fikrning oddiy bayonidan ko‘ra ko‘proq asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini oshirish kabi uslubiy o‘ziga xosliklarni ifoda etishda ishtirok etadi. Paremaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni maqsadga muvofiq tarjima qilishga intilish badiiy asarni qayta yaratishga tengdir.

“Boburnoma”dagi paremalarni turk tiliga tarjima qilishda quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Parema so‘zma-so‘z tarjima qilingan.
2. Parema biror grammatik vositani o‘zgartirish orqali tarjima qilingan
3. Paremaning tarkibi o‘zgartirilgan holda tarjima qilingan.

Maqollar tarjimasida tarjimon ko‘proq so‘zma-so‘z tarjima qilish usulidan foydalanadi. Masalan, *Marg bo yoron sur ast– do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim to‘ydir* maqoli *Dostlarla beraber ölüm dügündür*(Do‘stlar bilan birgalikda o‘lim to‘ydir) tarzida tarjima qilinadi.

... ne gibi iztirap ve meşakkat olursa: ben de göreyimve halk nasıl tahammül edip duruyorsa ben de durayım-diye düşündüm. Farsça bir mesel vardır;Dostlarla beraber ölüm dügündür[5.214-bet]. Ko‘rinadiki, bu yerda maqol **so‘zma-so‘z tarjima** qilingan.

Qopudag‘ini qopmasa, qarig‘uncha qayg‘urur maqoli Boburning vaqtida harakat qilmay, dushmanini qochirib qo‘yganligi haqida. *Ushmundog‘ qopuda kelgan g‘anim mutazarrir bo‘lmay ajrashdi. Masal borkim, «Qopudag‘ini qopmasa, qarig‘uncha qayg‘urur»[1.74-bet].*

Bu maqol turkcha matnda *Kapıdakını kapmazsa,ihtiyarlayıncaya kadar nedamet eder [5.76-bet] –kapi(eshik)dagini qopmasa, qarigunga qadar nadomat qiladi* tarzida **so‘zma-so‘z tarjima** qilinadi.

Maqollar va matallarni o‘girish jarayoni tarjima amaliyotida muhim o‘rin egallaydi. Bunda tarjimondan ziyraklik va katta mahorat talab qilinadi. Chunki aynan maqol va matallarning tarjimasini chiroyli yoritib bera olmaslik badiiy asar mazmuniga putur yetkazishi mumkin. Ammo yuqoridagi maqolning so‘zma-so‘z tarjimasi asarning badiiyatiga putur yetmaydi, aksincha, uning kitobxonga tushunarlilik darajasi ortadi. Ehtimol, uni turk tilidagi boshqa bir maqol bilan berganda bundan ham chiroyliroq, obrazliroq chiqqan bo‘lar edi.

Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o‘lgan yaxshi maqoli turk tiliga *Kötü adla yaşamaktansa iyi adla ölmek daha iyidir[5.357-bet]-yomon ot bilan yashamoqdan yaxshi ot bilan o‘lgan yanada yaxshidir (tarjima bizniki –D.M.)* tarzida tarjima qilinadi. E'tibor bersak, bu tarjimada ancha o‘zgarish mavjud: *tirilgandin* so‘zi *«yashamoqdan»ga, o‘lgan yaxshi* birikmasi *«o‘lmak yanada yaxshidir»*ga o‘zgargan.

tirilgandin – yaşamaktansa,

o‘lgan yaxshi – ölmek daha iyidir.

Bu farq ma'noning o‘zgarishiga ham sabab bo‘lgan va bu maqol **tarkibi o‘zgartirilgan holda tarjima** qilingan.

Shu maqolning mantiqiy davomi bo‘lgan *Zikri nomero hakimon umri soniy guftaand*(Shuhrat bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr demishlar) matali temuriy shahzodalar Shayboniyxonga qarshi birikayotganda Kepak Mirzoning ahdiga vafo qilmay kelmaganligi voqyeasini yoritishi jarayonida keltirilgan. *G‘arazkim bu dunyoda kishidin ushmundog‘ nimalar qolur, har kim aqldan bahravar bo‘lsa, nega andog‘ harakatga iqdom*

qilg‘aykim, andan so‘ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asari bo‘lsa, nega andog‘ amrga iqdom va ehtimom qilmag‘aykim, qilg‘ondin so‘ng muhtahsin degaylar: Zikri nomero hakimon umri soniy guftaand[1.142-bet] .

Zikri nomero hakimon umri soniy guftaand (Shuhrat bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr demishlar) maqoli *ismin zikredilmesine hekimler ikinci bir ömür adını vermişlerdir[5.204-bet]*tarzida o‘girilgan. Bu tarjimada so‘zlar va grammatik shakllar almashgan. Ya'ni turkcha tarjimani so‘zma-so‘z o‘zbekchaga o‘girsak: *Ismini zikr etishlariga hakimlar ikkinchi umr otini berganlar.*

Shuhrat bilan yodlanish- ismini zikr etish;

*yodlanish**ni**-zikr etishlari**ga**;*

demishlar-otini berganlar birliklari bilan ifodalangan. Bu maqol **grammatik vositalari o‘zgartirilgan** holda tarjima qilingan.

Kim o‘lar holatga yetsa ul bilur jon qadrini maqoli o‘lar holatga yetgan insonning ko‘ngil kechinmalarini o‘zida aks ettirgan. *Jon mundog‘ aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra’ borkim: «Kim o‘lar holatga yetsa ul bilur jon qadrini». Har qachon bu voqi'ayi hoila xotirimga kelsa, bexost holim mutag‘ayyir bo‘lur[1.218-bet].*

Kim o‘lar holatga yetsa ul bilur jon qadrini maqoli *canın kadrini ölmek üzere olan kımse bilir* tarzida tarjima qilinadi. Ammo bu yerda o‘zbekcha matndagi qo‘shma gap sodda gap tarzida berilgan, she'riy ohang ham buzilgan. *Can böyle aziz bir şey imiş böyle oldugunu bilmezdim. Bir mısravardır: canın kadrini ölmek üzere olan kımse bilir[5.347-bet].*

Maqollar, matallar, idiomalar tarjimalari shu amaliyotning eng huzurbaxsh-ijodiy sohalaridan. Ular tarjimasi ifodalarida tarjimonning layoqati, iste'dodi, so‘zni, obrazlilikni yuksak darajada anglash va his qila bilish qobiliyati namoyon bo‘ladi[4.4-*bet*].

Bulardan tashqari *Ishonmagil do‘stungg‘a, somon tiqar po‘stungg‘a [1.76-bet] – İnanma dostuna, saman doldurur postuna[5.82-bet]*maqolida *tiqar* so‘zi *doldurur (to‘ldirar)ga* o‘zgartirilib, tarkibi o‘zgartirilgan tarjima bo‘lgan, *Dushman ne demas, tushga ne kirmas [1.117-bet] –düşman ne demez ve rüyaya ne girmez [5.156-bet], Safi mag‘lubro hue basandast[1.97-bet] –mağlup düşmana bir hey sesi kafidir [5.121-bet], teng bo‘lmaguncha to‘sh bo‘lmas [1.115-bet] –denk olmayan buluşmaz[5.153-bet]* maqollarida barcha so‘zlar to‘liq mos tushadi, shuning uchun ular so‘zma-so‘z tarjimaga misol bo‘ladi.

Matallarda ham ba’zan to‘liq mos tushadigan so‘zlar orqali, ba'zan tarkibi o‘zgargan holda qilingan tarjimalar uchraydi. *Deh kujovu daraxton kujo [1.36-bet] –qishloq qayda-yu,*

daraxtlar qaerda matali Axsi qo‘rg‘oni tasvirida beriladi. *Mahalloti qo‘rg‘ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur. «Deh kujovu daraxton kujo» masalini g‘olibo Axsi uchun aytibturlar.*

Bu matal turkcha matnda shunday ifodalanadi: *Mahalleleri kurgandan bir şer’iuzaktadır..... köy nerede, ağaçlar nerede darb-ı meselini, galiba, Ahsi için söylemişlerdir.* Ko‘rinadiki, bu o‘rinda matalning har bir so‘zi o‘zaro mos tarzda tarjima qilingan.

«Boburnoma” matnida *Ko‘zlarini tuz tutti* matali uchraydi. U «*xiyonat qildi», «nonko‘rlik qildi»* degan ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Bobur avvalroq o‘z xizmatida bo‘lgan Muhammad Do‘st ismli bek haqida gapirar ekan, o‘zidan keyin Ahmad Tanbalga xizmat qiganini, ungayam ko‘p yomonliklar qilib, keyin o‘zbak(Shayboniyxon) xizmatiga borganini aytadi. Ammo u yerdayam tinch yurolmay, ko‘p fitnalar qiladi:*(Muhammad Do‘st) Oxir o‘zbak iligiga tushti. Ko‘zlarini ko‘r qildilar. «Ko‘zlarini tuz tutti»ning ma'nisi bu emish [1.77-bet].* Bu matal turk tiliga aynan tarjima qilinadi:*Gözlerini «tüz tuttu» [5.83-bet].*

«Tavakkal qilib ish boshlash» ma'nosini beruvchi *gah yozdah beh, gah no‘h – goh o‘n bir yaxshi, goh to‘qqiz* matali Bobur jang uslubining bir qirrasini namoyon qiladi. U ba'zan ko‘p sonli dushmanga qarshi kam askari bilan qarshi chiqib, aksar hollarda g‘alaba qozongan. Bunday tavakkalchilik unga Samarqandni olishda va Ibrohim Lo‘diy bilan to‘qnashuvda foyda keltirgan. *Davlatxon ul qarilig‘i bila belig‘a ikki qilich bog‘labtur. Bular jazm urushurlar. Xotirg‘a kechtikim, ul masal borkim, «Gah yozdah beh, gah nuh». Chun bu ketmas, Lahurdag‘ilarni o‘zumizga qo‘shub-o‘q urushaling [1.186-bet].*

Demak, Davlatxonning 30-40 ming qo‘shiniga qarshi o‘zining 12ming lashkari bilan urushmoqchi. Bu matn turkcha tarjimada biroz boshqacharoq ifodalangan: *Devlet Han bu ihtiyarlığı ile, beline iki kılıç kuşatmıştır.Bunlar şiddetli vuruşacaklardır. – Bir darb-ı mesel vardır .....on dost dokuzdan evladır. Eldeki vasıtalardan hiç birini kaçırmamak için, Lahur’dakileri kendimize takıp sonra vuruşalım –diye düşündük [5.289-bet].*Bu yerda *gah yozdah beh gah nuh* matali *on dost dokuzdan evladır*, ya'ni «o‘n do‘st to‘qqizdan yaxshiroqdir» deb tarjima qilingan. Matal tarkibidagi goh-goh bog‘lovchisi tushib qolgan, *o‘n bir (yozdah)* so‘zi ham *o‘n (on)* tarzida tarjima qilingan. E'tiborlisi, bunday matal yoki maqol hozirgi turk tili maqollari lug‘atida ham topilmadi. Ko‘rinadiki, bu matal **tarkibni o‘zgartirib qilingan tarjimaga** kiradi.

Shayboniyxon so‘zi bu ekandurkim, Xojaning ishi mendin emas edi, Qanbarbiy va Ko‘pakbiy qildilar. Bu andin yomonroq. Masal borkim: «Uzrash batar az gunoh» [1.78-bet].

Shayboniyxonning qilmishlariga baho berish uchun qo‘llangan *uzrash batar az gunoh –uzri gunohidan yomonroq* matali ham turk tiliga biroz o‘zgarish bilan tarjima qilingan.

*Şıbanı Han, Hoca’nın öldürülmesi işinin kerdisinden olmadiğini ve katillerin Kanber Bı ile Köpak Bi olduğunu söylermiş. Bu ise daha kötüdür. Bir atalar sözü vardır ..... Özrü kabahatinden büyük.*Bu matn tarjimasida bir necha farq mavjud. Birinchidan, *Xojaning ishi – Hoca’nın öldürülmesi işi (Xojaning o‘ldirilganligi)* tarzida o‘zgartirilgan, ikkinchidan, o‘zbekcha matnda bo‘lmagan *katillerin –qotillarning* so‘zi qo‘shilgan. Albatta, bu qo‘shimcha kiritishlar matnni to‘g‘ri aniqroq tushuntirish uchun, ammo uchinchi, matal bilan bog‘liq farq haqida bunday deb bo‘lmaydi. Matal tarkibidagi, ya'ni asl matndagi *batar (yomonroq) so‘zi büyük(katta, yirik) so‘ziga o‘zgargan.* Turkcha matn tarjimasi quyidagicha:*Shayboniyxon Xojaning o‘ldirilishini o‘zidan emasligini va qotillarning Qanbarbiy va Ko‘pakbiylar ekanligini aytarmish. Bu esa yana yomonroq. Bir maqol bordir: uzri qabohatidan katta (tarjima bizniki – D.M.).* Bu tarjima orqali *Shayboniyxonning uzri oldida qabohati arzimas ish* degan ma'no kelib chiqadi.

«Boshqa xalqning maqol va matalini so‘zma-so‘z tarjima qilishda g‘oyat mohirlik va ehtiyotkorlik talab etiladi. Aks holda, boshqa xalqning milliy tafakkur taxlitini aynan aks ettiraman deb, maqolni quruq gapga, matalni esa suyuq birikmaga aylantirib qo‘yishi hyech gap emas»[3.245-*bet*]. Ayrim maqol va matallar, frazeologik birikmalar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z qimmatini yo‘qotadi, ular zamiridagi hikmat, milliy koloritga xos bo‘lgan turfa jihatlar, asosiy va ko‘chma ma'nolar tarjima tilida to‘la o‘z aksini topa olmaydi. Ammo biz tadqiq etayotgan manbalar tili bir til oilasiga, mushtarak an'analarga egaligi uchun milliy koloritga mos kelmagan o‘rinlar uchramaydi.

Aforizmlar «Boburnoma” matnidagi eng ko‘p qo‘llangan paremalar sirasiga kiradi. Ularning tarjima qilinish jarayonida ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritilgan.

Ba tundi sabuk dast burdan ba tig‘,

*Ba dandon g‘azad pushti dasti darig‘ [1.82-bet]*aforizmi Boburning shoshilib jangga kirib, afsuslanib qolganligi haqida. Bobur munajjimlarning *«sakkiz yulduz oraliqda, bugun urushsangiz g‘alaba siz tomonda»,*- degan gaplariga ishonib, shoshilib jangga kiradi, ammo yaxshi tayyor bo‘lmagan qo‘shin bilan Shayboniyxondan mag‘lubiyatga uchraydi. O‘zining achchiq sabog‘ini ana shu aforizm orqali bayon etadi.

Bu bayt bir necha manbada turli xil izohlangan. «Boburnoma”ning ilmiy-tanqidiy matnida *«engiltak achchig‘langanda tig‘ bilan qo‘lini kesar, so‘ngra qo‘li orqasini tishi bilan*

chaynar»[1.82-*bet*]tarzida izohlanadi, «Boburnoma” tabdilida esa *G‘azabdan xanjarga qo‘l cho‘zgan kishi, Afsus barmog‘ini tishlashdir ishi[2.81-bet]* deb she'riy shaklga solinadi. Turkcha matnda bu bayt *Hiddetli hemen elini kılıca uzatan, peşiman olarek, elinin arkasını ısırır [5.93-bet] –g‘azabli tezda qo‘lini qilichga uzatsa, pushaymonlik bilan qo‘lining orqasini tishlaydi* deb tarjima qilingan.

Asl matn	**Tanqidiy matn**	**Tabdil**	**Turkcha matn**
Tundi sabu	yengiltak	Kishi	***Hiddetli*** (g‘azabli)
Dast burdan	Qo‘lini kesadi	-	***Elini uzatan*** (qo‘lini uzatadi)
Tig‘	Tig‘	Xanjar	***Kılıc*** (qilich)
Ba dandon	Tishi bilan	-	-
Gazad	Chaynar	Tishlash	***ısırır*** (tishlaydi)
Pushti dasti	Qo‘li orqasi	Barmog‘i	***elinin arkası*** (qo‘lining orqasi)
Darig‘	-	Afsus	***peşiman olarek*** (pushaymonlik bilan)

Ko‘rinadiki, aforizm tanqidiy matnda so‘zma-so‘z tarjima qilingan, faqatgina *darig‘ – afsus* so‘zi aks etmay qolgan, tabdilda she'riy usulni saqlab, majoziy ma'nosinigina yoritish bilan cheklanilgan, ammo *tundi sabuk – kishi* deb, *tig‘* so‘zi *xanjar* deb, *pushti dasti (qo‘lining orti) – barmoq* deb o‘zgartirilgan, *ba dandon (tishi bilan)* so‘zi tushib qolgan. Turkcha matnda ham qator o‘zgarishlar mavjud, birinchidan, *dast burdan (qo‘lini kesadi)* birikmasi *elini uzatan (qo‘lini uzatgan*) tarzida o‘zgartiriladi, ikkinchidan, *tig‘* so‘zi *kılıc* (*qilich)*ga aylanadi, uchinchidan, *ba dandon* (*tishi bilan)* birligi tarjimada aks etmagan. Shuncha o‘zgarish bo‘lishiga qaramasdan, tarjimon Bobur aytmoqchi bo‘lgan majoziy ma'noni ifodalay olgan.

Bobur Husayn Boyqaroga ta'rif berar ekan, ahli oilasi haqida shunday deydi: *avval olg‘on xotuni Beka Sultonbegim edi. Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badi'uzzamon mirzo mundin tug‘ub edi. Ko‘p kajxulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko‘p og‘ritur edi. Kajxulqlig‘idin mirzo batang keldi, oxir qo‘ydi va xalos bo‘ldi, ne qilsun, haq mirzo jonibi edi.*

Zani bad dar saroyi mardi nako‘,

Ham dar in olam ast do‘zax o‘ [1.131-bet].

(Yaxshi kishi xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o‘zidayoq uning do‘zaxidir)

Bu aforizm turkcha matnda quyidagicha aks etgan:

*İyi bir erkeğin evinda kötü bir karısı olursa, o erkeğin cehennemi bu dünyada demektir [5.184-bet] – yaxshi bir erkakning uyida yomon xotini bo‘lsa, u erkakning jahannami bu dunyoda demakdir.*Ko‘rinadiki, bu aforizmning ma'nosi turkchaga hyech qanday o‘zgarishsiz, muvaffaqiyatli o‘girilgan.

Aksariyat hollarda tarjimon har bir maqol, matal yoki idiomaga, asarda tasvirlanayotgan voqyealar mazmuni, obyekt, milliy muhit va uslub xususiyatiga ko‘ra, o‘z tilidan muqobil yoki monand birikmalar topib qo‘yadi, yoki ularni so‘zma-so‘z tarjima qiladi. Shunga ko‘ra, ayni bir xil maqol yoki idiomani xam bir qancha o‘rinlarda, ma'noga qarab, har xil o‘girish mumkin. Binobarin, har qanday hollar uchun bab-baravar muvofiq keladigan tayyor retsept topish amri mahol[3.118-*bet*].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. – Toshkent, 2002.– B.82.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Hozirgi o‘zbek tiliga V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jaevalar tabdil qilishgan. – Toshkent, 2008. – B.81.
3. Salomov G‘.Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983. – B.118.
4. G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent, 2008. – B .4
5. Gazi Zahirüddin Muhammed Babür, Vekayi (Babür'un Hatıratı),I-II-cılt.– Ankara, 1987 –B.678.

“QUTADG‘U BILIG”DAGI DUNYO KEZGAN TURKIY SO‘ZLAR

Mushtariy XOLMURADOVA
ToshDO‘TAU “Til nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Annotation
Maqolada “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan turkiy so‘zlar tahlil qilingan. Turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida hamda turli tillarda qo‘llanishi haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: *turkiy so‘zlar, leksik-semantik xususiyatlar, hozirgi o‘zbek adabiy tili, munosabat, doston.*

Annotation
This article summarizes the Turkish words used in the “Kutadgu bilig”. In this article was analyzed lexical-semantic features Turkish words and their relation present. In modern uzbek and foreign language there is a discussion.
Key words: *Turkish words, lexical-semantic features, uzbek literary language, relation, poem.*

Pandnoma adabiyotining yorqin namunasi bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy til imkoniyatlari yoritilgan ilk badiiy dostondir. Asar matnida qo‘llangan so‘zlar bugungi kunda boshqa tillar leksikasida faol qo‘llanib kelmoqda.

“Qutadg‘u bilig” matnida shunday nodir turkiy so‘zlar mavjudki, ular ifodalaydigan tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liq.

Asar matnida keltirilgan **tamγa** so‘zi diplomatik aloqalarda faol qo‘llangan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida ikki xil ma'nodagi, ya'ni omonimik munosabatdagi *tamγa* so‘zi izohlangan: I. Shoh va boshqalarning tamg‘asi, muhri; II. Dengiz, ko‘l va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog‘i. Daryoda qayiq to‘xtaydigan joy ham *tamg‘a* deyiladi (DLT, I, 400).

“Qutadg‘u bilig”da *tamγa* so‘zi bilan bog‘liq tamγačï termini ham keltirilgan. **Tamγačï** alohida saroy lavozimlaridan biri bo‘lib, “tamg‘ani qo‘riqlovchi shaxs” ma'nosini anglatadi: *köni bolsa qïlqï bolur tamγačï* (DTS, 530). Eski o‘zbek adabiy tilida bu so‘zning o‘rnini *muhrdor* termini egallaydi. *Tamγa* turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutadi. *Tamγa* nafaqat davlat belgisi, balki ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liq muhim belgi sifatida ham ahamiyatga ega bo‘lgan. Chorvachilik bilan shug‘ullangan turkiy xalq vakillari hayvonlarni maxsus tamg‘alar (uy-ro‘zg‘or buyumlari, hayvonlar) shakli bilan muhrlashgan. Bu tamg‘alar urug‘-qabila nomlari sifatida qo‘llanib, etnonimlarga aylangan: *cho‘michli, tamg‘ali, qursoqli.*

Bu ma’lumotlar qadimdan turkiy xalqlarda devon xizmati faoliyat yuritganidan darak beradi. Keyinchalik bojxona ro‘yxatidan o‘tgan ashyolar ham tamg‘achilar tomonidan muhrlangan hamda boshqa tillarida saqlanib qolgan bojxona ma’nosini bildiruvchi “таможня” so‘zi shakllangan.

Tawar sof turkiy so‘z bo‘lib, bugungi kunda rus tilida faol qo‘llaniladi. “Narsa, buyum” ma’nosini beruvchi *näŋ* so‘zi ham tovar so‘ziga sinonim hisoblanadi. Qadim ajdodlarimiz tilidan keng ishlatilib, bir muddat iste’moldan deyarli chiqqan va yana davr taqozosi bilan hozirgi kundalik so‘zlashuv tilimizda juda faol qo‘llanilayotgan ushbu so‘zni tarixi uzun. Dunyo olimlari “ishlab chiqarish mahsuloti, mol-ashyo, sotiladigan narsa” ma’nosida rus va boshqa slavyan tillarida mavjud “yovar” so‘zining turkiy tildan o‘tganligini e’tirof etadilar. Xuddi shu mazmunda XlX asr oxiri−XX asr boshlarida tilimizga kirib kelgan “Tovar” so‘zi, garchi jonli so‘zlashuv tilimizda keng qo‘llanilsa−da, o‘zbek adabiy tilida uning o‘rnida arabchadan o‘zlashgan mol, mol−ashyo so‘zlari ishlatiladi. Xolbuki, bu so‘z o‘zbek shevalarida “gazlama” ma’nosida “tovar” so‘zi qo‘llanilishini uchratish mumkin. Aslida, bu so‘z Vll—Vlll asrlarda oid O‘rxun—Enasoy bitiktoshlarida “tabar”, eski o‘zbek−chig‘atoy turkiysida bitilgan asarlarida “tovar” ko‘rinishida uchrab, “mol−mulk, mol(chorva), shaxsiy buyum” ma’nolarini anglatgan. Qadimgi turkiy “tabmaq” (topmoq, ishlab topmoq, ega bo‘lmoq) fe’laridan shakllangan ushbu so‘z arab istilosidan so‘ng tilimizga o‘zlashgan “mol”, “mulk” so‘ziga o‘rnini deyarli bo‘shatib bergan bo‘lsa−da, ba’zi turkiy tillarda yashashda davom etdi va, shu bilan birga, boshqa tillarda, xususan, rus tilida o‘z ma’nosini saqlab qoldi.

Bugungi kunda rus tilida faol qo‘llaniluvchi sof turkiy so‘z *tawar* dostonda **näŋ-tawar** juft so‘zi shaklida ishlatilgan:

Čïγayqa ülädi öküš näŋ-tawar,

Köŋül tüzdi rabqa qamuγdïn saŋar.

Faqirlarga talay mol va tovar ulashdi,

Har jihatdan rabbga ko‘ngil bog‘ladi (QBN, 1757).

*Tawar*ni sifatlash uchun “qimmat” ma'nosidagi *ayïr* so‘zi, arzon m'nosidagi *učuz* so‘zi qo‘llangan.

Ingliz tili orqali dunyoning ko‘pgina tillarida o‘tgan, “qatiqning bir turi” ma’nosida ishlatiladigan bu yogurt so‘zi bundan qariyb ming yil avval “Qutadg‘u bilig” va “Devoni lug‘otit turk” asarlarida yoğurt va **yuğrut** shaklida “qatiq” yoki “suyuq qatiq” ma’nosida qayd etilgani diqqatga sazovor. Aslida, u qadimgi turkiy tildagi yoğurmaq “aralashtirmoq, qormoq,

qorishtirmoq” fe’lidan shakllangan. Agar “qatiq” so‘zining shakllanishini qadimgi turkiy tildagi qatmaq “aralashtirmoq, qo‘shmoq, qorishtirmoq” fe’lidan shakllangani nazarda tutilsa, yogurtning ham shunga yaqin so‘z yoki uning sinonimi sifatida yuzaga kelganiga amin bo‘lamiz.

Qïmïz süt ya yuŋ yaγ ya yuγrut qurut,

Yaδïm ya kiδiz ḥäm ezär ewkä tut.

Qimiz, sut yo yung, yog‘ yo suzma,

Qurut, namat yo kigiz hamda uyga tutiladigan pardalar (ularda bo‘ladi) (QBN, 4338).

Gõshtni kabob qilib, yupqaga solib tayyorlangan yegulik «lavash» deb ataladi. Manbalar «lavash» sõzini turkiy sôz deb kõrsatadilar. «Turkiy tillar etimologik luğati»da «L» harfi «lavash» sõzi bilan boshlanadi. Luğatda Yusuf Hos Xojibning «Qutadğu bilig» asarida dasturxon tuzash «livash tergi» deb ifodalangani ta'kidlab õtiladi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, «lavash» sõzi «lav» hamda «osh» sõzlaridan tarkib topgan. «Osh» hammamizga ma'lum. «Lav» yoki «liv» sõzlari haqida esa, turli xil farazlar aytib õtilgan. Jumladan, xitoy tilidagi «li» don ma'nosini, arab tilidagi «liv» ovqat ma'nosini, shuningdek, qurbonlik taomi va boshoqli ekinlardan tayyorlangan yegulik ma'nosini bildirishi mumkinligi taxmin qilingan. Aslinda lavash so‘zi Eski uyg‘urchaga xitoychadan kirib kelgan liv so‘zidir. Yemoq feli bilan birga kelgan. Liv so‘zi yana Qutadg‘u bilig asarida ham ikki joyda ovqat, ikki joyda esa liv aš (liv ash) «Ovqat patnisi» ma’nosida ham keladi. G. Clauson ham lav+ash (xitoycha+turkiy) so‘zini xitoycha li, liv so‘zidan olinganligini aytadi. Liv+ash keyinchalik lev+ash, so‘ngra esa lavash (lavaş) ko‘rinishida ishlatila boshlaydi. Demak, liv so‘zi turkiyga forschadan emas, aksincha eski xitoychadan o‘tgan so‘z ekan. Keyinchalik turkiylardan fors va arablarga yetib borgan.

Asar matnida kelgan **liv aš** so‘zi “lagan-dasturxon” ma'nosida kelgan. Qadimgi turkiy til” lug‘atida *liv* so‘zining “ovqat, taom” ma'nosi berilgan (DTS, 333). *Liv aš tergi kirsä körü ïδsa köz, jaraγsïznï körsä anï tïδsa öz*–Lagan-dasturxon keltirilganda kuzatib ko‘z yugurtirsa, yaramaydiganini ko‘rsa, uni to‘xtatsa (qaytarsa) (QBN, 2510).

Dostonda “kichik do‘koncha” ma'nosini bildiruvchi **kebit** leksemasi uchraydi. *Kebit keδ bezädim kiši körgüsi, asïγ joq kebitta satïγ belgüsi*–Do‘konni manzur bezaganim–bu odam(lar) ko‘rishigaginadir, (bu) do‘konda savdo belgisi (bo‘lmish) foyda yo‘q (QBN, 5000). “Devonu lug‘otit turk”da bu leksema “ichkilik do‘koni, mayxona” ma'nosida qo‘llangan (DLT, I, 338). *Jašïq boldï törtinč jarïttï* ajun, *jaqïšsa jarutur baqïšsa özün* –To‘rtinchisi Yashiq bo‘ldi, olamni yoritdi, u uzoqdan qarshi kelib kulib boqsa yoritadi (QBN, 130).

Ugoqïb tïŋlaju al kiši arbuzï/ Tinglab, uqib olgin, (ey) odamlarning befahmi (QBN 73b)

“Xazina, g‘azna” ma'nosini anglatgan **qaznaq** so‘zi ilk bor doston matnida qo‘llangan. *Telim arttï elda jaŋï känd ulus elig qaznaqï toldï altun kümüš* / Mamlakatda yangi shahar va qishloqlar soni ortdi, hukmdorning xazinasi oltin-kumushlarga to‘ldi (QBN, 439).

Shartli qisqartmalar:

ANATIL– Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I, II, III, IV жилдлар–Т.:Фан, 1985-1987.

DTS– Древнетюркский словарь.–Л., 1969.

DLT– Маҳмуд Кошғарий.Девону луғотит турк.(I,II,III жилдлар).–Т., 1963.

O‘TEL– Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар)–Т.: Университет, 2000; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2003; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва ула билан ҳосилалар). – Т.: Университет, 2009.

O‘TIL – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I, II, III, IV, V жилдлар– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

QBN– Каримов Қ. «Қутадғу билиг». Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф.–Т.:Фан,1972; Kutadgu bilig. B. Fergana Nüshası (Taşkent Davlat Şarkşünaslik Instituti Huzuridagi Abu Rayhan Beruniy namli Şark kolyazmalari merkezi 1809.nr).–Ankara, 2015.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Древнетюркский словарь.–Л.,1969.
2. Mahmud Koshg‘ariy.Devonu lug‘otit turk.(I,II,III jildlar).–T., 1963.
3. Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). –Istanbul, 1979.
4. Sodiqov Q.Turkiy til tarixi.–Toshkent, 2009.
5. Содиқов З. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг” асари олмонча ва инглизча таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. доктори....дисс.–Т.,2010.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. I,II,III,IV,V jildlar.–Toshkent: Jahon print, 2011.
7. Юсуф Хос Ҳожиб.Қутадғу билиг.Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов.–Тошкент: Фан,1972.
8. Zokirov M., Majidova R., Sultanova Sh.O‘zbekcha-ruscha-inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug‘ati. –Toshkent, 2016.

ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD” ASARIDAGI MUSIQIY ATAMALAR

Shoxnoza XO‘JANIYAZOVA
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya
Maqolada Alisher Navoiy tomonidan “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida qo‘llangan musiqa ilmiga oid atamalar tasniflab o‘rganilgan. Bunda mavjud musiqiy terminlarning etimologiyasi va ular anglatgan ma’nolarni izohlashga hamda Alisher Navoiyning bu boradagi mahoratiga e’tibor qaratilgan. Har bir mulohaza aniq misollar bilan dalillangan va manoqibdagi musiqiy istilohlar tadqiq qilingan.
Kalit so‘zlar*: maqom, kuy, hofiz, chalg‘uvchi, raqs, musiqiy asbob, Shashmaqom.*

Annotation
In this article, the music terms in the work of Alisher Navoi “Holoti Pahlavon Mukhammad are classified. Here we pay attention to the etimology of present musical terms, the expression of their meanings and Alisher Navai's skills in this sphere. Each comment is substantiated with concrete examples and the musical terms in the manokhib are learned.
Key words: *tune, music, singer, musician, dance, musical instrument, Shashmaqam.*

O‘z davrining taniqli tilshunos va adabiyotshunos olimi bo‘lgan, serqirra ijod sohibi Alisher Navoiy badiiy asarlari bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Navoiy yuksak mahorat va benazir iste’dod egasi. Adib manoqiblarini yozishda musiqa ilmi bilan bog‘liq istilohlardan mahorat bilan foydalangan. Insonga xos hissiy kechinmalar, fikr-tuyg‘ular, tasavvur doirasi musiqiy atamalar yordamida aks ettiriladi. Musiqa insonga ko‘tarinkilik, shodlik, g‘amginlik, zavqlanish va ko‘ngliga huzur bag‘ishlovchi san’atlardan biridir.

Manoqib qahramoni tavsifini musiqa nazariyasi va uning amaliy tomonlariga bog‘lab, bu darajada haroratli ta’riflash har qanday so‘z san’atkorining qo‘lidan keladigan ish emas. Bunday talqin har ikki sohadan mukammal xabardorlikni taqozo qiladiki, Alisher Navoiy shaxsida bir necha sohaning bilimdonligi uyg‘unlashgan edi [Hayitov, 2017: 92].

Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida o‘z davrining mashhur olimlaridan biri bo‘lgan, do‘sti, maslahatgo‘yi, suhbatdoshi Pahlavon Muhammad hayoti va ijodi haqida qiziqarli ma’lumotlar bergan. Pahlavon Muhammad musiqa ilmini puxta egallagan, yangi kuy va ohanglar yaratgan, musiqiy asboblardan maftunkor kuylar chalib, qo‘shiqlar kuylagan. Uning shirin, jozibali ovozi insonni o‘ziga jalb qilgan va tinglovchining musiqa ilmiga bo‘lgan qiziqishini orttirib, o‘rganishga undagan:

Ul jumladin advor va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo'b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg'ub. Ul daqiq fanda ko'shish va sa'y ko'rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar va g'azallar tasnif qilur erdi va xo'b aytur erdi. Andoqki, eshitgan xavoss va avom xushhol bo'lmoqda beixtiyor va o'rganmoqda beqaror erdilar (HPM, 18).

Adib asarda nafaqat Pahlavon Muhammad haqida balki, o'sha davrning yirik musiqashunos olimlari, shoir, bastakor, sozandalari Ustod Muhammad Xorazmiy, Mavlono Nu'mon, Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safoyi Samarqandiy, Xoja Yusuf Andijoniy va boshqalar haqida ham ma'lumotlar keltirgan:

Ul asrning bu fanda mohirlari misli: Ustod Muhammad Xorazmiy va Mavlono Nu'mon va Mavlono Sohib Balxiy va Shayx Safoyi Samarqandiy va Xoja Yusuf Andijoniydek kishilarning tasnifoti muqobalasida ishlar yasabdur va naqsh va so'fiya va amal va qavl va chorzablardek va chun o'zi alarning ko'pidan ham xushgo'yroq va ham xushxonroq ermish, ishlarining shuhrati ko'proq voqe' bo'lur emish (HPM, 18).

Navoiyning "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida musiqa ilmiga oid istilohlar quyidagicha:

Maqomot – "maqomlar", *maqom* – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "musiqada asosiy kuy, ohang" (NAL, 381-382), *shuabot* – a. "musiqadagi asosiy kuyning tarmoqlari" (NAL, 702), *chorzarb* – f-a. "o'zbek musiqiy kuyining nomi" (NAL, 683), *naqsh* – a. "kuy, ashula" (NAL, 456), *savt* – "ohang, kuy, maqom" (NAL, 539), *Saydi g'azzol*- "mumtoz musiqiy yo'llaridan biri", *Segoh*- "ohang, kuy; shashmaqom kuylaridan uchinchisi" (ANATIL, III, 69). Alisher Navoiy mazkur manoqibda leksik birliklardan sinonim, ayrim o'rinlarda esa farqli ma'nolarni ifodalashda foydalangan.

Maqom istilohi, *maqãm* (un) shakliga ega bo'lib (ARS, 668), o'zbek tiliga cho'ziq **ã** unlisini **â** unlisiga almashtirib qabul qilingan: *maqãm→maqâm (maqom);* asli ko'pma'noli ***qãma*** fe'lining "tashkil bo'ldi", "paydo bo'ldi" ma'nosi bilan (ARS, 666) hosil qilingan. I bob masdari bo'lib (ATG, 142), "kuy", "ohang", "o'yinga tushganda turli xatti-harakatlar" kabi ma'nolarni anglatadi (O'TIL, I, 456). Bu so'zdan o'zbek tilida maqomchi oti yasalgan, tojikcha *shash* (olti) so'zi bilan *Shashmaqom* qo'shma so'zi tuzilgan. [Раҳматуллаев, 2003:258].

Misiqashunos ilmida Shashmaqom, Xorazm va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari mavjud.

Xususan, Navoiy asarda bu borada shunday yozadi: "... *Bu amalda base maqomot va shuabote darj qilib erdikim, ta'rifdin mustag'nidur va asru dilpazir va bag'oyat benazir bog'lanib, yana ishlar ham misli: "qavl" va "g'azal" va "chorzarb"dek va "savt" va "naqsh" xud behaddu add bog'labdurki, xaloyiq arosida mashhurdurki, borchasin darj qililsa mujibi itnob bo'lur"*(HPM, 20).

"Naqsh" so'zi kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lib, birinchi ma'nosi "gul bosmoq, chizmoq", ikkinchi ma'nosi "kuy, ashula" ma'nolarini ifodalovchi shakldosh leksemadir. Yuqoridagi parchada *naqsh* istilohi "kuy, ashula" ma'nosida ifoda etilgan.

Amal yasab erdi va bozgo'yida bu ikki baytin bog'lab erdi va insof olamida bu ikki baytdek oz aytibdurki…(HPM, 20).

Ul daqiq fanda ko'shish va sa'y ko'rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar…(HPM, 18).

Birinchi gapda *amal* leksemasi "amal", ikkinchi gapda esa "kuy, ohang" ma'nosida ishlatilgan.

Sozanda – fors tilidan olingan bo'lib, "chalg'uvchi", "sozanda", xonanda – "ashulachi", "hofiz", "xonanda" ma'nolariga ega. Navoiiy "baxshilik, qo'shiqchilik" ma'nosini ifodalashda fors-tojik tilidan o'zlashgan *go'yanda* istilohiga murojaat qilgan (ANATIL, I, 435).

Hattokim, salotin zamonida ham yana o'n-o'n besh sozanda va go'yanda va xonandakim, ul silsila ahlidin hech qachon hech qaysig'a dast bergani ma'lum emas (HPM, 28).

Quyidagi parchada qayd etilgan *samo'* musiqiy istilohi arabcha so'z bo'lib, "ashula, musiqa", *raqs*- "o'yin, raqs" ma'nolariga ega (ANATIL, II, 613).

Ul dag'i borchasig'a loyiq xizmatlar qilib, suhbatlar tuzib, ne'matlar tortib, sozandalig' va go'yandalig' buyurub, samo' va raqs qilib, alarni xushhol va munbasit uzotur erdi (HPM, 24).

Advor – "musiqa asbobi, navo chalish" (ANATIL, I, 39) ma'nolariga ega bo'lib, manoqibda ushbu istiloh quyidagi holatda uchraydi:

Ul jumladin advor va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo'b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg'ub…(HPM, 18).

Xulosa qilib aytganda, Navoiy "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida musiqaga oid ko'plab istilohlarni qo'llagan. Har qanday asarning leksikasi, uning doirasi, istilohlari unda tasvirlanishi maqsad qilingan mavzu va obyektning xususiyatlari bilan aloqador bo'ladi. Xususan, Navoiy tasvir obyekti bo'lgan Pahlavon Muhammadning holoti – hayoti va ijodini jonli

va tushunarli qilib tasvirlashni maqsad qilgan. Pahlavon Muhammad faoliyatining muhim qirralaridan biri esa musiqa ilmi edi. Navoiy o‘z do‘stining musiqa ilmining yetuk olimlaridan biri ekanligi hamda uning hayot yo‘llarini keng yoritib berishda, tabiiyki, musiqa fanida hozirga qadar keng qo‘llanadigan va qo‘llanmaydigan atamalardan foydalanadi. Bu muallifga o‘z fikrlarini o‘quvchiga jonli tarzda yetkazib berish, tushunarliroq qilishga yordam bergan. Bundan tashqari, Navoiy manoqibida qo‘llanilgan musiqiy istilohlar orqali o‘sha davr o‘zbek tili leksikasining jozibadorligini, uning shakllanishida o‘z qatlam bilan birga arab va fors-tojik tillarining sezilarli ro‘li borligini ko‘rsatib bergan. Adib turkiy va forsiy tillar imkoniyatlarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan asoslab bergani bilan ham milliy tilshunosligimiz tarixida muhim o‘rin tutadi.

“MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA QAVM-QARINDOSHLIK LEKSIKASI

Surayyo ZIYOTOVA

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada badiiy matndagi qavm-qarindosh ma’noviy guruhini ifodalovchi terminlar leksik-semantik jihatdan tadqiq qilingan. Terminlarning badiiy asar tilida ma’no kengayish va ma’no torayish muammosi, qo‘llanilish pragmatikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *termin, leksema, semantika, pragmatika, etimologiya, dialekt, sheva, ma’no kengayish, ma’no torayish, sinonim.*

Annotation

In this article the terms of relationship which meaning in this group are analyzed through lexical-semantic aspect. Expansion and narrowness of the term’s meaning are learned as a problem in the literary text.

Key words: *term, lexeme, semantics, pragmatics, etymology, dialect, meaning expansion, narrowing of meaning, synonymy.*

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan buyon insoniyat o‘zini dunyoga keltirgan shaxslarni hamda o‘z atrofidagi insonlarni nomlash ehtiyoji paydo bo‘lgan. Natijada tilda qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq yirik leksik qatlam yuzaga keldi. Shu jihatdan mazkur leksik qatlam tilning eng qadimgi va dastlabki so‘z qatlamlaridan biri sanaladi. O‘zbek tilshunosligida dastlab B.O‘rinboyev qavm-qarindoshlik terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya’ni undov, murojaatni anglatuvchi so‘zlarning tadqiqi bilan shug‘ullangan. Tilshunos I.Ismoilov “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” asarida ushbu leksik qatlamni turkiy tillar – uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarni o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlari bilan qiyoslab, o‘rgangan hamda qavm-qarindoshlik terminlarining ma’no xususiyatlari keng yoritib bergan.

Ma’lumki, har qanday terminlar shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg‘un bo‘lmasin, zamon o‘tishi, jamiyatning o‘zgarishi, oila, nikoh va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik terminlarining ma’no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo‘ladi. Dastlab qavm-qarindosh terminini etimologik-lingvistik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, *qavm* so‘zi arab tilidan o‘zlashgan leksema bo‘lib, “xalq”, “millat”; “kishilar to‘dasi”, “guruhi” degan ma’noni bildiradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

1) bir avloddan tarqalgan, o‘zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘langan kishilar birlashmasi; urug‘, aymoq, qabila;
2) bir masjidda ibodat qiluvchi kishilar, bir masjidning namozxonlari va ularning har biri;
3) kishilarning ma’lum bir ish va boshqa jihatdan bo‘lgan birligi, guruhi; toifa. [O‘TIL V, 2006: 201]. Ushbu izohlardagi dastlabki sema qarindosh bilan bog‘liq bo‘lib, qavm – qarindosh leksik birligini shakllanishida asosiy ma’no-mazmunni beradi.

Qarindosh termini “tug‘ishgan kishi”, “bir ajdodga mansub kishilarning bir-birlariga nisbatan” degan mazmunni ifodalab, qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z “ovqat hazm qilish a’zosi” ma’nosini anglatuvchi *қарын* so‘zidan “birga” ma’nosini ifodalovchi *–даш* qo‘shimchasi bilan yasalgan. [DLT, 1960: 386] O‘zbek tilida birinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi *ä* unlisiga, uchinchi bo‘g‘indagi *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *ы* unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: *қарындаш* > *қäриндäш.* [O‘TEL I, 200: 527].

Jadid adabiyoti namunasi bo‘lgan A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari leksikasini tahlil qilar ekanmiz, qavm-qarindoshlik leksik qatlamini ifodalovchi terminlardan adib badiiy asarda unumli foydalangan: *ota, ona, dada, og‘a, ini, birodar, uka, opa, singil, er, xotin, mankuha, amma, xola, yazna, pochcha, domod, kuyov, kelin, kundosh, uy egasi,bola, farzand, qiz, o‘g‘il, o‘g‘lon va h.k.*

Ushbu badiiy asardagi qavm-qarindoshlik munosabatini bildiruvchi terminlarning kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga tasniflashimiz mumkin:

1. Qon-qarindoshlik terminlari – bir ota-onadan tug‘ilgan, bir avlodga mansub qoni bir qarindoshlar guruhidir: *ona, oyi, ota, dada, aka, uka, og‘a, ini, opa, singil, bola, farzand, o‘g‘il, o‘g‘lon, qiz, amma, xola.*

Ona so‘zi turkiy tillarda bola tug‘ib, katta qilgan, tarbiyalagan o‘z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini boqib, asrab olgan ayolga nisbatan berilgan va uni aniqlovchi termindir. V.V.Radlov o‘zining lug‘atida ona so‘zining butun bir turkiy tillardagi va shevalardagi *ana, ena, änä, enäi* kabi ko‘rinishlarda mavjudligini ta’kidlagan. O‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan ona varianti adabiy til uchun xizmat qilgani holda, o‘zbek tili sheva va dialektlarida *aba, acha, eba, aya, ena, opa, buvi, buv* – мать, мама; *енэ*- мать [Ismoilov, 1966: 64] so‘zlarining ona ma’nosini anglatadi. Qodiriy badiiy asarda *ona* leksemasidan faol foydalangan: *Marhuma* ***onasi****ning yodgorlari bo‘lg‘an bu uch bolani begonalar qo‘lida xor qilib qo‘yishni Nodira istamasa ham, erining faqirlig‘i bunga mone’ edi. Oyi* leksemasi esa asarda ona leksemasiga sinonim tarzida emas, balki hukmdor oilasi ayol vakilalariga murojaat shaklida keltirilgan: ***Oyi***

***xonim**ning baxt va obro‘lari ziyoda, shahzodamning umrlari uzun bo‘lsin.* Demak, xonlik davri ijtimoiy-siyosiy hayotida yuqori martabadagi ayollarga nisbatan oyi+xonim strukturasidagi murojaat shakl amalga oshirilgan. Hozirgi adabiy tilda ushbu leksema ma’no o‘zgarishiga uchrab ona semasini ifodalasa, ba’zi shevalarda buvi (Toshkent), kelinoyi (Jizzax) mazmuni bildiradi.

Ota, dada turkiy so‘z bo‘lib, bolasi bor, biror shaxsning bolasini asrab olgan shaxs(erkak)ga yoki o‘zidan katta yoshli odamga murojaat shakli sifatida aytiladigan termindir. Ushbu asarda *ota* va *dada* terminlari sinonim sifatida barobar ishlatilgan: *Abdurahmon yosh bola ekan, **otasi** o‘lib, onasi va **ota** tomonlari tarbiyasida qoldi; **Dadang**ning fe’li senga ma’lum, Ra’no. Dunyoda “manfaat”dan boshqani ko‘rmaydir.*

Aka, og‘a terminlari o‘zbek adabiy tilida sinonim leksemalar sanalsa-da, badiiy asarda *og‘a* – bir ota-onadan tug‘ilgan, qoni bir qarindoshni bildirsa, *aka* so‘zi, asosan, begona, o‘zidan katta kishiga nisbatan murojaat shakli sifatida keltirilgan. Qipchoq lahjasining ba’zi shevalarida dada, otaga nisbatan aka leksemasi qo‘llaniladi: ***Og‘angiz** bo‘lmishning yonidagi yigitlar bizning bu tarafning kishisiga o‘xshamaydirlar; Toyir **aka** maslahat so‘rag‘andek Sultonaliga qaradi. Uka, ini* terminlari semantik jihatdan bir-biridan farq qilmay, sinonim sifatida keltirilgan: *O‘zlaringga deyappan-ku, **inim** senlarga atab berdi; **Uka**laringni bola desam, sen ulardan ham oshib tushasan.*

O‘g‘il so‘zi tarixan ikki elementdan tarkib topgandir: *оғ* (*өғ* – мать// *ок-ғ* род, племя) + уменьшительный аффикс *–ул.* [Kononov, 1958: 175]. Qadimgi *өг* – ona termini qarindoshlik terminlarining bir qismini yasalishiga zamin bo‘lgan. [Ismoilov, 1966: 40] *Anvarning zakovatiga yolg‘iz men emas, marhum munshiy Muhammad Rajabning o‘zi ham tahsinlar, ajoyib **o‘g‘lon** deb qo‘yar edi. O‘g‘il/o‘g‘lon* – er jinsli farzand ma’nosini ifodalasa-da, o‘g‘lon leksemasida “jasur”, mard”, “qo‘rqmas”, “barkamollik” semalari mavjud.

2. Nikohdan keyin paydo bo‘ladigan qarindoshlik terminlari – qarindoshlik nikoh vositasida yuzaga keladigan qarindoshlar guruhi: *er, xotin, kelin, kuyov, domod, pochcha, yazna, kundosh, mankuha.*

Er – erkak jinsiga mansub kishi (erkak); xotin kishi bilan nikoh ahdida bo‘lgan erkak kishi (qalliq); mard, oliyjanob, jasur kishi [O‘TIL V, 2006: 45] semalarini ifodalaydi: *Avvalo **er**ining faqirlig‘i, boyigandan so‘ng bo‘lsa, uning zarbulmasal bo‘larliq xasisligi bechorani ko‘p yig‘latti.* Ushbu jumlada bu termin nikoh vositasi orqali bog‘langan qalliq ma’nosida ishlatilgan. *Er* so‘zi shaxsning jinsini ko‘rsatish uchun turkiy tillarda odatda kishi so‘zi bilan birgalikda keladi: Ichkari tarafdan xotin va **er kishi**ning so‘zlashkan tovushlari eshitilar edi.*

Xotin so‘zi turkiy tillarda nikohdan so‘ng paydo bo‘lgan qarindoshlik termini bo‘lib, ma’no jihatdan er va erkak terminining antonimi hisoblanadi. Xotin so‘zi turkiy tillarning yozma yodgorliklarida *qatun, qatun kisi, ҳatun* [Ismoilov, 1966: 107] ma’nolarida uchraydi. Qadimgi davrdan shakllangan ushbu termin etimologik jihatdan qo‘shma so‘zdir. U, asosan, ikki komponentdan *qat* va so‘z yasovchi affiks *–in, -un* dan tarkib topgan. Bu *qat* so‘zi qadimgi va hozirgi turkiy tillarda biror narsaning qati, qo‘shimchasi ma’nolarida ishlatiladi. Hozirgi adabiy tildagi ikkiqat leksemasi ham qat so‘zi negizida shakllangan xotin kishining og‘iroyoq ekanligini anglatadi.: *Darhaqiqat, er-u* ***xotin*** *oralarida o‘tkan ikki kalima so‘z shu oila gulshanida o‘skan Ra’noning istiqbolini ochiq belgilar edi.* Xotin termini, umuman ayol jinsiga mansub kishi semasini ham beradi: *Darvoza yonida banoras paranjilik bir* ***xotin*** *paydo bo‘lib, ichkariga parvosiz kira berdi.* Muallif xon davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitni, xon saroyini yoritishda o‘ziga xos leksemalardan ham foydalangan. Xususan, *mankuha* termini arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “nikohlangan”, “nikohdagi xotin”, “shar’iy xotin” [O‘TIL II, 2006: 538] degan mazmunni bildiradi: *Turkiston mamlakatining alhol amiri bo‘lg‘an Muhammadalixon volidining* ***mahkuhasi,*** *ya’ni volidai ayni va rizoisini o‘z aqdig‘a olibdir.* Demak, xotin va mankuha terminlari garchi bir mazmuniy semani ifodalasa-da, lekin pragmatik qo‘llanilishida o‘zaro farq qiladi.

Asarda o‘zaro sinonim bo‘lgan *kuyov* va *domod* terminlaridan barobar foydalanilgan: *Domlaning so‘z daromadiga qarag‘anda, sizni o‘ziga* ***kuyav*** *qilish fikri borg‘a o‘xshaydi; Mirzoni o‘zlariga* ***domod*** *qilasalar ham bo‘lar ekan.* Ushbu terminlar qizning eri (qizning ota-onasi, yaqinlariga nisbatan); endi uylanadigan, uylanayotgan yoki yangi uylangan yigit (o‘z qallig‘iga nisbatan) mazmunini ifodalaydi. *Kuyov* turkiy so‘z bo‘lib, bu terminning kelib chiqishi qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Qadimgi turkiy tildagi *kuda o‘g‘ul > kud o‘g‘ul* [qadimgi turkiyda *kuda* – sovchi, quda ma’nosida. *Kud o‘g‘ul* esa *quda o‘g‘il* ma’nosidadir. *Qud o‘g‘ul* birikmasi o‘zgarib *kuyov* shakliga kirgan] > *kuy o‘g‘ul* so‘zlari o‘zaro uzviy birikib *kuy o‘g‘ul >kuyog‘u (g‘>v) kuyovu >kuyov, kuyav* shakllarida qayta tizilgan [Qosimxo‘jayeva, 1963: 47]. *Domod* – fors tilidan olingan bo‘lib, kuyov, qalliq degan ma’noni bildiradi. [O‘TIL I, 2006: 643]. Shevada kuyov ma’nosida ishlatiladi.

Turkiy tillarda kichik yoshdagi yaqin va uzoq qarindoshlar tomonidan katta yoshdagi ayol qarindoshning eriga nisbatan *pochcha* termini qo‘llaniladi: *Anvar* ***pochcha****sining keying kunlardagi dag‘al muomalalari sababini o‘ylab xafalanib yurar edi.* O‘zbek shevalarida *jezda,*

jezna, yazna kabi variantlari ham mavjud: ***Yazna****m qashshoq kosib edi*. Asarda terminning ikkala varianti ham semantik va pragmatik jihatdan sinonim sifatida ishlatilgan.

Xulosa qilib shuki aytishimiz mumkinki, Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida turkiy tillardagi qavm-qarindosh terminlari bilan bir qatorda asar voqealari, xonlik davri, ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishda arab, fors-tojik tillaridan o‘zlashgan qavm-qarindosh terminlaridan unumli foydalangan. Ushbu terminlar ba’zi o‘rinlarda sinonim sifatida qo‘llangan bo‘lsa, ba’zilari qo‘llanilish doirasi semantik, pragmatik jihatdan bugungi adabiy tildan farqlanib, ma’no torayishiga uchragan.

Shartli qisqartmalar:

DTL – Кошғарий М. Девони луғати турк. – Т., 1960

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I, II, V томлар.

O‘TEL – Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. I том.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Т.: Фан, 1966.
2. Кононов А.Н. К этимологии слово оғул – сын, “Филология и история монголських народов. Памяти акад. Б.Я.Владимирцова”, М., 1958.
3. Кошғарий М. Девони луғати турк. – Т., 1960
4. Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Т.: Ғафур Ғулом, 2018.
5. Қосимхўжаева О. Сўзнинг морфологик таркиби. – Т., 1963.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. I том.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I, II, V томлар.

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA O‘ZBEK TILINING TARAQQIY ETAYOTGAN QIYOFASI

Rafiqjon ZARIPOV

ToshDO‘TAU tayanch doktranti

Annotatsiya

Tadqiqotda olamning lisoniy manzarasi, svilizatsiyaning tillarga ta’siri, globallashuv sharoitida tillarga bo‘lgan munosabat, til tadqiqiga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar, o‘zbek tilining dunyo lisoniy manzarasida tutgan o‘rni, o‘zbek tilining taraqqiyot yo‘llari, til siyosatining yangicha modellari, o‘zbek tilining XXI asrdagi qiyofasi kabi jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, rasmiy til, til siyosati, lingvistik holat, globallashuv, olamning lisoniy manzarasi.*

Annotation

The linguistic view of the world in research, the impact of civilization on languages, the attitude to languages in the context of globalization, modern approaches to language research, the role of the Uzbek language in the world linguistic landscape, ways of development of the Uzbek language, new models of language policy, the image of the Uzbek language in the XXI century.

Keywords: *communication, official language, language policy, linguistic situation, globalization, linguistic landscape of the world.*

Insoniyat taraqqiy etib borgan sari turli muammolar ham ko‘payib, ularni bartaraf etish qiyinlashib boradi. Muammolarning qamroviga ko‘ra ularning hal bo‘lish darajasi belgilanadi. Hozirda lokal, global masalalarda turli jamiyatlarda bahslar mavjud. Bular esa o‘z navbatida ko‘plab kommunikatsiyalarni yo‘lga qo‘yish, turli munosabatlarga kirishish orqali bartaraf etilishi yoki bir to‘xtamga kelinishi mumkin. Umuman, bir insonning ikkinchi kishi bilan muloqot qilishi, aloqalar o‘rnatishidan tortib, mamlakatlarning o‘zaro munosabatlarga kirishuvida rasmiy tan olingan tilllar muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda yer sharida 7.5 milliard kishi istiqomat qiladi. Bular turli hududlarda yashab, har xil tillarda muloqot qiladilar. Ayni vaqtda dunyoda yetti mingga yaqin tillar borligi tadqiqotlarda keltirilgan. Insoniyat ushbu tillardan faqatgina 50 dan ziyodrog‘ida faol so‘zlashadi. Qolganlaridan esa ma’lum hududdagi kichik etnik guruhlar, jamoalar foydalanadilar. YuNeSKO xalqaro tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra hozirda dunyoda 6912 ta tirik tillar mavjud, ammo ularning katta qismi yo‘qolish arafasida. Shu davrga qadar 516 til

dunyo tillari qatoridan yo‘q bo‘lib ketgan. Shuningdek, 2500 dan ortiq tillar yo‘q bo‘lish xavfi ostida turgan tillar sanaladi[4]. Jahonda 200 dan ziyod mamlakatlar bo‘lsa, ularning ko‘pchiligida bir necha tildan foydalanuvchi kishilar istiqomat qiladi.

XXI asrda dunyoning ijtimoiy-kommunikativ voqeligida tillarning mavqeini o‘rganish, zamonaviy sivilizatsiya tendensiyalari tarkibini hisobga olgan holda diskursiv amaliyotlar va lingvistik hodisalarning ijtimoiy-gumanitar tomonini tahlil qilish dolzarb masalalar sirasida e’tirof etila boshlandi. Zamonaviy globallashgan dunyoda til hodisalarini ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va ular bilan hamohang ravishda yuzaga keladigan muammolar bilan birga o‘rganish ko‘p jihatdan turli munosabatlarni o‘rnatish, til va kommunikatsion xususiyatlarni belgilashga yordam beradi.

Tillar taraqqiyoti haqida so‘z borar ekan, dunyoda tillarni real vaziyatda tadqiq etish va ularning holati haqida xulosalar berishda sotsiolingvistik izlanishlarni ko‘paytirish va amaliy tadqiqotlarga keng e’tibor qaratish lozim. Til holati - bu ma'lum bir geografik mintaqalar yoki ma'muriy subyektlar chegaralarida bitta tilning yoki bir nechta tilning mavjud bo‘lishi va turli shakllarining tarqalishi[1. 266]. Ma’lum bir tilning globalizatsiya jarayonida qay yo‘sinda taraqqiy etayotganligini aniqlash uchun ushbu tilda so‘zlashuvchilarning nutqiy faoliyatlari hamda zamonaviy o‘zgarishlarning millatning tafakkuriga ta’siri va bu o‘zgarishlar jarayonining tilda aks etishi masalalarini aniqlash til tadqiqada iilmiy o‘zgarishlarga yo‘l ochadi. Bu jarayon esa yangicha yondashuv, ko‘nikma va malakani talab qilladi.

Har bir davlat o‘z hududida til holatining xususiyatlariga mos keladigan, tillarning ishlashi va rivojlanishining o‘ziga xos modeliga ega bo‘lishi kerak. Ma’lum bir tilning rasmiy maqomga ega bo‘lishi uning nufuzini oshiradi. Shu jihatdan ham davlatlar vujudga kelgach, o‘z tiliga rasmiy til maqomini beradi va shu tilda davlat siyosati, ishlari olib boriladi. Jahonda yetti mingga yaqin tillar borligi aytilsada, ko‘pincha dunyo lingvistik xaritalari tuzilganda faqatgina ma’lum bir davlatdagi rasmiy til maqomiga ega bo‘lgan tillar qamrab olinadi. Mamlakat doirasidagi tadqiqotlarda ushbu davlatdagi mavjud tillar statistikasi keltiriladi, ammo aksariyat hollarda lingvistik xaritalarda aniq ifodalanmaydi. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, hozirgi kunda dunyodagi mavjud barcha tillarning holati to‘liq tadqiq etilmagan. Buni amalga oshirish dunyo lisoniy qiyofasini to‘la aks ettirish uchun imkon beradi. O‘z rasmiy tiliga ega bo‘lgan davlatlar esa ona tilini nufuzini oshirish, rivojlantirish yo‘lida turli harakatlarni olib boradilar, til siyosatini yuritadilar.

Dunyo davlatlari til siyosati borasida o‘zining alohida modellariga ega. Ko‘p millatli mamlakatlarda olib boriladigan til siyosati yanada murakkab til taraqqiyoti modellarini ishlab chiqishni va hayotga tatbiq etishni talab qiladi. Bu borada ko‘p millatlar istiqomat qiluvchi O‘zbekistondagi lingvistik holat va mamlakatda o‘zbek tilining roli hamda boshqa tillarga bo‘lgan e’tibor alohida ahamiyatlidir

Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab amaliy harakatlar olib borilmoqda. Uning nufuzini yuksaltirish maqsadida hukumat tomonidan qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. O‘zbek tilining ilmiy tadqiqi borasida ham ko‘plab izlanishlar olib borilayotganligi tilning yanada yuksalishi uchun xizmat qilmoqda.

Olamning lisoniy manzarasida o‘zbek tilining taraqqiy etayotgan qiyofasiga nazar solsak, O‘zbek tili jahon aholisining 0.7% ni so‘zlashuv tili hisoblanadi. Hozirda ushbu tilda 50 millionga yaqin kishi muloqot qiladi. Jahonda yetti mingta til mavjud bo‘lsa, ularning atigi bir foizidan dunyo aholisi faol foydalanadi. Qolganlari kichik millatlar, turli etnik guruhlarga tegishli tillar hisoblanib, ular faqatgina ma’lum qamrovda qo‘llanadi. O‘zbek tili ana shu 1% ning orasida ekanligi quvonarlidir. O‘zbek tili dunyoda mavjud sanoqli rasmiy davlat tillaridan biridir. O‘zbekistonning 80% aholisi o‘zbek tilini ona tili deb bilsa, mamlakat tashqarisida, O‘rta Osiyo davlatlari hududida hamda jahonning turli mintaqalarida ushbu tilda muloqot qiluvchi ko‘plab etnik guruhlar istiqomat qiladi. Shuningdek, o‘zbek tili Afg‘onistonning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatdagi sakkizta viloyat: Balx, Faryob, Juzjon, Bag‘lon, Tahor, Samangon, Saripul va Qunduz hududlari aholisining katta qismini o‘zbeklar tashkil qiladi. Qayd etish joizki, ushbu mamlakatda yashovchi o‘zbeklar O‘zbekiston hududidan tashqaridagi o‘zbeklar eng ko‘p istiqomat qiluvchi qismidir.

O‘zbek tili Yaponiyaning 8, Turkiyaning 10 dan ziyod, Amerikaning 8, Germaniyaning 4, Janubiy Koreyaning 2, Xitoy Millatlar universiteti, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Hindiston, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilmoqda. Jumladan: Tojikistonda ta’lim jarayoni o‘zbek tilida olib borilayotgan maktablar soni 272 ta, tojik va o‘zbek tillarida faoliyat yuritadigan umumta’lim muassasalari 597 tani tashkil etmoqda. Shuningdek, tojik-o‘zbek-rus, tojik-o‘zbek-qirg‘iz va tojik-o‘zbek-turkman tillaridagi maktablar mavjud. Bundan tashqari Tojikiston Respublikasi oliygohlarida o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti hamda bo‘limlarining faoliyat yuritayotgani, o‘zbek tilidagi o‘nlab gazeta-

jurnallar, teleradio dasturlarning efirga uzatilayotgani tojikistonlik o‘zbeklar uchun o‘z ona tilidan erkin foydalanish borasida yaratib berilgan imkoniyatdir[3]. Afg‘onistonning Balx, Faryob, Juzjon, Bag‘lon, Tahor, Saripul hududlaridagi oliy ta'lim muassasalarida filologiya fakultetlari qoshida tashkil etilgan o‘zbek tili va adabiyoti kafedralarida, o‘zbek tili tadqiqi borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi va o‘zbek tilidan afg‘on yoshlari, ushbu mamlakatda yashovchi o‘zbek millati farzandlariga ta’lim beriladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra qo‘shni Tojikiston aholisining 13, Qirg‘izistonning 15, Qozog‘istonning 4, Turkmanistonning 6 foiz aholisi o‘zbek tilida gaplashadi[2]. Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan mamlakatlar bilan birga Eron, Shvesiya, Latviya, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Saudiya arabistoni singari mamlakatlarda ham o‘n minglab millatdoshlarimiz yashaydi.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, XXI asrda o‘zbek tilining zamonaviy rivojlanish modellari yaratilib, taraqqiyot yo‘llari belgilandi. Mamlakatimizda shakllangan yangicha til siyosati o‘zbek tilining dunyo lisoniy manzarasida o‘z qiyofasiga ega bo‘lishini ta’minlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь социолингвистических терминов / Отв. ред. Михальченко В. Ю. - М., 2006. - 266 с.
2. http://uza.uz/uz/society/o-zbek-tilining-mavqei-o-z-qo-limizda-14-10-2019
3. http://uza.uz/uz/society/tojikistonda-o-zbek-tili-bayrami-nishonlandi-22-10-2019?sphrase_id=17973405
4. http://www.unesco.org/culture/en/endangeredlanguages & http://www.unesco.org/culture/languages-atlas

ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDA KELTIRILGAN TURKIY TILGA XOS BO‘LGAN SO‘ZLAR (LAKUNALAR) TADQIQI

Durdona BULTAKOVA
ToshSO‘TAU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning boyligini, leksik tarkibiningjozibadorligini ko‘rsatish maqsadida keltirilgan faqat turkiy tilga xos, o‘ziga xos ma’no nozikligiga ega bo‘lgan, ammo forsiy tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlarning (lakunalar) lug‘aviy ma’nosi, leksik-semantik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Asarda keltirilgan bunday so‘zlar turkiy tilning lingvokulturologik jihatdan o‘ziga xos ekanligi, turkiy tilning borliqdagi tushunchalarni qay darajada namoyon qila olish jihatlarini ko‘rsata oladi.

Kalit so‘zlar: *lakunalar, leksik-semantik xususiyat, lingvokulturologik aspekt, ma’no attenkalari, madaniy makon lakunalari.*

Annotation

In this article denotative meaning and lexico-semmantic peculiarities of some words in the book of “Mukhomat ul-lughatayn” (“Comparison of two languages”), written by Alisher Navoi, are studied. These are the words can be seen only in the Turkic language but not in Tajik. They are called “lakuna” and express lexical riches and beauty of the Turkic language. Such words can widely convey linguo-cultural ubiquities of words and also how well ides can be expressed in The Turkic language.

Key terms: *lakuna, lexico-semantic peculiarity, linguo-cultural aspect, semantic subtleties, cultural “lakunas”.*

Alisher Navoiy butun umrini turkiy tilni yuksaltirish, uning boy imkoniyatlarini namoyon qilish, bu tilning hech qaysi bir tildan ortiq bo‘lsa ortiqki, kam emasligini ko‘rsatishga baxshida qilgan buyuk ijodkor, butun turkiy dunyoning tengsiz olimidir. Navoiy nafaqat badiiy ijod namunalari, qolaversa, maxsus tilshunoslik yo‘nalishida asarlar yozgan. Xususan, uning maxsus shu yo‘nalishda yozilgan “Muhokamat-ul lug‘atayn” asari 1499-yilda yozib tugatilgan. Asarning bosh mavzusi turkiy tilning lug‘aviy boyligini, uning nafosatini, jozibadorligini ko‘rsatish va mavqeyi yuksak bo‘lgan ikki til: arab va fors tillari bilan qiyoslab, ularni kamsitmagan holda turkiy tilning ham ulardan kam emasligini isbotlab berishdir. Asarda turkiy va forsiy tilni bir-biriga solishtirib, turkiyda mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning forsiyda muqobili yo‘q ekanligi, ya’ni tushuncha bor, ammo so‘z yo‘q ekanligi haqida yozadi. Lingvomadaniyatlarni o‘rganishda lakuna tushunchasi farqlanadi. “O.A. Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlardir. Olima *lakuna* terminini qo‘llashni ma’qul ko‘radi va uni so‘z birikmasi emas, konnotatsiyadan holi bo‘lgan qisqa so‘z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisani farqlilik darajasi xususida so‘z yuritish mumkin bo‘lgani uchun unga nisbatan muqobilsiz terminini qo‘llashning o‘rinsiz ekanligini qayd qiladi. Lakuna

qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo‘lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so‘zlar va so‘z birikmalaridir”[1, 82]. Ko‘pchilik olimlar lakuna tushunchasini “bo‘shliq” deya ta’riflaydi. Ikki xalq o‘rtasidagi turli farqlar, xususan, maishiy, ijtimoiy, psixologik tafovutlar lingvokulturogik tadqiqotda yaqqol namoyon bo‘ladi va bu lingvokultorolik farqlar lakunalarni keltirib chiqaradi. Navoiy turkiy va forsiy tillarni qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, ularning leksik tarkibida ham sezilarli farqlarni topadi. Xususan, turkiy tilda shunday so‘zlar borki, ularni forsiy tilda muqobili yo‘q, ya’ni tushuncha bor, ammo o‘sha tushunchani ifodalovchi leksema yo‘q.

Lakunalar ikki tilni bir-biriga qiyoslab ko‘rganimizda yaqqol seziladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilni forsiy til bilan qiyoslash jarayonida ayrim madaniy makon lakunalarini ta’kidlab ularning alohida leksik-semantik xususiyatlarini sanab o‘tadi. Madaniy makondagi lakunalar u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining madaniy makon va ichki ko‘rinishni baholashdagi nomutanosibligini ifodalaydi. “Muloqot jarayoni keng ma’noda olinganda *madaniy makondagilakunalar*, tor kommunikativ akt miqyosida olinganda *ichki ko‘rinish lakunalari* deb yuritiladi. Madaniy makon deganda har qanday madaniyat tashuvchisini o‘rab olgan muhitning cheksizligi tushuniladi” [2, 82]. Avvalombor, asarda faqat turkiy tilga xos bo‘lgan 100 ta fe’l keltirilgan, vaholanki, bu fe’llarni forsiy tilda ifodalab bera oluvchi muqobil leksema mavjud emas. “Andoqki, quvormoq, quruqshamoq va usharmoq, jiyjaymoq va o‘ngdaymoq, chekrimak va do‘msaymoq va umunmoq, o‘sanmoq, itirmak, egarmak va o‘xranmak va toriqmoq va aldamoq va arg‘adamak va ishkastmak, iglanmak va aylanmoq va erikmak va igranmak va ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo‘zg‘almoq va sovrulmoq va chayqalmoq va devdashimoq va qiymanmoq va qizg‘anmoq va nikamak va siylanmoq va tanlamoq va qimirdamoq va serpmak va sirmamak va ganorgamak, sig‘riqmoq va sig‘inmoq va qilimoq va yolinmoq va munglamoq, nmoq va indamak va tergamak va tevramak va qingg‘aymoq va shig‘aldamak va singramak va yashqamoq va isqarmoq va ko‘ngranmak, suxranmoq va siypamoq, qoralamoq va surkanmoq va kuymanmoq va intramoq va tushalmoq va mung‘aymoq va tanchiqamoq va tanchiqolmoq, ko‘ruksamoq va bushurg‘anmoq va bo‘xsamoq va kirkinmoq va sukadamak, bo‘smoq, burmoq, turmoq, tomshimoq, qahamoq, siproqmoq, chicharkamak, jurkanmak, o‘rtanmak, sizg‘urmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirg‘amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalatmak, kumurmak, bikirmak, ko‘ngurlamak, kinarkamak, kezarmak, do‘ptulmoq, chidamoq, tuzmoq, qazg‘anmoq, qichig‘lamoq, gantiramak, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko‘ndurmak, so‘ndurmak, suqlatmoq” [2, 4]. Til xalqning tafakkuri, har qanday hodisaga munosabatini ni qay darajada namoyon qila olishi uning leksik tarkibida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy xalqlarning tafakkuri yuksak, borliqdagi har qanday tushunchani anglab, uni butun fasohati bilan aks ettira olishini yuqoridagi so‘zlar isbotlab turibdi. Navoiy sanagan 100 ta fe’lning aksariyati ruhiy holat fe’llaridir.Navoiy asarlari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan qator izlanishlarda, xususan, Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atlarida bu 100 ta fe’lning lug‘aviy ma’nosi to‘la izohlangan. Ularning orasida ayrimlarini misol keltirmiz. Xususan, Singurmak – qayg‘urmoq; g‘amni ichiga yutmoq, nola qilmoq, tanchiqamoq – hayron qoldirmoq, hayratga solmoq, bushurg‘anmoq- g‘azablanmoq, achchig‘lanmoq, bo‘xsamoq- ezilmoq, g‘azablanmoq, qiynalmoq, siylanmoq – siylanmoq, hurmatlanmoq, singramak – sekin ohista yig‘lamoq, sizg‘urmak – kuymoq, o‘rtamoq,

usharmak- qisqartirmoq, parchalamoq, buzmoq; mansabini pasaytirmoq, chiqanmak- qadamoq, o‘ngdaymoq – yo‘nalmoq kabilar. “Bu yuz lafzdurki, g‘arib maqosid adosinda tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurki, muhtajun ilahyidurki, takallum chog‘ida kishi anga muhtoj bo‘lur. Ko‘pi andoqdurki, aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo‘lmas va ba’ziniki, anglatsa bo‘lg‘ay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag‘uncha bo‘lmas, ul dag‘i arabiy alfoz birla”.Bu 100 ta fe’l turkiy til insonning har qanday ruhiy holatini, kechinmalarini, sezimlarini, xullas, har qanday hissiy-emotsionallikni, qolaversa, turli jismoniy harakatlarini ham tilning leksik tarkibida ifodalab bera olishining yorqin dalilidir.

Shuningdek, turkiy tilda “tikon” ma’nosini ifodalash uchun “cho‘kur” so‘zi ishlatiladi. “Alisher Navoiy asarlarining uchun qisqacha izohli lug‘ati”da “cho‘kur” so‘zi katta tikon deya ta’riflanadi. Navoiy cho‘kur so‘zi turkiy tilga xos deya ta’riflaydi. Forsiy tilda ishlatiladigan “xor” so‘ziga nisbatan cho‘kur oshiqqa ko‘proq alamli, achchiq botishini ta’kidlab, afsuski, forsiylarning bu ma’noni bilishdan mahrum ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni bu lakunani anglatuvchi tushuncha forsiy tilda mavjud, biroq shu ma’nodan ogoh etuvchi so‘z yo‘q.

Mumtoz adabiyotimizda yorning jamolini tasvirlashda ko‘p bora maqtaluvchi inson a’zolari bo‘lgan qabog‘va meng kabi so‘zlarning muqobili forsiy til leksikasida mavjud emas.

Asarda turkiy tilda qarindoshlik ma’nosini bildiruvchi otlar ham keltirib, qarindoshlik munosabatining nimalarga ko‘ra va ayrim xususiylikka ega bo‘lishiga muvofiq tarzda ularni ifodalovchi so‘zlar ham farqlanishi aytiladi. Misol uchun bizda shaxs otlariga mansub bo‘lgan qarindoshlik munosabatini ifodalovchi so‘zlar o‘zaro yosh, jins ma’no attenkalaridan ham farqlanib turadi.

1. Turkiy tilda qarindoshlik munosabatini ifodalovchi shaxs otlari ifodalanayotgan shaxsningyoshi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim xususiyatlarni ham namoyon qila olishini quyidagi misol bilan dalillash mumkin: asarda turkiylar katta, ulug‘qarindoshni “og‘a”, kichik qarindoshni esa “ini” deb ataydi. Forsiy tilda esa har ikkisini uchun “birodar” so‘zi qo‘llaniladi. Shuningdek, ulug‘ayol qarindoshni “egachi”, kichik ayol qarindoshni “singil” deb ataydi. Ammo forsiy tilda bu ikki tushunchani ifodalash uchun “xoxar” so‘zidan foydalaniladi. Ikki tilda mavjud bo‘lgan shaxs otlarini qiyoslash natijasida Navoiy turkiy tilda mavjud bo‘lgan so‘z konkret ma’no va xususiyatni muayyanlashtira olishi ko‘zga tashlanadi, demak, bu so‘zlarning ham forsiy tilde ifodalab beruvchi muqobili yo‘q, forsiy tilda buni ifodalamoqchi bo‘lsak muayyanlashtirilgan ma’nosi yo‘qolib qoladi, ya’ni forsiy tilda bo‘shliq (lakuna) hosil qiladi.

2. Turkiy tilda so‘zlar ifodalayotgan tushunchasining jinsini ham bildirib, ma’lum ma’noda turkiy tilda jins kategoriyasi ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, asarda aytilishicha, turkiy tilda kiyikning erkagi “xuna” deyiladi, ayoli “qilchoqcha” deb yuritiladi. Suyqunning erkagini “bug‘u”, ayoli esa “maral” deyiladi. Forslar buni faqat ohu va gavazn deb yuritadi. E’tiborli tomoni shundaki, forsiy tilning lug‘aviy boyligida jins kategoriyasi jihatidan farqlanishi kerak bo‘lgan ayrim so‘zlarda shu jihatning bo‘shliq hosil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Turkiy tilda hambarcha leksemalar jins bildirish xususiyatiga ega emas, ammo tushunchalarni yanada muayyanlashtirish, xususiyatini to‘la ochish uchun ayrim so‘zlarning lug‘aviy attenkalarida jins attenkasi ham mavjud ekanligi asarda keltirilgan misollar vositasida yanada aniqroq ko‘rinadi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning qator afzalliklari, ayrim leksik-semantik xususiyatlari sanab o‘tiladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy tilning tadqiqi borasida noyob manbaa, Navoiyning ilmiy tafakkuri yuksak ekanligi, ma’lum ma’noda turkiy tilning go‘zalligini, jozibasini, qator lingvistik xususiyatlarini ochib bera olganligini ko‘rishimiz mumkin. Asarning qiymatini birgina forsiy tilda lakuna hosil qilgan faqat turkiy tilga xos so‘zlarni shu daraja aniqlik bilan ko‘rsata olganligi bilan dalillash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova Z.N.. “Tarjimaning lingvomadaniy masalalari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. -Toshkent, 2017.
2. Alisher Navoiy .Muhokamat ul-lug‘atayn. www.ziyouz.com. Kutubxonasi.

SHEVA – TILNI OZIQLANTIRUVCHI ILDIZDIR

Feruza SODIQOVA
O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya
Maqolada o‘zbek tili shevalarining tildagi ahamiyati aks ettirilgan. O‘zbek tili shevalarining milliy til rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Shevalar tilni rivojlantiruvchi omil ekanligi aytib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *sheva, dialekt, milliy til, lahja, qipchoq, qarluq, o‘g‘uz lahjasi.*

Annotation
The article highlights the importance of Uzbek dialects in the language. The contribution of Uzbek dialects to the development of the national language is analyzed. Dialects is said to be a factor in language development.
Key words: *dialect, national language, kipchak, qarluq, oghuz.*

O‘zbek xalqining so‘z boyligi uning o‘tmishi va hozirgi kuni, butun imkoniyatlarini o‘zida mujassamlantiradi. O‘zbek shevalari milliy til rivoji uchun oziqlantiruvchi ildiz vazifasini o‘taydi.

2019-yil 21-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi farmoni e’lon qilindi. Farmon matnida bir qator chet so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini topish, turkiy so‘zlarni faollashtirish masalasi alohida ta’kidlangan Shevalarni o‘rganish, shevalardagi so‘z boyligini ommalashtirish shu jihatdan ham dolzarbdir.

O‘zbek xalqi til jihatidan uchta yirik: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan tashkil topgan. Mazkur shevalarimizdagi so‘zlarni yig‘ib, lug‘at tuzib asramasak, bir kun kelib yo‘qolib ketishi mumkin. Bu haqida tadqiqotchi N. Shoyimova quyidagi fikrlarni bildiradi:

«Shevalar vakillari nutqida qo‘llanayotgan turfa lisoniy boylik to‘planib, saralanib lug‘at tarzida shakllantirilmasa, ular vaqt o‘tishi bilan eskirishi, iste’moldan chiqishi, natijada ma’naviy va moddiy madaniyatning ajralmas bir qismi izsiz yo‘qolib ketishi aniq”. [Shoimova, 2008; 202-204-bet].

Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» asarida qayd etilgan ko‘pgina so‘zlarimizning hozir ham tilimizda ishlatilishda davom etayotganligi shevalarni tilning

oziqlantiruvchi manba sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk»ida yig'ilgan so'zlarning ko'plari hozirgi adabiy tilida faol qo'llanadi: *qatlama* (yog'da pishirilgan qat-qat non), *supurgi*.

«Devoni lug'otit turk»dagi bir qator so'zlar o'zbek shevalarida saqlanib qolgan: qor - *ko'nargi, uyutqi,* ba'zi hududlarda: *qor*.

Mahmud Koshg'ariy o'z davridagi so'zlarni yig'ib kitob holida meros qilib qoldirgan. Oradan 9 asr o'tib olimlar Koshg'ariy faoliyatining amaliy ahamiyatini anglab yetgan holda, bevosita uning faoliyatini davom ettirdilar. Tilshunos olim G'.Yunusov o'zi to'plagan juda boy faktik materiallarga suyangan holda 1936-yili professor E.D.Polivanov tasnifidan keyin o'zbek shevalarini birinchilardan bo'lib guruhlagan. G'.Yunusov va boshqa ko'plab olimlarning samarali mehnati tufayli o'zbek shevalarining boy materiali to'plandi, o'zbek dialektologiyasi fani shakllandi.

O'zbek shevalarni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tasniflash mumkin. O'zimiz yashab turgan, hozirgi davrda kam ishlatiladigan so'zlarni jamlab o'zbek tili shevalarining mukammal izohli lug'atini tuzish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Unga o'zbek xalqi ishlatadigan barcha so'zlarni qayd qilish amaliy ahamiyatga ega.

Quyida Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani shevasi misolida shevalarning yuqoridagi uch jihatini adabiy til bilan solishtirib ko'ramiz.

Fonetik jihatdan:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida	**Yakkabog' shevasida**
kosa	kasa
yur	jur
piyola	piyla
tuproq	turpoq

Leksik jihatdan:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida	**Yakkabog' shevasida**
chiqindi	qo'qim
kuzatmoq	ser solmoq
ergashmoq	iyarmoq.
mehmonga bormoq	qidirmoq
mog'orlamoq	panglamoq

mudramoq	mulgimoq

Grammatik jihatdan:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida	**Yakkabog‘ shevasida**
boryapmiz»	boryappiz»
uyda turibman	uyga turibman

Ko‘p tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da adabiy tilda faol qo‘llanadigan so‘zlar bilan bir qatorda o‘zbek tilining asosiy lug‘at boyligi sifatida ayrim sheva so‘zlari ham keltirilgan. Mazkur lug‘atda Qashqadaryo shevalarida qo‘llanadigan bir qator leksik birliklar ham qayd etilgan: *lo‘la* (437- bet), *yaktak* (478- bet), *chelak* (169- bet), *bargak* (29- bet). [O‘TIL,2006-2008].Shunga o‘xshash ko‘plab so‘zlarimiz mavjud. Ularning hammasini jamlab «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga kiritish kerakligi naqadar zarurligini barcha filologlar his qilyapti menimcha. Shevalarda lug‘atlarda, deyarli, qayd etilmagan bir qancha so‘zlarimiz mavjud. Ulardan ayrimlarida to‘xtalamiz:

Kiyimlarni ifodalovchi so‘zlar:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida	**Yakkabog‘ shevasida**
shapish	qalpoqni ichidan kiyiladigan shapkacha
kuttacha	nimcha
jilak	bobolar kiyadigan xalat
jilak	yopinchiq
jilap	paypoq
po‘pak	sochga taqiladigan jamalak
mog‘orlamoq	panglamoq
mudramoq	mulgimoq
pichak	ichiga ismaloq solib tandirga yopiladigan, keyin ustiga qaymoq surtib yeyiladigan yegulik
zor ddali	o‘rik
itburun	na’matak
olivali	olcha
elovrash	bosinqirash
selgimoq	qurimoq
hashshakalla	baribir

ximich	choʻp
ruvaray	Bora- bora

Oziq-ovqat mahsulotlarini bildiruvchi sheva soʻzlari orasida oʻzbek xalqining oʻzigagina xos bolgan taom nomlari, realiyalar uchraydi: ***qurttovo*** - qurtni ezib suvda qaynatib, ustiga saryogʻqoʻyib yeyiladigan taom; ***jachmich*** - yangi pishgan nonga saryogʻ aralashtirib yeyiladigan taom; ***toʻntarma*** - qaymoqqa unni qoʻshib qovurib tayyorlanadigan taom.

Yakkabogʻ shevasida oʻziga xos ibora va birikmalar ham uchraydi: ***suroving yoʻq*** - bir ishni eplolmaydigan; ***buk havo*** - dim havo.

Bunday misollarni koʻplab keltirishimiz mumkin.

Oʻzbek tili shunchalar soʻzga boy, biz oʻzimiz bunga parvo qilmaymiz. Bu ham yetmagandek oʻz tilimizga boshqa tillardan soʻz qoʻshamiz. Goʻyoki rus, ingliz tillaridan soʻz qoʻshib gapirsak «aqlli» hisoblanamiz. Ana shu «aqllilar» qatlami vakillarining asosiy qismini ziyoli aholi tashkil qilgani ajablanarli hol. Shunday ekan, biz, avvalo ziyoli qatlam vakillarini tarbiyalashimiz kerak. Axir uyda, oilada ham bola onasiga taqlid qiladi. Ziyolilar oʻzbek tiliga boshqa tillarni qorishtirib gapirganlarida oddiy xalqdan nimani kutish mumkin?

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, shevalar bizning madaniyatimizni kelajak avlodga yetkazuvchi vositalardan biridir. Shuning uchun barchamiz shevalarni iloji boricha koʻproq toʻplab, hammamiz bir tan-u bir jon boʻlib bu soʻzlarni ommalashtirishga harakat qilishimiz kerak.

Prezident farmoni mazmunidan kelib chiqqan holda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzurida shevashunoslik markazi tashkil etildi. Ushbu markazning faoliyatiga muvaffaqiyat tillayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шоимова Н. Шевалар луғатини яратиш - давр талаби // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). Т.,2008. 202-204-бетлар.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.I-V жилдлар.-Тошкент, 2006-2008.

BOLALAR YOZMA NUTQINI PSIXOLINGVISTIK RIVOJLANTIRISH

Nazokat XAITBAYEVA
O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya
Maqolada bolalar nutqini psixolingvistik rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Bolalar nutqidagi patologiya va uning sabablari haqida so‘z boradi. Bolalar nutqini rivojlanishining psixolingvistik sabablari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, bolalar nutqi, urf-odat, transformatsiya, patologiya.*

Annotation
The article analyzes the issues of psycholinguistic development of children's speech. There is talk of speech pathology in children and its causes. Psycholinguistic causes of children's speech development are analyzed.
Key words: *psycholinguistics, children's speech, tradition, transformation, pathology.*

Har bir millatning o‘zligini aks ettiruvchi madaniyati, urf-odati, tili va yozuvi bo‘ladi. O‘zbek tili nihoyatda boy va jozibador til hisoblanadi. Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, natijada, hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda. Jahon tilshunosligidan psixolingvistika, semantika, kingvukulturologiya, progmalingvistika kabi bir qator fanlarning kirib kelishi natijasida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va bolalar ongiga ham singdirib borish, og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish zarur. Nutqni to‘g‘ri va ravon qo‘llash malakalarini amalga oshirishda psixolingvistika fanining o‘rni beqiyosdir. Bolalarda yozma nutqni takomillashtirishning psixolingvistik metodlar orqali o‘rgatish zarur. Bola til tizimini o‘zlashtirishi juda murakkab masala. Ayrim olimlar xatto bola miyasi avvaldan inson nutqiga xos bo‘lgan tuzilmalarni qaytadan ishlashga moslashgan va tuzilmaning qayta ishlash natijasi bu tilning transformatsion grammatikasi, deb fikr bildirganlar. Bu degani, bolada axborotni qayta ishlash uchun tug‘ma xususiyatlar mavjud va ular eshitilayotgan nutqqa qaratilsa, bola o‘z tilining grammatikasi tuzilishini yaratadi. Buning isboti sifatida shuni aytish kerakki, inson yoshligida o‘z tilini o‘zlashtirishi uchun biologik jihatdan asoslangan “keskin davr” bo‘ladi va inson miyasida lingvistik vazifalarni bajaruvchi alohida tuzilmalar shakllanadi. Bolalar yangi til shakllarini ota-onasining nutqidan, ularga taqlid qilib o‘zlashtiradi, bola yangi narsani eshitib, uni takrorlaydi va bu orqali yangi ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu jarayon bola mustaqil fikrlay olib, og‘zaki va yozma

nutqini bexato shakllantira olishi uchun zarur hisoblanadi. Yozuv- bola uchun muhim, yangi belgili tizim hisoblanadi. Bolalarda yozma nutqni shakllantirish uchun avvalo harflarni to‘g‘ri yozish va og‘zaki nutqda to‘g‘ri talaffuz qilishi lozim. L.S.Vigotskiy yozma nutqni monolog-nutq sifatida tavsiflab, unga quyidagicha izoh beradi: “Yozma nutq - bu og‘zaki nutqning har qanday vaziyatda o‘z - o‘zidan, hech qanday qiyinchiliklarsiz, bola tomonidan so‘zlashuv vaziyati bo‘lgan vaqtda oq qog‘oz varag‘i, hayoldagi suhbatdosh bilan bo‘lgan suhbatidir” [Выготский Л, 1996;414]. Og‘zaki nutq bevosita muloqot sharoitlarida sodir bo‘ladi, shuning uchun “sur’ati bo‘yicha tez va noto‘liqroq” tarzda namoyon bo‘lib, nutq jarayonida ma’noni ifodalash uchun nolingvistik vositalar – mimika va imo - ishoralardan foydalaniladi. Yozma nutqda esa og‘zaki ma’lumotda qo‘shimcha axborot beruvchi ushbu vositalar bo‘lmaydi. Yozma nutqni o‘zlashtirish va amalga oshirishning murakkabligi uning tabiatiga bog‘liq: agar og‘zaki nutq asosan so‘zlash -eshitish va so‘zlarni harakatlantirish analizatorlari faoliyati bilan amalga oshirilsa, yozma nutq ko‘rish - eshitish va harakatlantirish analizatorlari faoliyatidan tarkib topadi. Yozma jarayonga butun miya, uning barcha qobiq bo‘laklari aloqador bo‘lsada, biroq unda bosh miya qobig‘ining ma’lum uchastkalari ko‘proq ishtirok etadi. B.G.Ananyev, A.R.Luriya, L.S.Svetkova, E.S.Beyn, M.K.Burlakova va boshqa olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yozish va o‘qish ko‘nikmalari funksional tizimining sensor – akustik - motorli va optik - motorli rivojlanishi maxsus nutq faoliyatini ta’minlovchi miya mexanizmlari ya`ni analizatorlararo o‘zaro ta’sirining tiklanishi bilan bog‘liqdir. [Ананьев Б.Г., 1957; 12-24; Лурия А.Р. , 1998; 306; Цветкова Л.С. 1995; 253]. Bunda “Vernike” zonasi (chap yarim sharning chakka sohasi - nutq tovushlarining differensiyasi uchun javob beradi), “Broka” zonasi (chap yarim shar pastki peshona burma-burma joyining orqa qismi), bosh miya ildizining (BMI) peshona bo‘limlari (nutq faoliyatini dasturlash va fikrni saqlashni amalga oshiradi), BMI old bo‘limlari, BMI premator zonasi (so‘zlarni yozganda tovushlarning kerakli ketma-ketligiga rioya qilinishiga javob beradi) ishtirok etadi. Nutqning kelib chiqishi passiv reaktivlik uchun xos bo‘lgan assotsiativ aloqalar tizimi bilan emas, balki rejalashtirilgan xatti-harakatning xususiyati bilan aniqlanadi. J.Miller transformatsion hosilalarni tahlil qilish orqali xatti-harakatni rejalashtirish jihatini ajratib ko‘rsatadi va insonning shunchaki reaktivligiga emas, aksincha, aktivligiga urg‘u beradi. Nutqiy faoliyat jarayonida amallar avtomatlashadi va nutqiy harakat ko‘nikma darajasiga ko‘tariladi. Butun faoliyat esa malakani shakllantiradi. To‘g‘ri, nutq insonning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo‘ladi, atrof –

olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Bola intellekti uni o‘rab turgan muhit bilan munosabatiga ko‘ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o‘sadi, lekin til o‘z holicha bu o‘sishni belgilab berolmaydi. Bu masalani o‘rganar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, biz til va nutq tushunchalarini alohida hodisa sifatida qayd etamiz. Nutq – moddiy, fizik jarayon bo‘lib, uning natijasida nutq tovushlari voqe bo‘ladi, til esa bu mavhum belgilar va lisoniy tuzilmalar tizimidir. Shuning uchun Uotson til va tafakkur aloqasini emas, balki nutq va tafakkur bog‘liqligini o‘rganadi. Vigotskiy va Piaje kabi olimlar nutqni insonlarning bilim va axborot almashinuv quroli sifatida til va tafakkur masalalari bilan shug‘ullanadilar. Biz nimadir aytishga taraddudlanganimizda fikrlash jarayonimiz qay holatda namoyon bo‘ladi? Bu taraddudning boshqalaridan o‘ziga xos tomoni shundaki, bunda tafakkur muayyan holatda, ya’ni uning ma’lum qismlari sensor obraz, so‘z yoki belgilardan iborat bo‘ladi. Lekin ular mavhum xarakterda.

Bir lahza bu so‘z va belgilar namoyon bo‘ladi va o‘chadi. Ularni nutq orqali ifodalashda ba’zilari aniqlashib, moddiylashadi; ba’zilari tanlov natijasida tushib qoladi. Buni faqatgina nimadir aytishga tayyorgarlik deb nomlash mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ruhiy hayotimizning ko‘p qismi fikrlar sxemasining lahzalik qoliplarini ishlash bilan o‘tar ekan. Bu jarayon fikrlash deyiladi va u lisoniy shaklga ega bo‘lmaydi. Buni ma’lum ma’noda ichki nutq deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ladijenskaya T.A. Bog‘langan nutq // Sinfda nutqni rivojlantirish usullari Rus tili. - M., 1980.
2. Levina R.E. Nutq rivojlanmagan bolalarda yozuvning buzilishi. - M., 1961 .
3. Leontev A. A. Aloqa psixologiyasi. - M., 1997.
4. Leontev A. A. Psixolingvistika asoslari. - M., 2003.
5. Vigotskiy L. S. Fikrlash va nutq // Sobr. Op .: 6 jild .- M., 1982.
6. Gluxov V. P. Psixolingvistika asoslari. - M., 2005.
7. Luriya A.R. Til va ong. - Rostov-Donu, 1998.

GASTRONOMIYAGA OID BARQAROR BIRIKMALARNING TIL TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Rasulova N.N.
O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Mazkur maqolada gastronomiyaga oid barqaror birikmalar tahlilga tortilgan. Barqaror birikmalarning til taraqqiyotidagi o‘rni masalasiga e’tibor qaratilgan. Gastronomiyaga oid barqaror birikmalarning asosiy xususiyatlari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: *gastronomiya, barqaror birliklar, maqollar, frazeologizmlar, frazema.*

Annotation
This article analyzes stable compounds related to gastronomy. Emphasis is placed on the role of stable compounds in language development. The main properties of stable compounds in gastronomy are analyzed.
Key words: *gastronomy, stable units, proverbs, phraseologies, phrases.*

Har bil millat atrofidagi narsa-hodisalarni, voqealarni obrazli va ta’sirchan ifodalashga harakat qiladi. Hayoti davomida orttirgan xulosaviy fikrlarni ixcham, lo‘nda va sodda qolipda kelgusi avlodga qoldiradi. Natijada maqol, matal, ibora kabi tildagi barqaror birikmalar yuzaga keladi. Barqaror birikmlar o‘zbek tilida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday leksik-semantik guruhlar orasida gastronomiyaga oid barqaror birikmalarning ham o‘rni bor.

Ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi odatda, bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror (turg‘un) birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi [1]. Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so‘zlashuv uslubida keng, ko‘proq qo‘llanadi va nutqni ta’sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Non, osh, tuz, sut, ayron kabi gastronomik birliklar milliyligimiz, madaniyatimiz belgisidir.

Non, osh, tuz, sut, ayron kabi gastronomik birliklar taom, oziq-ovqat, rizq-nasiba, tirikchilik ma’nolari bilan birlashadi. Ular ishtirok etgan maqollar, iboralarda ham bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalq maqollari orasida, ayniqsa, osh, non, tuz, ayron, go‘sht kabi gastronomik birliklarga duch kelsak; tuxum, mayiz, yong‘oq, sut, patir, mosh, talqon, shira kabi gastronomik nomlar iboralar tarkibida ko‘p uchraydi. Osh gastronomik atamasi ishtirokidagi maqol va matallar, iboralarda o‘zbek xalqining oshga bo‘lgan hurmat-ehtiromini va uning

vositasida oilani, mehmonni qadrlash, mehnatni, kasb-hunarni sevish, ardoqlash, halol yashash kabi xalqona pand-u o‘gitlar obrazli ta’sirchan ifodalangan bo‘lsa, tuz qadim-qadimdan mehmondo‘stlik, to‘kinlik, rozi-rizolik ramzi sifatida barcha xalqlarda ulug‘langan va qadrlangan. Sut esa oqlik, soflik, rozilik, mehr kabi tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Gastronomiya oid barqaror birikmalarda ham xalqning mehnatsevarligi, ayniqsa, bir-biriga ko‘maklashib, kengashib qilingan mehnat serunum bo‘lishi haqida uqtiriladi: “Ishlamagan nonga zor”, “Do‘lanani ko‘rganda tog‘ esingdan chiqmasin”, “Ariq qazimasang otizga suv chiqmas”, “Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda”, “Yoz bo‘lsa-yu, qish bo‘lmasa, osh bo‘lsa-yu, ish bo‘lmasa”, “Yozda boshi pishmaganning, qishda oshi pishmas”, “Yozda boshi qaynamaganning, qishda oshi qaynamas”, “Ishdan qochding – oshdan qochding”, “Ishyoqmasga osh berma”, “Ishyoqmasga osh yoqmas”, “Ishi yo‘qning oshi yo‘q”, “Ishlab topganing – osh, ishlamay topganing – tosh”, “Ishlab topganning oshi – lazzatli”, “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar”, “Ishlaganning og‘zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar”, “Ishlamasdan osh yegan dardga yo‘liqar”, “Ishsiz boshim – oshsiz boshim”, “Ishchan oshini yer, dangasa – boshini”, “Mehnatli osh – osh bo‘lur, mehnatsiz osh – tosh”, “Mehnatsiz topilgan oshdan, mehnatda topilgan tosh yaxshi”, “Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh”, “Tek turmaganga osh ber, ikki qo‘liga ish ber”, “Nomard oshda, mard ishda bilinar”, “Oson yerda osh qayda”, “Ish oshga tortar, yalqovlik – boshga” [2] kabi.

Aksariyat barqaror birikmalarda kindik qoni to‘kilgan ona Vatanni ulug‘lash, vatanparvarlik haqida. “Non gadosi bo‘lsang ham yurt gadosi bo‘lma ”, “Ona yurtning tuprog‘i-ona sutidan aizi ”, “Elga qo‘shilgan moy yutar, Eldan ayrilgan qon yutar ”, “Har toycha o‘zi suv ichgan bulog‘ini maqtar ”.

“Yolg‘iz uyda qozon qaynamas”, “Suvning oqishiga qara, xalqning xohishiga qara”, “Oshdan qolsang ham ko‘chdan qolma” kabi jamoatchilik yoqlab, xudbinlikni qoralovchi barqaror birikmalar ham uchraydi.

O‘zbek tilidagi gastronomiyaga oid barqaror birikmalarni quyidagicha tasniflash mumkin.

1) pand-nasihat ruhidagi maqollar:

“Bir kun tuz ichgan joyga, qirq kun salom qil” “Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma”, “Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi”, “Qo‘lidan ishini olsang, og‘zidan oshini olasan”; “Ko‘ngil tortgan osh halol”, “Tuzsiz oshni it ichmas” “Minnatlik oshdan, beminnat musht yaxshi”, “Oshing halol bo‘lsa ko‘chada ich!”, “Bermasning oshi

pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas", "Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa – sasir oshim"; "Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma", "Tor yerda osh yeguncha, keng "Qo'lidan ishini olsang, og'zidan oshini olasan"; "Ko'ngil tortgan osh halol", "Minnatlik oshdan, beminnat musht yaxshi", "Oshing halol bo'lsa ko'chada ich!", "Bermasning oshi pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas", "Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa – sasir oshim"; "Osh kelsa, yegin, so'z kelsa, degin", "Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma", "Oshning ta'mi tuz bilan, odamning ta'mi so'z bilan", "Yomon og'izga – tosh, yaxshi og'izga – osh", "Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin", "Yaxshi osh berguncha, yaxshi so'z ber", "Ortiqcha tuz oshni buzar, ortiqcha so'z boshni uzar"

2) insondagi salbiy fazilatlarni qoralovchi baqaror birikmalar:

"Ayron –osh bo'lmas, nodon – bosh bo'lmas", "Ishga – no'noq, oshga – o'rtoq", "Ishga – cho'loq, oshga – qo'noq", "Ishdan qochding – oshdan qochding", "Osh quli – ish kasali", "Yalqovning oshi – yovg'on", "Bilmas kishiga ish yo'q, ishsiz kishiga osh yo'q"; "Och kishiga osh qo'ysang, betingga qaramas";

3) insondagi ijobiy fazilatlarni ulug'lovchi baqaror birikmalar:

" Og'ayni biriksa, bosh ko'payar, ovsin biriksa, osh ko'payar", "Boshi yo'qning oshi yo'q", "Og'a-ining totuv bo'lsa, ot ko'p, opa-singling totuv bo'lsa, osh ko'p"; "Oz oshim – g'avg'osiz boshim", "Oz oshga indov yo'q"; "Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga", "Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat"; "Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim", "To'yar oshni ko'z taniydi, oshnani ko'ngil taniydi"; "Yo'qcha guruch osh bo'lur, mehmon ko'ngli shod bo'lur", "Yaxshi mehmon osh ustiga, yomon mehmon bosh ustiga"; "Ish bor yerda-osh bor", "Ish oshga tortar, yalqovlik boshga", "Ishlab topganning oshi – lazzatli", Ishlaganning og'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar", "Mehnatli "Ish bor yerda-osh bor", "Ish oshga tortar, yalqovlik boshga", "Ishlab topganning oshi – lazzatli", "Ishlaganning og'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar", "Mehnatli osh – osh bo'lur, mehnatsiz osh – tosh", "Oson yerda osh qayda?"; osh – osh bo'lur, mehnatsiz osh – tosh", "Oson yerda osh qayda?" [3].

Demak, maqol va iboralar tarkibida uchraydigan oziq-ovqatga doir tushunchalar o'ziga xos ma'no-mazmunga xos ekan. Chunonchi, tuz deganda olgan narsasiga javobgarlik, mas'uliyatlilik, halollik, tuz totigan joydan, shaxsdan qarzdorlik, yaqinlik kabi yuksak qadriyatlarni tushuniladi. Shuning uchun ham bu tushunchalar tuzning azal-azaldan qadri baland bo'lganligini bildiradi. Non haqidagi

barqaror birikmalarning ko‘pida nonning ulug‘ligi, muqaddas va mo‘tabarligi xalqona tilde ta’kidlanadi hamda uqtiriladi. Bundan tashqari, suv yaratuvchanlikni, sut poklikni, ushoq tejamkorlikni anglatadi.

Gastronomiyaga doir osh, tuz, non,talqon, mayiz kabilar boshqa xalqlar kabi o‘zbek xalqining qadimiy, azaliy va bardavom yashovchan kundalik, milliy qadriyatlari bilan bog‘liqligi bois ular asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar mazmunan hamda mohiyatan umumiylik kasb etadi. O‘zbek xalqi azal-azaldan taomlarga, oziq-ovqatlarga, xususan, non, osh, tuzga ayricha munosabatda bo‘lgan. Ularni muqaddas bilgan, rizq-ro‘z, nasiba sifatida e’zozlagan, qadrlagan, ulug‘lagan va farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalagan. Natijada tilga olingan ne’matlar, yeguliklar borasida xalqona betakror qadriyatlar shakllanib, xalq og‘zaki ijodida non, osh va tuz uzvli maqol va matallar, frazeologizmlar yuzaga kelgan hamda yillar davomida bu birliklar shaklan va mazmunan sayqallanib, boyib va mukammallashib borgan, bizgacha yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016. – B. 113.

2. O‘zbek xalq maqollari(To‘plovchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov)-Toshkent: Sharq nashr, 2016

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳririяти, 1992.

O‘ZBEK TILIDA OSMON JISMLARINING IFODALANISHI

Dilshoda JUMANBOYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya
Ayrim osmon jismlarining o‘zbek tili va adabiyotimizga ko‘rsatgan ta’siri, asarlarda turlicha ma’nolarda qo‘llanilish uslublari va ma’nolari hamda osmon jismlari bilan bog‘liq ayol va erkaklar ismlarining tilimizdagi ahamiyati o‘rganib chiqildi.
Kalit so‘zlar: *Oy, quyosh, yulduzlar, vaqt o‘lchovi, ayollar ismi, erkaklar ismi.*

Annotation
The influence of some celestial bodies on our Uzbek language and literature, their using methods and meanings in different literary works and the names of women and men associated with celestial bodies were explored.
Keywords: *Moon, sun, stars, time scale, female names, male names.*

Taniqli tilshunos Boduen de Kurtene tillar bir-biri bilan grammatik qurilishi bilan emas, balki dunyoni o‘ziga xos ko‘rishi bilan farqlanadi, degan fikrni ilgari surgan edi. Darhaqiqat, har bir tilda til egalarining dunyoni bilishdagi, uni qabul qilishagi o‘ziga xos tomonlari aks etadi. Bu o‘ziga xosliklar insonlar bilan doimo uyg‘un bo‘lgan osmon va uning jismlarining tilda aks etishida namoyon bo‘ladi.

Osmon, koinot, fazo… Undagi son-sanoqsiz yulduzlar, hayotimizning belgilovchi asosiy omili bo‘lgan quyosh, oy, sayyoralar har doim insoniyatni qiziqtirib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Zero, inson osmon bilan ipsiz bog‘langanini, unga ehtiyojmand ekanligini biladi. Lekin uning imkoniyatlari samoni o‘zlashtirishga, yaqindan bilishga yetmaydi. Shuning uchun samo va uning bag‘ridagi jami olam inson qo‘li va idroki yetmas sirli olam bo‘lib, bizni o‘ziga chorlayveradi.

Shu tariqa borib qo‘l bilan ushlab, yaqindan bilinmagan abstrakt olam turli xalqlarda farqli tasavvurlar uyg‘otadi va ular tilda turlicha ifodalanishlarga ega bo‘ladi. Masalan, bizning xalqimiz uzoq o‘tgan davrlarda osmonga talpindilar, qiynalganda najot kutdilar va buning natijasida ham bir qancha boshqa xalqlar qatori osmon jismlariga munosabat ilohiy tus oldi. Ma’lumki, “Avesto” da quyosh Xudosi Mitra haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Xalqimizda osmon jismlari orqali vaqt anglangan va o‘lchangan. Qadim zamonlarda odamlar vaqtni o‘lchash uchun turli vositalardan foydalanganlar. Quyosh, Oy va yulduzlar harakati shular jumlasidandir. Muqaddas kitobimiz – Qur’oni Karimda yozilishicha, “U quyoshni ziyo (taratuvchi) va oyni nur (sochuvchi) etgan hamda yillarning adadini va (vaqt va zamonga doir) hisobni bilishlaringiz uchun uni (oyni) manzillarga (bo‘lib) o‘lchab qo‘ygan zotdir. Buni Alloh faqat haq (hikmat) bilangina yaratdi. Biluvchi qavm uchun oyatlarni (U) batafsil bayon qilur”. “Yosin” surasidan olingan ushbu oyati karimadan ma’lum bo‘lishicha, Alloh Oyning odamlar uchun yilni hisoblashlarida o‘lchov vositasi bo‘lishini ochiq-oydin vahiy qilgan va shundan boshlab insoniyat yillarni taqsimlashda Oydan foydalana boshlagan.

Ma’lumki, o‘zbek tilida oy va kun so‘zlari dastlab osmon jismini nomlagan. Keyinchalik esa vaqt o‘lchov birliklarini nomlay boshlagan.

Vaqtlar o‘tib, Oy vaqt o‘lchov birligi bo‘libgina qolmasdan, asta-sekinlik bilan adabiyotimizga kirib kela boshladi. Bizga ma’lumki, Oy xalqimiz tasavvurida juda chiroyli va maftunkor sayyora sifatida gavdalanadi. Shu sababli shoir va yozuvchilarimiz o‘z asarlari-yu g‘azallarida oydan juda chiroyli tashbehlar yasaganlar. Ayniqsa, adabiyotimizdagi yor tasvirini oysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jumladan, Navoiy “Sabbai sayyor” dostonida Mehrni: “Mohvash qoldi ul jazira aro, Mehri iqboli shomi tiyra aro”, deya ta’riflaydi. Ya’ni Oy yuzli go‘zal u orol ichida qoldi, Iqbol quyoshi qorong‘i shom ichida ko‘rinmas bo‘ldi. Yana bir misrasida esa: Amr qildiki, bu Zuhra yulduzidek oy, Boqqa kirib, (undagi) qasrda o‘tirsin”, deya uni oyga qiyoslaydi. Yoki Navoiyning bir tuyug‘ida shunday deyilgan:

Yo qoshingdan necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘trusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach mahvashlar qoshin,
Yangi Oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

Bundan tashqari, adibimiz Cho‘lponning barchamizga ma’lum bo‘lgan betakror “Go‘zal” she’rida esa: “ Tushimda ko‘ramen – shunchalar go‘zal, Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal”, deya yorini chiroyda hattoki oydan ham ziyoda ko‘rmoqda. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish “Ravshan” dostonida ham Zulxumorning tasviri g‘oyat ajoyib chizilgan: “Ravshanbek qarasa, Zulxumor kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to‘lgan ikki qoshi hiloli”.

Ma’lum bo‘ladiki, oy va u orqali insonlarni, xususan, yorni chiroyli tasvirlash xalqimizning oyga bo‘lgan qarashi, u haqidagi fikr-mulohazalari o‘zgacha ekanligidan dalolat bermoqda.

Mahmudovning “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” asarida ta’kidlashicha, oy etaloni to‘rt xil ma’noda qo‘llaniladi. Bular “chiroyli, go‘zal”, “porlamoq, balqmoq,”, “to‘lmoq, yanada go‘zallashmoq”, “ravshan, ayon”. Endi ularning har biriga to‘xtalib o‘tsak.[Mahmudov, 2013; 151-152-betlar].

Oy etalonining dastlabki ma’nosi: chiroyli, go‘zal. Oyning bu ma’nosi asosan ayollarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu bilan bog‘liq quyidagi tashbehlarga e’tiborimizni qaratamiz. Qop-qora ko‘zing Yoshlarga to‘lmish, Oy kabvi yuzing Yaproqday so‘lmish.(Mirtemir.”Tutqun qiz”). “Shahzoda ofatijon qaylig‘ining oyday chehrasiga tikildi”.(M.Ali “Ulug‘ saltanat”). Nechun oydek yuzingizdan qayg‘u ketmas, hajr azobin endi siz ham totdingizmi?(M.Yusuf.”Kelinchak”).

Oy etalonining ikkinchi ma’nosi – “porlamoq, balqmoq, ajralib turmoq, kuchaymoq”. Bunga ham bir-ikkita namuna keltirsak: Oltmish yoshin qutlab deymiz: - Sog‘ bo‘lsin Oybek, She’riyatning osmonida porlasin oydek”.(X.Saloh “Ustoz Oybekka”). Goh xotir, gohida xayolni yollab, Goh yulduz, gohida oy kabi porlab, Shirin jilmayish-la yonida orlab, Olisdan g‘amzalar qilganing alam.(M.Yusuf “Muhabbat”).

Endigi uchinchisi esa “to‘lmoq, go‘zallashmoq” degan ma’nolarni anglatadi: Farahli bir oydin kecha, Yo farahli subhidam, Oydek to‘lib, tushlaringga kirar zebo bir sanam.(J.Kamol “Tilak”). “Beshikda oyday to‘lib, pahlavon go‘dak jilmayib yotibdi”.(X.Sulton “Boburiynoma”).

Va so‘nggi ma’nosi – “ravshan, ayon, ma’lum, shubhaga o‘rin qoldirmaydigan darajada aniq bilingan”.

“Zebo sud raisining bola emasligini qaydan bilsin? Shu yerda o‘tirgan shuncha erkakning oyday ravshan bir narsani anglamasliklarini qaydan bilsin?” (Cho‘lpon “Kecha va kunduz”). “Holbuki oydek ravshan haqiqat bor: Xudosizda iymon bo‘lmaydi”. (O‘.Hoshimov “Sho‘roning xatosi”).

Bundan tashqari, tilimizda “o‘n to‘rt kunlik oyday” degan ibora mavjuda. Bu ham ayollarga nisbatan juda ham chiroyli, behad go‘zal ma’nolarida ishlatiladi. Masalan, “Uyda qoldi o‘n to‘rt kunlik oyday go‘zal qaylig‘I, Uyda qoldi chimildiqdan kecha chiqqan Lyudmila”.(O‘.Umarbekov “Gul vodiysi”).

Yuqoridagi misollardan ayon bo‘ladiki, oy etalonining tilimizdagi ma’nolari turlicha va har biri adabiyotimiz, tilimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekan.

Mana shunday sayqal topgan oy tasviri va u bilan bog‘liq o‘xshatishlar endi tilimizga ham ko‘cha boshladi.

Biz ushbu maqolamiz orqali oyning tilimizga ko‘rsatgan ta’siri va uning natijasida paydo bo‘lgan ismlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Shunday qilib, tilimizda oy bilan boshlanuvchi va tugovchi ismlar mavjud. Ularga bir nechtadan misollar keltirsak. Oy bilan boshlanadigan ayollar ismi: Oybeka, Oybarchin, Oyzebo, Oyxon, Oygul, Oyruxsor, Oyposhsha, Oysanam shular jumlasidandir. Oy bilan tugaydigan ayollar ismlariga esa quyidagilarni namuna qilib keltirishimiz mumkin: Chechakoy, Davlatoy, Erkinoy, O‘zbekoy, Qizlaroy, Jo‘shqinoy, Qudratoy, Nuroy, Yorqinoy, Yashnaroy. Oy bilan boshlanuvchi erkaklar ismi ham mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: Oybek, Oydo‘st, Oyrajab, Oymirza, Oymuhammad, Oytilla, Oyshuhrat.

Kuzatishlarimiz natijasida shu narsaga guvoh bo‘ldikki, oy bilan boshlanuvchi ayollar ismlarida, asosan, o‘sha ism egalarini oyga qiyoslash, ya’ni ularning xuddi oy kabi go‘zal, suluv bo‘lib voyaga yetishlari maqsad qilingan. Oy bilan tugovchi ayollar ismlarida esa ko‘p hollarda shu nom egalarini erkalab chaqirish nazarda tutilgan. Bu hol Farg‘ona vodiysi, xususan, Andijon viloyatida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Andijon aholisining aksariyati ayollar ismlariga oy qo‘shib murojaat qiladilar. Masalan, Madinaoy, Mubinaoy, Asaloy, Oydinoy, Begoyimoy, Shohsanamoy va hokazo. Bunday ismlar tarkibidagi oy o‘zbek tilida alohida erkalash qo‘shimchasiga aylanib qolgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonlar bolasiga qo‘yayotgan ismlari orqali ularni faqat yaxshi yo‘llardan yurishiga umid bog‘lagan holda farzandining hayoti, odamlarga nisbatan munosabati, o‘zini tutishi, shuningdek, tashqi ko‘rinishi ham xuddi ismi kabi go‘zal bo‘lishini xohlaydilar. Zero, har bir insonning ismi jismiga mos bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov, D.Xudoyberganov: O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati.- Toshkent, 2013.

2. D.Ashurov. O‘xshatishlar – lingvomadaniy vosita sifatida.- Namangan, 2019.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent, 2006.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING TILSHUNOSLIK FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Go‘zal QO‘ZIBOYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti I kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslikda amalga oshirgan yutuqlari va bugungi tilshunoslikka qo‘shgan hissasi va so‘zlarni qanday turkumlarga ajratganligi va ularning ma’nolari haqida.
Kalit so‘zlar: *Turk tili lahjalari, shevalar, hamzali so‘zlar, tarixiy so‘zlar, -chi affiksi, ot, sifat.*

Annotation
In this article, Mahmud Koshgari’s achievements in linguistics and his contribution to modern linguistics and how he categorized words and their meanings.
Keywords:*Turkish dialects, hamzali words, historical words, -chi affix, ot, quality.*

Mahmud Koshg‘ariy- XI asrning O‘rta Osiyolik filolog olimi va tilshunosidir. 1072-1074 yillar davomida arab tilida “Turk tili lahjalari” ni tuzgan. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘ati turk” asarida arab tilining ilmiy uslublari orqali yaratgan asari turk tilining rivojlanishi va shevalari haqidagi muhim va qimmatli manbadir. Mahmud ibn al- Husayn ibn Muhammad al Koshg‘ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bag‘dod kabi shaharlarda olim uzoq vaqt yashagan va shu hududlarning tili, madaniyati, etnagrafiyasini o‘rganadi. Turkiy urug‘ va qabilalar yashagan barcha yerlarni birma bir o‘rganib, ularning tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi. Til xususiyatlariga ko‘ra turkiy tillarni guruhlarga tasniflash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi bu haqida shunday deydi: “Puxta qo‘llanma bo‘lsin deb, har bir qabilaning o‘ziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim…” Turkiy tillarni farqli belgilariga ko‘ra dastlabki ikki guruhga ajratadi: turklar (chigil, qoshg‘ar, arg‘u, barsog‘on, uyg‘ur), o‘g‘uz va qipchoq qabilalari tillari.

Asar sakkiz asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib:

1. Hamzali so‘zlar bo‘limi. (so‘zning boshida ا,و,ى harflari kelgan so‘zlar bo‘limidir.)

2. Solim bo‘limi.(so‘z tarkibida arab tilida “harfi illat” deb ataluvchi ا,و , ى harflardan birontasi bo‘lmagan, shuningdek, takrorlangan harfi bo‘lmagan so‘zlar.)

3. Muzoaf bo‘limi (bir harfi ikki qayta takrorlangan so‘zlar bo‘limi)

4. Misol bo‘limi. (so‘zning boshida, o‘rtasida yoki oxirida ا, و , ى

harflaridan biri bo‘lgan so‘zlar bo‘limi)

5. Uch harfli so‘zlar bo‘limi. (sharhlardagi “uch harfli so‘zlar” degan iboralarda arab harflari nazarda tutiladi.)

6. To‘rt harfli so‘zlar bo‘limi.(sharhlardagi “to‘rt harfli so‘zlar” degan iboralarda arab harflari nazarda tutiladi.)

7. G‘unnalilar bo‘limi. (tarkibida burun tovushlari kelgan so‘zlar bo‘limi.)

8. Ikki undosh qator kelgan so‘zlar bo‘limi.

Har bir bo‘lim otlar (ismlar) va fe’llar tarzida ikki qismga ajratib berilgan.

Devondagi terminlar masalasiga kelganda Mahmud Koshg‘ariy ko‘makchi, undov va qo‘shimchani *harf* deb, sifat, son, va boshqa so‘z turlarini *ism* deb bergan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z izohlarida so‘z turlarini *uch turkum ism, fe’l, harf*ga ajratgan.

Asarda uch turkumga ajralgan barchasining grammatik xossalarini o‘sha davr nuqatai nazaridan kelib chiqib aniq ravshan holda yoritib bergan. Masalan qo‘shimchalar imlosini oladigan bo‘lsak, birgina –*chi* affiksni olaylik. Bu affiks XI asr til grammatik xossasiga ko‘ra otlarga qo‘shilib, ot yasalishida qo‘llanilar edi. **Mahmud Koshg‘ariy buni alohida affiks sifatida ko‘rsatmagan, uning ayrim so‘zlarga bergan izohidan –*chi* affiksini shaxsga tegishlilikninglatuvchi sifatida keltirgan.**

-*chi* affiksni tahlil qilar ekanmiz bugungi kunda u:

So‘roq –taajjub yuklamasi: sen-*chi*, kelsa-*chi*, Lolaxon-*chi*. Bunda –*chi* affiksi olmoshga, otga, fe’lga ham bog‘lana olgan.

Ot yasovchi (shaxs oti) yasovchi: suv+*chi*, bo‘z+chi, gul+*chi*.

Sifat yasovchi : a’lo+*chi*.

Yuqorida keltirib o‘tganimdek –chi affiksini Mahmud Koshg‘ariy alohida affiks emas ya’niki, ular shaxsga tegishlilikni anglatadi xolos degan izohini tahlillaymiz. So‘roq taajjub yuklamasiga keltirgan misolimizda ham barchasida shaxsga tegishlilikni anglatmoqda. (sen+chi ikkinchi shaxs birlikda, Lolaxon+chi uchinchi shaxs birlikda, kelsa+chi uchinchi shaxs birlikda). Ot yasovchi ya’ni kasbga doir otlar: suv+chi, gul+chi, bo‘zchi. Sifat ya’sovchi a’lo+chi yasama so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, a’lo=sifat, a’lo+chi o‘quvchi (qanday o‘quvchi? so‘rog‘ini beramiz.) Ma’no jihatidan sifat yasovchi affiks –chi shaxsga tegishlilikni anglatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Agar a’lochi yasama so‘zini ot kesim qilib oladigan bo‘lsak: Xurshida guruhimizda— a’lochi. Shaxsga tegishlilikni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. **Yuqorida ta’kidlaganimdek Mahmud Koshg‘ariy so‘z turkumlarini uchga: harf (qo‘shimchalar), ism (sifat, son va ot va boshqalar), fe’lgaajratgan.** Bunda sifat va ot bir turdaligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, *-chi* affiksi ma’no jihatidan shaxsga tegishlilikni anglatadi. Shuning Mahmud Koshg‘ariy alohida affiks sifatida olmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy .Devoni lug‘atut turk.I- III tom. –Toshkent, 1960.
2. Sayfullayeva R, Mengliyev B.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
3. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 1996.
4. Abduzazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.

G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA EMOTSIONAL-BO‘YOQDOR SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Gulzoda SAFAROVA *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 405-guruh talabasi*

Annotatsiya

Maqolada G‘afur G‘ulom asarlarida qo‘llanilgan emotsional-bo‘yoqdor so‘zlarning uslubiy xususiyatlari va vazifalari haqida so‘z boradi. Adib asarlarida qo‘llanilgan emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklar tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *emotsional- bo‘yoqdor so‘zlar, xarakter, qahramon,qissa.*

Annotation

The article discusses the methodological features and functions of emotionally colored words used in the works of Ghafur Ghulam. The peculiarities of the use of emotionally-expressive words used in the works of the author are explained on the basis of analysis.

Key words: *emotional words, character, hero, story.*

So‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar, emotsional bo‘yoqdor so‘zlar emotsional leksikani tashkil etib, ularsiz badiiy asarni tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek tilining emotsional leksikasi ma’lum darajada tadqiq etilgan. Bo‘yoqdor leksik qatlamga doir so‘zlar voqelikka so‘zlovchining ikki xil subyektiv emotsional munosabatini ifodalaydi:

1) ijobiy emotsional munosabat;

2) salbiy emotsional munosabat.

Ijobiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar so‘zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo‘lgan turlicha ijobiy munosabatini ifodalaydi. Masalan: *Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi*(“Yodgor”). *Yoshlik kitobining zarhal sahifalarida yurak tepishlari qayd qilingan bu satrlarni umrday mayda to‘lqinlar bilan oqib borayotgan ariqchaga termulib tingladim* (“Yodgor”).

Xast eshonning kichik xotinlari o‘n yettiga yetar-yetmas, juda ham quling o‘rgilsin (“Shum bola”). *Oyoq – qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan* (“Shum bola”).

Yurak urishlari bilan zoriqib-zoriqib kutganim-Saodat! («Yodgor»).

G‘afur G‘ulom asarlari tilida ijobiy munosabatni anglatuvchi quyidagi so‘zlar-*jonim, mulla aka, taqsir* hurmat ma’nosini ifodalasa, *do‘ndiqqinam, oppoqo‘g‘lim, bolaginam, onang*

o‘rgilsin, xolaginang o‘rgilsin, xolang aylansin, baraka topgur, bo‘yingga qoqindiq, aylanay, tentakkinam, o‘rgilay, Xudo urgan qo‘li ochiq, bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, balli azamat, qo‘zichoqlarim, toylog‘im, chirog‘im, quling o‘rgilsin, opaginang o‘rgilsin, otang aylansin, oyimchaxon, oyimposhsha, oppoqqinam, baraka topgurlar, bo‘tam kabi lug‘aviy birliklarda erkalash ma’nosi mavjuddir.

Salbiy munosabatni ifodalovchi lug‘aviy birliklarda so‘kish, haqorat qilish, mensimaslik, kinoya, piching, kesatiq ma’nolari anglashiladi: *Bu mollarni yoyib o‘tirgan chayovchilarning afti basharasini aytmaysizmi! Betlariga bu hafta ichi suv tegmagan, soqollari ustaradan ozod, basharalaridan «nur» yog‘ilib turadi* (“Shum bola”). *Bir og‘iz xabar berib qo‘ysang o‘larmiding!* (“Shum bola”). *Xudoyo, seni otangning arvohiga soldim* (“Yodgor”).

G‘afur G‘ulom asarlari tilida salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega lug‘aviy-sintaktik birliklar quyidagicha: *bevafo, yigitcha, avramoq, tantiq, satang, chayqovchi, juvon tushmagur, Xudo urgan o‘jar,o‘limtik, yetti otamning go‘riga g‘isht qalamoq, paranjini tunga ayirbosh qilmoq, chakagini o‘chirmoq, mayna bo‘lib qolmoq, obi diyda qilmoq, javramoq, yigit o‘lgur, juvormarg, tusingni yel yemasin, nomard, past, o‘lgur, zumrasha, ahmoq, makkor bashara, basharasi behayo, haromi, da’yus, padarla’nat, it xo‘mrayish, oq qilmoq, bachchag‘ar, nas bosgan, ko‘zing ko‘rsin, shum bola, ko‘chmachi, manjalaqi, qiztaloq bola,Xxudo urgan badbaxt, ziqna, Xudo urgan odam, itdan tuqqan, qorning oshga to‘ymasin, juvormarg bo‘l, tering sangobda chirigur (sigir), go‘shting olaqarg‘aga xomtalash bo‘lgur (sigir), devona ablah, lo‘livachcha, o‘lguncha ko‘zi tor, ziqna murdor, muloyim supurgi, sanqimoq, baqraymoq, izg‘imoq, salanglamoq* va b.

G‘afur G‘ulom asarlari tilida individual xarakterdagi haqorat so‘zlari ham uchraydi:

-Hoy, haromi ko‘cha, yaxshi o‘ylab ko‘r, u yoq-bu yoqqa olib qo‘ygandirsan? –deb so‘radi (“Shum bola”).

Shoir nasriy asarlari tilini kuzatar ekanmiz, unda erkaklar hamda ayollar nutqida farqlanadigan quyidagi emotsionallikka ega bo‘lgan haqorat so‘zlarini uchratdik. Erkaklar nutqida qo‘llanadigan haqorat so‘zlari: *bachchag‘ar, haromi, o‘lgur, harom o‘lgur, itdan tuqqan, qorning oshga to‘ymasin, juvormag bo‘l, tustovuqqa o‘xshab tumshaymay o‘l, muloyim supurgi bo‘lmay, germonning o‘qiga uchib ket, tuzim ko‘r qilgur, xumpar, padarla’nat // padaringga la’nat, ahmoq, manjalaqi, qiztaloq bola* va b. Shuningdek, G‘afur G‘ulom asarlari tilida haqorat hamda erkalashni ifodalovchi emotsional so‘zlarning yonma-yon qo‘llanganini kuzatamiz:

– Ha, yetim, taylog‘im, qaysi go‘rlarda besar-u somon yo‘qolib ketding? (“Shum

bola”).

– *Nima qilib ivirsiyapsan, bolam?* (“Shum bola”).

Ayollar nutqida emotsionallikni ifodalovchi haqorat so‘zlari keng qo‘llanadi: *o‘lgur, juvonmarg, zumrasha, yigit o‘lgur, betingni yel to‘smasin, aldamchi, iflos, qo‘shmachi, satang, bema’ni, dangasa* va b.

Tursun (Parixonga taajjub bilan qarab turadi). Aldamchi, iflos, qo‘shmachi,
satang! Tufuv!... (Chiqib ketadi) (“Erkimiz”).

Yuqorida sanab o‘tilgan emotsionallikni ifodalovchi haqorat so‘zlari badiiy asarda personajlarning xarakterini ochib berish maqsadida uslubiy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, “Yodgor” asari personaji Jo‘ravoy nutqida haqorat so‘zlari ishlatilmagan. Faqat Mehrining “tuzog‘i” ga ilingan Jo‘raning nutqida “kelishilganday” haqorat so‘zlari ishlatiladi: Ya’ni, *“U meni “chayqovchi”, - deydi. Men uni “tantiq, satang” deyman”.* (“Yodgor”).

“Shum bola” asarida qarg‘ish iboralari ayollar emas, balki erkaklar nutqida juda ko‘p qo‘llangan. Asar qahramoni “Shum bola” nutqida sigirga nisbatan qo‘llangan qarg‘ish iboralari kitobxonning kulgusini keltiradi: “…*Go‘shting olaqarg‘ag‘aga xomtalash bo‘lgur, men yetib borgunimcha o‘t chimdib turadi… Chunki ertaga egang o‘lgur, tutqaloqli sigirni u o‘tlatgani olib borsa, cho‘t qo‘ltiqlab mehmondorchilikda yursam, degan fikr boshimdan ketmas edi. Shu ahvolda tipirchilib yotgan, tering sangobda chirigur sigir birdan irg‘ib o‘rnidan turib, dumini xoda qilib bir qochib berdi…*”. Lekin asar personaji Hoji bobo nutqidagi qarg‘ish iboralari “Shum bola” ning nutqidagi qarg‘ishlardan katta farq qiladi:

– *Hali shunaqami? – dedi, – tuzim ko‘r qilgur?*

– *Hu, javdiramay ko‘zing qursin.*

– *Hu, muloyim supurgi bo‘lmay, germonning o‘qiga uchib ket!*

– *Hu, tustovuqqa o‘xshab tumshaymay o‘l, nimaga qarab turibsan…*

Ba’zi qarg‘ish iboralarning o‘zi jonli nutqda ba’zan suyish, yoqtirish munosabatlarida ishlatiladi: *Qizi tushmagur ancha yetilib qopti-ya!* (“Yodgor”).

Qurmag‘urning ko‘kragini qara, xuddi Hojimuqonning ko‘kragiga o‘xshaydi, boldirini qara! (“Yodgor”).

Salbiy munosabatni ifodalovchi ba’zi bir xil so‘zlar shaxs, narsa hamda hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi: *Qo‘y degan harom o‘lgur juda ahmoq, asov hayvon bo‘lar ekan* (“Shum bola”). – *Qurey, qurey haromo‘lgurlar, qurey, degan mungli ovozini eshitdim*(“Shum bola”). –

Voy, ahmoq. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi (“Shum bola”).

– Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la’natilar? (“Shum bola”). *Biror soat sanqiganimizdan keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog‘och kuragimni sotishga ulgurdik* (“Shum bola”). *Echki bo‘lmagandan keyin boshi oqqan yerga sanqib keta berar ekan* (“Shum bola”).

Ma’lumki, subyekt ba’zan o‘z g‘azabini yumshoqroq, madaniyroq shaklda ifodalash uchun *qurg‘ur, qurmagur* so‘zidan ham foydalanadi. *Tun-telpakni pushtaga qo‘yib, sabzi kovlashga tushib ketdik. Sabzisi qurg‘ur juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroq toshday*.

G‘afur G‘ulom asarlarida qo‘llanilgan emotsional-uslubiy bo‘yoqqa ega leksikani quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Qarindoshlik munosabatini ifodalagan so‘zlarning erkalash, kichraytirish hamda egalik affikslari bilan qo‘llanishi keng kuzatiladi.

Masalan: *– Ninni, ninnigina, nevaraginamdan o‘rgilay, yig‘lamasin, yig‘lamasin. Mana hozir buvingiz qo‘lini artadi, do‘ndiqqinam, o‘zim bag‘riginamga bosaman!*(“Yodgor”).

Mazkur matnda kampir (Jo‘raning onasi)ning nutqidagi nevaraginam so‘zida erkalash shakli (-gina) hamda “egalik affiksi (-m) hissiy munosabatni ifodalab, hissiy ta’sirchanlikni oshiradi”. G‘afur G‘ulom “Yodgor” asarida erkalovchi-emotsional so‘zlarni uslubiy vosita sifatida shu darajada qo‘llaydiki, hatto onasi noma’lum bo‘lgan “nevarasi” ga mehri tushmasdanoq, uning bolajon ayol ekanligini ko‘rsatish maqsadida erkalash shakli va egalik affiksini o‘rinli qo‘llagan: *– Bolaginamning tagi ham bo‘kib ketibdi* (“Yodgor”).

Asarda bunday shakllar ko‘p qo‘llangan: *– Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz…* (“Yodgor”).

“*Voy, xolaginang o‘rgilsin, omon bo‘lsang, bir kun yuvarsan”, – dedim-da, unamadim* (“Yodgor”).

2. G‘afur G‘ulom ijodida o‘zbek adabiy tilidagi qo‘li gul iborasi qo‘li gulgina shaklida qo‘llangan: *Baraka topgurning qo‘li gulgina* (“Yodgor”).

-*gina* affiksi ko‘chma ma’noli tuyoq so‘zi bilan ham qo‘llangan: *Sendan qoladigan tuyoqqina* (“Yodgor”).

Shuningdek, G‘afur G‘ulom asarlarida salbiy munosabatni ifodalovchi gul, tentak so‘zlarini -gina affiksi bilan qo‘llanib, erkalash ma’nosini aks ettiradi: *Men laqalov, gulgina*

banda, laqqa uchdim (“Yodgor”). *Tentakkinangiz savlatlikgina yigit bo‘lib qaytdi-ya, sallotlikdan* (“Yodgor”).

-gina affiksi kinoya ma’nosini ham ifodalaydi:

Ana shu yallachilikning pulidan erginamiz Rahmat hoji bunchalik errayim bo‘lib yuribdi (“Shum bola”).

Egalik affiksi kishi ismlariga ham qo‘shilib, yaqinlik ma’nosini anglatadi: *Yo‘q, bu -mening Saodatim! Vafoli Saodatim!* (“Yodgor”). *Men Jo‘ra akamlarga xat yozmoqchiman, gap-mapingiz bormi, qo‘shib yuboray, dedim* (“Yodgor”).

3.G‘afur G‘ulom asarlari tilida emotsional-bo‘yoqdor so‘z va so‘z birikmalarining asosiy qismini erkalash leksikasi tashkil etadi. Ayniqsa, G‘afur G‘ulom “Shum bola” qissasida bunday leksikadan mohirona foydalangan. Bular quyidagilar: *jonim, bo‘tam, aylanay, toylog‘im, qo‘zichoqlarim, chirog‘im, oppoqqinam, o‘rgulay, bo‘yingdan girgatton, girgitton bo‘lay, oyimchaxon, oyimposhsha, otang aylansin* va b. Bunday erkalash so‘zlaridan ham yozuvchilar turli uslubiy maqsadlarda foydalanadilar. Masalan: *qo‘zichoq* so‘zi ko‘chma ma’noda III shaxs shaklida bolalarga nisbatan qo‘llanadi. G‘afur G‘ulom esa bu so‘zni mullabachalarga nisbatan qo‘llagan: *Xutbani tugatgach, xonaqohni to‘ldirib o‘tirgan mullabachalarga qarab bir nutq irod qildi: – Qo‘zichoqlarim, ey fuqaroning bolalari!* (“Netay”). *Qani ayting, qo‘zichoqlarim, bu bizday fuqarolarga marhamat emasmi edi?*(“Netay”).

Yozuvchi ko‘chma ma’noli qarog‘im so‘zini faqat qozoq ayoli nutqida qo‘llagan:

– *Uy -bay, qarag‘im, to‘g‘ri juk qalbiringdi ne qilayin* (“Shum bola”).

Emotsional-ekspressivlikni ifodalashda istehzoli, kinoyali so‘zlarning ham muhim o‘rni bor. Ayniqsa, “Shum bola” asarida qo‘llangan piching, kesatiqqa boy bo‘lgan emotsional-ekspressiv leksika muallifning mohir so‘z ustasi ekanligidan dalolat beradi. Masalan: *Eshonoyim eshakning bu harakatidan juda ham zavq bilan lazzatlanib, xuddi eshakning bo‘ynidan quchoqlab olguday bo‘lib, unga xushomad qilar va shirin so‘zlar bilan uni olqishlab, yer va ko‘kda yo‘q sevinar edi:*

-*Voy, opaginang o‘rgulsin! Voy, quloqlaringning qimirlashiga o‘zginam girgitton bo‘lay! Uni qarang, oyimchaxon, quloqlari biram chiroyli qimirlaydiki… Voy, eshakjonga jonginamni qoqay!* (“Shum bola”).

O‘zbek adabiy tilida *kuyov* so‘zi qarindoshlikni ifodalab, qizning eri (qizning ota-onasiga nisbatan) hamda endi uylanayotgan yoki yangi uylangan yigit (o‘z qaylig‘iga, xotiniga nisbatan) ma’nolarini anglatadi. “Yodgor” asarida bu so‘z mazax ma’nosida qo‘llangan. Chunki asar

syujetidan ma'lumki, Jo'ra uylanmasdan "o'g'illi" bo'lib qoladi: Avvalgiday, "*Ha, kuyov, o'g'ilcha katta bo'lib yuribdimi?"*, deb mazax qilishmaydi. Ma'lumki, ba'zi so'zlar emotsional-ekspressivlikka ko'ra neytral bo'lib, faqat matn qurshovidagina ekspressivlikka ega bo'ladi:
– *Yuragingiz dov bermayaptimi, yigitcha? Do'ppi, kiyiksavlat, deng-chi, bo'lmasa?…* ("Yodgor"). Mazkur matnda yigit kishi aytgan va'dasida (so'zida) turadi ma'nosi anglashiladi.

Pushaymon ohangi bilan: – Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so'ragan ekanman-ku; bo'ldi ey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo'lsa paranjini to'nga ayirbosh qilamiz birikmasi ham yigit emas ekansiz, ya'ni gapingizda turmayapsiz ma'nosiga ishora etgan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asari tilidagi quvnoq hazillar insonning qiyin psixologik holatini yumshatadi va uni ruhiy zarbadan olib chiqadi. Badiiy asarda muallif hazil so'z va iboralarga ko'proq murojaat etadi. Asar tilida *arzonqul kishi, devona sigir, tentak sigir, jinni sigir, sarkash ishtaha, bedavo qorin, moshkichiripaz xotin, og'ziga kelganini o'tlasin, yo'g'on duo, ovqatning xashakiroqligidan taajjublanmoq, zotdor qushlar, tagi ko'rgan qushlar, qashqa pashsha, nam tortib qolmoq* (xijolat tortib qoladi), *sog'inib ichagimiz uzildi*va b. Ba'zi kesatiq, pichinglar kitobxonning kulgusini qo'zg'atadi. Masalan: *Eng oxiri uzoq muntazirlik va azoblardan keyin hurmatli moshkichiri tayyor bo'ldi. Men bechora moshkichirining azobini bekami-ko'st tortganim holda xo'rsinardim. Lekin o'zingiz o'ylang, birovni tandirga qamab, ustiga o'tirib muzika chalsin, deb qaysi qonunda yozilgan ekan?* ("Shum bola").

G'afur G'ulomning so'z ustasi ekanligi uning yangi, original ifodalarni yaratishidadir. Masalan: *Domla olomonning orasida qolib ketdi. Nima bo'ldi, bilmayman. Tirik bo'lsa,biror go'rdan chiqib qolar, o'lgan bo'lsa Xudo rahmat qilsin* ("Shum bola"). *Og'zim, jag'im, tishim jodidek, istagan xashakni qirqib chiqarishga yaraydi* ("Shum bola"). *Bittang bu yerda qol, bittang ota meros, boshing toshdan bo'lgur sigirim bor, shuni olib chiqib, ekindan bo'shagan yerning uvatlarida yetaklab yurib boqib kelasan…*("Shum bola"). *Omon sigir go'shti tilga kelganligidan qo'rqib ketib, qopni tashlab yubordi* ("Shum bola")

Tildagi emotsional-ekspressivlik badiiy matnning ta'sirchan va jonli bo'lishiga sabab bo'ladi. Har bir asarning badiiy qimmatini tilning kommunikativ va estetik vazifasi belgilaydi. Chunki, so'zlovchi o'z fikrlarini qanday ifodalash, tinglovchiga aniq yetkazib berishni o'ylaydi, buning uchun o'ziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqa boshlaydi. Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Badiiy matn ifoda imkoniyatlari va usullarining

rang – barangligi, o‘ziga xosligi va betakrorligi uning ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. G‘afur G‘ulom ham matnning badiiyligini ta‘minlashda o‘z badiiy niyatiga muvofiq ravishda ifoda imkoniyatlaridan istaganini tanlaganligi asarlarini jonli, ta’sirchan va esda qolarli chiqishiga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 200 b.

2. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, adabiy norma tiplari. – Toshkent, 1997. 1-qism. –136 b.

3. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi,1995.–138 b.

5. Yusupov K. O‘zbek adabiy tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent, 1986.

6. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000. – 26 b.

7. G‘ulom, G‘afur. Shum bola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.– 223 b.

8. G‘afur G‘ulom. Yodgor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1983.

“TARIXI MULUKI AJAM”DA ANTROPONIMLAR ETIMOLOGIYASI (2-QISM KAYONIYLAR SULOLASI ASOSIDA)

Madina SAMATBOYEVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” (2-qism Kayoniylar sulolasi)dagi antroponimlar atroflicha o‘rganildi va etimologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotimiz jarayonida forsiy leksikalar asosida turk va arab tili unsurlari mavjudligi aniqlandi. Antroponimlar etimologik tahlili davomida ularning leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi, fikrlar misollar orqali isbotlandi .

Kalit so‘zlar: *“Tarixi muluki Ajam”, nomshunoslik, antroponim, etimologiya, leksika.*

Annotation

In this article, the anthroponyms in the Tarixi Muluki Ajam (Part 1: Peshdodi dynasty) of Alisher Navoi were thoroughly organized and etymologically analyzed. Our research revealed that there were elements of Turkish and Arabic based on Persian vocabulary. During the etymological analysis of anthroponyms, their lexical-semantic features were revealed and the points were supported by examples.

Key words: *“Tarixi Muluki Ajam”, Onomastics, anthroponym, Etymology, vocabulary.*

“Tarixi muluki Ajam” asari 4 sulola tarixini o‘z ichiga oladi. Bu sulolalar quyidagilardir:

a) peshdodiylar sulolasi - eramizgacha bo‘lgan 3223-782-yillar;

b) kayoniylar sulolasi - eramizgacha bo‘lgan 782-50-yillar;

v) ashkoniylar sulolasi - eramizgacha bo‘lgan 50-yildan eramizning 150-yiliga qadar;

g) somoniylar sulolasi - eramizning 150-651-yillari

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam» asari hamda «Saddi Iskandariy» dostonining XI, XII, XIII va XIV boblarida bu sulolalarning har biri to‘g‘risida o‘zigacha mavjud bo‘lgan tarixiy asar va manbalardan kelib chiqib ma`lumot beradi, ularning hammalarini «muluki Ajam» (Ajam hukmdorlari) deb ataydi.

Asardagi hukmdorlar quyidagicha tasnif etiladi:

a) *mifologik obrazlar:* Kayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid.

b) *afsonaviy qahramonlar:* Som, Narimon, Zol, Rustam, Gev, Bijon.

v) *tarixiy personajlar* Iskandar, Bahrom Go‘r, Mazdak, Anushirvon, Xusrav Parviz [1]

Biz ushbu maqolamiz orqali 2-sulola Kayoniylar sulolasi va ushbu sulolada saltanat qilgan hukmdorlar nomlari etimologiyasiga to‘xtalib o‘tdik. Xoh badiiy asar bo‘lsin, xoh ilmiy asar uni yaxshi tushunish uchun avvalo uning tarkibidagi so‘zlar ma’nosiga e’tibor qaratish lozim. Asar ilmiy asar bo‘lganligi uchun antroponimlar etimologiyasi borasidagi tadqiqotlarimiz biroz tarix fani bilan ham aloqadorlikda olib borildi.

Kayoniylar, (kavilar)— O‘rta Osiyo va Xursonda mil. avv IX—VIII asrlarda yuzaga kelgan davlat uyushmalarida hukmronlik qilgan qadimiy podsholik sulolasi. Avesto kitobidagi an’ana xronologik jihatdan mil.avv XI— VIII asrlar orasiga mavhum tarzda ishora qiladi. Kayoniylar sulolasiga afsona sifatida hamda O‘rta Osiyoda ilk temir asriga oid tarixiy haqiqat deb qarashlar mavjud. Kayoniylar haqidagi xabarlar 2 xil talqinga ega:

1) zardushtiylik ta’limotiga asoslangan diniy talqin (Avesto kitobidagi kavilar avval ta’limot dushmanlari, keyinroq esa uning homiylari. Masalan, Kavi Vishtasp);

2) epik badiiy talqin. Bu yo‘nalish Kayoniylarlarning afsonalash-tirilishiga olib kelgan («Xvadaynamak», «Shohnoma»).

Sulola o‘z nomini **kohinlar tabaqasi kavi («shoir kohin»)** dan olgan. Katta Kayoniylar soni manbalarda 3—8 tagacha (Kavi Kavad-Kayqubod, Kavi Us an, Kavi Xosrava-Kayxusrav) uchraydi. Shuningdek, Apivaxa, Arshan, Pishinax, Biyarshan, Siyavarshan-Siyovushlarni ham o‘z ichiga oladi. Kichik Kayoniylarga Aurvataspa (Luhrosp) va Kavi Vishtaspa (ba’zan uning 2 ukasi — Spentodata va Zarivaray) kiritilgan. Kayoniylarning asosiy mashg‘uloti — Afrosiyob boshchiligidagi ularga dushman turon qabilalari bilan urushish bo‘lgan. Jahonda zardushtiylik dinining tarqalishi kichik Kayoniylar davrida bo‘lgan deb hisoblanadi. «Shohnoma»ga ko‘ra, Kayoniylar — Eronning buyuk shohlari, ammo ularning qudrati va harbiy yutuqlari ashaddiy ma’jusiy, so‘ngra zardushtiylik dushmani Rustamga bog‘liq bo‘lgan. Kayoniylarning hukmronlik qilgan yerlari turlicha ko‘rsatiladi: Avestoda afsonaviy ko‘llar, daryolar (Vorukasha, Daytya, Chaychasta), afsonaviy tog‘lar (Erzifya, Hariti) atrofi, Hilmand daryo havzasi va Drang‘ianadagi Hamun ko‘li atrofida deb ko‘rsatiladi. Musulmon mualliflar manbalarida ba’zilari Balx (qadimda Baqtriya poytaxti) boshqalari (Ma’sudiy, Beruniy) Kayoniylarni Yangi Bobil podsholigi hukmdorlari (mil. avv. 7—6-asrlar) bilan bog‘laydilar. Bu kabi ma’lumotlar Kayoniylar haqidagi rivoyat va hikoyatlar afsonaga aylanish davrlarida chalkashliklarga

uchragan, Avestoda salbiy ma’noda ham uchraydi. Bu holni zardushtiylik diniy islohotlaridan oldingi davrlar bilan bog‘lash mumkin. Zardushtning Ahuramazda haqidagi xushxabarini dastlab Kayoniylar rad etishgan. Shu taassurot izlari Avestoda salbiy munosabat kabi namoyon bo‘lgan. Avestoning keyingi qatlamlarida esa ijobiylasha boradi. Ular adolat, diyonat kurashchilariga «aylana boradilar».

“Tarixi muluki Ajam”da bu sulolada 9 kishi hukmronlik qilgani aytiladi va ba’zilar Iskandar bilan birga jami 10 hukmdor edi deydilar. Ammo yuqorida bu davlat sulola nomini olib, davlat birlashmasi bo‘lgan davr xronologik jihatdan Iskandar yashagan davr bilan tog‘ri kelmaydi. [2]

1.KAYKOVUS – forscha “kay” – qachon; “kov” –ko‘mmoq (misol: go‘rkov so‘zi); us – qo‘shimcha.

2.KAYXISRAV – forcha “kay” – qachon; “xis” – his-tuyg‘u; “rav” – bormoq.

Ushbu ism tarixi manbalarda turlicha keltiriladi:

1. (Kavi Xaosrava) «Shohnoma»ga ko‘ra, onasi Zahhok qavmidan bo‘lgan turonlik Farangis. Otasi Siyovush. Afrosiyob Turon bahodiri Pironga Farangisga ko‘z-quloq bo‘lib turishini va tug‘iladigan chaqaloqni o‘ldirishni buyuradi. Piron tushida Siyovushni ko‘radi. Siyovush o‘g‘lining taxtga o‘tirishini bashorat qiladi. Piron “Kayxisrav” deb ism qo‘yilgan chaqaloqni cho‘ponlarga topshiradi.

2.Avestoda Kavi Xaosrava(Kayxisrav) Ardvi Suradan Frangxrasyon (Afrosiyob)ni yengishda madad so‘raydi. Unga Ardvi madad beradi. «Chunki, Ardvi iymonlilar tilagini bajo keltiruvchi zotdir»;

3. Boshqa bir manbada: Axomaniylar davlati asoschisi Kir II ning xalq og‘zaki ijodi, folklorda uchraydigan afsonaviy nomi. [3]

3.LUHROSB BINNI ARUND – “luh” so‘zi forscha “qo‘g‘a” (suvda, ko‘lmakda o‘sadigan qamishga o‘xshash, uchida tukli qismi bor o‘simlik) degan ma’noni anlatadi.

4.GUSHTOSB – ushbu ism etimologiyasiga e’tibor bersak, “go‘sh” so‘zi forschadan tarjima qilganda, “et” yoki “quloq” degan ma’nolarni anlatadi. So‘z tarkibidagi “tosb” so‘zi esa aynan tarjima qilinmay, unga yondosh bo‘lgan, balki fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘z sifatida “tob” so‘zi mavjud bo‘lib, “chimdimoq” yoki “siqmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu ism tarkibidagi 2-qism asardagi boshqa antroponimlarning ham ikkinchi qismiga

o‘xshashdir(Girshosb, Luhrosb). Bu tovushlar ism tarkibida bir xil o‘xshashlikda qaytishi, asli ularning bir so‘zning fonetik o‘zgarishga uchrash holati deb o‘ylaymiz.

5.BAHMAN- Yaxshi, ezgu fikrli, yaxshi niyatli yoki eskicha quyosh (shamsiya) yili hisobi bilan o‘n birinchi oy - bahman (22 yanvar-22 fevral) da tug‘ilgan bola.

6.HUMOY- (Humoy so‘zining turkiy shakli - qabay/qamay).“Saddi Iskandariy” dostonining asosiy bobida himmat tushunchasini voz kechish ma’nosida qo‘llab, ikki narsaga tashbih qiladi: 1) kimyo; 2) *humoy* (ov qushi). Ushbu ism tarkibida totem berilgan demak bu muqaddaslik ya’ni “humo” qushiga nisbat berilmoqda. Asarda ham Humoy ayol hukmdor sifatida talqin qilinadi. Asar 1-qismida ayol hukmdor bo‘lmagan, ammo mana shu o‘rinda tarixda ayol hukmdor o‘tganligi aytiladi va o‘z o‘rnida uning hukmronligi davrida mamlakat gullab-yashnaydi. “Humo” qushi davlat ramzi hamdir va bu jihatdan antroponimda sema va semiotikaning uyg‘unligi mavjud.

7.DOROB- asar tarkibidayoq Navoiyning o‘zi “Dorob” ismi etimologiyasi haqida keltiradi: «Humoy... Chun homila erdi, vaz` haml qildi va saltanat hubbi qo‘ymadikim, o‘g‘lini podshohliqqa mansub qilib, o‘zi anga muhofazat qilg‘ay. Ani bir sanduqqa solib qiyr bila mahkam qilib, daryoga soldi. Debturlarkim, bir gozur ilikiga tushub, ani farzandchilay asrab tarbiyat qildi...

Gozur ani suvda topgan uchun Dorob ot qo‘ydi”.

Yani bu o‘rinda “dor” forcha – “ip, dor”, arabcha “dor” – “uy, hovli”; “ob” – suv” ma’nosida kelgan.

8.DORO BINNI DOROB- ism tarkibida “binni” so‘zi o‘gli degan ma’noni anglatadi. Demak, Dorobning o‘g‘li Doro. Bu o‘rinda “Doro” so‘zi arabcha “ega, sohib” yoki “ shoh, hukmdor” ma’nosini anglatadi.

9.ISKANDAR- Bu ismni eslashda birinchi bo‘lib esga olinadigan narsa bu fath va g‘alabalari bilan mashhur bo‘lgan mashhur podshoh va sarkarda Aleksandr (mil. Avv. 356-323). Uning sharofati bilan Iskandar ismi musulmon mamlakatlariga ham tarqalib, yangi izoh - Iskandarni oldi. “Iskandar” (yun.)”Xudo eshitdi; Xudodan *so‘*rab olingan bola”.

Boshqa manbalarda keltirilishicha, ushbu ism qadimgi yunoncha kelib chiqishi «ἀλέξω» (alexo) - «himoya qilish» va «ἀνδρός» (andros) - «odam» - «barcha odamlarning himoyachisi».

Bunday katta va jasur ism o‘z egasining xarakteri va taqdiriga ta'sir qilishi tabiiydir. Bundan tashqari, Aleksandr, boshqa har qanday singari, biz hal qilishga harakat qiladigan maxfiy nomga ega.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (http://ish-reja.blogspot.com/2016/08/shohnoma-asari-togrisida-shohnomada.html)
2. (http://ish-reja.blogspot.com/2016/08/shohnoma-asari-togrisida-shohnomada.html)
3. (http://www.gpedia.com/uz/m/gpedia/Kayxusrav)
4. (https://peoplepill.com/people/kayqubod/)
5. A. Navoiy. Tarixi muluki Ajam. To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. –Toshkent, 2011.

O‘ZBEK BOLALARI NUTQIDA LEKSIK ASSOTSIATSIYANING IFODALANISHI

Dilbar MIRNOSIROVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbektili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek bolalari nutqida leksik assotsiatsiyalarning yuzaga kelish omillari, ular nutqiga xos leksik assotsiatsiya turlari, verbal assotsiatsiyaning shakllanishida bola lug‘at zahirasining o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Unda maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari hamda badiiy matnda bola tilidan ifodalangan leksik assotsiatsiyalar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar*: bolalar nutqi, leksikon, leksik assotsiatsiya, assotsiatsiya turlari, assotsiativ tajriba.*

Annotation

The article discusses the factors of lexical associations in the speech of Uzbek children, the types of lexical associations specific to their speech, the role and importance of children's vocabulary in the formation of verbal associations. It provides a comparative analysis of the results of associative experiments on the speech of preschool and school-age children, as well as lexical associations expressed in the language of the child in the literary text.

Key words*: child’s speech, lexicon, lexical association, types of associations, associative experience.*

Muloqot jarayonida inson o‘z fikrini to‘liq va erkin ifodalashi uchun dastavval so‘z boyligiga ega bo‘lishi, uni bosqichma-bosqich boyitib borishi zarur. Kattalarda bu holat ko‘p kitob mutolaa qilish, atrof-muhit haqida chuqur bilimga ega bo‘lish orqali yuzaga kelsa, kichik yoshdagi bolalarda tabiat va undagi mavjudotlarga qiziqish, ularni muntazam kuzatish asosida namoyon bo‘ladi. Albatta, bu jarayon tez fursatda emas, balki tadrijiy ravishda amalga oshadi. D.B.Elkonin bola dunyoqarashining kengayishi, uning kattalar bilan muloqoti so‘z boyligining bosqichma-bosqich ravishda ortib borishiga sabab bo‘lishini ta’kidladi. [1, 115] E’tibor berilsa, bola ulg‘aygani sari uning lug‘at zaxirasidan turli so‘zlar o‘rin egallay boshlaydi, 7-8 yoshli bolalar leksikoni 4-5 yoshli bolalarning lug‘at zaxirasiga nisbatan ancha boy bo‘ladi. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan Sh. Bueller 1 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan 30 nafar bolaning lug‘at zaxirasini qiyosiy o‘rganish orqali, har bir yosh davri uchun minimal va maksimal so‘z boyligini ko‘rsatib beradi va bu borada mavjud individual farqlanishlarni qayd etadi: 1-yosh - minimal so‘z boyligi – 3 ta so‘z, maksimal so‘z boyligi – 58 ta so‘z, bir yarim yosh - 44 ta va 383 ta so‘z, 2- yosh - 45 ta va 1227 ta so‘z, 2 yoshu 6 oy – 171ta va 1509 ta so‘z. [1]

Demak, bolalar so‘z boyligi yildan yilga ortib boradi.Biroq bu boradagi statistik ma’lumotlar nisbiy xarakterga ega bo‘ladi. Tengdosh bolalar so‘z boyligining sifat va miqdor jihatdan muayyan darajada farqlanishida ijtimoiy-psixofiziologik omillarning ta’siri va ahamiyati kattadir. Ontogenez davrida bola tomonidan nafaqat so‘zlar o‘zlashtiriladi, balki shu so‘zlar vositasida bola ongi va tafakkurida bog‘lanishlar, ya’ni assotsiatsiyalar yuzaga keladi. D.Xudoyberganovaning qayd etishicha, “inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assosiasiyalarni paydo qiladi”. [2, 101]

Bola ham ongiostidagi so‘zning tabiatdagi narsa va hodisalar bilan bog‘liqligini, ular bilan muayyan belgi orqali semantik guruh hosil qilinishini his etadi.Bu jarayonda bolalarda tabiiy ravishda verbal assotsiatsiyalar shakllana boshlaydi.N.V.Serebryakova (1986) 5-8 yoshli bolalarga xos og‘zaki assotsiatsiyalarning tabiatini tahlil qilish asosida nutqi me’yorida rivojlangan bolalar tomonidan semantik maydon hosil qilinishining quyidagi bosqichlarini aniqlaydi:

Birinchi bosqich shakllanmagan semantik maydon bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda bola atrofdagi vaziyatni idrok etishga tayanadi va uni qurshab turgan narsalarning nomlari reaksiya so‘zlari sifatida ustunlik qiladi. Mazkurdavrdaleksikizchillikshakllanmaganbo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda ma’no jihatdan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadigan, ammo ma’lum bir obrazlar munosabati orqali hosil bo‘ladigan so‘zlar o‘zlashtiriladi. Bu holatda bola ongidagi tematik assotsiatsiyalar ustunlik qiladi.Masalan,uy-tom, baland-daraxt va boshqalar. Bu bosqichda bog‘lanishlarning obrazli motivatsion tabiati namoyon bo‘ladi.Semantik maydon tarkibiy jihatdan tartibga solinmagan holatda aks etadi.

Uchinchi bosqichda tushunchalar o‘zaro semantik jihatdan tasniflanadi. Bu holatda o‘zaro bir semantik belgisiga ko‘ra farqlanuvchi so‘zlar orasida paradigmatik assotsiatsiyalar hosil bo‘ladi.(baland-past)

N.V.Serebraykova shu tariqa bolalardagi og‘zaki assotsiatsiyalarni tematik assotsiatsiya, fonetik assotsiatsiya, paradigmatik assotsiatsiya, sintagmatik assotsiatsiya kabi turlarga ajratadi.[3, 31-38]

Mazkur maqolada biz bolalarga xos leksik assotsiatsiyalar haqida so‘z yuritamiz.Chunki, hozirgi kunga qadar ontolingvistika doirasida bu turdagi assotsiatsiyalar yetarli darajada o‘rganilmagan.Tadqiqotimiz mavzusi shu jihatdan dolzarbdir.

D.Lutfullayevaning “Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” nomli monografik tadqiqotida leksik assotsiatsiyalarni yuzaga keltiruvchi omillar quyidagicha belgilangan: [4, 31-32]

1. Leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko‘ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko‘ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko‘ra bog‘liqligi.
8.Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko‘ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko‘ra aloqasi.

Kuzatuvlarimizga ko‘ra, bolalarga xos leksik assotsiatsiyalar ko‘pincha leksemalarning semantic jihatdan bog‘liqligi hamda leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi asosida yuzaga keladi. Bu holat badiiy asar matnida bola tilidan ifodalangan leksik birliklarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. *Jumladan, Elak tap-tap etadi.Tagidan supraga un yog‘iladi. Xuddi* ***qordek***. [5] misolida “un”va“qor” so‘zlarining assotsiativ munosabatga kirishishiga nolisoniy (pragmatik) omil sabab bo‘lgan. Chunki bu kabi holatlarda leksik birlik orqali ifodalangan narsa-predmet adresant ko‘z o‘ngida rangi bilan birga gavdalanadi. Natijada tashqi belgisiga ko‘ra o‘xshashlikka asoslangan verbal assotsiatsiyalar yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi o‘ttiz nafar bola nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba jarayonida retsipiyentlar tomonidan stimul so‘zlarga berilgan javob reaksiyalari mazkur yosh davrida bir so‘z yodga solinganda unga bog‘liq, ya’ni shu so‘z bilan bir uyaga mansub bo‘lgan leksik vositalarning lisoniy xotirada tiklanishini aniqlash imkonini berdi. Bunda tajriba ishtirokchilariga kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan 10 ta so‘z og‘zaki ravishda taqdim etildi. Sinaluvchilarga har bir so‘zni eshitganda ko‘z o‘ngida nimalar gavdalanganini birma-bir aytish vazifasi topshirildi.Masalan: Robiya Sharofiddinova (4 yosh) “qush” so‘zini eshitishi bilan uning tana a’zolari nomini(***qanot, tumshuq, ko‘z*** kabilar) ayta boshladi.Ushbu nutqiy vaziyatda bola tomonidan ifodalangan somatizmlarning (tana a’zolari nomi) har biri“qush” so‘zi bilan partonimik munosabatga (butun-bo‘lak munosabati) kirishib, leksik assotsiatsiyani hosil qilgan. Bu holat semantik aloqadorlik asosida, ya’ni lisoniy omil ta’sirida yuz bergan.Mazkur retsipiyent “sariq” so‘zini eshitganda ***quyosh, uning nurlari*** deb javob

berish orqali muayyan belgiga ko‘ra aloqadorlikka asoslangan verbal assotsiatsiayni yuzaga keltirdi.

Maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida o‘tkazilgan tajriba jarayonida lug‘at zaxirasining boyishi va takomillashuvi natijasida bola leksikonida mavjud stimul so‘zga javob reaksiyasi sifatida namoyon bo‘luvchi assotsiativ tafakkur mahsuli ham miqdor jihatdan ortib borishi aniqlandi. Soliha Sharofiddinova (8 yosh) nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Soliha“sariq”so‘zigajavobsifatida***quyosh, jo‘ja, sariqqalam, sariqko‘ylak***kabilarni, “tabiat”so‘zigajavobsifatida***daraxt, osmon, yer, suv, quyosh***kabiso‘zlarniqaydetdi.

Ko‘rinadiki, bola ulg‘aygan sari uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi, u o‘zini o‘rab turgan muhitga o‘zgacha qiziqish bilan qaray boshlaydi. Bu jarayonda bola dastlab borliqdagi narsa-hodisalarning nomini bilishga intiladi. Natijada uning so‘z o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoji ortib boradi. So‘z boyligining ortib borishi esa o‘z navbatida nutqning rivojlanishi, bolalar kommunikativ faoliyatida kuzatiladigan lisoniy to‘siqlarning bartaraf etilishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalar so‘z boyligining ortishi ularning lisoniy ongida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, semantik jihatdan aloqador bo‘lgan lug‘aviy birliklar ko‘lamining kengayishiga zamin yaratadi. Bu borada olib boriladigan ilmiy va amaliy izlanish natijalari leksikologiya, ontolingvistika, psixolingvistika va assotsiativ tilshunoslikda ilgari surilgan nazariyalarni yangicha yondashuvlar bilan yanada boyitishda o‘ziga xos o‘rin tutadi,shu bilan bir qatorda, assotsiatsiyalar lug‘atini yaratish orqali leksikografiyaning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Bolalar assotsiativ lug‘atini tuzish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эльконин Д.Б. Развитие речи в дошкольном возрасте.– М.: Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1958.

2. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015.

3. Серебрякова Н.В., Парамонова Л.Г. Особенности организации семантических полей у детей с общим недоразвитием речи // Межвузовский сборник. – Л. 1986.

4. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: 2017.

5.Ҳошимов Ў. “Икки эшик ораси”. – Тошкент: 2017.

O‘ZBEK AYOLLARI MULOQOT XULQINING LINGVOKUL- TUROLOGIK TADQIQI

Parizoda RO‘ZIBOYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Mahbuba RO‘ZIBOYEVA
Farg‘ona viloyati,
O‘zbekiston tumani 16-umumta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

*Bugun o‘zbek ayollarining muomala madaniyati, so‘zlashuv uslubi butun dunyo ahlini hayratga solmoqda.Sababi, ularning nutqidagi mayinlik, erkalash, so‘zlaridagi mehr, o‘z so‘zini o‘z o‘rnida tinglovchisiga yetkazib bera olishi, xalq og‘zaki ijodi namumalaridan o‘rinli foydalana olishidir.Ular o‘z fikrlarini donishmandligi,topqirligi, balki, nigohlari**,** qarashlari orqali ham ifoda eta oladilar.Ular farzand tarbiyasida ham muomila madaniyatini shakllantirishni muhim vazifalardan biri deb hisoblaydilar.*

Kalit so‘zlar: *maqtov so‘zlar,ohang, musiqiylik, topqirlik,yalinchoqlik, donishmandlik.*

Annotation

Today, the culture of uzbek women, the style of speech amazes the people of the world, because of the softness caress, kindness in their words, their ability to use their words in their proper place.They can express their thoughts thought wisdom, ingenuity, but also throught their eyes and opinions.They consider the formation of a culture of behavior as one of the important tasks in the upbringing of children.

Key words:*Praise,melody, musicality,ingenuty, laziness, wisdom.*

Til shirinligi ko‘ngilga yoqimlidir.Muloyimligi esa, foydali.

Alisher Navoiy

Buyuk bobomiz, g‘azal mulkining sultoni, turkiy tilning asoschisi Alisher Navoiy hazratlari “Til va dil insondagi eng yaxshi a’zolardir” deb ta’kidlaganlar.Bu fikr bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.Til va dil o‘zaro bir-biriga bog‘liq.Dilga til orqali yetib boramiz, dildagilarimizni esa tilimiz, nutqimiz orqali bayon etamiz.Biz bu hayotda yashar ekanmiz har kuni insonlar bilan muloqotga kirishamiz, ular bilan suhbatlashamiz.Ba’zida vaqt o‘tkazish uchun, ba’zida kimgadir ko‘nglimizni yozish uchun, ba’zida nimadir o‘rganish uchun.Bir so‘z bilan aytganda, muloqotdan nimanidir ko‘zlaymiz.Har kimning dunyoqarashi, bilim doirasi, hayotiy qarashlari o‘zgacha.Biri-birisini takrorlamaydi.Bolalar nutqi o‘ziga xos, erkaklar nutqi o‘ziga xos, ayollar nutqi o‘ziga xos…

Biz bugun ayollar nutqi haqida fikr yuritamiz.

Avvalo, ayol kim degan savolga to‘xtalsak:ayol-bu ona, ayol-bu singil, ayol-bu yor…Biz umrimizni ayollarsiz tasavvur etolaymiz.Nima uchun?Ulardagi go‘zallik uchunmi, yo‘q!Go‘zallikni tabiatdan ham topsa bo‘ladi.Ular pishiradigan taomlar uchunmi, -yo‘q!Taomni o‘zimiz ham pishira olishimiz mumkindir, ammo, ulardagi samimiyat, ulardagi mehribonlik, ulardagi sevgi-muhabbat, ulardagi botirlik, ulardagi erkalik, g‘amxo‘rlikni hech qayerdan topa olmaymiz. Ayol – bu umrimizni bir bo‘lagi.Vena tomirimiz desak ham xato bo‘lmas menimcha. O‘zingiz o‘ylang :jaxlingiz chiqib, ishdan charchab kelganingizda, asablaringiz tarang bo‘lib uyga kirganingizda farishtadek ayolingiz qarshingizga peshvoz chiqib, jilmayib, samimiyat, muloyimlik bilan:-Assalomu alaykum,dadajonisi, yaxshi borib keldingizmi?, -desa qalbingizga iliqlik yugurmaydimi.Sizni intizorlik bilan kutgan, siz sizni issiq taom, issiq uy, qaynoq mehr bilan ko‘zlari chaqnab turgan ayolingiz qoshiga jaxl bilan kirganingizdan uyalib ketmaysizmi?!

Ha ayol shunday!Bir nigohi bilan toshlarni gullatib, bir so‘zi bilan muz qalbingizni eritib, bir ohang ila qushlarni sayratib yuborishga qodir.U shunday yaralgan.Ayolni ayolligi ham shunda.

Biz birinchi navbatda **ayollarimiz nutqida keltiriladigan maqtov so‘zlar**ga to‘xtalsak:

Ayollarimizning maqtovlari hammaga birdek yoqishi tabiiy.Ayollarimiz qancha muloyim bo‘lsa, ishi shuncha unaveradi, ularning oilaviy munosabatlari yanada mustahkmlanadi.Oila kattalati qizlarimizga endi til chiqarib, bir ikki so‘zni ayta boshlaganidan ularga muloyimlikni o‘rgatadilar.Chunki muloyim bo‘lish bu ayol kishining ziynati.

Ayollarimiz **turmush o‘rtoqlariga**sultonim, pahlavonim, mardim, shunqorim, alpim, chirog‘im, begim….kabi so‘zlar bilan murojat qiladilar.Ular maqtovlarni ko‘pincha sevinganlarida yoki turmush o‘rtog‘ini ruhini ko‘tarishda, ba’zan kinoya ma’nosida qo‘llashadi.Keling biz ular nutqidagi maqtov gaplarga misollar ko‘rib chiqamiz.

“Biram ishbilarmonsiz-da,dadajonisi.Siz menga latoreyada chiqqan yutug‘imsiz!”

“shunday yaxshisiz-ki, har gal sizni dunyoga keltirganlari uchun oyijonimga rahmatlar aytgim keladi!”, -bunda ayol ham turmush o‘rtog‘ini maqtaydi, ham qaynonasiga bo‘lgan mehrini nomoyon etadi.Bu bilan juftining o‘ziga bo‘lgan mehrini yana bir karra oshirishga erishadi.

“Yigit bo‘lsang shunqordek bo‘l,

Bo‘l lochin-u burgutdek.

Mard yigitlar jonon qizlar

Havas qilsa qilgudek!”(Oxunjon Hakim).Ushbu misol orqali ayol o‘zining adabiyotdan xabardorligi, hamda erining mardligi, bahodirligini ta`kidlaydi.

Yana bir maqtash bor :-bu qo‘shiq orqali maqtash.Bunda ayol ovozidagi ohangdorlik, mayinlik, o‘ziga xos joziba, nafosat, mimika har qanday inson qalbiga erigan saryog‘day singib ketadi.Ayniqsa erkak kishi maqtovga o‘ch bo‘ladi.Ularni do‘stlari davrasida, yaqinlari davrasida maqtasangiz bormi!Ular ko‘klarga uchadi.Ba’zida ularda yo‘q fazilatlar bilan ularni shiringina qilib maqtash, o‘z kamchiliklarini o‘zi anglashga yordam beradi, ayol undan nimani xohlayotganini ham ziyrak erkak faxmlab olishi qiyin emas.

Bir ayolni bilaman.Ikki farzandi bor.Turmush o‘rtog‘i tadbirkor.O‘zi esa uy bekasi.Oilasi buzilib ketish arafasida edi.Qarindosh urug‘lari og‘il farzandlariga hatm to‘y qilsak, zora shu bahona ular bir biri bilan yanayam inoqroq bo‘lsa, o‘rtadagi farzandlar haqida o‘ylasa, shu qora

ko‘zlar uchun oilasini mustahkamlashga harakat qilsa, deyishdi.To‘y bo‘ldi.Turnush o‘rtog‘ining do‘stlari va ularning ayollariga berilayotgan ziyofat paytida ayol va uning tusrmush o‘rtog‘ini so‘zga chaqirdilar.Ayol so‘zini “Meni peshonamga shu insonni yozgan Xudoyimga rahmat.Agar dunyoga o‘n marta qayib tug‘ilganimda ham shu insonni tanlagan bo‘lardim, ”-deb yakunladi.Ana maqtov!Ayolidan bunday so‘zni kutmagan turmush o‘rtog‘i quvonib ketdi.Davrada qarsaklar yangradi…Shu birgina so‘z tufayli erning ayoliga bo‘lgan munosabati o‘zgardi.So‘z shunday qudratga ega.Bizdan talab qilinadigani esa, faqatgina uni kerakli vaqtda, kerakli o‘rinda qo‘llash xolos.

Shu o‘rinda Erkin Vohidovning bir she’rini keltirib o‘tsam:

Qiz bolaning rost gapi ozdir,
Yolg‘onlari bisyor adashma.
“Tegmang menga”-, degani nozdir
“Nari turing” desa karashma.
Ishva bilan “ qurib keting” der
Ko‘ngilga hech qattiq olmagin.
“O‘ling ” desa yashnab yuraver,
“Qoching” desa qochib qolmagin.
Hech gul bormi axir tikansiz,
Tikaniga fido qilgin jon.
Bir kun aytar “yomon ekansiz!”
Ma’nosi siz eng yaxshi inson!

Erkaklar nutqining ayollar nutqidan farqli jihati shundan iboratki, erkaklar nutqi qisqa, qat’iy, ko‘pincha buyruq ifodasida bo‘ladi.Ayollar nutqida esa ohang, erkalash, mayinlik, yalinish, his-hayajon kuchli bo‘ladi.Olimlarning izlanishlariga ko‘ra ayollar o‘zlari yoqtirgan erkak kishi bilan gaplashganda ularning ovozlari ikki barobar ingichkalashib, mayinlashar ekan.

Endi esa **onalarning bolalari bilan qiladigan muloqotidagi maqtovlar**ni ko‘rib chiqsak:

Umuman olganda bolalar ham maqtovga o‘ch bo‘ladi.Ular birgina maqtovingizdan ko‘klarga uchadi.Bajargan ishini yanada yaxshiroq bajargisi, yana nimalarga qodirligini ko‘rsatgisi keladi.Ayollar farzandlarini oppog‘im, mardim, Temurim, pahlavonim, alpim, chaqqonim, bilag‘onim, g‘amxo‘rim….kabi so‘zlar bilan;

Hayvon va parranda, qushlarlardagi o‘ziga xos xususiyatlarni ularning nomiga ko‘chirgan holda(arslonim, ayiqpolvonim, toychog‘im, xo‘rozim,bulbulim, burgutim, lochinim kabi) ishlatishadi.

Qimmatbaho madanlar nomi bilan: oltinim, tillo qizim..

Shuningdek ayollarning farzandlariga bo‘lgan maqtovlarini ular kuylaydigan allalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Kuyovlarga maqtov

“Kuyovni payg‘ambarlar siylagan” .Ularga maqtov aytib yurmasangiz bo‘lmaydi deyishadi.Qizlarimiz ularning qo‘llarida, bir shirin so‘z kimni o‘ldiribdi, maqtasam qizimning baxti uchun-da, -deyishadi.Ba’zida onalarimiz qizlari arazlab uyga kelgan paytlarida qizlarini

koyib, kuyovlarini shu qadar maqtaydiki, qiz turmush o‘rtog‘ining bunday hislatlarga ega ekanligini bilmaganiga afsuslanadi.Qalbida unga nisbatan qayta mehr uyg‘onadi.Qizining kamchiliklarini to‘g‘ri tushuntiradi.Shu o‘rinda Marhabo Karimovaning “Kuyov bolam” nomli she`ri yodimga tushdi:

Kuyov bolam, bo‘z bolam,
Mani qora ko‘z bolam,
Sizga bitta so‘z bolam,
Qizim yomon, siz yaxshi.

Erka bolam, arslonim,
Oyim turgan osmonim,
Qo‘lingizdadur jonim,
Qizim yomon, siz yaxshi.

Yigit bormi sizday mard,
Yuragi toza begard,
Ikki dunyo ko‘rmang dard,
Qizim yomon, siz yaxshi….

Yana bir o‘rinda:
Qizimning o‘zi axmaq
Yurardi sizni maqtab,
Bir kepti-da arazlab,
Qizim yomon, siz yaxshi…
…Taqsirimsiz, xo‘jamsiz,
Qimmatbaho o‘ljamsiz,
O‘zim ochgan jo‘jamsiz,
Qizim yomon siz yaxshi…

Ushbu she`rda kuyovni maqtash orqali ularning munosabatlariga iliqlik olib kiriladi.Kuyov qalbida ayoliga nisbatan mehr uyg‘otiladi.Buni “Yurardi sizni maqtab”misrasi orqali ham ko‘rishimiz mumkin.Albatta biz erkaklar nutqida kuyovlarni maqtashga oid birorta so‘z eshitmaymiz.Sababi erkaklar faqatgina qisqa, lo‘nda gapiradilar.Bunday yaltoqlanishni o‘zlariga ep ko‘rmaydilar.Ammo onalar farzandlarining baxti, borgan joyida toshday qotishi uchun har narsaga tayyor bo‘ladi.Bu faqatgina ayollar nutqiga, ayollarning xarakteriga xos.Tabirsiz ayol tuyadan fil yasaydi.Tabirlisi esa birgina o‘ylab aytgan so‘zi orqali hammasiga yaxshigina yechim topa oladi.

Ayollar nutqida qaynonalarga maqtov

Bu mavzu hammamizga tanish.Qaynona –kelin munosabatida maqtov qay darajada ahamiyatga ega?Qizlari qaynona-qaynotaning qo‘lida.Ota-onalarimiz qizlarini turmushga uzatishar ekan har birlari avvalo qizlariga “Qaynonangni ona degin, qaynotagni ota degin.Ulardan shirin so‘zing, shirin taoming, shirin tabassumingni ayamagin”,- deb

uqtirishadi.Qaynonalarga maqtov asosan qizning onalari nutqida uchraydi.Kamdan kam hollardagina kuyovning onalaridan eshitamiz.Onalarimiz qudalariga:oltin qudam,ko‘rar ko‘zim,boy opam, poshsha opam…kabi erkalash, maqtov so‘zlarini qo‘llashadi.Shu o‘rinda Marhabo Karimovaning yana bir she`rini keltirib o‘taman:

Qizginamni uzatdim,
O‘z uyiga kuzatdim,
Ketarda bir so‘z aytdim,
Qizim, qaynonang tillo…
“-Kechirmas, burni osmon,
Erim yaxshi, u yomon”,
-Bekor aytibsan nodon!
Dedim:Qaynonang tillo.
Ikki qo‘ldan chiqar qars,
Muloyim bo‘l, kelgin past,
Hop bo‘ladi, desang bas,
Dedim, qaynonang tillo…
Uyini uy bo‘lsin deb,
Ayrilmoqni ko‘rmay deb,
Bitta bilan o‘tsin deb,
Dedim, qaynonang tillo.

Shu she`rlarining oxirida bir haq gapni aytadilar:

Tugamaydi g‘avg‘osi,
Ado qildi savdosi,
Qiz tuqanning jazosi,
“Qizim, qaynonang tillo!”

Ana sizga maqtov!Ona bo‘lsa shunchalik bo‘ladi-da.Bunday maqtovlardan keyin har qanday qiz o‘zining aybini qidirib, qaynonasini yanada yaxshi ko‘rib,xalq tili bilan aytganda “opoq-chapoq” bolib ketsa ajabmas!

Bunday maqtov so‘zlarni tabirli kelinlarimizdan ham eshitishimiz mumkin.Ba’zida qizlarimiz o‘z onalarini” ona” “aya” deb chaqirsa ham, qaynonalarini “oyijon” “ayajon” deb chaqiradi.Qaynonalarini ko‘nglini olishga urinadi.Albatta bularning hammasi oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning yanada mustahkam bo‘lishi uchun qo‘llanadi.

Bir kuni qaynona kelini bilan sovchilikka borishibdi.Qizning onasi rozilik bermay turgan paytga kelin onasining shirin so‘zligi, keliniga ikkinchi onaday ekanligi, ayb ish qilsa ham birinchi navbatda og‘lini ayblab, kelinining yonini olishi haqida aytibdi.Shunda onaning ko‘ngli yumshab qalbida sovchilarga nisbatan yaxshi fikr uyg‘onibdi.Qaynona esa kelining so‘zlaridan quvonibdi.O‘z kamchiliklarini tuzatishga kirishibdi.Xatolarini tushuna boshlabdi.

Qaynonaga bo‘lgan maqtovni “Sevginator” filmida ham ko‘rishimiz mumkin.Mayli, maqtov yaxshidir, ammo samimiy, yurakdan, chin dildan aytilgan maqtov hamasidan yaxshidir!

Yana bir maqtov borki, hammamiz umrimiz davomida guvohi bo‘lamiz, ishlatamiz, kuzatamiz.Bu hammamizga tanish **sovchilikdagi maqtovdir**.

Sovchilik marosimi- bu xalqimizdagi eng go‘zal marosimlardan biri hisoblanadi.Bunda yigitning, qizning fazilatlari maqtaladi.Ammo hamma maqtovlarga ham uchavermaslik kerak.har ikki tomon ham bir – birlarini yaxshilab surishtirishlari kerak.Shundagina bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklarning oldini olingan bo‘ladi.Sovchilikdagi maqtovlarni xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham ko‘p uchratamiz.Misol uchun “Layli va Majnun” kitobiy dostonini olaylik:

Unda hakimning o‘g‘liga Laylini qo‘lini so‘rab kelishadi.

Eshitgin quloq sob aytgan nolaga,
Bandasi ko‘nadi, kelgan choraga,
Sovchi bo‘lib tushib qoldik oraga,
Qarindoshmiz ikoving ham birdaysan,
Borishli-kelishli bo‘lib yurgaysan…
Moli dunyo ko‘pdir unda, farovon,
O‘g‘li yomon emas, yaxshi, navjuvon,
Eshitaman sening qizing xiromon,
Bir biriga lozim topib keldim men…
So‘rab necha yaxshi qizni axtarib,
Men senga so‘zladim, dardimni yorib,
O‘g‘li yomon emas, qizingdan g‘olib,
Sen bilan tomir bo‘lmakka tolib…

Bu so‘zlardan keyin qizning otasi Laylini hakimni o‘g‘liga berish uchun ayoliga maslahat soladi.Ayli esa qizining biroz betobligini aytib, kutishini aytadi.

Endi xuddi shunday sovchilik so‘zini Majnunning sovchisidan eshitsak:

…Bu so‘zimni ko‘nglingga og‘ir olmagin,
Sen Majnun deb aslo xafa bo‘lmagin,
Hamisha Qays oni tentak bilmagin,
O‘ylasang Laylidan u ham kame mas,
Laylidan o‘zgani hech pisand qilmas,
Layli pishsa ko‘nglidagi topilar…

Qaysning sovchisini bu gaplarini eshitib, sen qizimni shu tentakka ravo ko‘rdingmi, deb Laylining otasini jahli chiqadi.

Aslini olganda Qays hakimning o‘g‘lidan kam emas edi.Uning ota-onasining obro‘si ham baland edi.Ammo sovchining gapga no‘noqligi, Majnunni yaxshi xislatlarini maqtab aytib berolmaganligi qizning otasini jahlini chiqishiga sabab bo‘ladi.Bu har bir erkak kishining ayollar kabi so‘zlarni gulday uzib ololmasligidan dalolat beradi.

Ko‘rib turganingizdek, bugun maqtovlar hayotimizda muhim ahamiyatga ega.Ammo uni kerakli o‘rinda, kerakli joyda ishlatish lozim.Ortiqchasi esa “maddoh” degan nom keltiradi.

Ayollar maqtaganda ular nafaqat so‘zlari balki ko‘zlari bilan, tabassumlari bilan ham minnatdorligini ifodalaydi.Olimlarning aytishiga qaraganda ayollar o‘zlari yoqtirgan narsalari, yoqtirgan insonlarini ko‘rganda ko‘z gavharlari kattalashar ekan.Shuni ham aytib o‘tish joizki maqtash faqatgina ayol kishigagina xos emas.Ayol kishi ham atrofdagilardan mehr, maqtov kutadi.U ham huddi siz kabi e’tiborga, sevgiga tashna.Aslida hammamiz ham maqtovga loyiqmiz.Faqat ozgina e’tiborliroq bo‘lsak buni sezamiz.Ayollar uchun ayniqsa erkak kishining,

turmush o‘rtog‘ining mehri ahamiyatlidir.Birgina so‘zingiz bilan qalbi tog‘dek ko‘tariladi.Shunday ekan ayolingizdan mehringizni, bir chimdim shirin so‘zingizni ayamang.So‘zim yakunida Zulfiya Mo‘minovaning she`rlaridan bir parcha keltirishni joiz deb bildim:

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku, kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Layli va Majnun” kitobiy dostoni.-Toshkent:Fan,1968.

2. Siddiq Mo‘min. So‘zlashish san’ati.-Farg‘ona,1997.

3. Marhabo Karimova. Kelishlari bir bayram.-Toshkent, 2011.

ICHIMLIK NOMLARI TAVSIFI

Shohida QURAQOVA
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Maqolada o'zbek tilidagi ichimlik nomlari tavsiflangan. Nomning ishlab chiqarish, savdo obyekti, korxona, tashkilot, mahsulot, uning markasi (brendi) haqidagi eng muhim ma'lumotlarning aks ettirilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.
Kalit so'zlar: *obyekt, korxona, tashkilot, marka, mahsulot, mentalitet.*

Annotation
The article describes the names of drinks in Uzbek language. The name contains information about the most important information about the production, trade object, enterprise, organization, product, its brand.
Key words: *object, enterprise, organization, brand, product, mentality.*

Globallashuv jarayonida har bir til o'zining mavqeyini saqlashga harakat qilib kelmoqda. Jamiyatda tilning o'z ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda takomillashuvi muhim masalalaridan biridir.

Biz har bir mahsulot turiga nom qo'yishda o'z tilimizning ichki imkoniyatlaridan foydalangan tarzda nom tanlashimiz maqsadga muvofiqdir. To'g'ri, rivojlanayotgan XXI asrda har bir tashkilot o'z ishlab chiqarayotgan mahsulotiga zamon talablaridan kelib chiqqan holatda nom tanlaydi. Zero, mahsulot haqida tasavvur hosil qiladigan ilk ma'lumot bu,albatta, uning nomidir. Agar u jarangror, jozibador bo'lmasa, hech kimning yodida qolmaydi. Ba'zida ishlab chiqaruvchi tasavvuriga kelib qolgan yoki chet elda chiqayotgan qaysidir mahsulot nomiga havas qilib nomlashga harakat qiladi. Ammo ishlab chiqarayotgan mahsulotiga o'z tilida munosib nom topish uchun oylab vaqt sarflayotganlar ham bor.

Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, kompaniya yoki uning mahsulotiga nom tanlashda "Davlat tili haqidagi qonun" me'yorlariga amal qilinishi zarur. Shuningdek, har bir mahsulot nomi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonun bilan ham nazorat qilib boriladi. Shuningdek, tilshunos D.Lutfullayeva ishlab chiqarish, savdo obyekti, korxona, tashkilot, mahsulot brendiga o'zbek tilida nom qo'yishda qat'iy mezonlaraga amal qilishni ta'kidlab o'tadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Nomning ishlab chiqarish, savdo obyekti, korxona, tashkilot, mahsulot, uning markasi (brendi) haqidagi eng muhim ma'lumotlarning aks ettirilishi.

2. Nomni yaratishda tilning adabiy me’yorlariga rioya etilishi.
3. Nomning til egalarining umummilliy madaniy qarashlari, an’analari, mentaliteti, dunyoqarashi, psixologiyasiga zid kelmasligi.
4. Nomning ijtimoiy-siyosiy tizim tamoiyllariga zid kelmasligi.
5. Nomning insonda yolg‘on tasavvur uyg‘otmasligi, aksincha, uni o‘ziga jalb etishi, tasavvurida ijobiy munosabat hosil qilishi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qolishi.
6. Nomning til egalari uchun tushunarli, aniq hamda talaffuzga oson bo‘lishi.
7. Nomning samarali kommunikativ muloqot uchun xizmat qilishi.
8. Nomning mahsulot va iste’molchi o‘rtasida aloqa ko‘prigi vazifasini bajarishi.
9. Nomning boshqa nomlar bilan o‘xshash bo‘lib qolmasligi, ular anglatgan mahsulotlarni yodga solmasligi kabilar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan talablarga ishlab chiqaruvchilar qay darajada amal qilishayapti? Biz birgina O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ichimlik nomlari misolida bunga chetdan nazar solmoqchimiz.

Ichimlikning quydagi turlari mavjud:

1. Suv
2. Issiq ichimliklar
3. Yaxna ichimliklar
4. Spirtli ichimliklar

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining ma’lumot berishlaricha, O‘zbekistondan dunyoning 80dan ortiq davlariga 180 turdan ziyod meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlanadigan mahsulotlar eksport qilinmoqda. Mamlakatimiz olma,o‘rik,olxo‘ri,uzum, yong‘oq va boshqa ko‘plab meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo‘yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beruvchi o‘nta yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

Xo‘sh, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan ichimliklarning nomlanishi bo‘yicha vaziyat qanday? Buni quyidagi misollar orqali kuzatishimiz mumkin.

Hozirda “Shaffof ”, “Silver”, “Baraka”, “Arktika”, “Montella”, “Nestle Pure Life”, “Hydrolife”, “Familiy”, “Bonaqua”, “Nestle”,”Borjomi”, “Chortoq”, “Bog‘I baland”, “BioLife”, “Ocean life”……nomlari bilan sotuvga chiqayotgan mineral suvlar, “Aqua Marin”, “Kavsar”, “Arctea”, “Liber tea”, “Ays”, “Bayce”, “Dinay”, “Simile tea”, “Sitro”, “Mirinda”, “Aloe Helth”, “Ceylon Ice tea”, Tyan Shan”, “Черноголовка”, “Fruse tea”, “Fructis”, “Lipton”, “7 up” …… kabi boshqa ko‘plab nomlardagi sifatli salqin ichimliklar, “Hey”, “Dena”, “ Meva”, “Bliss”, “Сочная долина”, “Jesco”, “Rich”, “Viko”…… kabi nomlar ostida chiqarilayotgan sharbatlar nafaqat o‘zimizda, balki chet davlatlarda ham o‘z xaridoriga ega.

Yuqoridagi ichimlik nomlarining bir qismigina o‘zbek tilida nomlangan,xolos.

O‘zga til nomi ostida savdoga qo‘yilayotgan, ammo O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ichimlik nomlarining o‘zbek tilidagi muqobiliga to‘xtalib o‘tsak.

Silver (ingliz) – kumush (oʻzbek)

Nestle Pure Life (ingliz) – toza hayot joylashgan

Hydrolife (ing.) – suv hayot

Family (ing.) – oila

Ocean life (ing.) – ummon hayoti

Liber tea (ing.) – ozodlik choyi

Simile tea (ing.) – jilmayish choyi

Ceylon Ice tea (ing.) – Seylon muz choyi

Черноголовка”(rus) – qaldirgʻoch

“Fructis (ing.) - mevalar

“Fruse tea”(ing.) – muz choy

7 up (ing.) – 7 marta yuqoriga

Bliss (ing.) – rohat

Сочная долина (rus) – sersuv vodiy

Rich (ing.) – boy

Guvohi boʻlganimizdek yuqoridagi ichimlik nomlarining deyarli barchasining oʻzbek tilida muqobili mavjud. Achinarlisi shuki, mana shu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning hammasi oʻzbek, iste’molchilar ham shu millat vakillaridir. Shunday ekan nima uchun mahsulotimiz oʻzga tillarda nomlanishi kerak. Yoki mahsulot oʻzbek tilida nomlansa, uni hech kim sotib olmaydimi yo xaridorini yoʻqotadimi?

Agar biz ishlab chiqarayotgan mahsulotimizning nomini oʻz ona tilimizda nomlab, uni chet elga eksport qilsak, oʻsha mahsulot bilan birgalikda chetga oʻzbek tilining qaysidir soʻzi kirib boradi. Natijada oʻzbek tili oʻsha mahsulot nomi ostida boshqa davlatlarga taniladi. Bu ham qaysidir darajada oʻzbek tilining dunyo miqyosida oʻrganilishiga, tanilishiga sabab boʻla oladiku!

Xulosa qilib aytganda, ona tilimizning mavqeyini koʻtarish, uni dunyoga tanitish faqatgina tilshunoslarning emas, balki oʻz milliy gʻururiga ega har bir oʻzbek fuqarosining burchi emasmi?

YANGIYO‘L SHEVASINI TOSHKENT SHAHAR SHEVASI BILAN QIYOSIY O‘RGANISH XUSUSIDA

Sevara DOSMUHAMEDOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada ilmiy manbalar asosida Yangiyo‘l shevasining Toshkent shevasidan farqlaydigan o‘ziga xosligi ko‘rsatilgan. Toshkent shevasi, shuningdek, o‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini tasniflash, ular «o» lovchiligi bilan ajralib turuvchi shevalar turiga kiritish va ushbu shevalarni o‘rgangan olimlarning talqini va tahliliga e’tibor qaratilgan.
Kalit so‘zlar: *sheva, dialekt, qiyoslash, fonetik xususiyat, lahja.*

Annotation
This article, based on scientific sources, shows the uniqueness of the Yangiyul dialect, which differs from the Tashkent one. The Tashkent dialect also focuses on the classification of phonetic features of Uzbek dialects, their inclusion in the category of dialects that differ in their «o», as well as the interpretation and analysis of scholars who studied these dialects.
Key words: *dialect, comparison, phonetic feature,lahja.*

Tarixdan ma’lumki, Yangiyo‘l shahri 1937-yil 1-oktabrda tashkil topgan. 1955-yilda Yangiyo‘l shahri va Yangiyo‘l tumani birlashtirilib, Yangiyo‘l tumani deb atalgan. Bu tuman Toshkent shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda joylashgan. Shuning uchun u Toshkent viloyati tarkibiga kiradi.

O‘zbek dialektolog olimlari tumani shevasini o‘rganishni XX asrning 60-70-yillarida dialektal matnlar yozib olish hamda ularni ilmiy maqola, monografiya va ilmiy ommabop maqolalarda tadqiq etishgan.

Yangiyo‘l shevasi haqida batafsil gapirib o‘tishdan oldin unda aniq ko‘rinib, bilinib turadigan quyidagi xususiyatlar borligini ta’kidlashimiz lozim:

1) bu sheva vakillari a) tub aholi; b) Shahrixon va Qo‘qondan ko‘chib kelib, Yangiyo‘l tumaniga kelib joylashishgan qarluq lahjasi vakillari; v) rus, tatar va boshqa millat vakillarilaridan iboratligi “Toshkent (viloyati) aholisining tarkibi turlicha. Bu yerda ruslar, o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, tatarlar yashaydilar” [Sodiqov, 1969; 10];

2) bu sheva vakillari qarluq lahjasining alohida shevasida gapirishlarini; 3) bu sheva vakillari nutqida qisman dj-lash holatlarining borligi;

3) va qisman yoki kam bo‘lsa hamki, bu sheva vakillarining yayrimlari nutqida y-lash xususiyatlarining mavjudligini;

4) Ayni vaqtda Yangiyo‘l shahri bilan Niyozboshi aholi punkti yangi uy-joylar qurilishi bilan bir-biriga juda yaqinlashib qolinganligini va mana shuning natijasida ikkala aholi punkti shevasi vakillari o‘zaro muloqot jarayonida bir-biriga faol ta’sir qilib turishini e’tiborga olish lozim bo‘ladi.

XX asrning 20-yillarida ilmiy asoslarda Toshkent shahri va viloyati shevalarini fonetik jihatdan birinchilardan bo‘lib, rus turkolog olimi (bu olim o‘zbek milliy tili va shevalarini yaxshi bilgani uchun yerni aholi uni o‘z vakillari sifatida qabul qilishganligini u haqidagi xotiralarda bu haqida to‘xtalingan...) Ye.D.Polivanov sheva vakillari nutqidan dialektal matnlar yozib olish bilan o‘rganib, o‘sha davrdagi ilm-fanning talablari asosida maxsus tadqiq etib, Toshkent dialekti deb atagan [Поливанов, 1922; 3-9]. Toshkent viloyati shevalari fonetik jihatdan katta ikki guruhga bo‘linadi: “1. “O” lovchi shevalar /Toshkent shahar, Xo‘jakent, G‘azalkent, Bektemir, To‘ytepa, Yangiyo‘l, Chinoz va Toshkent atrofidagi aholi yashaydigan punktlar – Nazarbek, Keles, Yunusobod, Sho‘robozor,Chernyaevka, O‘nqo‘rg‘on, Durmon hamda Qibray/ ”. 2. “A”lovchi shevalar [1] . Ma’lumki, Prof. Ye.D. Polivanov o‘zbek dialektologiyasining asoschilaridan biri edi. U ko‘pgina o‘zbek shahar va qishloqlarida bo‘lib, ularning shevalari haqida bir necha asar va maqolalar yozib qoldirdi. Uning “O‘zbek tilini o‘rganishga kirish” (1925) [Решетов В.,1952;11-19], “O‘zbek tilining qisqacha grammatikasi” (1926) [Поливанов, 1926*]*, “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” (1933), “O‘zbek tili grammatikasi uchun materiallar” (1935) kabi yirik asarlari bilan bir qatorda ayrim o‘zbek shevalarining fonetitikasi va lekcilasiga bag‘ishlangan maqolalari ham bor [Поливанов Е.,1922;3-9].

Demak, bizning o‘rganish obyektimiz bo‘lgan Yangiyo‘l shevasi o‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlariga ko‘ra “o”lovchi shevalar tipiga kiradi va shevalardan dialektal yozib olish yo‘lidan borilgan:

Ye.D. Polivanovda	***adabiy tilda***	***Shevada aslida bo‘lishi kerak***
hyekəγe	*Ho‘kiz*	*hyek'z*
yγgγrgen'	*yugurgani*	*Yug‘rgan'*
otur (almastan)	*o‘tira olmasdan*	*ot'r(am'y)*
yuvup	*yuvib*	*yuvp*
olturur	*o‘tira/*	*ot'rar*
kγyγp	*kuyib*	*kui'p*
belup	*bo‘lib*	*bo:p*

bolg‘uch'	*bo‘lguncha*	*bo:g‘ch'*
kezγnn'	*ko‘zingni*	*kez'nn'*
yelgγche	*o‘lguncha*	*olg‘ch':*
yelγp	*o‘lib*	*yel'p*
γchγn	*uchun*	*uch'n*
quyruq	*quyruq*	*quyrq*
kenlγn	*ko‘ngling*	*ken'l'n*
mγgγz	*muguz, shox*	*mug‘z*
tumshuq	*tumshuq*	*tumsh'q*
yγrγp-yγrγp	*yurib-yurib*	*yur'p-yur'p*
kemγr	*ko‘mir*	*kem'r*
orup	*o‘rib*	*orp*
choqup	*cho‘qib*	*choqp*
tuxum	*tuxum*	*tuh'm*

Yangiyo‘l shevasining leksik tarkibi haqida qisqacha to‘xtalingan ilmiy ishni XX asrning 60-yillarida T. Sodiqov amalga oshirilgan [Sodiqov T., 1969; 15-36]. Biz Yangiyo‘l shevasini Toshkent shevasi bilan qiyoslab o‘rganganda Ye.D.Polivanov kabi dialektal matnlarni yozib, uni tahlil qilish yo‘lidan borishni to‘g‘ri deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетические система, морфолгический строй). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. –Ташкент, 1952.

2. Содиков Т. Лексика говоров Ташкеньтской области. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 1969.

3. Поливанов Е.Д. Образцы фонетических записы Ташкентского диалекта. Блютень САГУ. 4. Ташкент, 1924.

4. Поливанов Е.Д. Образцы звуковой состав Ташкентского диалекта. Наука и просвешение,Тошкент, 1922.

5. Шоабдураҳмонов Ш. Тошкент шевасининг хусусиятларидан. ТАМ. Тошкент, 1960. 6.Ғуломов Ё. Ғ. Тошкент диалектида эгалик қўшимчалари // Ўзбек тили масалалари.САГУ илмий асарлари. Тошкент. 1967.

7. Гулямов Я. Из наблюденной под морфологией Ташкентского говора. ЎзДМ. II. Ташкент, 1957.236-250-бетлар.

8. Содиков Т. Лексика говоров ташкеньтской области. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 1969. –В.10.

MUMTOZ MANBALARDA “SO‘Z” TALQINI

Munisa ISAQOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbektili
va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Ma’no anglatuvchi eng kichik nutq birligi deb ta’riflanuvchi “so‘z” ko‘p olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan. “So‘z”ni leksema sifatida o‘rganish o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.Ushbu maqolada “so‘z”ni leksema sifatida kontekstual ma’nolarni yuzaga chiqarishi mumtoz manbalar misolida yoritib berishga harakat qilingan.
Kalit so‘zlar:*so‘z termini, badiiy ijod, nutq, til, fikr.*

Annotation
The word, which is defined as the smallest unit of speech that makes sense, has been studied by many scholars as an object of study. The study of the word as a lexeme is one of the issues that need to be addressed . This article seeks to illustrate the use of “word” as a lexeme in the context of classical soutces that reveal contextual meanings.
Key words: *term, art, speech, languagem thought.*

“So‘z” leksemasi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtiradigan bo‘lsak “inson nutqining ma’no ifodalovchi eng kichik bo‘lagi” degan ta’rifni uqib olishimiz mumkin.Ilmiy adabiyotlarda ham so‘z leksemasining quyidagicha ta’riflanishini ko‘rishimiz mumkin:

“O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatni, harakat va holatni, aloqa munosabatlarini nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan, shuningdek, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiali.Tub so‘z. Yasama so‘z.Qo‘shma so‘z. So‘z tarkibi .So‘z yasalishi. So‘zning tovush va ma’no tomoni bor. Har qanday tovush yig‘indisi so‘z bo‘lavermaydi” [O‘TIL, 120].“Lug‘aviy yoki grammatik ma’noi fodalovchi tovush yoki tovushdan iborat nutq birligi”. [Hojiyev A.;250]

“So‘z” o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borliqdagi ma’lum narsa belgi –xususiyat, harakat-holatlarni bildirgan, atash ma’nosiga ega bo‘lgan, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llaniladigan nutq birligi.[Mahkamov N., 105]

So‘z leksemasi faqatgina nutq birligi bo‘lib qolmasdan unga xos boshqa semalar kontekst orqali yuzaga chiqadi. Qadimgi turkiy til manbalarida “So‘z” leksemasi, asosan, nutq birligi ma’nosida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

So‘zi shirin kerak beg, qiyiqsiz ko‘ni

So‘zindin yanig‘lig‘ tema erani.[4; 26]

Keyingi davrlarda yaratilgan manbalarda esa “So‘z” leksemasining sememalari kengayib boradi. “Navoiy o‘z asarlarida “so‘z”ni ko‘p ma’noda ishlatadi. U so‘z termini ostida insoniyatning hamma ma’naviy boyligini alohida ijtimoiy kategoriya bo‘lgan tilni ham, ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko‘p vaqt bir-biridan farq qilmaydi”[Hayitmetov A., 220]

1.So‘z- til ma’nosida:

Tengriki insonni qilib ganj iroz

So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.[6]

Ma’nosi:Tangri insonni sirlar xazinasi qilib yaratdi. Odamning hayvondan farqi esa SO‘Z-TIL bilandir.

2.So‘z-muomala ma’nosida:

So‘z bila kufr ahli musulmon bo‘lib,

So‘z bila hayvon degan inson bo‘lib.[6]

Birinchi misrada muloyim so‘z (muomala) bilan kishi “musulmon” bo‘lishi ya’ni to‘g‘ri yo‘lga kirishi, ikkinchi misrada esa odamni hayvondan ajratuvchi vosita til haqida gap boradi.

3.So‘z badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida:

Til bu chamanning varaqi lolasi

So‘z durlarida bo‘libon jolasi [Hayrat ul-abror; 180]

Ma’nosi: til bu chamanning varaqi lolasi bo‘lsa, so‘z durlari unga qo‘ngan shabnamdir.

4.So‘z-nutq ma’nosida:

Kim istasa mazhari karomat bo‘lmoq,

Har nav ishda istiqomat bo‘lmoq

So‘zdir anga mo‘jibi g‘aromat bo‘lmoq

Til zabtidadur anga salomat bo‘lmoq. [Nazm ul-javohir; 280]

Otamning bo‘lub erdi yoshi uluq

Men af’olidin bore dim qayg‘uluq

Berib pand, so‘zlar dedim ko‘p qattiq,

Chu davlat yoi berdi, so‘z ne asig‘? [Xondamir; 38]

Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: *“Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog‘lanib keladigan nahv(grammatika), aruz (she’r o‘lchovi) va mantiq (logika)ni mutolaa qilganida edi, so‘z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan*

bo‘lardi.Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi deb, so‘rasalar aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo‘lmaydi”[Husayn Voiz Koshifiy; 249]

5.So‘z – fikr ma’nosida:

“Kengash ahlidan kimki kimki kuyunib maslahatlar bersa quloq solardim, oqilona gaplarni mardlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, uni diqqat bilan tinglardim, har kimdan so‘z (fikr)olib, kengash so‘rar edim ”[Temur tuzuklari; 45]

Shuningdek, so‘z leksemasi mumtoz adabiyotda badiiy ijod ma’nosida ham qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.*Zero podshohlar ham pahlavonlikda so‘z hunarida nom qozonganlarni siylab, kursiga o‘tqazadilar”*[Husayn Voiz Koshifiy; 249]

Diniy manbalarda esa “so‘z” leksemasining “azob” sememasi yuzaga chiqqanligini kuzatish mumkin. *Bu xususda Qur’oni Karimda xabar berilgan: “Qachon (kofirlarning) ustiga so‘z-azob tushganida (ya’ni qiyomat yaqinlashib qolganida) biz ular uchun yerdan bir jonivor chiqarurmiz.”*[Islom.Ensiklopediya; 143]

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek mutafakkirlari asarlarida “so‘z” leksemasi *nutq birligi, til, muomala, nutq, fikr, ijod olami, badiiy ijodda mazmunni shakllantiruvchi* vosita singari semalari mavjud bo‘lsa, islom dinida esa uning azob ma’nosi reallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. Hojiyev A., Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati.-Toshkent:Sharq, 2001.
3. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent: Fan,2013.
4. Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.-Toshkent:Cho‘lpon, 2007.
5. HayitmetovA.Navoiy dahosi.-Toshkent:Fan,1981.
6. Navoiy. Hayratul-abror.-Toshkent :G‘.G‘ulom, 2006.
7. Navoiy .Nazm ul-javohir.MAT.15 jildlik.-Toshkent :G‘.G‘ulom, 1968.
8. Xondamir. Makorimul-axloq.-Toshkent: Yoshlar, 2018.
9. Husayn Voiz Koshifiy.Futuvvatnomai sultoniy.-Toshkent:Fan,1994.
10. Temur tuzuklari.-Toshkent:Sharq, 2005.
11. Islom.Ensiklopediya.Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti,2004.

“O‘TMOQ’’ LEKSEMASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mohinurbonu XO‘JAMOVA
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
204-guruh talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada “o‘tmoq” leksemasi semantik xususususiyatlari tahlil qilindi va o‘rganildi.Tahlildan ko‘zda tutilgan maqsad ma` nolar mutanosib ekanligini misollar yordamida tahlil qilish va leksemaning qirralarini kashf etish edi.
Kalit so‘zlar: *Semantika, polisemantik, semema, nomema, leksik birlik.*

Annotation
In this article, semantic features of the verb “pass” have been analyzed and studied. Analyze with example and discover the meaning of lexames is the purpose of the analysis.
Key words: *semantic, polysemantic, semema, nomema, lexic.*

Tilshunoslik nazariyasining chuqurlashib borishi bilan lug‘atshunoslik va uning tadqiqi bilan bog‘liq ilmiy va nazariy ishlar ma`lum darajada tilning leksik sathiga chuqur kirib boorish yo‘lida katta qadam bo‘lmoqda. Biz ham navbatdagi izlanishlarimizni “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibiga kiritilgan “o‘tmoq” polisemantik, leksik birlikni semantika nuqati nazaridan tahlilga tortdik. Bilamizki, leksema tuzilishiga ko‘ra ikki aspekt: Semema va nomemalardan iborat. Leksemaning tashqi qobig‘i –nomema bo‘lib, nomema leksik birlikning tovushli va grafik tomonlarini ifodalasa, semema (leksik ma`no) esa voqelikning lisoniy in’ikosidir.

“O‘tmoq” leksemasining ma`noviy tahliliga to‘xtalamiz:

O‘tmoq I.

1. Ma`lum yo‘nalishda harakatda bo‘lmoq (yurmoq; uchmoq; oqmoq va h.k): It hurar karvon o‘tar.Maqol.

2.Sath yoki boshqa makonda ma`lum yo‘nalishdagi harakatni ta`minlaydigan narsa yo‘nalgan (cho‘zilgan,yotqizilgan) bo‘lmoq: Yer ostidan gaz quvurlari o‘tgan.

3.Ma`lum joy, sath va sh.k. oralig‘ida (biror tomonga qarab) harakatlanmoq, shunday harakat bilan uni orqada qoldirib, undan keying joyda mavjud bo‘lmoq: Gullar yuzida xanda, bu bog‘dan yor o‘tdimi? (S.Zunnunova)

4. Qarama- qarshi tomonlari (boshi va oxiri, ikki cheti) bo‘lgan yo‘l,ochiq joy, teshik va sh.k.ning tomonlari oralig‘ida harakatlanmoq (yo‘nalmoq) va shu yo‘nalishda bir tomonini qoldirib, ikkinchisida hozir bo‘lmoq: Daryodan o‘ta boshladi.

5. Yurib yoki boshqa harakat bilan (yo‘nalib) ma`lum joy, o‘rinda mavjud bo‘lmoq; o‘rin olmoq, joylashmoq:Oldingi qatorga o‘tmoq.

6. Ish-faoliyat ko‘rsatayotgan joyini o‘zgartirib, boshqasiga ko‘chmoq: Ahmad Akmalxonning ko‘p joylarda ishlab chiqqanini eshitgandi,”ikkinchi programma” deyapti, demak, radioga o‘tibdi. (M.Ismoiliy “Farg‘ona tong otquncha”)

7.Ish- faoliyatini yoki undagi usul va sh. k.ni o‘zgartirmoq, boshqasiga ko‘chmoq: Pudrat usulida ishlashga o‘tmoq.

8.O‘z joyini o‘zgartirmoq, biridan boshqasiga ko‘chirmoq: Men bir turmadan ikkinchi turmaga o‘tayotibman, nega yig‘laysan? (Abdulla Qahhor “Tomoshabog‘”)

9. Egalik, tasarruf o‘rnini o‘zgartirmoq:Bu yerlar korxona ixtiyoriga o‘tdi.

10.Kimda yoki nimadadir bo‘lgan narsa, xususiyat va sh.k. boshqasiga ham ko‘chmoq, unda ham paydo bo‘lmoq: Ularning biridagi sho‘xlik va zavqi kkinchisiga ham tez o‘tar edi. (P.Qodirov. Qora ko‘zlar)

11.Ta`sir etmoq, ta`siri yuzaga kelmoq: Oyog‘idan sovuq o‘tdi.

12.O‘z yo‘nalishida muayyan joy (nuqta)dan ilgari yo‘nalmoq, uzoqlashmoq: Safar bo‘zchi Abdurahmonning to‘xtaganidan xabarsiz ikki – uch qadam nariga o‘tgan edi. (Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”)

13.Bir xil yo‘nalishdagi harakatda (yurish, yugurish, suzish va h.k) ortda qoldirmoq, undan o‘zmoq, o‘zib ketmoq: Marraga yaqinlashganda, barcha poygachilardan o‘tib, marra chizig‘ini birinchi bo‘lib kesib o‘tib ketdi.

14.Ko‘chma. Biror xususiyat, belgi, xatti-harakat va sh.k.da boshqalarini ortda qoldirmoq; ustun, yuqori bo‘lmoq: Qamish kapada bundan o‘tadigan yuzi qora yo‘q. (P. Tursun “O‘qituvchi”)

15.Mazmunidan anglashuvchi otlar, shuningdek, -(i)sh qo‘shimchali harakat nomi bilan qo‘llanib, shu so‘z bildirgan ish-harakat qilishni boshlash, shunga kirishish ma`nosini bildiradi: Oxiri yig‘lashga o‘tdi.

16.Kechmoq. (Biror ish, voqea, hodisa,jarayoni haqida): Kengash yaxshi o‘tgan edi chamasi, G‘iyosiddinovning vaqti chog‘ edi.

17. Yuz bermoq, bo‘lib o‘tmoq; kechmoq: …o‘zimdan qandoq kamchilik o‘tganiga hayronman. (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”).

18. Keyinda qolmoq; kechmoq (vaqt haqida): Yillar o‘tdi biz ulg‘aydik, bu kun – Vatan xizmatiga bir qadar dastyor. (A.Oripov).

19.Shaxsning yoshga qadam qo‘yishi ma`nosini bildiradi: Olti (yosh)ga o‘tdi.

20.Umrning yoki uning ma`lum qismining shu fe`l bog‘langan so‘z anglatgan ish- holat bilan kechishini bildiradi: Yoshim qirqqa yetdi. Na xotin, na bola-chaqa. Dunyodan toq o‘tdik hisob. (Oybek “Tanlangan asarlar”)

21. Barham topmoq: Bo‘running tezda o‘tib ketishiga ko‘zim yetmaydi. (Mirmuhsin “Me`mor”)

22.Biror ish, mansab,tashkilot va sh.k.ga tayinlanmoq, qabul qilinmoq: Partiyaga o‘tmoq. Deputatlikk ao‘tmoq.

23.Xarid qilinmoq, sotib olinmoq. Ko‘chma ma`noda: Bu matolar yaxshi o‘tyapti.

24. Yetakchi fe`ldagi harakatning davomiyligi, yo‘l-yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligi kabi Grammatik va modal ma`nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: Sen hovliga bor, joy tayyorla. Bir yo‘la magazinga ham kirib o‘t. (N. Safarov “Olovli izlar”).

25. Biror masalaga oid mavzu, asar va sh.k.ni o‘qish, o‘rganish, tinglash amaliyotini o‘tkazmoq; o‘qitmoq, o‘rgatmoq (o‘qitmoq, o‘rganmoq): Hamida biologiyadan nimalar o‘rganganini, bu o‘quv yilida yana nimalar o‘tilajagini so‘zlab berdi… (A. Qahhor “Adabiyot muallimi).

“O‘tmoq” so‘zining frazeologik birlik tarkibida ham bir qancha ma’nolarni anglatadi:

- Bahridan o‘tmoq -Aloqani uzmoq; kechmoq;
- Boshidan o‘tmoq-Hayotda kechirmoq;
- Jonidano‘tmoq-Azob beradigan darajada qattiq ta`sir qilmoq;
-Kuni o‘tmoq:
1. Kuni kechmoq;
2. Tirikchiligi yurishmoq;
- Ko‘z o‘ngidan o‘tmoq-Ko‘z bilan ko‘rganday gavdalanmoq, akslanmoq.
- Ko‘zi o‘tmoq-Yaxshi ko‘rmoq, ko‘ra olmoq;
- Ko‘nglidan o‘tmoq-Xayolidan o‘tmoq, kechmoq;

Biz siz bilan yuqorida “o‘tmoq” leksemasining qo‘llanish doiralarini o‘rganib chiqdik. Tahlil davomida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu birlikning ma`nolarini turli xil vaziyat va jarayonlarda o‘zining ko‘p ma`noligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ko‘p ma`noli leksemadagi ma`nolararo munosabatlar, asosan, sememadagi aynan, integral sema asosida amalga oshadi.

Polisemantik leksemada ma`nolararo munosabatning yana bir ko‘rinishi mavjudki, unda birinchi ma`noda sema maqomidagi belgi asosida ikkinchi semema shakllanadi. Ya`ni, bosh ma`nodagi sema hosila ma`noda semema bo‘lib shakllanadi.

KO‘CHIRMA GAP VA IQTIBOSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Farangiz UMIDOVA
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada iqtibos va ko‘chirma gapning o‘zaro farqi,o‘xshashliklari haqida so‘z boradi. Iqtiboslar va ko‘chirma gaplarning qaysi uslublarda ko‘proq qo‘llanilishi haqida yozilgan.Tilshunoslik bilan adabiyotshunoslikdagi o‘zaro o‘xshash atamalarning mohiyati ochib beriladi. Har bir xulosa badiiy matnlar bilan asoslanadi.
Kalit so‘zlar:*Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ko‘chirma gap, iqtibos, badiiy uslub, ilmiy uslub, so‘zlashuv uslubi.*

Annotation
Quote and excerpt from this article there is talk of similarities and differences. Quotes and quatations are written about which styles are most commonly used. The essence of the similarities between linguistics and literature is revealed. Each conclusion is based on liturary texts.
Key words: *linguistics, copywriting, quote, quatations, artistic style, scientific style, conversational style.*

Har qanday fanda aslida boshqa-boshqa, ammo bir-biriga juda yaqin, o‘zaro o‘xshash, hatto bir qarashda bir xildek tuyuladigan hodisalarni qiyoslab o‘rganish ularning har birining o‘ziga xos tomonlarini aniqlash va farqlash, shu asosda ularning mohiyati, asl ma’no-vazifasini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli o‘xshash hodisalarni aniqlash va qiyoslab o‘rganish har bir fanda, ayniqsa, adabiyotshunoslik va tilshunoslikdek biri ikkinchisiga tayanuvchi fanlar tadqiqi va taraqqiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. O‘zaroo‘xshash hodisalar esa tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham ko‘plab topiladi. So‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasi,qo‘shma so‘z, turg‘un birikma, yoyiq nominativ gap; sifatlovchi aniqlovchi va epitet, sifatlash; qiyosiy sodda gap va o‘xshatish; metafora va majoz kabilar shular jumlasidandir.Ana shunday hodisalardan yana biri biz fikr yuritmoqchi bo‘lganimiz *ko‘chirma gap* va *iqtibosdir*.

O‘zbek tilshunosligida ko‘chirma gap bir necha tadqiqotchilar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan.Bu tadqiqotlarning barchasida ko‘chirma gaplar qo‘shma gapning o‘ziga xos bir tipi: o‘zga gapli qurilmalarning ichki bir turi – ko‘chirma gapli qo‘shma gapning asosiy tashkil etuvchisi sifatida talqin qilingan. Haqiqatan, ushbu termin alohida olingan

mustaqil holatdagi bir gap turiga nisbatan emas, balki butunning qismi maqomidagi gapga nisbatan qo‘llangandagina o‘zini oqlaydi va biz ham ushbu terminni shu ma’noda qo‘llaganmiz. Shu nuqtayi nazardan olganda, ko‘chirma gap o‘zga gapli qurilmalari tarkibidagi “o‘zgalarning mazmun va grammatik jihatdan hech bir o‘zgarishsiz, aynan keltirilgan gapi” tushunchasi ostida qaraluvchi gap ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bunda so‘zlovchining maqsadi o‘zganing nutqini boshqa bir shaxsga shakli va mazmunini to‘la saqlangan holda yetkazish bo‘lib,unda o‘zganing nutqidagi uslub,ohang,nutq obyektiga bo‘lgan munosabati to‘liq namoyon bo‘ladi. Barcha tilshunoslar ko‘chirma gaplarga deyarli bir xil ta’rif beradilar. Xususan,fransuz tilshunosi Maruzo o‘z lug‘atida bu hodisaga “birov tomonidan aytilgan jumlaning original shaklini saqlagan holda tiklash”[1] tarzida ta’rif bergan. Ko‘chirma gap va muallif gapi bugun kashf etilgan hodisalar emas.Akademik G‘.Abdurahmonovning qayd etishicha: “Ko‘chirma gap konstruksiyasi qadimdan qo‘llanilib kelinadi. To‘nyuquq yodnomasida bunday konstruksiyalar 30 foizni tashkil etadi”.[2]

“Ko‘chirma gap”va adabiyotshunoslikdagi “iqtibos” san’ati o‘zaro o‘xshash, aloqador hodisalardir. Har ikkisi ham mohiyat e’tibori bilan o‘zganing gapi, boshqalarga tegishli fikr-mulohazaning ko‘chirmasi yoki asl nusxadan yozib, ko‘chirib olingan nusxa, asl nusxaga har tomonlama mos, u bilan bir xil, uning aynan ko‘chirmasiga ega.

Aslida, iqtibos so‘zi arabcha “ziyo olmoq” ma’nosini anglatib, biror asardan so‘zma-so‘z olingan parchaga nisbatan ishlatiladi. Ko‘chirma gap ham biror asar yoki tadqiqotdan xuddi shu tarzda olingan bo‘lishi mumkin. Bu ma’noda adabiyotdagi iqtibossini taktik jihatdan ko‘chirma gapning o‘ziga xos bir turi. Ular o‘rtasida jins-tur munosabati bor. Ammo iqtibosning badiiy asar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud.Iqtibos bayon qilinayotgan fikrga qo‘himcha asos,isbot keltirish,muayyan g‘oyani qo‘llash yoki tanqid qilish uchun muhim faktik material sifatida qo‘llaniladi.

Iqtibos va ko‘chirma gaplarning belgi-xususiyatlarini qiyosan tahlil qilganimizda quyidagilarga guvoh bo‘ldik:

1) iqtiboslar ham, ko‘chirma gaplar ham ilmiy va badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi, biroq ularning biri sintaktik birliklardan birining – ko‘chirma gapli qo‘shma gapning muallif gapidan boshqaqisiga – o‘zganing gapiga nisbatan ishlatiladigan termin – tushuncha, demak, sintaktik hodisa, birlik, sintaksisga tegishli tushuncha va ular muallif gapi bilan birga ishlatiladi; iqtibos badiiy adabiyotda so‘z san’atining bir turi sifatida qaraladi va uning badiiy asar bilan belgilanadigan uslubiy, ekspressiv, janr xususiyatlari mavjud; 2)

ko‘chirma gaplar ilmiy, so‘zlashuv uslubida, iqtiboslar esa ko‘proq badiiy, rasmiy nutq uslublarida keng qo‘llanadi; 3) ko‘chirma gaplar har qanday boshqa bir shaxsning muallif gapiga ilova tarzida keltiriladigan, undagi nutq fe’llarining obyekt valentligini to‘ldiruvchi sintaktik birlik; ular o‘zgalarning muallif gapidan oldin, keyin, o‘rtasida yoki ikki yonida, biroq doim muallif gapi bilan birga aynan keltirilgan fikrining ifodasi, ammo iqtiboslar bu jihatdan mashhur kishilarning nutqi, aynan bir fikri, mulohazalarini aks ettirishi lozim; so‘z-gaplar, noto‘liq gaplar, shu jumladan, undalmalar iqtibos sifatida keltirilmaydi;

4)ko‘chirma gaplar esa tuzilishiga ko‘ra bir so‘zdan tortib, butun bir jumla, hatto oddiygina undov so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, Sayramov cholni ikki qo‘li bilan yengil, lekin samimiy ravishda sekin quchoqlab: “Ota”,–dedi. (Oybek) Ilmiy matndagi iqtiboslarda esa ma’lum fikr, xulosa aniq bayon etilgan bo‘lishi shart. Va u,albatta, matn tarkibida (boshida, ichida, oxirida) kelib, aynan bir uslubiy maqsad ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan,adabiyotshunos Umarali Normatovning “Istiqlol qayg‘usi” nomli tadqiqotida Abdulla Qodiriy asarlari haqida bildirilgan fikrdan iqtibos keltirilgan: Men Qodiriy, aniqrog‘i, uning tarixiy romanlari xususida faqat birgina odam, iste’dodli adib Maqsud Shayxzodaning dil so‘zlaridan parcha keltirish bilan cheklanaman: “Abdulla Qodiriy, – deydi u, – o‘ziga yaqin qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, tatar, rus adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o‘zbek romani –Yevropa adabiyoti mezonlari bilan o‘lchanadigan roman yaratdi…” [3]

Badiiy matnlardagi iqtibos manbasi yashiriladi yoki ishora bilan ifodalanadi. Bu badiiy tasvir usulidir. Yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”[4] romanida bosh qahramon nutqida Alisher Navoiyning mashhur “Bu gulshan ichra yo‘qdir baqo guliga sabot, Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot” bayti keltirilgan. Ammo uning muallifi keltirilmagan. Bunda g‘oyaviy-badiiy maqsad mujassamlashgan.Shoir o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrini poetik asoslashga, uning ta’sir kuchini oshirishga erishgan.Qayd etish jozki, bunday iqtiboslar ko‘pincha muallifsiz ishlatiladi. Bunda badiiy san’atdan, mazmundan tashqari bo‘lgan mantiqiy asos ham bor. Bunday iqtiboslar muallifsiz mualliflidir. Quyoshning charaqlab turgani kunduzni anglatganidek, bunday iqtiboslar hamma vaqt o‘z mualliflari bilan birga anglashiladi.Ularning mualliflari iqtibos bilan assotsiativ bog‘liq. Albatta, ular hamma o‘rinlarda ham muallifsiz ishlatilavermaydi.Bunda badiiy asar janri, yozuvchi yoki shoirning badiiy niyati, nutqiy vaziyat kabi omillarga qaraladi. Biroq ilmiy matnlarda iqtibosning manbasi yoki muallifi aniq

ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bu jihatlar iqtibos va ko‘chirma gap o‘rtasidagi ma’noviy-vazifaviy, uslubiy farqlarni ko‘rsatadi.

Ammo e’tibor bersak, yuqoridagi ilmiy maqolada Umarali Normatov tomonidan keltirilgan iqtibos sintaktik nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, uning ko‘chirma gapli qo‘shma gapning o‘zgaga tegishli gap qismi ekanligi oydinlashadi. Demak, u adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan iqtibos deyilsa, sintaksis nuqtayi nazaridan ko‘chirma gap hisoblanadi. Shu sababli til birliklari, ayniqsa, sintaktik birliklar nihoyatda serqirra mohiyatli hodisalardir. Biz bunga yuqorida ko‘chirma gap va iqtibos tahlili misolida guvoh bo‘ldik. Ular juda o‘xshash, ayni paytda o‘ziga xos farqli tomonlarga ham ega. Aytilmoqchi bo‘lgan fikr, g‘oyaning emotsional-ekspressiv ta’sir kuchini oshiruvchi mashhur kishilarning fikri ko‘chirma gap shaklida ilmiy yoki badiiy asarda iqtibos sifatida keltirilishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maruzo J. Slovar lingvisticheskix terminov. –M.,1960.
2. AbdurahmonovG‘.,Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T., 1973.
3. Normatov U. Istiqlol qayg‘usi. –T.,2000.
4. Do‘st M. M.Lolazor. –T., 1988.

ADABIYOTSHUNOSLIK

“SHAYTANAT”: TANQID, TAHLIL, MUNOSABAT

Jamoldin YOQUBOV
Andijon davlat Universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya
Maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” asarining badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda qo‘llanilgan badiiy vositalar, ularning asar ta’sirchanligini oshirishdagi hissasi haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: *kitobxdon, munaqqid, detektiv, e’tiqod.*

Annotation
The article analyzes the artistic features of Tahir Malik’s work “Shaytanat”. The artistic tools used in the play are about their contribution to the effectiveness of the work.
Key words: *reader, critic, detective, believer.*

O‘zbek adabiyotida shunday asarlar borki, ular kitobxon va munaqqidlar orasidagi bahslarga sabab bo‘ladi. Kitobxonga yoqqan asar munaqqidga yoqmasa, ba’zan munaqqid ma’qul ko‘rgan asarni kitobxon qarsak chalib kutib olmaydi. Aksar kitobxonlar sevib o‘qiydigan asarlarni ayrim adabiyotshunoslar tomonidan ommaviy adabiyot deb baholash urf bo‘ldi. Ularning fikriga ko‘ra: o‘quvchi tomonidan tushunilishi qiyin bo‘lgan nasriy yoki she’riy asar xoslar uchun yozilgan emish. Aksincha, tushinilishi va hazm qilinishi oson kechgan asarlar omma uchun degan qarashlar mavjud. Bu kabi baholash mezoni asosan o‘tgan asrning 90 – yillaridan keyin shakllandi. Biz bu fikrlarni yoqlamagan holda o‘zimizning ayrim mulohazalarimizni keltirmoqchimiz. Birinchidan, Hazrat Navoiygacha va ul zotdan Abdulla Qodiriygacha yashab o‘tgan ijodkorlar o‘z asarlarini muayyan bir qatlam uchun yozmaganlar. Ikkinchidan, u davr kishilari Hazrat Navoiyni tushunishda qiyinchilik sezmaganlar. O‘sha davr muallimidan tortib, oddiy dehqonigacha kitobxonlik yetuk saviyada bo‘lgan. O‘tgan asrning 70-80-yillariga kelib, mutolaa darajasi ancha pasaydi. Ba’zi iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida mustaqillikning boshlariga kelib, odamlar kitobdan uzoqlashdilar. 1992 – yildan “Sharq yulduzi” jurnalida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning “Shaytanat” asari chiqa boshladi. Bu asar ta’bir joiz bo‘lsa, o‘tish davrida odamlarni mutolaaga qaytardi va biz yuqorida tilga olgan omma uchun degan tamg‘a bu asarga ham yopishtirildi.

Asar o‘zi bilan bir davrda yaratilgan asarlardan farq qilardi. Jumladan: “Adolat manzili” O.Yoqubov, “Tushda kechgan umrlar” O‘. Xoshimov, “Otamdan qolgan dalalar” Tog‘ay Murod

kabi asarlarda qatag‘on davri, paxta ishi, o‘zbek ishi kabi mavzular qalamga olingan bo‘lsa,“Shaytanat”da butunlay boshqa, inson va shayton orasidagi ziddiyatlar o‘zining badiiy inikosini topdi.

Kitob mana 28 yildirki, xalqimiz orasida qo‘lma – qo‘l bo‘lib o‘qilmoqda. Har qanday yaratilgan durdona asarning o‘z tanqidchisi bo‘lganidek, Shaytanatning ham munaqqidlari yetarlicha topiladi. Biroq, bu tanqidlarning aksariisbotlangan asosga ega emas. Biz mazkur maqolada ustoz munaqqidlarimizni hurmat qilgan holda, Shaytanat ustidagi tanqidiy qarashlarga o‘z munosabatimizni baholi qudrat bayon qilamiz.

I

Ko‘pchilik Shaytanatni detektiv asar sifatida baholaydi. Avvalo detektiv asarlarning boshqa asarlardan farqini yaxshi tushinib olishimiz lozim bo‘ladi. Detektiv asarda tugun kimningdir o‘ldirilishi yoki o‘g‘irlanishi bilan boshlanadi va oxirida jinoyatchining aniqlanishi detektiv qissa yoki romanning yechimini tashkil qiladi. Biz o‘rganayotgan asarda ham jinoyatchilar, militsiya hodimlari bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi, lekin bu Shaytanatning detektiv asar ekanini ko‘rsatmaydi. E’tibor berilsa, bu asarda bosh maqsad militsiya hayotini emas, balki Shaytonlar boshqaruvidagi Shaytanat ahlining ayanchli oqibatini hikoya qilishga qaratilgan. Romanning 4 – kitobigacha biror bir jinoyat sirli ravishda amalga oshirilmaydi. 4 – kitobga kelib Oysanam bilan bog‘liq jinoiy ish prokuratura hodimi Zohid Sharipov tomonidan yechiladi. Bu holat asardagi boshqa bir obraz Haydar “Kesak polvon” ning jirkanch qiyofasini yana ham aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari muallif ayrim qahramonlarning hayotiga bevosita aralashadi. Ba’zi joylarda kitobxon bilan muloqotga kirishadi. Yuqoridagi misollar asarning shunchaki sarguzasht roman emasligini yaqqol namoyon qiladi. Ayrim tanqidchilarning fikricha “Shaytanat” keyinchalik yozilgan ba’zi oldi – qochdi “Sariq matbuot” romanlarining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan emish. Vaholanki, Shaytanat yozilgan davrda ham biz yuqorida eslab o‘tgan mazmundagi saviyasiz kitoblar mavjud edi. Ularda Shaytanat kabi katta mavzu ko‘lami va g‘oya mavjud emas, badiiy nuqtai nazardan Shaytanat bilan bir safga qo‘yish katta mantiqsizlikdir.

II

Ikkinchi qarash bu romanda Qur’on oyatlari, hadislardan namunalar va mumtoz adabiyotimiz ijodkorlarining hikmatlaridan foydalanilgani ayrimlarning e’tirozlariga sabab bo‘ladi. Sobiq SSSR matbuotining yo‘l qo‘ygan xatolaridan biri Hazrat Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk ijodkorlarning Islomdan ayri tarzda o‘rganilgani edi. Bizning

adabiy ildizlarimiz ulardan ham oldinroqqa borib taqalar ekan, qanday qilib Shaytanatdagi bu jihatni tanqid ostiga olish mumkin? Adabiyot so‘zining lug‘aviy ma’nosi Odoblar to‘plami deganidir. Istilohda bu so‘z avvalo fan nomi va boshqa fanlar bo‘yicha yozilgan qo‘llanmalarni ham Adabiyot deyish bilan sezilarli darajada o‘z kuchini yo‘qotgan. Biz lug‘aviy ma’nodan kelib chiqib, adabiyot faqat aql o‘rgatadi deyish fikridan yiroqmiz. U o‘rni kelganda insonni mushohadaga chorlashi, o‘tmishi, buguni va ertasini baholay olishi uchun ham xizmat qiladi. O‘ylab qaralsa, asardagi aksar obrazlar ma’lum e’toqodlari yo‘qligi uchun ma’naviy inqirozga yuz tutadilar. Bu hususni adabiyotshunos Tohir Shermurodovning “Shaytanat asarida e’tiqod va axloq masalasi” (O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati 30 – oktabr 1998) maqolasidan bilib olish mumkin. Bosh qahramon Asadbek bunga yorqin misoldir. U bolaligidan to vafotigacha bo‘lgan umr yo‘lida turli murakkab holatlarga duch keladi. Uning hayotga nisbatan qarashlari ham boshqalarnikiga o‘xshamaydi. Oqibatda Asadbekning qo‘l ostidagi kishilar ham jamiyat boshiga turli ko‘rinishdagi muammolarni soladi. Asadbek qalbidagi qasos o‘ti uni Shaytanatning jin ko‘chalariga kirishga undadi. U ham adoltsiz jamiyat qurbonlaridan biri edi. Asardagi bir rivoyatga e’tiboringizni qaratsak:

“Bir o‘smir o‘g‘irlik bo‘yicha dong taratgan odamning oldiga kelib, - menga ham o‘g‘irlik ilmini o‘rgating dedi. Mashhur o‘g‘ri taklifga rozi bo‘lgach, ustoz – shogird bir tovoqdan taom yeyishibdi. Bola ovqatga o‘ng qo‘lini uzatibdi. Shunda ustozi bolaning qo‘liga urib – buyog‘iga faqt chap qo‘ling bilan ovqatlan, chunki o‘g‘irlik qilib qo‘lga tushsang dastlab o‘ng qo‘ling kesiladi, chap qo‘ling seni och qolishdan saqlaydi. Bola bu gapni eshitishi bilan o‘g‘ribo‘lmaganim bo‘lsin deb ortiga qaramay qochib qolibdi.”

Yuqoridagi rivoyatni ham asliy ham majoziy talqin etilganda ijobiy ma’no beradi. Demak asardagi rivoyatlarni o‘rinsiz deyish hech qanday asosga ega emas.

III

Shaytanatning badiiy saviyasi yuzasidan mulohazalarimiz quyidagicha: Tohir Malik o‘z asariga Shaytanat nomini noto‘g‘ri tanlagan, o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan xatoga yo‘l qo‘ygan deganlar bu so‘z avvalo qaysi manbaalarda uchrashini bilsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shaytanat so‘zi Alisher Navoiyning g‘azallarida

“*Riyoiy shayxdirkim shaytanatdin tavqi lanatdek solur bo‘ynig‘a tasbehni ul mal’un”*uchraydi. Abdulla Qodiriy romanlarida ham shaytanat so‘ziga duch kelamiz. Bundan tashqari muallif asarni yozishda ulug‘ adibimiz Abdulla Qodiriydan ta’sirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Asadbekning qizi Kumush emas Zaynab onasiga nega meni ismimni Zaynab qo‘ygansizlar

Kumushdek o‘lib ketsam bo‘lmasmidi deya Kumushning taqdiriga havas qiladi. Elchin Zaynabning hayotini barbod qildi. Oqibat o‘zi badnom qilgan qizga uylandi. Chimildiqdagi Zaynab Elchinni ko‘rishi bilan “siz o‘shami” degan mashhur jumlani ishlatadi. Bu lavhalarni o‘qir ekansiz beixtiyor yodingizga buyuk “O‘tkan kunlar” romani keladi. Faqat farq boshqa. Qodiriyning Kumushi turmushga chiqqan yori o‘zi ko‘ngil qo‘ygan inson ekanidan sevinib siz o‘shami deydi. Zaynab esa bu jumlani hayotimni, sevgimni toptagan o‘sha kimsa sizmi degan mazmunda ishlatadi. Biz misollarni asosan birinchi kitobdan oldik. Romanning qolgan 4 kitobida ham yozuvchi iste’dodining yorqin aksiga guvoh bo‘lasiz.

Mana necha yildirki “SHAYTANAT” romani necha yuz minglab nuzxada nashr qilinmoqda. Ozod Sharafiddinovning “Olamning qalbi” Abdug‘ofur Rasulovning “Badiiylik bezavol yangilik” kitoblarida asar haqida iliq fikrlar mavjud. 2017 – yili muallif “Shaytanat” ni qayta tahrir qilib, har bir kitobga nom berdi. 1 – kitob “Qasos” 2 – kitob “Non berganning begonasi bo‘lmaydi” 3 – kitob “Semirgan chumoli” 4 – kitob “Oqqush qo‘shig‘i” 5 – kitob “Azozil do‘koni”. Kitobni “HILOL NASHR”, 2017 Uzb milliy ensiklopedia davlat nashryotlari 2018 – yillarda nash qilishdi. Roman adibning tanlangan asarlar ro‘yxatiga ham kiritildi. Ko‘rinadiki, asar o‘z kitobxonlari tomonidan katta qiziqish bilan, sevib mutolaa qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik .Shaytanat. 1-2-3-4-5-kitoblar .-Toshkent: Sharq, 1994-2011.
2. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. –Toshkent, 1998.
3. Ozod Sharofiddinov .Olamning qalbi.- Toshkent: Ma’naviyat, 2014.
4. Alisher Navoiy .Hazoin ul maoniy.- Toshkent: O‘zbekiston, 2011
5. Abdug‘ofur Rasulov .Badiiylik bezavol yangilik.- Toshkent: Sharq, 2007.
6. Tohir Shermurodov.Jozib izhor izlab.-Toshkent:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2009.

IJODKORNING BILINGVISTIK SALOHIYATI VA BADIIY ASAR

Nafisa KARIMOVA
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
2-kurs magistranti

Annotatsiya
Maqolada ijodkorning bilingvistik salohiyati masalasi ko‘rib chiqilgan. Muallif ikkita ilmiy-ijodiy muammoni o‘rtaga qo‘yadi. Birinchisi, adabiyot tarixida ikki tilda ijod qilgan ijodkorlarning bilingvistik salohiyati. Ikkinchisi, badiiy asar matnida xorijiy so‘z elementlarning qo‘llanilishi. Fikrlar hayotiy va kitobiy faktlar bilan asoslangan. Shuningdek, tarjimaning o‘ziga xosligi, adabiy aloqalar va adabiyotdagi bilingvistika masalasi atroflicha o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: *bilingvizm, adabiyot, yozuvchi, muloqot, ijtimoiylilik, ijodiylik*

Annotation
In this article reveals author’s bilingual potential. Author in this article addresses two scientific issues. The first is that the bilingual potential of the creators is reflected in the work of the writer. The second one is the elements of foreign words are used in context. The ideas are based on life and biblical facts. Also, specialitiy of translation and the features of bilingualism, the relationship between bilingualism and art are studied in literature.
Key words: *bilingualism, literature, writer, meeting, sociologism, cretivism.*

Har qanday ijodkor badiiy salohiyat va xususiyatga ega bo‘ladi. Mutolaa madaniyati, jahon adabiyoti bilan tanish, shaxsiy uslub yaratish, so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llashda hushyor bo‘lish, personajlar nutqi, asardagi dialoglar ustida ishlash va biror xorijiy tildan boxabarlik -bularning barchasi, ijodkorning badiiy xususiyatini ta’minlovchi omillar sirasig5a kiradi. Yozuvchilar o‘z ona tilisidagi so‘zlardan keng doirada foydalanishga harakat qiladilar, albatta. Lekin ijodkorning bilingvistik salohiyati masalasi bo‘yicha shuni aytish mumkinki, aksar ijodkorlar ikki tilda ijod qilgan. Ikki tilda ijod qilish yoki, ijodkorning o‘zga tillardan boxabarligi shaxsiy xususiyat va fazilati hisoblanadi. Sharq adabiyotida ikkitillik zullisonayn deb ataladi. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy bobomiz turkiy va forsiy tilda samarali ijod qilgan va har ikki tilda e’lon qilingan devonlari fanga ma’lum.[1, 38] Shuningdek, Muhammad Solih, Turdi Farog‘iy, So‘fi Olloyor, Amiriy kabi shoirlar ham zullisonayn ijodkorlardir [2, 45]. XV-XVI asrga murojaat qilishimizdan asosiy maqsad, ijoddagi bilingvistik xususiyatning tarixi bilan tanishish edi. Bilingvistika badiiy ijodda nazmiy va nasriy yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Shu jarayonni shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin: a) o‘zga tildagi so‘zlarning qisman, badiiy asarning ayrim o‘rinlarida uchrashi; b) badiiy matnning butun hajmi o‘zga tilda yozilishi.

Bilingvistikaning badiiy ijodda yuzaga chiqishini, ona tiliga nisbatan hurmatsizlik deb, baholamaslik lozim. Bilingvistikadan asosan, qahramon xarakterini ochishda foydalaniladi va foydalanilgan o‘zga tilning asar matnida havolasi(lug‘ati) beriladi. Shu orqali ona tiliga nisbatan hurmatsizlik tushunchasiga barham berish mumkin[3, 88]. Bilingvistik ijod tarixidan bunga misollar keltirsak, masalan, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari o‘zbekcha yozilgan, biroq ayrim o‘rinlarda, personajlar nutqida tojik xalq maqolidan foydalanilgan. Boyog‘li aytdi: “Tojikning bir masala borki, “Yoreki ahlast, kori o‘ sahlast!” (2, 288 bet). Muallif kitobxon retsepsiyasini hisobga olgan holda, havolada maqolning o‘zbekcha mazmunini bergan: “Do‘stlar ahil bo‘lsa, ishi oson bo‘ladi”. Shuningdek, jahon adabiyoti namoyondalari ijodida ham bu holat kuzatiladi. Lermontovning “Zamonamiz qahramoni” nomli nasriy asaridagi qahramonlari tilidan bir qancha fransuzcha so‘z va so‘z birikmalar qo‘llangan. Asarda *dris de perles* (gavharrang), *c’est impayable* (qiziq ekan!), *vis-a vis* (ro‘parama- ro‘para), *merci, monsier* (rahmat, afandim), *permete* (ruxsat eting) kabi o‘zga til aralashuvlarini ko‘rishimiz mumkin. Pushkinning “Kapitan qizi” nomli asarida ham uchraydi. General “Nahotki? O, bu Shvabrin borib turgan *Schelm*”, deydi. Havolada “schelm” nemis tilida “ablah” ma’nosini anglatishi ko‘rsatilgan[3, 89]. Bilingvizmning yozuvchi tomonidan kam sonli so‘zlar orqali ifodalanishining ahamiyati shundaki, birinchidan, kitobxonda o‘sha tilga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, o‘zga tilning kam so‘zlar bilan ifodalanishi yozuvchi asa ridagi badiiy til va uslubda o‘zining individualligini ham ko‘rsatishi ham mumkin. Yana o‘sha davrda bilingvizmning birinchi tipi ijod ahli orasida urfga kirgan bo‘lishi mumkin, degan xulosani ham keltirib chiqaradi. Bilingvizm yozuvchining yozish xususiyatidir. Adiblar bu xususiyatni butun boshli asarda emas, asosan epizodlar va ikkinchi darajali obrazlar orqali, ba’zan bosh qahramonning prototipligini isbotlash maqsadida foydalanadilar. Turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntegin dunyoga mashhur “Choliqushi” romanining bosh qahramoni Feredeni fransuz tili maktabining o‘quvchisi ekanligini kitobxonga eslatib turish uchun, uning nutqida juda ko‘p so‘zlarni fransuz tilida ko‘rsatgan[4, 200]

Alisher Navoiyning “Devoni Foniy” asari esa bilingvistik xususiyatni namoyon etuvchi ikkinchi tipga yorqin misol bo‘la oladi. Ya’ni, butun boshli badiiy asar “Devoni Foniy” forscha she’rlardan tarkib topgan[2, 41]. Shuningdek, Chingiz Aytmatov asosan, o‘z asarlarini rus tilida yozgan va bu bilan o‘zining bilingvistik qobiliyatini to‘la namoyon etgan. Umumiy qilib aytganda, asarning ayrim o‘rinlari yoki obrazlar nutqida o‘zga tilli so‘z va iboralarni qo‘llamay, uslubiy, grammatik va mantiqiy kamchiliklarsiz, mukammal holda butun boshli asarni o‘sha tilda yaratish yozuvchining ijodida bilingvizmni namoyon etuvchi ikkinchi tipni tashkil etadi.

Til bilish, jumladan xorijiy va qardosh xalqlar tili, adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishish o‘zbek ijodkorining dunyoqarashini kengaytirishga, boy tafakkur egasi bo‘lib shakllanishiga yordam beruvchi asosiy omillardan biridir. Har bir xalqning o‘z ona tilisida milliy tafakkuri, adabiyotida esa milliy qadriyati aks etgandir. Bilingvistikadan yaxshigina boxabar yozuvchi ham til, ham adabiyot orqali o‘zga xalq dunyosini o‘rganar ekan, bu o‘rganish orqali ham ilmiy, ham ijodiy tajribaga ega bo‘ladi. Orttirilgan tajriba barcha xalqlarga birday manzur bo‘ladigan asar yozishga xizmat qilishi shubhasizdir. O‘zbek adabiyotining unutilmas, zabardast ijodkori G‘ofur G‘ulom nafaqat ikkitilli, balki ko‘ptilliligi bilan barchaga ibrat bo‘lgan. Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov “Ijodni anglash baxti” nomli maqolasida shoir G‘ofur G‘ulomning til bilish qobiliyatiga alohida baho bergan. “Turkiy tillar-ku uning jonu dili edi – bu tillarda gapirish zarur bo‘lib qolganda u o‘zini suvda yurgan baliqdek erkin his qilardi. Men Qozog‘istonda uning uchrashuvlarda ham, do‘st- ijodkorlar davrasida ham qozoq tilida hazil - huzullar, payrovlar, so‘z o‘yinlari bilan gapirganini o‘z qulog‘im bilan eshitganman. U Ashxabodga borib qolsa turkman bo‘lib, Bishkekda qirg‘iz bo‘lib gapira olardi. Ozarbayjonlar ham uning ozar tilini bilishigagina emas, Fuzuliyga o‘xshash daho shoirlarni talqin qilishiga ham qoyil qolishardi. Vafotidan biroz oldin esa G‘afur aka Qozonga borib, tatarlarning buyuk shoiri Abdulla To‘qay haqida, tatarlar bilan o‘zbeklarning mustahkam do‘stligi to‘g‘risida tatar tilida To‘qay she’rlaridan, boshqa tatar adiblarining asarlaridan parchalar keltirib, shunaqa ehtiros bilan jo‘shib nutq so‘zlaganki, katta teatr zalini to‘ldirib o‘tirgan tatar ziyolilari bir necha bor o‘rinlaridan turib, uni davomli qarsaklar bilan olqishlaganlar”[5, 259]. Olim G‘. G‘ulomning lingvistik qobiliyati haqidagi fikrlarini xotiranomalari bilan, bevosita o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar bilan dalillaydi.

Badiiy asarning xalqaro ahamiyatini belgilovchi unsurlardan biri tarjimashunoslik hisoblanar ekan, mazkur sohaning asosiy maqsadi va vazifalari xalqlarni o‘zaro tanishtirish, adabiyot orqali o‘zaro muloqotni tashkil etish, shuningdek, madaniyatlararo kommunikativ imkoniyat yaratish kabi masalalarda yaqqol ko‘rinadi [7, 11]. Tarjimalar asosan, kichik janrlardan yoki hajman kichik asarlardan boshlanadi. Chunki til o‘rganayotgan shaxs ham kichik matnlar orqali o‘zga tildagi yozma nutqini shakllantirishga kirishadi. Tarjimonning ilk mashqlari, boshlang‘ich bo‘g‘inda turgan o‘rganuvchi uchun ancha asqotadi.

Adabiyotning markazida inson va uning ichki dunyosi turadi. Har bir xalq adabiyoti o‘zining milliy kishisini bosh qahramon sifatida tanlaydi. Asar mazmuni, badiiy ifodalar, epigraflar, kiritmalar va umuman matn xalq tilida yoziladi.Turli tillarda turli ismlar, nomlar bilan

qahramon obrazlar shakllanadi. Biroq ichki kechinmalar, his -tuyg‘ular, orzu va armonlar bir tilda ifodalanadi -qalb tilida[3, 90]. Kim qaysi tildan tarjima qilmasin, qahramonning ichki dunyosini tarjima qila olmaydi. Chunki qalb so‘zi bilan ifodalangan mazmun bir xil bo‘lib chiqadi. Xalqlarning orzulari, umidlari, tuyg‘ulari va qayg‘ulari boshqa tilde boshqa nom bilan ifodalansa ham bir xil mazmun kashf etaveradi. Madaniyatlaro muloqotning badiiy shakli shu jihati bilan go‘zal, shu tomoni bilan tarjimonlar uchun qiziqdir.

Ijodkorning bilingvistik salohiyati va badiiy asarning esa muloqotni tashkil etishdagi o‘rni mavzusi ilmiy kun tartibga kiritilib, e’tibor markazidagi masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: “O‘qituvchi” NMIU, T.:2005, 38–bet
2. N. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1976 yil, 45,41, 288 -betlar
3. N. Karimova. Kichik tadqiqotlar. “Muharrir”, T.: 2018- yil, 88 -90 betlar
4. Rashod Nuri Guntegin. Choliqushi. “Yangi asr avlodi”, T.: 2010 -yil
5. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. “Sharq”NMIU, T.:2004 -yil, 259 -bet
6. “Kitob dunyosi” gazetasi, 2018 -yil, 23-soni
7. Sh.Sirojiddinov, G.Odilova. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. “Mumtoz so‘z” nashriyoti, T.: 2011, 11 -bet

BADIIY ADABIYOTDA QALB MUOLAJASI

Qizlarxon BOLTAYEVA
ToshDO‘TAU II bosqich magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada badiiy adabiyotning inson tarbiyasi, uning qalb kechinmalarini yoritishdagi ahamiyati xususida so‘z boradi. O‘zbek adabiyotida qalb muolajasi badiatiga doir ko‘plab badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, G‘ofur G‘ulomning ko‘pgina asarlari bu borada ancha ahamiyatga molikdir. Adib yaratgan obrazlar hozirgacha o‘quvchilar mehrini qozonib, ularning qalb kechinmalarini o‘zlarida ifoda etib kelmoqda.
Kalit so‘zlar:*adabiyot, san’at, hikoya, qalb, ijod.*

Annotation
This article discusses the importance of fiction in educating people and illuminating their emotions. There are many works of art in Uzbek literature on the art of heart therapy. For example, many of Gafur Ghulam's works are significant in this regard. The images created by the author still win the love of students and express their feelings.
Key words:*literature, art, story, heart, creative.*

San’at, jumladan, adabiyot tarbiyalamagan qalb vahshiylikka, yovuzlikka, tubanlikka moyil qalbdir. Chunki adabiyot bilan to‘lgan qalbga yovuzlik kirib olishi qiyin kechadi, ko‘ngil mayli yovuzlik tomonga o‘tishdan oldin u yerda adabiyot bunyod etgan qo‘rg‘onlarni, qal’alarni buzib tashlashiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot bilan to‘yingan qalb, ong – poydevori mustahkam binoga o‘xshaydi. U zalolatga boshlovchi ko‘plab zilzilalarga dosh bera oladi. Adabiyot va san’at tarbiyalamagan qalb “eng past balli silkinishlarga” dosh berolmay, to‘kilib ketadi. Bu – asrlar osha isbotlangan haqiqat. Adabiyotning kishilik ongu tafakkurida, ma’naviy olami, madaniy taraqqiyotida tutgan o‘rnidan xabari bor, kalom san’atining nima uchun paydo bo‘lgani-yu uning bosh vazifasi nimaligini bilganlarga bu gaplarni gapirib o‘tirish ortiqchaday tuyulishi mumkin. Ammo xavotir-savol bekorga qo‘yilgani yo‘q, aftidan.

Ijodning mohiyatini anglamasak va ijodning ilohiyligini tan olmasak, adabiyotning vazifasi haqidagi barcha javoblarimiz puch va shunchaki vaysaqilik bo‘lib qolaveradi. Chunki xuddi falsafaning bosh masalasi kabi ijodkorlik, ijodni qanday tushunish va tushuntirish adabiyotni tushunishning ham birlamchi masalasidir. Eng avvalo, ijodni barchaga xos bo‘lgan taassurotdan, qiziqish va ehtirosdan, mayl va istaklardan, havas va ko‘nikmadan, hunar va, A.Qahhor aytganidek, “kosibchilikdan” farqlay olishimiz zarur. Shundagina adabiyotning, san’atning muqaddas vazifasini tasavvur qila olamiz va nimalar san’at bo‘ladi, nimalar

bo‘lolmaydi, degan savolga javob bera olamiz. Chunki hunar mahsuli moddiylik, ijod mahsuli esa ruhoniylikka o‘xshaydi: biri – tirikchilik ehtiyojini qondiradi, ikkinchisi – qalb, ruh ehtiyojini. Shu jihati bilan u ilohiy hodisadir. Bugun bizga “ijod mahsuli” deb tavsiya qilinayotgan ko‘plab ma’naviy mahsulotlar, aslida, ustasi farang bo‘lgan sanoatchilar va turli hunarlarning mahsulotlaridir. Bugun o‘zini ijod namunalari sifatida ko‘rsatayotgan, bu namunalarni shov-shuvlar bilan e’tirof ettirayotgan butun boshli tijorat, reklama, manipulyasiya sanoati ishlayapti.

Eng katta adabiyot yuragimizda yashaydi. Demak, adabiyot har birimizning, hammamizning ichimizda. Lekin adabiyotga “yaqin” bo‘lganimiz holda nega dunyoda zulm bor? Nega bugun insoniyat yangi yo‘l qidirmoqda? “Yo‘lini yo‘qotgan dunyo”da adabiyotning o‘rni va roli bormi? Nega u, ya’ni adabiyot dunyoning yo‘lini yo‘qotishiga jim qarab tur(a)di? Endi-chi, adabiyot dunyoning ravishiga ta’sir etib, uning yangi, munosib yo‘l topishiga ilhomlantiruvchi kuch bo‘la oladimi-yo‘qmi?..

O‘zbek adabiyotining yetuk namoyondasi G‘afur G‘ulomning,,Mening o‘g‘rigina bolam’’ asarida kampir ya’ni (Qora buvi) o‘g‘rini juda muloyimlik bilan qarshi oladi va unga o‘z hayoti,nabiralari haqida so‘zlab beradi. O‘g‘ri kampirning oqko‘ngilliligidan g‘oyatda ta’sirlanadi va kampir berib yubormoqchi bo‘lgan qozonni ham olmasdan ketadi.Kampir va nevarasi o‘g‘rini juda yaxshi tanigan lekin ular bu haqida hech qachon hech kimga aytishmagan. Biz asarda insonning yuragidagi va ruhiyatidagi yovuzlikni yaxshilik bilan yengish hamda unga ezgulikni singdirish kabi nozik masalalar qo‘yilganini bilishimiz mumkin. Inson tug‘ulibdiki, yovuzlik va ezgulik doimo unga hamroh. Ming yillardan buyon yovuzlik bilan ezgulik kurashib keladi. G‘afur G‘ulom bu asarda 4 ta yetim qolgan go‘dakni va o‘sha yillari urush tufayli ancha og‘irlashib qolgan zamonni juda chiroyli qilib tasvirlaydi. Garchi ro‘zg‘orda hech narsa bo‘lmasada kampir o‘g‘rini quruq yuborgisi kelmaydi. Uning:,, sizlarning ham ishlaring og‘ir’’- deb o‘g‘riga murojat qilganligi o‘g‘riga juda qattiq ta’sir qiladi. Sening ham bola-chaqang bor ularni boqishing kerak degan gaplari o‘g‘rining yuragini iyitib yuboradi. Kampir va o‘g‘ri xuddi ming yillik tanishlardek suhbatlashishadi. Ular zamonning og‘ir bir sharoitda yashayotganliklari, to‘rtta yetimning taqdiri va burungi o‘tgan zamonlar haqida so‘zlashadilar. Bu suhbat shunchalik samimiyki o‘quvchini o‘ziga jalb etmay qolmaydi. Asarda insonning qalbini faqat yaxshi so‘z va yaxshi amallar bilan yengish mumkin ekanligi juda mohirona tarzda bola tilidan yozilgan. Aynan bolaning obrazi bu yerda katta ahamiyat kasb etadi.chunki bolalar dunyoga faqat sof tuyg‘u va sofdillik bilan yondashadilar. G‘afur G‘ulom bu asarda bolaning obrazini juda yaxshi va sodda

qilib tasvirlagan. Asarda bola o‘g‘rini tanishi va bu haqida hech kimga atmaganini ma’lum qilgan. Ya’ni insonlarni yaxshi yo‘lga boshlash, ularga yaxshilik qilish kabi amallar hech qachon atilmaydi. Bu yaxshilikdan faqat u manfaat olsin ya’ni davolanayotgan inson. Axir siz uning qalbini davolayapsiz.

O‘zbek asarlarida bu kabi hikoya va asarlar juda ko‘p. Masalan, mana bu hikoya ham bunga misol bo‘la oladi. Bir kuni bir kishi yangi uy sotib olibdi. Uning qo‘shnisi juda hasadgo‘y, badgumon inson ekan. U har kuni yangi qo‘shnisining uyiga axlat tashlab ketar ekan.Bir kuni yangi qo‘shni chiqib qarasa eshigining tagida bir chelak axlat turgan ekan. U chelakni olib ichidagi axlatini to‘kib tashalabdi va chelakni yaltiratib tozalab yuvibdi. Chelakning ichiga esa katta-katta shirin olmalardan solibdi va qo‘shnisining eshigini taqillatibdi. Janjal chiqishini kutib o‘tirgan qo‘shni eshikni ocjibdi shunda yangi qo‘shni olma to‘la chelakni uzatibdi va shunday debdi: - Har kim o‘zida borini ulashadi! Bunday munosabatdan g‘oyatda ajablangan qo‘shni qilgan ishidan juda uyalibdi. Bu hikoyadan biz shuni bilishimiz mumkinki insonning qalbidagi g‘arazlik,ko‘rolmaslik va yovuzlikni faqat yaxshilik bilan yengish mumkin. Inson tabiati shunday u qarama qarshi tarafdan kelgan har qanday munosabatga yaxshilik bo‘lsa yaxshilik bilan yomonlik bo‘lsa xuddi shunday munosabat bildiradi. Inson o‘zida bor eng yaxshi fazilatlar orqali taasurot qoldiradi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.Yaxshilik insonni har doim ulug‘lab boradi.

G‘afur G‘ulom bu asarda nafaqat yaxshilik balki uni olamga jar solmaslik haqida ham juda chiroyli tarzda yozib ketganlar. O‘quvchi asarni o‘qir ekan o‘g‘ri bundan keyin hech qachon o‘g‘rilik qilmaganini sezishi mumkin. Chunki asarda suhbat yakunida bu yaqqol sezilgan. Bundan tashqari G‘afur G‘ulomning yana bir asari;,,Yodgor’’ ni olaylik. Bu asarda juvon Jo‘raga o‘z farzandini tashlab ketgan bo‘lsa ham, Jo‘ra unga o‘z bolasidek qaragani va parvarish qilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Oradan yillar o‘tib o‘sha juvon bilan ko‘rishganda u xuddi shu gapni takrorlaydi:Birovga holis xizmat qilganmisiz? Asardagi bu nozik nuqta o‘quvchini hayratga soladi. Jo‘raning insofli ekanligi, to‘g‘riso‘zligi,mardligi va soddaligidan juvon foydalanib bola tashalab ketadi. Lekin uzoq yillar o‘tib uchrashsa ham yigit juvonning yuziga o‘tgan voqealarni solmaydi. Bu qahramonning ezgulik yo‘lidagi inson ekanligini bildiradi. Asarda yaxshilik, insonlarning soddaligidan juda makkorona foydalanayotgan voqealar juda ham yaxshi tasvirlangan. Asarning eng katta yutug‘i o‘quvchilarning qalbiga yaxshilik qilish, uning evaziga hech narsa olmaslik va albatta bir kuni haqiqat yuzaga chiqishiga ishontirganligidir.

Asarning yana bir e’tirof etadigan ta’rafi bu uning sodda va tushunarli qilib yozilganligi. G‘afur G‘ulom o‘z asarlarida bo‘yoqdorlikdan qochadi. U sodda va o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan tilni tanlaydi. Asarlarning muvaqqiyati ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afur G;ulom. Mening o‘g‘rigina bolam. –T.:Yangi asr avlodi, 2018.
2. Sharafiddinov O. «Daryodil shoir «badiasi –T.: 2004.
3. Qosimov B. Dolimov U. Ma‘rifat darg‘alari. –T.: 1990 yil.
4. G‘afur G‘ulom. «Yodgor». –T. : 1935 .

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDAGI RAMZIY OBRAZLAR POETIKASI

Mohira ABDURAHMONOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek romanlaridagi ramziy obrazlarning poetikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romani misolida olib borildi. Maqolada, asosan, romandagi obrazlarning ramziy vazifasi ochib berildi.
Kalit so‘zlar: *roman, ramz, ramziy obraz, bozor, taklifnoma, nafs, nojins, olov.*

Annotation
This article is devoted to the poetics of symbolic images in modern Uzbek novels, the research was carried out on the example of Khurshid Dostmukhammad’s novel “Market”. The article mainly focuses on the symbolic function of the characters in the novel “Market”.
Key words: *novel, symbol, symbolic image, market, invitation, self, asexual, fire*

Badiiy adabiyot ko‘ngilni poklovchi, ruhni nopokliklardan tozartiruvchi bir vositadirki, unga oshno bo‘lgan sari inson badiiy asar o‘qish, uni tushunish, his etish, undan estetik zavq olishga nisbatan o‘zida ichki bir ehtiyoj sezadi. Insoniyatning bu ehtiyoji ijodkorlar tomonidan yaratilgan turli shakldagi asarlar yordamida qondiriladi. Davrlar, avlodlar almashinishi bilan inson ehtiyoji o‘zgarib borar ekan, badiiy adabiyot ham o‘z tilini kitobxonning istaklariga moslab boradi. Xususan, o‘zbek adabiyotining o‘tgan asrda yaratilgan namunalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ijtimoiy-tarixiy vaziyat jadid adabiyotining yuzaga kelishiga zamin yaratganligini ko‘ramiz. Xuddi shunday, bugungi kunda yaratilayotgan o‘zbek adabiyotidagi romanlarning yuzaga kelishida ham bir qator omillar mavjudki, ular zamonaviy o‘zbek romanlarida mushtarak jihatlar mavjud bo‘lishiga olib keldi.

Hayotni estetik o‘zlashtirish g‘oyatda murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, turli-tuman yo‘llar bilan, ko‘pincha, bilvosita amalga oshiriladi. Chinakam yetuk roman xalq hayotining ma’naviy ko‘zgusi hisoblanadi[1,465]. Hozirgi o‘zbek adabiyotida yaratilayotgan roman janriga oid asarlarni birlashtiruvchi o‘ziga xos xususiyatlardan biri – bu ramziy obrazlardan foydalanish. Ramz – voqelikni o‘z holicha emas, balki badiiy aks ettirishning turi bo‘lib, ramziy obraz yozuvchining ijodiy niyatini anglangan obyektning asl holida emas, ma’lum bir boshqa shakl orqali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda yozuvchi biror falsafiy mushohada yoki o‘y-

fikrlarini bayonchilik asosida yoinki muallif tilidan aytmaydi, ularni ifodalashda shunday obrazlardan foydalanadiki, bu obrazlarga ma'lum ma'no yuklangan bo'ladi. Obrazlardagi ma'no qatlamlari yozuvchining asosiy aytmoqchi bo'lgan fikrlari, g'oyasini anglatsa, uning obraz holatidagi shakli esa ramz sanaladi. Zamonaviy o'zbek romanlarida ham ramziy obrazlar mavjud bo'lib, badiiyatda, ayniqsa, roman janrida bunday obrazlarning paydo bo'lishi ham davriy ehtiyoj, ham kitobxon tafakkuri bilan bog'lanadi. Chunki bugungi texnika taraqqiyot etgan davrda borliqni, atrof-olamni, undagi voqea-hodisalarni anglash uchun o'quvchi ming betlik voqeaband asardan ko'ra, qisqa sahifali falsafiy mushohadaga undaydigan asarlarni afzal ko'rmoqda. Ramziy obrazlar esa bu ehtiyojni qondira oladigan unsurlardan biri hisoblanadi. Jumladan, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" nomli romanida bir qancha ramziy obrazlarga duch kelamiz va bu obrazlarning ayrimlari ushbu asargacha ramziy holda qo'llanilmagani muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning "Bozor" deb nomlanishining o'ziyoq g'ala-g'ovur, tartibsizlik hukmron bo'lgan, odamlar shovqin-suroni bilan to'la manzarali bozor haqida kitobxonda tasavvur uyg'otadi va o'quvchi romanni o'qish davomida bozor foniy dunyoning ramzi ekanligi yanada to'liq badiiy dalillanganligiga guvoh bo'ladi. Bu asargacha ham dunyoni bozorga o'xshatish yangilik emas edi, ammo Xurshid Do'stmuhammad faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, balki bozor endi yozuvchi talqinida tugab borayotgan, kirlangan, insofsizlar oyog'i ostida qolgan bir holda tasvirlanadi, shu sabab ham asarni *"...or...zor...ozor...bozor"* [2,3] deya epigraf bilan boshlaydi. Dastlab bu boshlanma shaklan kitobxon e'tiborini jalb etsa, asarni o'qish davomida unga mos mazmun ham o'quvchi diqqatini tortadi: *"Dunyoning bozorligi rost, uka, lekin odamning bozor ko'yida o'tgan umri ozor", "Ozor bo'lganda-chi, bozorning turgan-bitgani ozor, zor...ori esa qolamadi!", "...ozor chekasan, zor bo'lasan, oxir-oqibat oriyatingdan ayrilasan!"*[2,147]. Fozilbek va G'ulomjonning bu suhbati orqali yozuvchi bozorga mos, topib tanlangan epigrafning ma'nosini ochib beradi. Asarning asosiy g'oyasi bozor ramzi atrofida birlashadi, yozuvchi zalolatga yuz tutayotgan bozorni qutqarishning birdan-bir chorasi sifatida ma'rifatni oladi va buni qiroatxona timsolida badiiylashtiradi. Insonni barcha tubanliklardan, nafsning xurujlaridan kitobga muhabbat, muhabbat bo'lganda ham, amalga aylangan ezgu g'oyalargina asray olishini asar qahramonlari bo'lmish Fozilbek va Qadriya misolida aks ettiradi. Bosh qahramonlar ismining bu tarzda tanlanishi ham bekorga emas. Fozilbek bozor kishilariga xos xususiyatlardan butunlay holi emasligi[3,112] asardagi realistik tasvirni belgilagani holda, u *"bozorning har qarichida million falsafa ko'radigan"*, favqulodda farqlanib turuvchi fazilatlarga ega tarzda tasvirlanishi esa Fozilbekni ko'proq yozuvchi xayolidagi ideal qahramon sifatida

tasavvur qilishga yo‘l ochadi. Romanning Fozilbekka bog‘liq juda ko‘p o‘rinlarida to‘yga taklifnoma berish voqeasi uchraydi. Fozilbek kimga duch kelsa, uning qo‘liga taklifnoma tutadilar. Bu bilan yozuvchi hayotning ma’nosini faqat biror inson bilan oila qurish deb biladiganlar ko‘payib ketganligiga ishora qiladi. O‘quvchi oldiga umrning ma’nisi avlodlar davomiyligini ta’minlashdan, boshqacha aytganda, ikki kishining turmushi qalb va ruh mos kelishiga e’tibor bermay, ajdodlardan qolgan va davom etib kelayotgan to‘y marosimini o‘tkazish-u, turmush tashvishi bilan o‘ralashib qolishdan iborat bo‘lib qolmayaptimikin, degan savolni ko‘ndalang qo‘yadi. Fozilbek romanda nafsini jilovlay oladigan, bozor jununi kasalligi (dunyo ne’matlariga oshiqlik)dan xoli obraz sifatida tasvirlanganligi uchun ham u to‘g‘ri kelgan qiz bilan oila qurishni o‘ziga munosib deb bilmaydi va qahramon tili bilan aytganda, *“Munosibxon”*ni axtaradi.

Romanda to‘yga taklifnoma bilan bir qatorda, ko‘milishi kechiktirilgan mayit obrazi ham ramziy ahamiyat kasb etadi. Fozilbek kim bilan gaplashmasin, doim novcha zakonchining janozasi kechiktirilib, o‘ligi ko‘milmayotganligi haqida so‘zlaydilar. Muallif bu timsol orqali inson hayotining naqadar qadrsizlanib borayotganini ta’kidlaydi va bu qadrsizlanishning sababi nimada, degan fikrga keladi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida inson nasfning, foydaning quliga aylanib borishi natijasini ko‘rsatadi hamda uni odamlar badanidagi illatlardan vujudga keluvchi nojins maxluq obrazi orqali ramziylashtiradi. Romanda keltirilgan nojins obrazi – nafs ramzi. Albatta, nasfni yo‘qotib bo‘lmaydi, xuddi asarda odamlar nojins maxluqni butkul yo‘qotib, butunlay qirib tashlash chorasini topa olmaganlaridek. Ammo nafsni jilovlash mumkinligiga urg‘u beriladi: *“Bozorni izga solish uchun, avval nasfni tartibga keltirish kerak. Bozorga mingta poyloqchi qo‘yguncha, nafsga bitta qo‘riqchi qo‘yishni uddalash lozim”* [2,114]. Xurshid Do‘stmuhammad butun bozorni hech narsa nafschalik betartib holga keltira olmagani kabi, unga qarama-qarshi ravishda, muhabbatdan o‘zga hech narsa bozorni bezay olmaydi degan to‘xtamga keladi. Shuningdek, insonga muhabbat degan tuyg‘u bilan birga ma’rifat ham zarur ekanligini qiroatxona (kutubxona) timsolida aks ettiradi: *“Bozorning tanazzuli qiroatxona xarobligining kasofatidir, hoynahoy...”*[2].

Romanda tug‘ilajak farzandini nobud qilish niyatida yurgan, ammo buning uddasidan chiqa olmayotgan ayol obrazi ham uchraydi. Ushbu ramziy obraz orqali yozuvchi barkamol avlodlar davomiyligi vazifasini ayollar zimmasiga qo‘yadi. Bu davomiylik shunchaki bir go‘dakning tug‘ilishi, inson atalmish zotning soni statistik ko‘payishidangina iborat narsa emas, balki bu yerda avlodning davom etishi – komil farzandlarning ko‘payishidir, ularning tarbiyasida

onalarning roli beqiyos ekanligi bilan bog‘lanadi. O‘z farzandining tug‘ilishiga qarshilik qilayotgan, uni jisman o‘limga hukm qilayotgan ayol obrazida muallif farzandlarning ma’nan yetuk bo‘lishi uchun ayol nomiga nomunosib onalar to‘sqinlik qilayotganligini ta’kidlaydi. Zero, inson bu olamga ma’lum bir vazifalarni bajarish uchun kelgan, uni anglash, shu vazifani unutib qo‘ymaslik komillikning shartlaridan biridir. Bu dunyoda o‘zining qay holatda ekanligidan bexabar, bu haqda biror marta ham o‘ylab ko‘rmaydigan insonlar tasviri asarda bozorga o‘t ketish holati bilan yanada yaqqol ochiladi. Butun bozor alanga ichida yonsa-da, buni odamlar sezmaydi, hatto o‘zining yonayotganligini anglamaydi. Bu holatni X.Do‘stmuahmmad shunday tasvirlaydi: *“...eng g‘alati joyi, bozor maydonlarini to‘ldirgan kas-u nokasning birortasi o‘t-otash komida qolganligini sezmas, keksa-yu yosh oldi-sotdi...olish-berish bilan band edi...”* [2,111]. Bu yerda alanga vaqt ramzi bo‘lib, o‘zining umri go‘yo olovdek yonib tugayotganligini sezmayotgan, foniy dunyoning o‘tkinchi narsalariga o‘zini urgan olomon hayoti tasvirlangan. *“...achinarlisi, odamning o‘t-olov ichida yonishi har kimga ham ko‘rinavermaydi”* [2,111] degan jumlalarda esa insoniyatning o‘z umrini nimaga sarf etayotganini hamma ham o‘ylab ko‘rmasligi, bu haqda qayg‘urmasligi haqida yozadi.

Inson mavjud ekan, uning umri, hayoti bozor kabi to‘s-to‘polon, bozordagi kabi turfa xildir. Har qancha urinmaylik, bu bozordan alohida yashashning imkoni yo‘q, ammo bozorda bozor kishisi bo‘lib emas, inson degan sharfli nomga munosib yashash eng oliy maqsadlardan biridir. Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanida esa mana shu g‘oyalar ramziy obrazlar orqali ochib berilgan deb xulosa qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev To‘xta. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002, 465-b.
2. Do‘stmuhammad Xurshid. Donishmand Sizif / Romanlar. –T.: O‘zbekiston, 2016, 3-111-114-147-b.
3. Sodiqov Sanjar. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. / Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2019, 112-b.
4. Jahon adiblari adabiyot haqida. Ozod Sharafiddinov tarjimalari. –T.: Ma’naviyat, 2010.

O‘ZBEK NASRIDA MUSAVVIR BEHZOD OBRAZINING BADIIY TALQINI

Jobir ISMATULLOYEV
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU II bosqich magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqola o‘zbek nasrida Markaziy Osiyo uyg‘onish davri yetuk musavviri Kamoliddin Behzod obrazining yaratilish masalalarini yoritadi. Unda yozuvchi Nodir Normatovning “Kamoliddin Behzod” hikoyasi tahlil etiladi. Adibning tarixiy obrazni gavdalantirish mahorati, bu borada o‘ziga xos yondashuv uslubi o‘rganiladi. XX asrning zabardanst yozuvchilari Oybekning “Navoiy”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarida yaratilgan Behzod obrazi bilan muqoyasa qilinadi.
Kalit so‘zlar: *musavvir, Kamoliddin Behzod, tarixiy obraz, miniatyura, portret, “Tuyalar jangi”, badiiy uslub.*

Annotation
This article deals with the creation of the great Central Asian Renaissance artist Kamoliddin Behzod in Uzbek literature. It analyzes the story of writer Nadir Normatov. The writer’s skill in creating a unique approach to the subject. The great writers of the 20th century are comprated to the image of Oybek “Navai”, Primkul Kadirov’s “Starry Nights”.
Key words: *artist, Kamoliddin Behzod, historical image, miniature, portrait,“Camel battle” artistic style.*

XV–XVI asr temuriylar asos solgan ikkinchi rennesans davrida diniy va dunyoviy fanlar qatorida tasviriy san'at, hattotlik, miniatyura keng rivoj topdi. “Boburnoma”da Samarqandning Dilkusho bog‘idagi ko‘shk intererida Sohibqironning Hindistonga yurishi tasviri, Ulug‘bek rasadxonasi intererida koinot tasviri ishlanganligi qayd etilgan. Amir Temur tarixini bitgan ulug‘ muarrix Ibn Arabshoh ham Samarqand saroylaridagi devorlarda qabul marosimlari, jang voqyealari, ov manzalari va xalq sayillari tasvirlanganligini yozib qoldirgan [1. 201-bet].

Bu davrda Hirot tumuriylar saltanatining ikkinchi poytaxti, san'at va madaniyatning yirik markazi edi. Ayniqsa, Shoxruh Mirzo, Husayn Boyqaro davrida Hirotning nufuzi yanada oshdi. O‘zi ham badiiy ijod bilan shug‘ullangan Husayn Boyqaro ijod ahliga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Hazrat Navoiy shu davrda ijod etdi. Navoiyning homiyligida yana bir iste'dod sohibi “Moniyi soniy” deya e'tirof etilgan musavvir Kamoliddin Behzod Sharq miniatyura san'atini yangi bosqichga olib chiqdi. Taqdir-taqazosi bilan to‘rtta hukmdor Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy va Tahmasp saltanatini ko‘rgan musavvir benazir ijodi sabab

hukmdorlar tomonidan yuksak ehtiromga sazovor bo‘lgan. Husayn Boyqaro saroy kitobxonasi va Tabrizda Ismoil Safaviy kitobxonasida boshliq etib tayinlangan.

Buyuk musavvir hayoti va ijodini o‘rganish borasida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy konfirensiyalar tashkil etil moqda. 1997 yil Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berilib, musavvir nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi tashklil etildi. Joriy yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini nishonlash to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq tasviriy san'at yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi tasis etildi.

O‘zbek nasrida musavvir Behzodning murakkab hayot yo‘li va benazir ijodini yoritishga deyarli murojaat etilgan. Sababi musavvir shaxsiyati bilan bog‘liq ma'lumotlar juda kam. O‘sha davrda yaratilgan “Boburnoma”, “Xulosat al-axbor” kabi ayrim manbalarda ma'lumot uchraydi xolos. Behzod shaxsiyatini o‘rganishda yuqoridagi singari manbalardagi muxtasar ma'lumotlar va uning turli yillarda chizilgan miniatyuralaridan boshqa manbalar mavjud emas.

Tarixiy shaxsni adabiy qahramon qilib tanlash yozuvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. U tanlagan qahramoni hayotiga oid biografik ma'lumotlarni to‘plashi, agar ijodkor bo‘lsa asarlarini o‘qib o‘rganishi, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy havosini bilishi zarur bo‘ladi. Shundagina yozilajak asar o‘z o‘quvchisini topadi. Masalan, o‘zbek nasrining yetuk namunasi bo‘lgan “Navoiy” romani Oybekning yillar davomidagi izlanishlari, shoir ijodini o‘rganib, shu asosda doston, hikoya va ilmiy maqolalar yozishi, asosiysi hazrat Navoiy shaxsiyatiga bo‘lgan yuksak ehtiromi hosilasi deyish mumkin. Kamoliddin Behzod shaxsini yoritmoqchi bo‘lgan ijodkor yana bitta xususiya tasviriy san'at xususan Sharq miniatyura san'atiga doir muayyan bilimga ega bo‘lishi zarur.

Iste'dodli yozuvchi Nodir Normatov musavvir haqida “Kamoliddin Behzod” nomli hikoya yozgan. Adibning buyuk musavvir haqida yozishi bejiz emas albatta. U o‘zbek va jahon tasviriy san'atining bilimdoni bo‘lib, Sharq uyg‘onish davri ijodkori Behzod ijodiga qiziqish bildishi tabiiy. N.Normatov “San'at” jurnalida bosh muharrir bo‘lib faoliyat olib borgan kezlarda Kamoliddin Behzod ijodi, umuman miniatyura san'atiga doir maqolalar nashr etilishiga katta ahamiyat qaratgan. Jurnalning 2000 yil 2-soni Behzod ijodiga bag‘ishlangan. O‘sha yili musavvir tavalludiga 545 yil to‘lgan edi. Jurnalda Galina Pugachenkova, Elmira Gul, Po‘lat Zohidov singari san'atshunos va tarixchi olimlarning maqolalari o‘rin olgan. Behzod shaxsiyati bilan bog‘liq ilmiy maqolalar bilan tanishgan va ulardagi dalillarga tayangan holda yozuvchi

hikoyasi 2004 yilda dunyoga keldi. Hikoya adibning 2012 yil Sharq nashriyotida nashr etilgan “Bisot” nomli qissa va hikoyalar to‘plamidan o‘rin olgan. Hikoya hajmi to‘qqiz sahifani tashkil etadi. Unda Kamoliddin Behzod hayotining Tabrizda o‘tgan so‘nggi yillari ya'ni keksalik chog‘i tasvirlan bo‘lib, Behzod saroy kitobxonasi va butun saltanat hattotu musavvirlari va miniatyurachi rassomlari sardori bo‘lsada saroy nigoristoniga oyog‘i tortmasligi va ko‘p vaqtini jiyani Rustam Alining Tabriz chekkasidagi bog‘li hovlisida o‘tkazishi bayoni bilan boshlanadi. Shogirdlaridan biri Mir Said Ali o‘z bog‘ida yetishtirilgan Samarqandning tuksiz tillarang shaftolisidan keltiradi. Ularning suhbati asnosida asar syujet voqyeasi oydinlashadi va rivojdanadi. Ya'ni Mir Said Alining ona yurti Termiz ekani, ularning oilasi Badaxshon, Balx, Kobulda endi esa Tabrizda yashayotgani, ayniqsa, yurt sog‘inchi keksayib qolgan otasi o‘rtayotganligi bayon etiladi. “Darbadarlik qismatimiz ekan”, deya Mir Said Ali so‘zini yakunlaydi.

“ –Darbadarlik sababi nedur? –Ustoz Behzod bu savolni xuddi o‘ziga ham bergandek ko‘zlarini yumib, og‘ir tin oldi” [2.399-bet]. hikoyadagi ushbu jumla keksa musavvirning ruhiy holati, qalb kechinmalarini yaqqol ifodalab beradi. Saroy kutubxonasida ijod qilishni ko‘ngli xushlamagani, shahar chetida hilvatda, xonanishinlikda ijod qilishi sababi ham qalbidagi izitirob vatan sog‘inchi ekan ayon bo‘ladi.

Mir Said Ali Behzodga u chizgan “Tuyalar jangi” tasvirini Tahmasp ko‘rib, unda qanday ma'no yashiringanligi haqida otasi Mir Musavvirdan so‘rishtirgani haqida gapirib, shoh huzuriga chaqirishi mumkinligidan ogoh etadi. Tez orada shirakayf shoh Behzodni huzuriga chaqiradi va tasvirni ko‘rsatib, so‘roqqa tutadi: “–Musavvir janoblari ushbu naqshalarni tomosha qilib, mahoratlariga tasanno aytdik. Xo‘p jozibali, xo‘p ma'nodor! –so‘ng sohta tabassum qildi: –Naqshaning chekkasida bunday yozuv ham bor ekan: “Mazkur tasvir muraqqadan bir shingil bo‘lib”, ... ular tuyalarning qanday yaratilganiga qaramaydilarmi” demish oyat mazmuniga bir ishorakim, qalami shikasta, faqir va nomurod Behzod umri yetmishdan oshib, ushbu ishga qo‘l urdi”. –Bularni o‘qib andak xavotirga tushdik. Musavviri olamning bitiklaridagi bu qadar hazinlikning ma'nosi nedur?” [2.402-bet].

Musavvir bundan ancha yil oldin Tabriz atrofida mast bo‘lgan tuyalar jangiga ularni bir biriga ro‘baro‘ qilgan egalarining xotirjam o‘tirganiga guvoh bo‘lganligi, shu voqyeani tasvirga olmoq va oyati karimadagi ma'noga ishora qilmoqni diliga tukkanini aytadi.

Tahmasp bunga javoban kecha karvonsaroyda bir turk yigiti Behzodning “Tuyalar jangi” shohlar jangini timsol etmish. Turk hamda Eron shohlariga ishora qilmish deganini va o‘zining

buni ilgari fahimlaganligini, buni xaloyiq fahmlagan boʻlsa taxtu-saltanatning obroʻsi qoladimi deya, otasi shoh Ismoilning Bahzodga qilgan iltifotlarini eslatib xususan buzrukvorining Behzodni saroy kitobxonasi boshligʻi lavozmiga koʻtarish haqida qichargan fanmonini oʻqib beradi va soʻnggi soʻzida “Tuyalarni jang qilmoqqa ermas, alarga qoʻngʻiroqchalar osib, “Choʻli Iroq”ni chalmoqqa boshlamoq lozim”, deydi. Hikoya ona-yurtini sogʻingan musavvirning Hirotga tomon yoʻl tortishi bilan yakunlanadi. Hikoya mazmuni shundan iborat. Unda bayon etilgan turklar bilan oʻzaro kechgan jangda, safaviylarning yengilib poytaxt Tabrizning qoʻldan boy berilishi, bu xabarni eshitgan, toju-taxti qoʻldan ketgan shoh Ismoilning vaziridan birinchi soʻragan savoli Behzodning joni omonmi, turklar qoʻliga tushmadimi deya soʻragani, toki turklar chekinib, Tabrizni qaytarib olinmaguncha Behzodning poytaxt yaqinidagi togʻdagi gʻorda saqlanib, dushmandan muhofaza etgani, saltanat kitobxonasiga boshliq etib tayinlagani, shoh Tahmaspning bolaligida Behzoddan tasviriyot sirlarini oʻrganganligi, Tahmasp soʻzlagan Mironshohning xizmatkori Abdulqodir haqidagi hikoya yozuvchi tomonidan tarixiy dalillarga asoslanib kiritilgan.

Syujet rivoji katta mohiyatni mujassam etgan “Tuyalar jangi” miriatyurasi bilan bogʻlab shakllantirgani yozuvchining oʻziga xos mahorati, sinchkovligi va miniatyura san'atning bilimdoni ekanidan dalolatdir.

Nasrimizda Nodir Normatovaga qadar Kamoliddin Behzod obraziga murojat qilingan. Bunga misol tariqasida Oybekning “Navoiy” va Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarini keltirish mumkin. “Navoiy” romanida Mirak Naqqosh daragini bergan iste'dodli yetim bola Behzodning chizgan tasvirlari bilan tanishgan Alisher Navoiyning bolani oʻz homiyligiga olish lavhalari quyidagicha aks etgan: Navoiy ularni oʻz xonasiga olib kirdi. Mirak Naqqosh eskigina juzdonini ochib, shogirdining ayrim, maxsus qogʻozga solingan rasmlarini shoirga bir-bir taqdim eta boshladi. Navoiy birinchi varaqni qoʻlga olib, bir lahza diqqat bilan tikildi-da, Mirak Naqqoshga ma'nodor qarab qoʻydi. Koʻzlarini soʻzib, yana tikildi. Koʻzlarini uzoq vaqt uzmadi. Mirak Naqqoshning ta'rificha, qoʻli oltin bolaning chizgani jivir-jiqir gullar, barglar, chiziqlar nozikligi, jonliligi, bemisl she'riyati bilan goʻyo uning koʻzlarini, ruhiyatini sehrlagan edi. Boʻyoqlarning nafis ohangi, tong chogʻi toza zangori ufqlarga taram-taram yugurgan nurlardagi, benihoyat nozik tovlanar edi! Navoiy orom va hayajon bilan chuqur nafas oldi. [3.157-bet].

Pirimqul Qodirov romanida esa Nodir Normatov hikoyasi singari musavvir yaratgan asar (Shayboniyxon portreti) va uning g‘oyaviy xususiyati haqidagi lavha asosida Behzod shaxsiyati ochib beriladi.

Shayboniyxonning barcha ishlaridan xabardor Behzod bu yashirin ramziy bo‘yoqlar bilan nimalar demoqchi bo‘lganini Muhammad Solih payqadi-yu, qo‘rqib ketdi. Agar u sezgan ma'noni xon sezib qolsa, Behzod ham omon qolmaydi, orada vositachi bo‘lgan Muhammad Solih ham! Shuning uchun u suratga xomush tikilib turgan Shayboniyxonning fikrini xatarli ramziy ma'nolardan uzoqroq olib ketishga intildi [4.423-bet].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Oybek domla, Pirimqul Qodirov romanlarida hamda Nodir Normatov hikoyasida ham musavvir obrazsini yoritishda o‘ziga xos yondashilgan. Oybek yosh musavvir iste'dodini ko‘rsatish bilan birgalikda Alisher Navoiyning himmatli, yetimlar boshini silaguvchi muruvvatpeshalik fazilatlarini aks ettirgan bo‘lsa, Pirimqul Qodirov musavvirning temuriylar saltanatiga barham bergan, Hirotni xonavayron etgan zolim xonga bo‘lgan kuchli nafratini ifodalagan. Nodir Normatov hikoyasida esa musavvirning yuksak isteyudodi, taxtalashgan va buning natijasida mehnatkash aholining jafo chekishiga sababchi bo‘lgan hukmdorlarga nafrati hamda ona yurt sog‘inchi o‘z tasvirini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Темур ва Улуғбек даври тарихи.- Т.:Қомуслар бош таҳририяти, 1996. –Б.264.

2.Норматов Н.Бисот. -Т.:Шарқ, 2012.- Б. 448.

3.Ойбек. Навоий. –Т.:Шарқ, 2004. –Б.496 .

4.Қодиров П.роман.Юлдузли тунлар –Т.:Янги аср авлоди, 2015. –Б.668 .

ADABIY PORTRET JANRI XUSUSIYATLARI

Sohiba XATAMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada magistrlik dissertasiyasi uchun tanlangan mavzudan kelib chiqqan holda adabiy tanqidning ommabop janrlaridan biri bo‘lgan adabiy portret xususida so‘z yuritiladi. Milliy adabiyotimizda zamonaviy tanqidchilik G‘arb adabiyoti ta’sirida XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, uning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Xususan, Alisher Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy kabi so‘z san’atkorlarining adabiyotshunoslik ilmiga doir asarlari fikrimiz dalilidir. Shuningdek, maqolada adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov qalamiga mansub adabiy portretlar haqida muxtasar to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy tanqid, adabiyotshunos, janr, adabiy portret, badiiy tahlil, adabiy jarayon.*

Annotation

This article discusses the characteristics of the literary portrayt genre, one of the most popular genres of literary criticism, based on the topic chosen for master’s dissertation. Although modern criticism in our national literature appeared in the early 20th century, its roots go back many centuries. In particular, the works of Alisher Navoi, Davlatshah Samarkandiy on the science of literature are prof of our opinion. The article also briefly dwalls on literary portraits by literary scholar Abdugafur Rasulov.

Key words: *wrayter, poet, literary criticism, literary critic, genre, literary portrait, artistic analysis, literary process.*

Adabiy tanqidning taqriz, bibliografiya, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, adabiy sharh, bahs, esse, suhbat, ochiq xat, pamflet singari janrlari bo‘lib, ular orasida adabiy portret janri zamonaviy o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan. Adabiy portret - badiiy hodisadir. Unda hujjatli va badiiy janrlarning elementlari mujassamlashadi. Ushbu janrning dastlabki namunalari rus adabiyotida XIX asrning ikkinchi yarmida yaratila boshlangan. Hozirgi vaqtda adabiy portret janrining adabiy tanqidchilikda publisistik yoki badiiy janr tizimiga mansubligi haqida ham munozaralar ham ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi, shoirlarning adabiy portreti yaratilganda ushbu ijodkorning tarjimayi holidagi ma’lum faktlar, xarakteridagi asosiy xususiyatlar, ijodining o‘ziga xos qirralari yoritiladi. Xotiralar, yillar davomidagi tanqidchining kuzatuvlari zamondoshlar obrazini gavdalantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotida zamonaviy tanqidchilik XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, biroq o‘tmishda ham qaynoq adabiy jarayonlar kechgani ijodkor shaxsiga uning asariga munosabat bildirilgani manbalardan ma’lum. Xususan, mumtoz adabiyotimizda qalam ahli va

uning ijodiy faoliyati haqida bahs yurutuvchi asarlar mavjud. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” kabi asarlari fikrimizga dalildir. Turkiy tazkirachilikning ilk namunasi sanalgan “Majolis un-nafois” asarida 459 nafar ijod ahli haqida muxtasar ma’lumotlar berilgan. Asarning ikkinchi majlisida shoir Atoiy haqida quyidagicha bayon etadi: *Mavlono Atoiy – Balxla bo‘lur edi. Ismoil ota avlodidandur, darveshvash, xushxulq, munbasid kishi erdi. Turkiygo‘y erdi. O‘z zamonasida she’rlari atroklar orasida ko‘p shuhrat tutti. Bu matla’ aningdurkim:*
Ul sanamkim, suv qirg‘og‘inda paridek o‘ltirur,
G‘oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo‘lur.
…Qabri Balx navohasindadur [1. 3-bet].

Tazkirada berilgan qalam ahli haqida zikr etilgan ma’lumot qisqa, ammo u o‘quvchida muayyan tasavvur va fikr uyg‘otishga asos bo‘ladi. Ya’ni Atoiyning Balxda umr kechirganligi, ulug‘ shayxlar avlodiga mansubligi, dunyo xoyu-havaslaridan kechganligi, xushfe’lligi, oqko‘ngilligi, turkiy tilda ijod etishi-yu, she’rlar turklar (atroklar) orasida mashhurligi, qabri Balx shahrida ekanligi qayd etilgan va ijodidan namuna keltirilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tazkirada shoirlarning xulq-atvori, kelib chiqishi, ijodiga oid ma’lumotlar bayon etilib, ijodkorning mo‘jaz portreti yaratilgan. Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiyotida ushbu tazkiralarni adabiy-tanqidiy asar, ta’bir joiz bo‘lsa, adabiy portretlar deyish mumkin.

Hozirgi tushunchadagi – faoliyat turi va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lmish yangi tipdagi o‘zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash kerakki, yangi tipdagi o‘zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi milliy matbuotning shakllanishi bilan bog‘liq holda amalga oshdi [2. 15-bet].

Milliy adabiy tanqidchiligimiz rivojida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, G‘ozi Yunus, Cho‘lpon kabi o‘zbek ma’rifatparvarlarining adabiy-tanqidiy risola va maqolalari muhim qadam bo‘ldi. O‘zbek adabiy tanqidchiligida o‘tgan bir yarim asrlik davr mobaynida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ma’rifatparvar jadidlarimiz qatag‘on qilingach, istiqlolga qadar bo‘lgan davrda adabiy asarlar va mualliflarning faoliyati hukmron partiya maqsad va g‘oyalari nuqtayi nazaridan bir yoqlama tekshirilgan. Istiqlol davrida mafkura qoliplaridan xalos bo‘lgan chinakam adabiy tanqidchilik yuzaga keldi. Mustaqillikkacha bo‘lgan va Istiqlol davrida yaratilgan adabiy portretlarni qiyosiy-tahliliy jihatdan o‘rgansak ham bu yaqqol seziladi.

1985-yil G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida nashr etilgan “Adabiy portretlar” to‘plamiga nazar tashlasak, yuqoridagi fikrimiz o‘z isbotini topadi. Ushbu to‘plamda Turob To‘la, Rahmat Fayziy, Odil Yoqubov, Shoislom Shomuhammedov, Erkin Vohidov singari adabiyotimiz darg‘alarining adabiy portretlari munaqqidlar tomonidan yozilgan bo‘lib, kitobdagi ilk adabiy portretda mualliflar D.Mo‘minova va O‘.Muhiddinov shoir Turob To‘la faoliyatini yoritishgan. Ellik sahifani tashkil etuvchi ushbu adabiy portret “Ikki og‘iz so‘z”, “She’r diplomatik bahsda…”, “Grajdanlik ruhi”, “So‘lim lirika”, “Qanotli qo‘shiqlar”, “Liro-epik janrda mahorat sari”, “Yarqiroq jilo”, “Xotima o‘rnida” kabi

bo‘limlardan iborat. Agar e’tibor qilsak, “Grajdanlik ruhi” bo‘limida davr ruhiga mos she’rlari sotsialistik g‘oyalar asosida tahlil etilganligini ko‘ramiz. Jumladan, Partiya va davlatimiz dastyori, talabchan xalq ilhomchisi mas’uliyatini olib yuruvchi shoir Vatan kuychisi, g‘alabalarimiz sherigi. Uning misralari ohangida zamon ohangi, davr qadami eshitilib turadi. U 20-yillar komsamoli singari fidoiy, bir so‘zli va donishmand, qalbi toza, muhabbatdek teran, mehrday samimiy, hayotni bezatish, qusurlardan tozalash istagi uchun ham ijodiyotga o‘ta mas’ul, she’r zahmati, yaratish mashaqqatini g‘oyat nozik fahmlaydi. Shu sababli uning lirikasi o‘ziga xos fazilat kasb etadi [3. 15-bet].

Yuqorida ta’kidlanganidek, mustaqillik davrida yaratilgan adabiy portretlar o‘zining sofligi, ijodkor shaxsiyatiga obyektiv yondashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, munaqqid Abdug‘afur Rasulovning “Iste’dod va e’tiqod” (2000), “Atoqliadib” (2001), “O‘zlik sari yo‘l” (2012) singari adabiy portretlari zamonaviy adabiy tanqidchilik rivojida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu asarlar o‘zbek adabiyotida faoliyat olib borgan ijodkorlar, ya’ni Ozod Sharafiddinov, O‘tkir Hoshimov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon haqida yozilgan portretlar sirasiga kiradi. A.Rasulov ulug‘ yozuvchi Oybekning sobiq tuzum mafkurasi hukmron bo‘lgan davrdagi murakkab hayot yo‘li va ijodiy faoliyatini “Tunda chaqnagan yulduz”da tasvirlagan. Olim yozuvchining “Qutlug‘ qon” romanini chuqur tahlil etib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish bilan birgalikda asar yaratilish jarayonini va asar yozilishiga turtki bo‘lgan omillar, ya’ni ijodkorni ilhomlantirgan, qo‘liga qalam olishga undagan jihatlarni yoritishni maqsad qiladi. Bu borada dalil va manbalarga tayanib ish ko‘radi. Munaqqid yozadi: “Qutlug‘ qon” romanidagi struktura tizimini mukammal o‘rgangan mutaxassis asardagi birinchi semiotik markaz Mirzakarimboy bog‘i tasviri ekanini anglab etadi. Oybek bog‘ni tiniq, aniq, ishonch bilan tasvirlaydiki, shu joyni bilmagan ko‘rmagan odamda bunchalik tiniq qat’iy matn paydo bo‘lmas edi [4.3-bet]. Bunga sinchkov munaqqidning o‘zi izoh berib o‘tadi va 1934-yilda yozuvchi Toshkentning Taxtapul va Yunusobod mavzelari orasidagi Oqota degan joydan bog‘ hovli olgani, bog‘ g‘oyatda fayzli bo‘lib, bog‘ o‘rtasidagi shiyponda yarim tunga qadar ijod qilgan. “Qutlug‘ qon” ham aynan shu yerda yaratilgan va bog‘ tasviri ham asarga ko‘chgan. Bu ma’lumotlar yuqorida ta’kidlanganidek olim tomonidan manba (Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” xotira kitobi, Naim Karimov “Oybek”, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Rixsivoy Orifjonovning Oybek haqidagi xotiralari)larni o‘rganish natijasida qog‘ozga ko‘chgan.

Aslida ijodkor adib nomidan uning asari gapiradi. Ustoz munaqqidlardan biri ta’kidlaganidek, puxta, pishiq asar muallif-yozuvchi shaxsining butunligidan dalolat beradi. XX asr o‘zbek realistik romanchiligi rivojiga munosib ulush qo‘shgan Oybek asarlari ham o‘zining badiiy qiymatini yo‘qotmay kelmoqda. Jumladan, “Qutlug‘ qon” romani ham. A.Rasulov romanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritar ekan, yozuvchi shaxsiyati ham namoyon bo‘ladi. Saviyasi past asarni tanqidchi chiroyli jumlalar bilan ko‘klarga ko‘tarmasin, asar ham munaqqidning bahosi ham tezda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Chinakan iste’dod sohibi bo‘lgan yozuvchining potretini yaratish, asarini tahlil etish tanqidchining mahorat va malakasiga bog‘liq. Tanqidchi keng bilim va dunyoqarashga ega bo‘lsa, asar tahlilida xolislikka amal qilsa, faoliyati samarasini ko‘radi. Adabiy tanqid hozirjavoblikni, zamon bilan hamnafaslikni talab etadi. Negaki, yangi asarlar yaratiladi, yangi

uslublar o‘zlashtiriladi. Shunga muvofiq ravishda o‘quvchining saviyasi, didi o‘sib boradi. Yangi asar haqida tesha tegmagan orginal fikr bildirish o‘ziga yarasha mas’uliyatni talab etadi. Bu borada adabiyotshunoslik, xususan, tanqidchilik rivojiga hissa qo‘shishni o‘z oldiga maqsad qilgan yosh tadqiqotchilar yetuk olim Abdug‘afur Rasulov asarlari, adabiy tanqidiy maqolalarini o‘qib o‘rgansalar foydadan xoli bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. –T.:Akademnashr, 2018.– 480 b
2. Адабий портретлар. тўплам –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1985. –296 б.
3. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – №22. 27.05.2005. –Б.3.
4. Мирвалиев С., Шокирова Р.Ўзбек адиблари, –Т.:Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. –436 б.
5. Расулов А. Ардокли адиб.– Т.:Шарк, 2001.
6. Расулов А.Ўзлик сари йўл// Адабий портрет. – Т.: Адиб, 2012.– 40 б.

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA "ONA" SIYMOSINING BADIIY TASVIRI

Mirzabek XOLYOROV

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya

Maqolada shoir, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning she'rlari tahlil qilingan. Ijodkorning se'riyatida Ona siymosining badiiy tasviri xususida fikr yuritilan. Shoirning "Onajonim she'riyat", "Haj daftari" kabi to'plamlari tarkibidagi ona mavzusiga bag'ishlangan she'rlari tahlilga tortilgan. Bundan tashqari shoir she'riyatidagi ona obrazining ma'naviy qirralarini ko'rsatishda hadis ma'rifatiga tayanganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: *lirik ifoda, badiiy obraz, badiiy tasvir, ona siymosi, hadis ma'rifati, "Onajonim she'riyat" "Haj daftari".*

Annotation

The article analyzes the poems of the poet, hero of Uzbekistan Abdulla Aripov. The artist's series focuses on the artistic image of the Mother. Poems on the theme of motherhood in the collections of the poet, such as «Mother's Poetry», «Book of Hajj» are analyzed. It is also based on the enlightenment of the hadith in showing the spiritual aspects of the image of the mother in the poet's poetry.

Keywords: *lyrical expression, artistic image, artistic image, mother's image, hadith enlightenment, «Mother's poetry», «Book of Hajj».*

Abdulla Oripovning she'riyatida ona mavzusining turli qirralari nozik sezimlar tasviri fonida ifodalanadi. Ya'ni shoir ona mavzusiga umri poyoniga qadar murojaat qilib, ona timsolining yangidan yangi poetik qiyofalarini kashf etadi. Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Oripov she'riyatida ona mavzusi "qizil ip" singari o'ziga xos ma'no kasb etadi. Shu sabab, shoir she'riyatida Ona siymosining badiiy tasvirini o'rganish har jihatdan dolzarb sanaladi. Bunday serqatlam mavzuni yoritishda shoirning mo'tabar onasi va hadislarda kelgan aziz zotlar haqidagi ma'rifiy ko'rsatmalarning badiiy talqini, lirik ifodasi o'ziga xos o'rin tutadi.

Abdulla Oripovning rafiqalari Hanifa aya ko'rsatgan charm muqovali yondaftarning ilk sahifasida Minhojiddin Haydar imzosi bilan tilaklar yozilgan va 1991-yil 28-mart sanasi qayd etilgan ekan. Ushbu bloknotda "Haj daftari" turkum she'rlarining 40 hadisni tafsir etgan dastlabki qirqtasi yozilgan. Shoirning "Haj daftari" turkumida "Ona" deb nomlangan ikkita she'r bor. "Ona she'ri aynan "Kimga yaxshilik qilay", ─ deb so'ragan sahobaga uch marta onangga deb, to'rtinchisida otangga deb aytdilar" hadisi sharifning badiiy tafsiri bo'lsa, "Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon," deb boshlanguvchi turkumdagi ikkinchi "Ona" she'ri esa Qur'oni Karimdagi

“Ibrohim” surasining 37-oyati va bir qancha hadislarda ham keltirilgan Ibrohim alayhissalomning zavjalari Hojar onamizning Safo va Marva tog‘i orasida yugurib tashnalikdan halok bo‘layotgan farzandi uchun Allohga qilgan iltijosi sabab Zam-zam suvining ko‘z ochishi va Ona doimo tiriklik timsoli ekani haqida. Ushbu she’rlarning chuqurroq tahliliga kirishishdan avval Abdulla Oripov ijodida bungacha bo‘lgan ona haqidagi she’rlarga bir nazar tashlasak. Shubhasiz, shoirning 1966-yilda yozilgan “Onajon” she’ri nafaqat Abdulla Oripov ijodida balki o‘zbek adabiyotidagi eng hazin va muhtasham nazmiy obida hisoblanadi. Ushbu she’r shoirning o‘z onasi Turdixon Erdon Karvon qizi xotirasiga bag‘ishlanadi. Bu marsiyaning yozilishi va shoirning onasi bilan bog‘liq xotiralar bilan qiziqib shoirning singlisi Zulfiya Oripova bilan bo‘lgan suhbatda. “Bu she’r emas bolam, bu akamning armoni. Men esimni tanigan paytimdan boshlab enam xasta edi. Aniq tashxisini bilmayman. Jigar kasalligi enamni qiynar edi. Otam tabib va do‘xtirlarga ko‘p qaratdi. Em topmadi, shekilli. Tobora og‘irlashib borardi. Akam enamni tez-tez tush ko‘ra boshlagan. Yaxshi tush bo‘lmagandirda Toshkandan yetib keldi. O‘shanda men ham, opam ham turmushga chiqqan etagimizda ham, bo‘yimizda ham farzandimiz bor edi. Turmushimiz bilan bo‘lib biz ko‘p ikir–chikirlarga e’tibor qilmaganmiz ham. Bir payt enamning yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘ymoqchi bo‘lgan akam yostiqning tagida o‘zining birinchi kitobi “Mitti yulduz” va bir bog‘lam pul borligini ko‘rib qoldi. “Enajon, boshingizga og‘ir botmasin bularni sandig‘ingizga olib qo‘ysak bo‘lmaydimi?” deb so‘radi. Enamning og‘rig‘i kuchli edimi uzilib-uzilib gapirar edi. “Hah, bolam seni ovozing tushgan kitob meni og‘ritadimi?” dedi. Keyin bir nafas rostlab olib “... unisiyam seniki, otangga aytganman.” dedi. Men o‘sha paytda bu so‘zning fahmiga yetmagan ekanman. O‘sha kuni otam va tog‘am “ertaga do‘xtirxonaga yotqizamiz. Enang oyoqqa turib ketadi. Sen chalg‘ima” deyishib akamni Toshkanga jo‘natib yuborishdi. Ertasi kuni 1966 yilning 17–noyabrida 55 yoshida enam vafot etdi. Otam akamga “Enang qaytish qildi” deb telegramma jo‘nattirdi. Men akam va enamning so‘nggi suhbatini shu tarzda guvohi bo‘lganman”.

“Onajon” she’rining II qismidagi

U kun chetda oh chekardim
G‘ussalarning dastidan
Sen otamga pul beribsan
Yostig‘ingni ostidan.

Aytibsanki, onasizlik

Kelmasin hech o‘yiga.
Sarf qilingiz,menga emas
Abdullaning to‘yiga –

misralari xayolimda takrorlana boshlaydi. Shoir onasining “unisiyam seniki, otangga aytganman” so‘zining vasiyat ekanini singlisi Zulfiya momo qazodan so‘ng anglagan edi.

“Enam vafot etgan paytda akam hali oila qurmagan yigirma besh yoshli yigit edi. Enamning so‘nggi daqiqalarini yashayotganini bila turib Toshkanga jo‘natib yuborishgani uchun otam va tog‘amdan ancha payt xafa bo‘lib yurdi akam. Toshkandan kelsa qishloqqa kelmay enamning boshidan qaytib ketgan vaqtlari ham bo‘ldi. Otam akamning shoir bo‘lishiga qarshilik qilganmi-yo‘qmi bilmaymanku, lekin akamning qishloqdan ketishi otamga ancha og‘ir botgan edi. Shuning uchun akamning shoir bo‘lib tanila boshlaganiga ham e’tiborsizdek tutar edi o‘zini. Enam esa akamning har bitta she’ridan, akam haqidagi har bir so‘zdan bir ko‘ylak semirar edi.”

She’rning III bandida shunday manzara bor:

Esimdadir titrar edim–
G‘amgin bolish pastida.
Kitobimni ko‘rdim nogoh
Boshginangni ostida.

O‘z kitobini onasining bolishi ostida ko‘rgan yosh ijodkorni bir nafas titroq bosadi.

–Shoir o‘g‘lim, deding menga
Sekingina qayrilib.
...Onajonim, balki men ham
Bir kun shavqqa to‘larman.
Balki men ham aytganingdek
Bir kun shoir bo‘larman.

O‘z esdaliklarida Toshkentga bazo‘r kelganini yozgan shoir yuqoridagi misralarda onasining o‘z ijodiga e’tiboridan qalqib ketgani, uning shoir degan e’tirofiga hali loyiq bo‘lmasa-da bir kun shoir bo‘larman deb umid qilishi, bir kun onasi kabi otasining ham shu so‘z bilan chaqirishini orzu qilish bo‘lgandir.

Unutilar g‘ussalar ham
Orzular ham cho‘zar bo‘y.
Onajonim, balki bir kun
Aytganingday bo‘lar to‘y.

...Balki do‘stlar davrasida
Kamim bo‘lmas hech qachon.
Lekin seni o‘sha damda
Qaydan topay, onajon?

Abdulla Oripovning “Onajon” she’ri biografik jihatdan o‘z onasi vafotiga marsiya bo‘libgina qolmay, Turdixon ena kabi onalik maqomidan o‘zga bezagi bo‘lmagan milyonlab o‘zbek onalari haqqiga aytilgan so‘z hamdir.

Zamonaviy dunyoning ziyoli insoni sifatida shoir ona obrazini qanday tarannum etdi:

Deydilar,qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog‘i mardona.
Behad azoblarga chidab so‘nggi dam,
Bitta so‘z dermishlar shivirlab: Ona. (Ona.1986 yil)

Abdulla Oripovning turli yillarda yozilgan ona va ayol mavzusidagi she’rlarining yozilish jarayoni va tafsilotlarini o‘rganib, asosiy ob’ektimiz “Haj” daftariga qaytamiz.

Yuqorida hadisi sharif asosida yozilgan “Ona” she’ri haqida aytgan edik. Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning ko‘rsatmalari asosida yozilgan she’r badiiy jihatdan ham g‘oyatda ta’sirli:

Kimdir savol berdi: – Aytgil Muhammad,
Yolg‘iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko‘p yaxshilik aylay, o‘zing ayt,
Ota onamgami yoxud bolamga?

She’r hadisning talqini ekanligi uchun ham shoir juda ehtiyotkorlik bilan so‘z tanlaydi. Hadis va diniy bilimdan uzoqroq odam she’rni o‘qiganida onaga yaxshilik qilish majburiy ekan deb islom dini va Rasulullohdan og‘rinmasligi uchun asosiy mezonni she’rda ham aniq belgilaydi:

Rasul javob qildi: – Tingla birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.

Ushbu misradagi “uch bora quloqqa ilgil” so‘zi hadis mohiyatini aynan saqlab qolgan bo‘lsa, “imkon topa olsang” so‘zi muqaddas islomning naqadar adolatli din ekanini ko‘rsatib bermoqda.

Turkumdagi yana bir “Ona” she’ri esa Abdulla Oripovning Haj safari davomida yozilgan. Hajning sa’y deb atalgan ibodati ya’ni Safo va Marva tog‘lari orasida yetti marta sa’y qilish jarayonida ko‘nglidan kechgan ilhom bitiklari bo‘lsa ajabmas. Chunki Hojar onamiz mana shu ikki tepalik orasida yugurgani aytiladi hadislarda:

Hojar onamizning nidosi sabab,
Ka’bada ko‘z ochgan obi zam−zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg‘ambarlar ko‘zlarida nam.

Shoirning farzand sifatida, ziyoli va uyg‘oq bir inson sifatida onaga munosabati shulardan iborat, qancha tahlil va fikr bildirsak kamday go‘yo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov .Haj daftari. — Toshkent, 1992.

2. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. I - IV жилдлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.

3. Орипов А. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005.

4. Орипов А. Танланган асарлар. VI жилд. – Тошкент: Sharq, 2010.

5. Орипов А. Танланган асарлар. VII жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2013.

TO‘RA SULAYMON DOSTONLARINING XALQ DOSTONLARI BILAN HAMOHANGLIGI

Abdunazar SHAROPOV
Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

Annotatsiya
Maqolada To‘ra Sulaymon dostonlarining asosiy xususiyatlari tasvirlangan, Ijodkor dostonlarining xalq dostonlari bilan hamohangligiga e'tibor qaratilgan.
Kalit so‘zlar: *doston, shoir, ijod, qahramon, lirika.*

Annotation
The article describes the main features of Tora Suleiman’s epics Emphasis is placed on the harmony of the creative epics with folk epics.
Key words: *epic, poet, creation, hero, lyric.*

O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon sohir qalamning sehri bilan bir qancha janrlarda barakali va samarali ijod qildi. Uning ijodiyoti salmoqli qismini tashkil etadigan va shoirning yuksak dididan nishona beradigan janrlardan biri bu uning dostonlaridir. Shoir dostonlari o‘zining yuqori pafosga yo‘g‘rilganligi, o‘tkir syujeti, xalq dostonlari uslubiga nihoyatda yaqinligi bilan ahamiyatlidir. Buning boisi shundaki, To‘ra Sulaymon xalq dostonlarini ko‘p o‘qiganligi, baxshilar bilan yaqindan aloqada bo‘lgani, xalqona ibora va maqollardan yaxshigina xabardor ekanligidir. Aksariyat dostonlarida biz xalq dostonlaridagi uchradigan voqealar tizmasini, bayon qilish uslubi, badiiy tasvir vositalari, saj unsurlari kabi detallarni ko‘ramiz. Jumladan, uning,,Intizor” dostonida bu hamohanglik yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Doston o‘zi tug‘ilib-o‘sgan go‘shasi bo‘lmish Jizzaxning G‘allaorol vohasi Oqtosh dahasidagi voqealar bilan boshlangan. Asar qahramoni Gulnoz ismli qiz bo‘lib, uning portretini chizish davomida shoir saj usulidan mohirona foydalangan:,,Qiz bo‘yga to‘lib, o‘n to‘rt kunlik oyday yetilib, oq olma desa –oq, qizil olma desa –qizil bo‘lganda sovchi sayin sovchi kelaverdi.”[Jahonnoma; 115].

Ayni shunday tasvir xalq dostonlarida ham uchraydi. Jumladan,,,Kuntug‘mish” dostonida shunday tasvir o‘rni mavjud: dostondagi Xolbeka o‘n to‘rtga to‘lgandan keyin…,,Ovozasi olamga ketdi, dong‘i Dog‘istondan o‘tdi, Xolbekaning tavsifini, husn zeboligini eshitgan podsho va to‘ralar, polvon-botirlar har mamlakatdan, har yurtdan, har diyordan sovchi qo‘yaberdi.”

,,Intizor’’ dostonida ham Gulnozning husn zeboligi shunday mubohasalarga sabab bo‘lgan.

To‘ra Sulaymon xalq donishmandligi hisoblangan ibora va hikmatli so‘zlardan keng foydalanganligi ham dostonlarning badiiy ruhiyatini hamda o‘qishliligini yanada oshirgan. Xalq dostonlarida,,,Alpomish’’va,,Kuntug‘mish’’ dostonlarida, bu jihat uchraydi. Badiiy tasvir vositalari: talmeh, tashbeh, peyzaj, mubolag‘a, istiora unsurlari keng qo‘llanilgan. Sulaymon payg‘ambar timsolining keltirilishi,,Intizor’’ dostonidagi talmeh san’atining yorqin namunasidir.

Xalq dostonlari bilan yaqin va hamohanglik jihatdan,, Qorasoch'' dostonining ahamiyati alohidadir. To‘ra Sulaymonning ilk dostoni ham aynan shu dostondir.Bu asar traditsion xalq dostonlari uslubida yozilgan zamonaviy mavzudagi birinchi yirik dostoni bo‘lgani bois adabiy tanqidchilar e'tiborini tortgan.Doston tilining xalqonaligi saj usulidagi so‘z o‘yinlari qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalovchi xalq qo‘shiqlaridan ustalik bilan foydalanganligi o‘qirmanga o‘zgacha estetik ta'sir o‘tkazadi. Dostonlarning mazmun va shakily qurilmasi borasida adabiyotshunoslar orasida muhokamalar bo‘lgani ham bor gap. Adabiyotshunos G‘.Mo‘minov To‘ra Sulaymon dostonlari haqida shunday deydi:,,shoir folklordan foydalanishda ko‘proq qoliplash usulidan boradi, ya'ni o‘z mavzu va g‘oyaviy niyatini qahramonlar taqdiri, ularning o‘zaro munosabatini tasvirlashda traditsion xalq dostonlarining qolipini qo‘llaydi… To‘ra Sulaymon dostonlarida folklordagi dostonchilik an'analari asos qilib olingan.''

Shuningdek, Mo‘minov ushbu tajribani ikki jihati bilan o‘zbek adabiyoti uchun muhim eknaligini aytadi:

Birinchidan, yo‘qolib borayotgan xalq og‘zaki ijodi dostonchilik an'analarining yozma adabiyot bag‘rida saqlanib qolishi;

Ikkinchidan, zamonaviy mavzularda yozilgan asarlar orqali xalqona milliylik ruhining yanada kuchliroq targ‘ib etilishi.

To‘ra Sulaymonning,,Qorasoch" dostoni juda mashhur va xalqona ruhda yozilgandoston hisoblanib, birgina Qorasoch va uning hayoti misolidao‘zbek ayolining sajiyasi universal ravishda yoritilgan. Qorasoch hayot mashaqqatlarini yelkasiga ortgan, yengilmas, metin irodali, oilada o‘z o‘rnini bilgan, farzandi uchun jonfido aylagan ayol timsolidir.Uning metin irodasini fashist gazandasi keltirgan qaqshatgich zarbani ham chilparchin qildi.Otasi garchi undan bir muddat kek saqlagan bo‘lsa ham Qorasoch bu vaziyatni yumshatishga erishadi.Xalq oqsoqollari, yurt kattalari maslahatlashib, Qorasochning otasini to‘yga borishga erishishadi.Bu orqali shoir o‘zbek millatiga xos bo‘lgan urf-odatlari har nedan ustun turishi, mahalla-ko‘y kishilarining bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatini tasvirlashga erishgan.

Xalq dostonlarida uchraydigan Qaldirg‘ochoyim, Oybarchin timsollari singari asar bosh qahramoni Qorasoch ham bu timsollardan kam yuk olmaydi, Qorasochning o‘g‘li O‘rinboyning uylanish marosimida ham xaqlona ifodalangan:,,bayt aytishib Barchin qiz,Jamila qiz, Lochin qiz, orom bo‘lsa, zavq bilan yozadi qulochin qiz''. Asar so‘ngida xalq dostonlarida bo‘lgani kabi intiho xayrli yakun topadi.Bu ham xalq dostonlaridagi bir hamohanglik ekanligini ko‘rsatadi. Asarning bu qadar original yaratilishida yuqorida aytilganidek, xalq dostonlarini yaxshi bilgan,buning yana bir sababi shoir xalq baxshilari bilan ham yaqindan va do‘stona aloqada bo‘lgan. Shoirdagi bu holatni taniqli shoir Muhammad Ismoil shunday xotirlaydi :,,Xalq og‘zaki ijodining eng ulkan eng so‘nggi namoyandasi, davomchisi To‘ra Sulaymon edi. U doimo Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo‘ldosh dostonlaridan, xalq og‘zaki ijodidan oziqlanib keldi. Xalq dostonlarining yana bir bor ommalashuvida ustoz shoirning xizmatlari beqiyosdir" [Jahonnoma, 1996]. Shoirning nafaqat dostonlarida balki qator termalarida yoki xalqona pafosga yo‘g‘rilgan sherlarida ham folklor ta'sirini sezish mushkulmas. Uning ,,Bu elning o‘g‘lonlari" she'rida quyidagi satrlar mavjud:,,Assalom-u alaykum, bu elning o‘g‘lonlari, Alpomish, Manguberdi, Go‘ro‘g‘li sultonlari ''. Shoir xalq o‘g‘lonlarini xuddi alplarday bo‘lishini chin dildan istaydi.

To‘ra Sulaymon dostonlari, she’r va termalari bilan xalqona ruhni yana qaytadan adabiyotimizga kirita olgan ijodkor edi. Zamondoshlari e’tirof etadiki, shoir bu o‘ziga xoslikni juda sevgan. Chunki,,Alpomish”,,,Go‘ro‘g‘li” dostonlariga bo‘lgan cheksiz mehri bunga sabab bo‘lgan hamda bu eposlarni shoir jiddiy o‘rgangan. To‘ra Sulaymon bir o‘rinda aytib o‘tganidek,,,Go‘ro‘g‘li sulton bir yon, To‘ra Sulaymon bir yon”. [Sayhon, 2003].

Folklorshunoslik yo‘nalishida To‘ra Sulaymon ijodidagi folklorizmlarning o‘ziga xosligi ijodkor asarlari tarkibida ko‘p uchraydigan paramiyalarning originalligi, xalq og‘zaki ijodi orqali o‘zlashtirilgan janr, motiv hamda shu obrazlarning folkloritik ildizlari tatqiq etish soha rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan.Shoir ijodida folklorizm sintizm masalasi asarlarni keng qamrovda tatqiq etish masalalarini qo‘yadi.O‘z navbatida daho ijodkor asarlari ham kelajak vakillari uchun ochilmagan qo‘riqdir.Shoir asarlarining o‘ziga xos asosiy xususiyati ularning tarkiban yozma hamda og‘zaki adabiyot oralig‘ida yaratilganligidir.Shoir ijodida qo‘llangan xalq og‘zaki ijodi namunalari g‘oyatda chuqur asosga ega.Shoir umr bo‘yi o‘zi yashagan hududdagi og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan folklor materiallarini to‘playdi hamda ulardan ijodiy qayta foydalanish bilan o‘z ijodini ham shular orqali boyitadi.Uning xalq dostonlari yo‘lida bitgan dostonlari mazmunan shoir yashagan davr voqealaridan hikoya qilsa-da, ifodada foklor an’analari folklor elementlaridan foydalanilgani doston badiiyatini yanada oshirgan.

To‘ra Sulaymonning falsafiy qarashlari, teran fikrlash qobiliyatini namoyon etuvchi asarlari orasida,,Mangulik” dostoni ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Asardagi Norchuchuk momoning jigargo‘shasi uchun, aniqrog‘i or-nomusning o‘limdan ustunligi uchun qilgan xatti-harakatlari To‘marisni eslatadi. Asarning boshlanishidayoq juda jo‘yali boshlanma yarq etib yurakkacha yetib boradi:,,Belida belbog‘i bo‘lgani bilan har kim ham erkak bo‘lavermaydi. Boshida ro‘moli bo‘lgani bilan anov-manov erkaklardan ustuvor ayollar ham yo‘q emas”.Ushbu boshlanmaning o‘ziyoq asar mohiyatini to‘la ochib beradi.Dostondagi hech kim,,pishagini pisht deyishga haddi sig‘maydi”gan Tursun qo‘rboshining garchi belida belbog‘i bo‘lsa-da, uning qilayotgan ishlari hech bir mard musulmonning vijdoniga muvofiq kelmaydi. Qishloqning hali o‘n to‘rt yoshga kirib-kirmagan qizlarini badnom qilayotganidan toqati toq bo‘lgan momo o‘z rejasi bo‘yicha uni,,jilovlaydi”. Uyning or-nomusni o‘rtaga tashlab:

Ko‘pga kelgan baloga yo daf bo‘larman,
Yo qonsiragan qilichga g‘ilof bo‘larman, [Mangulik, 1996] -

Degan so‘zi butun xalqni to‘lqinlantirib, Tursun qo‘rboshiday vaxshiyga qarshi kurashishga undaydi. Tunda bo‘z yigitlarga qizlar kiyimini kiydirib, Tursun qo‘rboshining ta’zirini berishadi va qo‘llarini bog‘lab, hukumatga topshirishadi. Momoning qahramonligiga el tahsinlar o‘qiydi:

Norchuchuk momo ishi,
Bog‘li edi or bilan…
O‘lmay turib o‘ziga
Haykal yarata olmish.
Muborak nomi elning
Qalbida mangu qolmish.

Ona –Yer bag‘riga qo‘yilgandan so‘ng, o‘lmas nomi davralarda qayta tilga olinish, qayta yaralish baxti har kimga ham nasib etmas ekan. Doston inson nomi ezgu ishlari, amallari, haq

yo‘ldagi faoliyati evaziga mangulikka muhrlanishini yana bir karra isbot etadi. O‘zbek millatining oriyati tog‘laridan baland ekanaligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, To‘ra Sulaymon asarlari go‘yaviy va mazmuniy jihatlari bilan xalq dostonlariga hamohang bo‘lgan, ularni to‘rdiruvchi, boyituvchi o‘lmas asarlardir. Ular o‘qish va uqish har bir o‘zbek farzandining azaliy va abadiy burchisanaladi. Hayotimizda, ijodimizda To‘ra Sulaymondek adabiyotimiz siymolarining ruhi madadkor bo‘lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Sulaymon.,Jahonnoma. –T.:G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. 115-bet.
2. G‘.Mo‘minov. Maqola.Xurshid Davron kutubxonasi.
3. To‘ra Sulaymon. Sayhon. –T.: Sharq, 2003.

YASHIL RANG POETIKASI HALIMA AHMEDOVA IJODINING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA

Madina VAHOBOVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya
Maqolada yashil rang poetikasi Halima Ahmedova ijodining muhim xususiyatlaridan biri sifatida tahlilga tortilgan. Shuning bilan, yashil rang nimalarning ramzi ekani, uning tadriji, Halima Ahmedova ijodida qanday ma'nolarda namoyon bo'lgani, umuman, adabiyotdagi rang simvolistikasi ham chuqur o'rganilib, xulosalar chiqarilgan.
Kalit so'zlar: *lirik qahramon, lirik "men", lirik obraz, lirik monolog, ballada janri, rang poetikasi.*

Annotation
The article analyzes the poetics of green as one of the important features of Halima Ahmedova's work. Thus, the symbolism of the color green, its evolution, in what sense it is reflected in the work of Halima Ahmedova, in general, the symbolism of color in the literature have been studied in depth and conclusions have been drawn.
Keywords: *lyrical hero, lyrical «I», lyrical image, lyrical monologue, ballad genre, color poetics.*

Bugun adabiyotimizda milliy ruh talqini yetakchi tamoyil darajasiga ko'tarilmoqda. Shoir-yozuvchilarimiz asarlari, so'zga bo'lgan mas'uliyat, uni isrof qilishdan saqlanish, oz so'zga ko'p ma'no yuklash singari fazilatlar yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Poetik obrazning ohorli, yorqin, ta'sirchan bo'lishiga intilish hissi kuchaymoqda. Nasriy asarni asar qiladigan, she'rni she'r qiladigan, o'quvchi ko'ngil olamini nurlantiradigan muhim omil – tuyg'uning samimiyligiga e'tibor ortib bormoqda. Bugun adabiyotimizga ana shunday milliylik, obrazlilik, samimiylik kabi tamoyillar Halima Ahmedova she'riyatining, nafaqat she'riyati, balki nasriy asarlarining ham asosini tashkil etadi. Shoira she'rlarida borliqqa bezovtalik bilan qaraydigan, hayotni chin dildan sevadigan, unga talpinadigan samimiy qalb tuyg'ulari jo'sh urib turadi. Bu qalbga qarab har bir kishi o'z kechinma va hissiyotlarining avval anglanmagan ajib qirralarini kashf etadi. She'rlarida daf'atan sezilmaydigan, ko'ngilning tub-tubida ko'milib yotgan hissiyot va kechinmalar ifodalanadi. Ularda chuqur g'amginlik hissi, nola, iztiroblar aniq aks etadi. Ayni jihat shoira she'rlarining o'ziga xos xususiyati sanaladi. Shoira lirikasidagi yashil rang, bo'yoq har bir she'rda yangi-yangi ma'nolarni anglatishiga ko'ra nufuzlidir:

“Qachonlardir men ham yam-yashil edim,/Daryoga talpingan jilg‘aday yashil”; “Va yana kimdir aytgan edi:/Avval va oxirni to‘ldirar yashil”; “Yashil sog‘inch bilan tirikman bu chog‘”; “Havvoning yam-yashil tomirlarida”; “Suvlardan ajralib qolgan sog‘inchni,/Yupatib to‘ldirdim yam-yashil hisga”; “Men boqqan ko‘zguda yashildir olam”; “Yam-yashil iforlar kelmoqda qaydan”; “Borliq va yo‘qlikning yashil ovozi” misralari kabi.

Biror orzuga bog‘langan dilga, armondan yig‘lagan ko‘ngilga ko‘p duch kelamiz. Ammo aytingchi, daraxtlarning ko‘ngli bilan, yashillik bilan do‘st bo‘lgan ko‘ngilni bilasizmi? Halima Ahmedova she’riyatida xuddi shunday daraxtlarning ko‘ngli bilan do‘st, haqiqatni-da o‘zgacha ranglarda ko‘ra olgan oshiq jununni, ko‘ngilni ko‘ramiz. Uning nazarida ishq ham yashil rangda bo‘lsa ajab emas! “Yaradilanni sevalim Yaradandan o‘tulu” – Yaratgan tufayli yaratilmishni sevaylik, deydi mashhur turk shoiri Yunus emro. Balki shoiraning ham borliqqa muhabbati shundandir. Balki u mana shu borliqda haqiqat tuyg‘usini ilohiy nigohning tajallisi sifatida ko‘rar:

“Ko‘nglim daraxtlarning ko‘ngli bilan do‘st.
Ba’zan samolardan ichib kelar nur.
Uning haqiqatga oshig‘ligini
Eslatib turadi hayot qurmagur.” [Ahmedova H., 2016;47].

“Yashil” kitobini mutolaa qilar ekanmiz, she’rlardagi ruhiy sarhadlar tun-kun xayolimizni chulg‘aydi. She’rlarda shundayin bir qadim tabiat yashaydiki, undagi lirik qahramon shu qadim tabiatning bir bo‘lagiga, bir yashil gardiga aylanaveradi, aylanaveradi. Bilmadik, bu evrilish asliyatmi yoki o‘xshatish! Ammo bu bizga ijodkorning bolalikdanoq yashil rangni yaxshi ko‘rishi, yashil u uchun hayot ramzi ekanini ko‘rsatdi. Hayot tashvishlaridan charchaganda, siqilganda inson derazadan boshini chiqarib daraxtlarga qaraydi, tabiatni kuzatadi va uning yashilligidan o‘ziga keladi! Shu o‘rinda shoiraning “O‘g‘limga darsliklar” turkumi yodimizga tushadi:

“Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,
Tikilganim sari o‘sadi ko‘nglim.
Ularga quloq sol, ularni tushun,
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.”

“Tabiat darsi” [Ahmedova H, 2005; 88] she’ridan olingan ushbu misralar farzandi kamolidan umidvor onaning dil so‘zlari va ular hayot tandirida qiyomiga yetib pishgan. “Tabiat

darsi” da – lirik qahramon o‘g‘liga daraxtlarning insonga chin do‘st ekanini, hech qachon sotmasligi-yu, nomardlik qilmasligini uqtiradi:

“Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.”

Bu turkum she’rlarda shoira sabr va sadoqat timsoli bo‘lmish daraxtlarni alqaydi, e’zozlaydi, madh etadi. Va yana shuning bilan, uning ruhi daraxtlardan, yashillikdan quvvat oladi. Zotan, Halima Ahmedova she’ridagi bu lirik qahramon, avvalo, gumrohlikni eng katta gunoh deb bilguvchi inson, uning ko‘ngli va ruhoniyatidir:

“Ey zulmatni nurga aylantirguvchi,
Iymon kengligida surguvchi xayol.
Sochib tashlanganman sening poyingga
Yashil kundan qolgan gardman ehtimol.” [Ahmedova H., 2016; 18]

Yuqoridagi munojot shaklida boshlanuvchi she’r “Yashil” deb nomlangan. Misradan yana o‘sha istak- o‘zlikni anglash ishtiyoqi sezilib turadi. Go‘yo Halima Ahmedova ana shu rangning ichida yashaydiganga o‘xshaydi. Bundan shoira nigohiga ko‘p narsalar yashil bo‘lib ko‘rinishi ayon bo‘ladi. Sababi uning nigohi yashil. U yaxshi ko‘rgan narsalarini ham yashil rangda tasavvur qilsa ajab emas. She’rda, ayniqsa, yashil rang bilan bog‘liq go‘zal va ajoyib tashbehlar keltiriladiki, bu she’riyat tamoman o‘zgacha olam ekaniga tan bermay ilojimiz qolmaydi. Masalan, “Xayol kengliklari yashil…”, “Haqiqatning rangi yam-yashil”, “Robbim, nigohlaring naqadar yashil!”, “Yashil kundan qolgan gardman ehtimol”, “Va qayerda mening yashil ko‘ylagim?”, “Yashil sog‘inch bilan tirikman shu chog‘” kabi misralarda yashil so‘zi shu qadar ustuvorki, xuddi usiz yozguvchiga hayot zimistondek, xuddi qalam ichidagi siyoh singari yozsang yashil chiqaveradi, bossang iz qoldiradi. Ammo shu o‘rinda savollar tug‘iladi:

“Bilaman u kunlar yashildir,
Titraydi yillarning shoxida.
Masehning ohila sevgini
Tiriltirgum yoshlik bog‘ida”

Yoshlik chog‘idagi pokiza sevgini qayta tiriltirgisi keladi shoirning! Bu sevgi esa shoirning xayollaridagi yashil kunlarda yashaydi. Xo‘sh, yashil kun - qanaqa kun? Haqiqatning ranglari nega yam-yashil? Rabbim nigohlari nega aynan yashil? Bu kabi savollarga javob topolmay ijodkorning bepoyon tafakkur sarhadlaridan hayratda qolamiz. Xo‘sh, yashil rang asli nimaning ramzi, u bizga nimalardan darak beradi?

Yashil rang, avvalo, hayot – tiriklik ramzi! Qolaversa, u islom dinimizning ham ramzi hisoblanadi. Shayx Najmiddin Kubro “Latoif” [Qoraboyev U., 2000] asarida yashil – iymon ramzi deya keltiradi. Demak, bu rang e’tiqodga ham ishora qiladi. Buning chuqur ildizlari hamda amaldagi tasvirlarini tarix orqali ko‘ra olamiz: Odam alayhissalomning o‘g‘li Shis alayhissalom birinchi so‘fiy bo‘lgan, ortiqcha nafs ehtiyojlaridan saqlanib ilk bora yashil suf kiyib yurgan. Va keyinchalik bu kabi e’tiqod sohiblari yashil suf kiyib yurgani aytiladi. So‘fiylik islom dini asosida vujudga kelib, o‘z ta’limotini Qur’on va Hadislarga asoslanib rivojlantirganini e’tirof etgan holda, u islom diniga qadar bo‘lgan e’tiqodlarning hamda boshqa dinlarning ta’sirida ham bo‘lgan. Sharqning buyuk mutafakkiri javonmardlik tariqatining asoschisi Xusayn Voiz Koshifiy ham quyidagi ma’lumotni yozib qoldiradi: “ Ma’lum bo‘lishicha, “tasavvuf” so‘zi islomdan oldingi zamonda ham bo‘lgan ekan. “Unsul so‘fiya” kitobida birinchi bo‘lib “so‘fiy” degan nomni olgan Odam ato farzandlaridan biri – Shish edi deb naql qilinadi. Uning liboslari yashil sufdan /suf – jun mato ekan va Shisdan keyin jun matodan kiyim kiyib yuruvchilarni “sufiy” deydigan bo‘ldilar.”

Shu bilan birga, Najmiddin Kubro tasavvuf yo‘liga kirgan muridning holatini ranglar asosida ko‘rsatar ekan, bu yo‘lda ranglarning bir holatdan boshqa holatga o‘tishi murid ruhiyatidagi o‘zgarishlarni anglatadi, deb ko‘rsatadi. Asarda muridning poklanishi uchun yashil rang ulug‘ rang sanalib, haqiqiy iymonni, hayotiylikni ifodalaydi. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida esa Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ham to‘nlari yashil rangda bo‘lgani aytilgan. Shu bilan birga, yashil rang uyg‘onish, yasharish, bahor, ezgulik va tabiatning yangilanish ramzi hamdir. “Boshqa ko‘pgina xalqlarda bu rang navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi” [Ro‘ziyeva M., 2016].

Kitobdagi she’rlar mohiyatiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, ularda ko‘plab ranglarning, ayniqsa, yashil rangning alohida o‘ringa ega ekanini, bu rang o‘ziga xos falsafiy mazmun va vazifa bajarishini anglab boramiz. Haqiqatan ham, she’rlarda yashil rangning nufuzi bir qadar baland. Axir kitob ham bejizga “Yashil” deb nomlanmagan, albatta:

“So‘zlarni haqiqat xiyobonida
sayr ettirishga cho‘chidik.
Chunki haqiqatning rangi yam-yashil.
Va yana kimdir aytgandi:
Avval va oxirni to‘ldirar yashil” [Ahmedova H.,2016; 19]

Yashil rang – qator madaniyatlarda yangilanish, bahor, barhayotlikni ifodalaydi. Yashil – yoshlik, umidni anglatish bilan birga, yo‘lga chiqqan yosh kishilarga, ya`ni shogirdga nisbatan ham qo‘llanilar ekan. Qator islom davlatlarining bayrog‘ida yashil rang musulmonlikni tamsil etadi. Ammo ayrim madaniyatlarda yashil rang baxtsizlikni ham ifodalar ekan. Masalan, ingliz irimlariga ko‘ra, kelinning sepiga biron yashil rangli narsa kirib qolsa, u albatta, baxtsizlik keltiradi. Xitoy va Uzoq Sharq lingvomadaniyatida yashil rang ochko‘zlik, qaysarlik va tamagirlik ramzi hisoblanadi. Dengizdagi yashil bayroq kema halokatidan darak beradi. Ammo yo‘l harakatida yashil rangdan “Harakatlanish mumkin!” yoki “Yo‘l ochiq!” ma’nosini ifodalash uchun foydalaniladi. Yashil rang, shuning bilan, bahor rangi, sabza-yu o‘tloqlar rangi hamdir.

Hazrati Jaloliddin Rumiy besh yoshlaridan boshlab ilohiy olam bilan aloqaga kirishganini rivoyat qiladilar. Ular olti yoshligida bolalar bilan tomda o‘ynab yurganlarida ulardan biri: Kelinglar, tomdan tomga sakraymiz! — deb taklif qiladi. Jaloliddin unga qarshi chiqadilar: Bu ish it va mushuklarning ishidir. Odam bolasining ularga taqlid qilishi yaxshi emas. Agar quvvatingiz yetsa, osmon tomiga sakrang! Shu so‘zni aytar-aytmas, Jaloliddin havoga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladilar. Bolalar qo‘rqqanlaridan qichqirish va yig‘lashga tushishadi. Bir muddatdan so‘ng u rangi o‘zgargan xolda yana tomga qaytadi va bolalarga aytadilar: O‘sha so‘zlarni sizga aytib turgan vaqtimda yashil libos kiygan kishilar meni sizning orangizdan tortib oldilar. Osmonga ko‘tarib, farishtalar olamining ajoyibotlarini ko‘rsatdilar. Sizlarning faryod-u fig‘oningizni eshitib, yana bu yerga tushirdilar. Hazrat bolaliklarida ana shunday toza nigoh va g‘aybiy nazar ila ularni olib ketgan kishilar kiyimi rangini yashil ko‘rganliklari ham bejizga emas, albatta.

Zotan, Hazrat Mir Alisher Navoiy “Xamsa” sining to‘rtinchi dostoni “Sabbayi sayyor” da yashil rang to‘g‘risida shunday deyiladi: “Xizrning abadiy hayotga erishganligi sababi ham uning shu rangdan nishon topgani bo‘lsa ne ajab!”. Demak, bu rangni darddan forig‘ bo‘lgan jonning yashashga intilishi, haqiqiy hayotga yo‘li sifatida ta’riflasak ham bo‘ladi. Bundan tashqari, dostonda Dilorom gulgun ko‘ylakda-yu yashil ro‘molda tasvirlanadi. Savol tug‘iladi: Diloromning ro‘moli nega yashil? Bundan ko‘rinadiki, yashil rang iffatning, nomusning ham ramzi ekanda!

“Charchadim qarigan dunyodan,
Ko‘nglimni maysaga sotaman.
Olmaday g‘arq pishgan ishqimni
Ko‘ksimda ovutib yotaman.”

Shoira lirikasida Haq ishqi adolatning buyuk timsoli sifatida talqin etiladi. Lirik qahramon bu “qari dunyo” dan shunchalar charchaganki, hattoki ko‘nglini yashil maysaga sotmoqqa – baxshida etmoqqa-da tayyor. Va ul ko‘ksida ko‘nglini sog‘inib yig‘lagan ishqini ovutib yotmoqchi… Uning ishqi shunday ishqki, Xudoning yo‘liga shaylangan, olmaday g‘arq pishgan! U shu suratda, shu rangda o‘zini anglash orqali butun borlig‘ida, ko‘nglining tub-tubida kamol topgan ishqni taniyotir.

Biz Halima Ahmedova ijodini chuqur o‘rganishda tadqiqot obyekti sifatida ko‘proq “Yashil” deb nomlangan kitobga diqqat qaratdik. Zero, “Yashil” kitobi shoira ijodiga katta ko‘tarilishlar olib kirgan, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi:

“Quriyotgan daryoning so‘nggi tomchisi yanglig‘,
Yashil sog‘inch bilan tirikman shu chog‘.
Goh yolg‘on tuyilar yashayotganim. [Ahmedova H., 2016; 19]

Lirik qahramon “Quriyotgan daryoning so‘nggi tomchisi yanglig‘” yashil sog‘inch bilan tirik ekan, demak, bu yashil sog‘inchda najot yashaydi. Unda umid ko‘rinadi yoki umidni o‘zi bo‘lmasa ham, shunga o‘xshash qandaydir sohiriy bir tuyg‘u yashaydi. Birgina yashilning o‘zidachi butun dunyo jam – bunda sog‘inch ichidagi istirob ham bor, shodlik ham bor, qayg‘u ham bor. She’r go‘yoki lirik qahramonning ruhiy to‘lg‘onishlar monologiga o‘xshab ketgan. Yashil rang esa ijodkor uchun haqiqatning rangiga, tozalik va pokizalik timsoliga aylanib ulgurgan. Shuning uchun u jamiki ezgu, toza xotiralarini shu rangda saqlab qolgan va doimo shu rangda ko‘radi ham eslaydi:

“Qachonlardir men ham yam-yashil edim,
Daryoga talpingan jilg‘aday yashil…
Yelkamga bosh qo‘yib uxlardi quyosh,
Uyg‘onganda derdi: Salom, maysa dil!”

Yuqorida muallif jamiki ezgu xotiralarini, qachonlardir u ham daryoga talpingan jilg‘adek pokiza bo‘lganini aynan yashil rangda eslaydi va tasvirlaydi. Demak, oradan yillar o‘tgan, bugun jo‘shqin daryoga aralashgan o‘sha jilg‘a o‘z yashilligini – sofligini, beg‘amligini sog‘inadi, o‘shandayin o‘z-o‘ziga qaytgisi keladi. She’rda Haqqa murojaat chizgilari sezilib turadi. U goh kimnidir asosli so‘roqqa tutadi, goh Uni axtarib iymon sarhadlariga bo‘ylaydi:

“So‘rayman: Haqqa qaysi yo‘ldan boraman?
Va qayerda mening yashil ko‘ylagim…”

Yoki:

“Ko‘zimni ochaman, yashil boqar tong,
Dardlarim uloqib ketgan qaygadir,
Derazadan shirin jilmayib, boqib,
Sening manzilingni aytadi yomg‘ir.
Hayot tomirida oqaman yana,
O‘zimga sig‘maydi o‘zimdagi dil,
Jonimga nafasing tekkan chog‘ida
Rabbim, nigohlaring naqadar yashil…!” [Ahmedova H., 2016; 20]

Yashil rangni sevuvchilarning yuragi qattiq og‘rir, ular ko‘pincha yurak kasaliga duchor bo‘lar ekanlar. Balki shundan muallif “O‘zimga sig‘maydi o‘zimdagi dil” deb yozadi. She’r “Rabbim, nigohlaring naqadar yashil!” misralari bilan tugaydi. Bu misrani anglamoq uchun esa o‘qiguvchiga o‘zligini anglashga oshiqqan qalb hamda bedor ko‘z kerak. Sababi uyquli ko‘z – baribir hech narsani ko‘ra olmaydi. Balki bularning barini ijodkor ko‘ngliga Xudo solgandir. Lekin eng muhimi, Xudo bilan uning orasidagi yo‘l yashil rangda! Halima Ahmedovaning o‘zi bir suhbatda aytadi: “Yashil – Xudo bilan maning oramizdagi yo‘l. Ana shu yashil!”.

Shoira ijodida Haq ishqi adolatning beqiyos, benazir, buyuk timsoli sifatida poetik tadqiq etilayotgani, ayniqsa, diqqatga molik. U lirik qahramon dilida ildiz otgan haqiqatning bir bo‘lagi sifatida bo‘y tortadi. (Axir, Haq xayolin sevaman beshak). E’tibor bersak, Alloh mehri-muhabbati yonida axloqiy qadriyat (ishonch, e’tiqod) o‘z qaddini rostlayotganini ko‘rishimiz mumkin:

“Toki parvardigor haqqi hurmati
Ishonch yoshartirsin bu charxi dunni.
Ko‘zlarda ochilib osmon eshigi –
Sadoqatli yorday kutaylik
Tongni, kunni, har bitta tunni.”

Lirik qahramon dilidagi Haq ishqining cheksizligiga ishonadi. U o‘zini anglash orqali ko‘nglining tub-tubida ko‘kargan, gullayotgan ishonchni taniydi. Ishonch, mehr, e’tiqod ham yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyat sifatida ezgulikka kamarbasta, uning xizmatida. Banda Haq ishqiga suyanib o‘zligini topmoqda, botinidagi ma’naviy tayanch kuchlarini yuzaga chiqarmoqda, namoyon etmoqda.

Shoira Haqni haqiqatning buyuk timsoli sifatida talqin qilarkan, u iroda erki, ruh erkinligi bilan tutash, bog‘liq holda anglashiladi.

“Bozorlar shovqini, mozor jimligi
Dunyoni to‘ldirib turgan bir chog‘da.
Nega sen o‘zingni ko‘rmaysan axir,
Ko‘ngling ichidagi qop-qora dog‘da.”

deydi lirik qahramon. Demak, banda tor – shaxsiy mayllaridan, xohish-istaklaridan yuksalgan taqdirdagina haqiqatni xolis izlashga, anglashga qodir. Negaki, u aldamchi tasavvur-tushunchalar bilan o‘zini chalg‘itib, ovutib yashashni xush ko‘radi. Qolaversa, yana boshqa jihati, oliy qadriyat deb atalgan mutloq haqiqatning tusi, mazmuni mana shunday, deya aytishga qiynalishingdir. Boisi, burnidan narini ko‘rishga ojiz nafs bandalari uchun qorin to‘yg‘azishdan ortiq haqiqat bo‘lmasligi mumkin. Bu – ma’naviy qashshoqlik, ruhiy mutelikning ko‘rinishlaridan biri, xolos. Insonning shaxslik darajasi – rost bilan yolg‘onni, badbinlik bilan nafosatni, do‘stlik bilan makr-riyoni ajratib beruvchi, farqlay biluvchi bosh mezon.

Shoira “Salom quyosh, salom mening, ey sodiq do‘stim” she’rida oftobni Bir-u Borning hamisha porloq nazari sifatida talqin qiladi. Quyoshni sodiq do‘stim, deyishi ham bejiz emas.

Derazadan mo‘ralamay ichkariga kir,
Ko‘rgin qanday raqs etmoqda qalbimda nuring,

der ekan, Haq ishqiga juda-juda zoriqqanligini ta’kidlaydi:

“...Men tirildim bir hovuch nur ichib tirildim”

Anglashiladiki, mehr-muhabbat ezgulikdadir. Ezgulik tabiatidagi haqiqat Haq ishqining tajallisidir. Demak, ezgulik va adolatning yaxlit uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi beqiyos go‘zallikning bo‘y ko‘rsatishidir.

Maysalar, daraxtlar, qushlar, tuproq, shabboda, shuning bilan, ranglar ramzi ham Halima Ahmedova she’rlari badiiyatining muhim xususiyatlaridan biri. Shu ma’noda yolg‘iz yashil rangning mazmun qirralarini ko‘zdan kechirish kifoya. Yashil rang har bir she’rda yangi-yangi ma’nolarni anglatishiga ko‘ra o‘ziga xosdir. (Yam-yashil daryo, yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas tafti, xayol kengliklari yashil, “qachonlardir men ham yam-yashil edim, Daryoga talpingan jilg‘aday yashil”, “Yashil kundan qolgan gardman ehtimol”, “Haqiqatning rangi yam-yashil”, “Va yana kimdir aytgan edi: avval va oxirni to‘ldirar yashil”, “Yashil sog‘inch bilan tirikman bu chog‘”, “Havvoning yam-yashil tomirlarida”, “Suvlardan ajralib qolgan sog‘inchni, Yupatib to‘ldirdim yam-yashil hisga”, “Men boqqan ko‘zguda yashildir olam”, “Yam-yashil iforlar kelmoqda qaydan”, “Borliq va yo‘qlikning yashil ovozi”).

Shoira she’rlarida (“Yashil”, “Boshim aylanadi, aylanadi yer”, “Bir qush bo‘lsam, qanotlari zumrad bo‘lsam”, “Osmon moviylanar...” “Iddao” vahokazo) yam-yashil rang zimmasiga yuklanayotgan ma’nolar ma’naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida cho‘ng va rangin. Bir o‘rinda haqiqatni qo‘llayotgan fikr tariqasida aqlga kuch bag‘ishlasa, boshqa o‘rinda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida irodamizni quvvatlantiradi. Ko‘pgina she’rlarida Oftob Rabbining oliy nazari sifatida talqin etilgan (“Salom quyosh, Salom mening, ey sodiq do‘stim”). “Yashil” she’rida Rabbi nigohining hayotdagi tajallisi, Olam jilvalariga fusun va mazmun bag‘ishlayotgan go‘zallikning jilvalari sifatida suratlantiriladi.

Bu lahza ko‘nglimning yamoqlariga
Oshiq etgim kelar har bir yaproqni.
Xayol kengliklari yashil va qo‘ng‘ir,
Sog‘inch bog‘larida mudraydi kunlar.

Yashillik – Haqni gohi sehrli jozib ovoz shaklida lirik qahramon vujudini yashash zavqi-sururi, hissiyotlari bilan chulg‘aydi. Birgina she’riy parchalarda emas, balki nasriy asarlarda ham yashilni uchratamiz. Halima Ahmedovaning “Yosuman gulining soyasi” kitobida “Anjir daraxtining Xudoga to‘rt maktubi” keltiriladi. Unda Halima Ahmedova asarlarining asosiy bosh qahramonlaridan Yusuf Zulayho haqida go‘yo anjir tilidan gapiradi. Maktub to‘rt rangda: oq maktub, yashil maktub, qizil maktub va oxiri sariq maktubdan iborat bo‘lib, aynan yashil maktubda bahor intiq kutilayotgani tasvirlanadi. Maktubda Yusuf Zulayhoni asrashini Haqdan iltijo etib so‘raydi. Hamda Yaratgan O‘zining yashil nigohi ila uni doim kuzatib turganini aytadi. Zero, yuqorida Halima Ahmedovaning o‘zi ta’kidlagan fikrga yana to‘xtalishimizga to‘g‘ri keladi: “Yashil- Xudo bilan maning oramizdagi yo‘l. Ana shu yashil!”. Demak, ijodkor uchun Robbisiga olib boruvchi butun bir bepoyon yo‘lning o‘zi – yashil.

Yashillikning go‘zallik mohiyati shundan iboratki, u hamisha ma’naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida yuz ochadi. Xususan, birda mehr-muhabbat ko‘rsatsa, boshqa holatda tanish ovoz bo‘lib yurakka cho‘g‘ soladi. Hayotning ma’nosini uqib yashashga undaydi. Estetik qadriyatning iroda kuchlarini ezgu amallar sari yo‘naltirish barobarida mushohada yuritishga, atrof-tevaragida kechayotgan jarayonlarni, mulki borliqni kuzatishga, mazmun o‘qishga undaydi. Mahliyo bo‘lish bilan birga o‘z fikri-xayoliga cho‘mish asnosida mulki borliq xossalaridan hikmat uqishga da’vat qiladi.

Lirik qahramon dilidagi Haq ishqini topgunga, ismini tanigunga qadar ma’naviy zulm aldovlarida chalg‘iydi. U Haq ishqini yashil sog‘inch, deya ataydi.

Hayot tomirida oqaman yana,
O‘zimga sig‘maydi o‘zimdagi dil.
Jonimga nafasing tekkan chog‘ida
Rabbim, nigohlaring naqadar yashil.

Yashil rang Haq xayoli, Haq jamoli, haqiqat – ezgulikning timsoli tariqasida namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon oliy nazar sharofati bilan yana hayotga qaytdi. Ezgulik – adolatni yuzaga chiqarar ekan. U esa, o‘z navbatida, haqiqatni qaror toptiradi. Haqiqatning asl maqsadi esa go‘zallikni tasdiqlashga qaratilyapti. Shoira she’rlaridagi badiiy kashfiyotning mohiyati shundan iboratki, ezgulik, adolat, go‘zallik jilvalaridagi ma’nolar Haq nigohining mulki borliqdagi tajallisi yashil rangda bo‘y ko‘rsatadi. Izlanishlarimiz jarayonida, biz Halima Ahmedovani – ham shoira, ham yozuvchi, ham badiiy publitsist sifatida yana bir bor tanidik. Uning qalami ijod rayonida xalq tiliga, xalq og‘zaki ijodi namunalariga, mumtoz adabiyotimizga bobasta tebranishlarning, ulardagi an’analarning shakl va mazmunda, aynan yashil rang ramzi orqali ham yangilanligining guvohi bo‘ldik. Halima Ahmedova ijodiga tiyrak nigoh bilan chuqurroq kirib borishga harakat qildik. Va mohiyatga chuqurroq kirib borar ekanmiz, ijod namunalaridagi ranglarning ramziyligi, ayniqsa, yashil rangning alohida o‘ringa ega ekani, uning ezgulikka xizmat qilishi, bu rang o‘ziga xos falsafiy mazmun va vazifa bajarishini anglab yetdik. Demak, bu yashillik – ezgulik, adolat zamiridagi mehr-oqibat tuyg‘ularidan go‘zallik balqib chiqadi. Inson fe’l-atvorida namoyon bo‘lguvchi aynan ana shu mehr-muhabbatga ko‘ra odamiylik xususiyatlarini, shaxslik darajasini o‘zaro farqlash mumkin. Yashillik – Halima Ahmedova ijodida mana shunday katta darajada turadi.

Halima Ahmedova she’riyatida o‘zgacha obrazlar asosida tasvirlangan bu yashil rang she’r badiiyati va g‘oyasini yanada boyitgan. Bu she’rlar obdon boshqacha – ham sodda, ham murakkab, shu bilan birga, undagi o‘ziga xos “yashil dunyo” she’riyat olamida o‘zgacha bir mohiyat kasb etgan, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Undagi tashbehlar sirli, nafis, keng, chuqur, turfa xil ma’no-mazmunga ega. Bu mazmun insonga qo‘lidan kelmaydigandek tuyiladigan narsalarga uning qodir ekanini anglatmoqqa intiladi. Umuman, Halima Ahmedova she’riyatida bu hayotning mashaqqatlarini kuchli iroda va shukronalik bilan yengib o‘tayotgan jasoratli insonning qalb tug‘yonlari, olamga yaxshilik istagan yashil nigohi tasvirlangan va u borliqni shu rangda ko‘radi. Bu she’riyatda yashil rang jamiki ijobiy ma’no nozikliklarini namoyon etib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. Yashil. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2016.
2. Ahmedova H. Yosuman gulining soyasi. -Toshkent.: 2013
3. Alisher Navoiy. Sabbayi sayyor(audio kitob).
4. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy.(Sayt: ziyo.uz)
5. Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboev talqinida.- Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Qoraboev U. Najmiddin Kubroning “Latoif” asari tahlili // Sino. –Toshkent, 2000.
7. Ro‘zieva M. O‘zbek folklorida rang simvolikasi.- Toshkent, Fan 2016.
8. O‘tanova C. Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolistikasi.- Toshkent.: Tafakkur, 2011.
9. Mahmudov Q. Turkiy bayroqlar ramzi// Fan va turmush. –T: Yangi asr avlodi, 2005.
10. Bulatov S.B. Rang psixologiyasi. –T. Fan, 2003.

LEV NIKOLAYEVICH TOLSTOYNING “TIRILISH” ASARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nafisa SULAYMANOVA
AlisherNavoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya
Maqolada Tolstoyning “Tirilish” asari uslubi, o‘ziga xos jihatlari haqida ayrim mulohazalar yuritishga harakat qilingan. Ijodkor mahoratining o‘ziga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: *uslub, roman, muallif, obraz, parallel jarayon.*

Annotation
The article tries to make some comments on the style and peculiarities of Tolstoy's «Resurrection». The peculiarities of the artist's skill are analyzed.
Keywords: *style, novel, author, image, parallel process.*

“Tirilish” (Voskreseniye) Lev Nikolayevich Tolstoyning eng oxirgi romani. Tolstoy dahosining 10 yillik mehnati (1889 – 1899) samarasi o‘laroq dunyoga kelgan asarda adib o‘z zamonasidagi voqelikni tasvirlagan bo‘lsa-da, insoniyatning barcha zamonlariga xos muammolarni ochib bergan.

Nasab jihatidan dvoryanlardan bo‘lgan Tolstoy o‘z asarlarida, asosan, oliy tabaqa vakillarining hashamdor, ko‘zni qamashtiradigan jimjimali hayotini tasvirlaydi. «Tirilish»da esa bu an’anadan yarim qadam chekingan holda oddiy rus xalqining kulrang bo‘yoqli hayoti ham ochib berilgan. Roman knyaz Dmitriy Ivanovich Nexlyudovning o‘zi uchun hayot haqiqatini kashf etishi to‘g‘risida.

Knyaz boyvuchcha ammalarining qo‘lida «yarim oqsoch, yarim asrandi» bo‘lib katta bo‘lgan Katerina Maslova (Katyusha)ni uchratib qoladi. Katyusha xulqi haminqadar bo‘lgan onadan va tayini yo‘q lo‘li otadan dunyoga kelgan. Boyvuchcha grafinyalar eshigida xizmat qilib katta bo‘ladi va kunlarning birida o‘z bekalarining mehmonga kelgan xushsurat jiyani ─ knyaz Nexlyudov bilan to‘qnashib qoladi. Avvaliga ular bir-biriga ma’naviy ehtiyoj, pok muhabbat bilan bog‘lanadi. Harbiy xizmatga borib, «kattalar hayoti» bilan tanishgach, Nexlyudov mutlaqo boshqacha atvorga ega bo‘lib ikki yildan so‘ng qaytadi, bu gal Katyushaga shahvoniy hirs, jismoniy talpinish bilan qaray boshlaydi va…..uni yo‘ldan uradi. Bu aybini esa qizning qo‘liga 100 so‘m tutqazish bilan «yuvgandek» bo‘ladi, chunki uning nazdida, «hamma shunaqa qiladi, bu tabiiy…». Va qizni yolg‘iz tashlab, o‘zining hashamatli hayotiga g‘arq bo‘ladi.

Bo‘yida bo‘lganini anglagan Katyusha esa boladan «qutulib olgach» yomon yo‘lga kirib ketadi, islovotxonada kun ko‘ra boshladi. Kunlarning birida anglashilmovchilik tufayli savdogarning o‘limida ayblanib, sud qilinadi. Charxi kajraftorning ishi bilan, bu sudda maslahatchilar tarkibida Nexlyudov ham bor edi. Qizni tanigan Nexlyudov uning bu yo‘lga kirib ketishiga o‘zining uni yo‘ldan urgani sabab bo‘lgan degan xulosaga keladi, gunohini yuvish uchun sudya va maslahatchilarning hafsalasizligi natijasi o‘laroq nohaq katorgaga hukm qilingan qizni qutqarishga, unga uylanishga ahd qiladi.

Qizni qamoqdan chiqarib olishga harakati davomida hibsxonalardagi ahvol, arzimagan harakat va baxsiz tasodif natijasida qamalganlarning taqdiri bilan tanisha boradi, sudya, prokuror, advokat, tergovchi, hibsxona rahbari – barchasining insonlar taqdiriga o‘ta adolatsiz va befarq qarashi, bir matohdek munosabatda bo‘lishiga, nochor kishilar hayotining turmada chirib ketishi oddiy holga aylanganiga guvoh bo‘ladi. Jamiyatda bunday hol yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan faktorlarni va aybdorlarni izlaydi, buning barobarida o‘z shaxsiyatida ham katarsis jarayoni kechadi.

Qamoq hayoti unda bevosita yashayotgan Katyusha va hibsdagilar uchun najot yo‘lini izlagan Nexlyudov hayotida tub burilish yasaydi, «tirilish» jismoniy ehtiyojlarga qurilgan, tizgini nafs qo‘liga tutqazilgan hayotdan ma’naviy poklik, insoniy oliyjanoblikka o‘tish jarayoni boshlanadi.

Asarda o‘quvchi e’tibori ikki parallel jarayonga qaratiladi: inson nafsi va ichki «men» o‘rtasidagi kurash hamda jamiyatdagi adolatsizliklar, jinoyatchilikning urchishi sabablari.

…Nexlyudov o‘z umrida, uning ta’biricha, bir necha bor «qalbini pokizalab olgan» edi. Ba’zan, oradan anchagina vaqt o‘tgach, u ma’naviy hayoti susayib yoki turg‘unlikka uchrab qolganini his etar va ko‘nglida yig‘ilib qolgan bu turg‘unlikka sabab bo‘lgan barcha iflosliklarni tozalay boshlardi. Ana shunday ahvolni «qalbni pokizalash» deb atardi…

Knyaz oliy doiraga mansub. Bu doiraning barcha xislatlari –manmanlik, xudbinlik, molparastlik, hashamat va pulga o‘chlik uni doimiy ta’qib etsa-da va ko‘p hollarda o‘ziga bo‘ysundira olsa-da, undagi insoniylik, hayotning chin ma’nosini izlashga intilish butunlay jon bermagan. O‘zligini anglashga, umrining asl motivini axtarishga bo‘lgan intilish unda uyg‘onib turadi, qamoqxona hayoti bilan tanishgandan keyin esa bu jarayon yanada kuchayadi. Ammo oliy doiraning jimjimali hayotidan voz kechish, umrni shunchaki yaxshi inson bo‘lishga bag‘ishlash oson kechmaydi. Bu holatni Tolstoy quyidagicha tasvirlaydi: …uyquga to‘yib

uyg‘ongan odam o‘zini kutib turgan muhim va quvonchli ishni bajarish uchun allaqachon turishi kerakligini bilsa-da, uyqusi kelmayotganiga qaramay, to‘shakda rohatlanib yana yotgisi keladi…

O‘z savollariga javob qidirgan Nexlyudov shaxsiy ehtiyojlari atrofida o‘ralashib qolgan kishilar umrini asl missiyasidan chalg‘iganlarga qiyoslaydi: xo‘jayinining ishini qilinglar deb boqqa yuborilgan bog‘bonlar bog‘ni o‘zlarining xususiy mulklari deb xayol qilganlar, ular bog‘dagi jamiki narsalarni o‘zlari uchun qilingan deb bilishgan. Shuning uchun ishimiz xo‘jayinni esdan chiqarib, xo‘jayinni hamda xo‘jayinning oldidagi burchni eslatuvchilarni o‘ldirib, bog‘da gasht qilib yashashdan iborat, degan fikrga kelishgan…

Nexlyudovning do‘sti, Senat kotibi Selenin misolida ichki uyg‘oqlik ko‘rsatiladi. Uning oilaviy hayotidan ham, ishidan ham, boring-ki, ana e’tiqod qiladigan dinidan ham ko‘ngli to‘lmaydi. Bu ko‘ngli to‘lmasliq, qoniqmaslik hissi aslida noshukrlik yoki noshudlik emas. Balki, aksincha, o‘zidagi kamchiliklarni ko‘ra olish, ulardan ko‘z yummaslikdir…

Odatiylik, o‘zi ko‘nikkan qobiqqa ko‘nikib yashash, komfort zonasidan chiqa olmaslik, hayotdan qoniqish his qilib yoki qoniqayotgandek o‘zini ko‘rsatib yashash oson, lekin bu o‘limga olib boradi, ruhiy tanazzulga yetaklaydi.

Nexlyudovning ta’biricha, har kimning ichida bir qumursqa bor – bu asl «men». U ba’zida g‘imirlab, to‘g‘ri gapni aytib turadi, lekin biz shahvoniyatga shunchalar qulmizki, bu qumursqani eshitib-eshitmaganlikka olamiz, ovozini o‘chirishni istaymiz. Vaholanki, bu qumursqani uyg‘otish, qayta mudrashiga izn bermaslik kerak. Asl tirilish, inqilob shunday ro‘y beradi.

«Tirilish»dagi markaziy ijtimoiy muammo qamoqxonalarda chiriyotgan umrlar va bunga odatiy holdek qaraydigan, «qora frak kiyib, tilla hoshiyali pensne» taqib olgan sudyalar, prokurorlarning xudbinligi haqida.

Sholcha o‘g‘irlab qo‘lga tushgan yesir bolakayni so‘roq qilishayotganda Nexlyudov o‘zicha mulohaza qiladi. «Bu bola qandaydir bir boshqacha yovuz emasdir axir, uning oddiygina odam ekanligini hamma ko‘rib turibdi-ku. U xuddi ana shunday odamlarni yetishtiradigan muhitda yashagani uchungina jinoyatkor bo‘lgan axir. Mana shunday bolalar bo‘lmasligi uchun esa bunday baxsiz zotlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan sharoitlarni yo‘q qilishga harakat qilish lozim. Biz esa nima qilyapmiz? Biz bunaqa yigitlarning minglarchasi qo‘lga tushmay chetda qolib ketayotganligini bilaturib mana shunday qo‘qqisdan qo‘lga tushib qolganiga mahkam yopishib olib, turmada uning umrini bekorga chiritamiz yoki bema’ni mehnat bilan o‘tkazamiz…».

«…Ular xavfliyu biz xavfli emasmizmi?.. Men buzuqman, fohisha, aldamchiman. Mening shunaqaligimni ko‘ra bila turib mendan nafratlanish u yoqda tursin, qaytaga hurmat qilishadi. Chunki men oliy tabaqadaman. Ular esa shunchaki qora xalq…»

Romanda hibsxonlarda turli sabablar bilan umri chiriyotgan jinoyatchilarning bu ahvolga kelishiga sabab bo‘lgan jamiyat, ularni qamoqqa tiqqan sudya, prokuror, tergovchilarning o‘zi ham jinoyatchilikda ulardan kam emasligi, faqat ular o‘z jinoyatini «nafosat bilan» amalga oshirishi va xaspo‘shlashi tasvirlanadi.

«Jinoyatchilarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan sharoitni yo‘qotish uchun harakat qilish o‘rniga bundaylarni yetishtiradigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlaymiz ham. Bular fabrika va zavodlar, qovoqxonalar va fohishaxonalardir… Jamiyat ularni yo‘qotmayapti, demak, ularga o‘zi ham ehtiyoj sezadi». Bu Katyusha Maslovaning taqdiri misolida ko‘rsatiladi.

Maslova yengiltak. Lekin u o‘zini keraksiz deb emas, balki zarur shaxs deb biladi, o‘zini qadrli deb hisoblaydi. Chunki hayotida uchragan erkaklar unga va unga o‘xshagan ayollarga zorligini, etagiga yopishib olishini o‘zi ko‘rdi, his qildi. Jamiyatning o‘zi uning kerakligini ta’kidladi, isbotladi.

Odamlar nima uchun yo‘ldan ozadi? Ataymi yoinki yo‘l qiyshiq bo‘lgani uchunmi? Bu qiyshiq yo‘lni jamiyat qurgani uchun emasmikan? Xalq jinoyat qiladi, chunki u och. U ishlaydi, qora terga botib ishlaydi. «Lekin u qashshoqlikdan, birlamchi ehtiyoj – non va sutning yo‘qligidan o‘lib ketyapti. Chunki ular o‘z noni uchun emas, yer egalari va kattakonlar o‘zlariga shlyapalar, hassalar, izvoshlar, yaltiroq narsalar sotib olishi uchun ishlashadi. Qora xalq o‘g‘rilikning yomonligini bilmasligi mumkin. Chunki unga o‘g‘irlama deyishgan. Lekin u fabrikalar haqini ushlab qolib mehnatini o‘g‘irlayotganini, hukumat soliq solib, butun to‘ralari bilan tinmay uni talayotganini ko‘rib turibdi, shunga qarab xulosa qiladi».

Sholcha o‘g‘irlab qo‘lga tushgan bolakay Nexlyudovning birgina so‘zi bilan ozod etiladi. Gap Nexlyudovning obro‘si, qo‘li uzunligida emas, balki bu sholcha o‘g‘risining aslida aybdor emasligini hamma bilib turgani, lekin uning himoyasiga hafsala qilmagani bilan izohlanadi.

«Haqiqiy jinoyat, odamxo‘rliklar Taygalarda, surgunlarda, avaxtalarda emas, balki ministrliklar, departamentlarda, komitetlarda ro‘y beradi», - deb yozadi Tolstoy.

Lab-lunjini qon qilib, iflos qo‘li bilan odam go‘shtini g‘ajiyotgan odamxo‘r-u, xuddi o‘sha go‘shtni yoqasiga oppoq salfetkani qistirib, sanchqini nazokat bilan ushlab yeyayotgan odamxo‘r emasmi?

Umuman, birovlar boshqalarni nega va qaysi huquqqa asosan qamaydi, surgun qiladi, qiynoqqa soladi? Qamatganning qamalgandan farqi qanchalik? U oppoqmi? Birov birovni qanday asosga ko‘ra sud qiladi? Konstitutsiyami? Ichki qonunlarmi? Umumjahon deklaratsiyalarmi? Shu hujjatlarning ijodkorlari ham farishtayi begunoh emasligiga, birovga yopishtirayotgan illatidan xoli emasligiga kim kafolat beradi? Yagona asos ularning jinoyatini hech kim ko‘rmayotganidami? Ularning jinoyatini qimmatbaho galstuk va qotirib dazmollangan oppoq yoqalar yashiradimi faqat?

«…Sizlar jinoyatchi deb bilgan kishilarni necha yuz yillardan beri jazolab kelasizlar. Xo‘sh, jinoyatchilarni yo‘qota oldingizmi? Yo‘q, balki jazo orqali buzilgan jinoyatchilar hisobiga ham, bahuzur o‘tirib olib, odamlarni jazolovchi jinoyatkor sudya, prokuror, tergovchi, turmachilar hisobiga ham ularning adadi oshib bordi xolos…».

Nexlyudov shu kabi savollar o‘rtasida arosatda qoladi. «Nega begunohligi kundek ravshan bo‘lganlar katorga-yu surgunda?» Bunga javoban esa advokat (!) xitob qiladi. «Qo‘ying. Bu haqida bosh qotirmay qo‘ya qolaylik. Hech narsani o‘zgartira olmaymiz…».

Romanni Lev Nikolayevich o‘z an’anasiga sodiq qolgan holda «tolstoycha» uslubda yakunlaydi. Yana dinga, Parvardigorning kitobiga murojaat qiladi. Nexlyudov hayotidagi barcha adolatsizlik, yo‘ldan ozishlarning zamiri nimadaligiga dindan javob topadi. Insonning hayotidagi asosiy sterjen din ekanligini, hamma javoblar asrlar avval berilganini, lekin insoniyat oyatlarni xom-xatala chaynab, yutib-yutolmayotganini isbotlaydi. Agar hammasi dinda tasvirlanganidek bo‘lganida hayot gullab-yashnardi. Qaysi din ekanligi esa muhim emas. Zero din ko‘p, ruh esa bitta…

SAID AHMADNING TILDAN FOYDALANISH MAHORATI

Maftuna TOLIBJONOVA
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi, atoqli el suygan ijodkor Said Ahmadning asarlarida tildan foydalanish mahorati “Kelinlar qo‘zg‘aloni” dramasi misolida ochib berilgan. Said Ahmadning asar yozishdagi mahorati va badiiyatiga xos jihatlar fikrlar orqali izohlangan.
Kalit so‘zlar: *Atoqli, asar badiiyati, mahorat, milliy madaniyat, sehrli qalam, xalqchil, adabiyot muxlislari, o‘zbekona dunyoqarash, teran fikr.*

Annotation
In this article, in mastery of the use of language in the works of the well-known Uzbek writer, well-knovn artist Said Ahmad is revealed on the example of the drama “Bride’s Revolt”. The peculiarties of Said Ahmad’s skill and art in writing the work are explaned thought ideas.
Key words: *Aspects of the art, skill, national culture, and art of a famous work are explained trought ideas.*

“Xalqimiz Sizni milliy madaniyatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan betakror so‘z san’atkori, zahmatkash adib sifatida biladi va qadrlaydi…Sehrli qalamingizga mansub romanlar, rang-barang qissa va hikoyalar, sahna asarlari kirib bormagan xonadon yo‘q. Ulardagi hayotiy manzaralar, insonning nozik qalb kechinmalari tasviri o‘zining milliyligi xaqchil va teranligi bilan adabiyot muxlislarining mehriga sazovor bo‘lgan.

Millatimiz ruhining badiiy ifodasi bo‘lmish “Ufq” romani jahonning turli mamlakatlarida namoyish etilayotgan “Kelinlar qo‘zg‘aloni” dramasi bu fikrning yorqin dalilidir ” [Islom Karimov, 318-bet. 640].

Adabiyot gulshanida Said Ahmad asarlari haqiqatda o‘zining umrboqiy g‘oyalari bilan o‘z o‘rniga ega. Teran fikr, o‘zbekona dunyoqarashlarning uyg‘unligi, ta’sirchanligi, voqealardagi real hayotiylik, so‘z qo‘llash mahorati yozuvchi yaratgan asarlari hosilasining mevalari desak adashmagan bo‘lamiz.

Asarda bir oddiy o‘zbek oilasining kolxozlashtirish davridagi yashash muhiti tasvirlangan. Oiladagi munosabatlar qaynona, kelin obrazlari, orqali yoritilgan.

Dramadagi asosiy ko‘rsatib berilmoqchi bo‘lgan g‘oya zaminida, tarqoqlik, o‘zi uchun o‘zi kurashib yashash qoralanadi, birdamlik va hamjihatlik ulug‘langan, qolaversa, o‘zbek

ayollarining haqiqiy timsollari yotibdi. Voqealar ketma-ketligini tahlil qilar ekanmiz, folklor na'munalaridan biri maqollarning asar badiiyatiga ta'sirini izohlashga harakat qilamiz.

"Kelinlar qo'zg'aloni" dramasi xususida so'z olib borar ekanmiz, yozuvchining asar yozishdagi mahorati, uning so'z qo'llash mahorati bilan baholanishini ko'rib, tasanno dedik. Benihoya, asar qahramonlarining tili e'tiborimizni tortdi. Qahramonlar harakatini kuzatar ekanmiz, ular tilidan aytilgan iboralar, so'z birikmalari, hatto xalq og'zaki ijodi na'munalaridan unumli foydalanilganiga guvoh bo'ldik. Bu esa, qadimdan saqlanib kelinayotgan sof o'zbek xalqining boy merosi, urf-odat, an'analari yodga solish bilan bir qatorda, asarning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Quyida berilgan fikrlarda buni sezish mumkin.

Bashorat tilidan: Maqol so'z ko'rki, **" Bir tovuqqa ham don kerak ham suv kerak ". O'zingizdan qolar gap yo'q. " Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi", "Eskini yamasang esing ketadi", "Yegan og'iz uyalar". "Qudachilik-ming yilchilik", "Yuzga aytganning zahri yo'q ", "Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim", " Ichingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga", "Qo'ng'iz bolasini oppog'im derkan, tipratikon bolasini yumshog'im der ekan ", "Har kimniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga". " Oyni etak bilan yopib bo'lmas "** kabi maqollar keltirilgan.

Asarda qahramon tilidan aytilgan yuqoridagi maqollar asarda xuddi, xalq og'zaki ijodidagi aytishuv shaklini eslatadi. Qaynona kelin holatiga ko'ra, ifoda etilmoqchi bo'lgan nutq aytishuv tarzida keltiriladi. Bu xususiyat, kitobxonning asarni o'qib, voqeani to'laligicha tushunish va yuzaga chiqmoqchi bo'lgan fikrni anglab yetish, undan estetik zavq olish, zerikmaslikni ta'minlaydi.

Asarning yana bir muhim o'rni borki, qaynona kelin aytishuvi, Farmonning o'g'illari Mahkam va O'rinboy tilidan ham qayta takrorlanadi. Bu jihat asarning badiiy qochirimlarga boyligini ta'minlash bilan bir qatorda, yozuvchining asar yozishdagi qobiyati qay darajada ekanligini yuzaga chiqargan, deb o'ylash mumkin.

Farmon: (Bashoratga). Kam-ko'stingni ayt. Nima kerak?

Bashorat: Bir tovuqqa ham don kerak ham suv kerak, degandek…

Farmon (gappi bo'lib). Maqol qo'shmay gapir. Maqol ham o'lsin, bo'lar-bo'masga suqulmay.

Bashorat: Maqol so'z ko'rki, o'zingizdan qolar gap yo'q. Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi, degandek…Tuflimning rangi o'chib, tumshug'i yalpayib ketibdi.

Farmon: Usta Boqi ulgurga to‘g‘irlatib bersam bo‘lmaydimi?

Bashorat: Eskini yamasang, esing ketadi, degandek… yetti marta tagiga charm qoqib bergan.

Farmon: (Sottiga) Yoz Tufli deb yoz. Yana nima kerak?

Bashorat: Yegan og‘iz uyalar, “Qudachilik - ming yilchilik”, o‘zingiz bilasiz, bitta-yu bitta qizim. Ko‘zimning oq-u qorasi, haligi qudalarimni bir chaqirsam degandim.

Farmon: Quda-quda. Qudalaringni tinch qo‘y. Bunaqada boshingga chiqarib yuborasan. Ular xo‘p ziyofatimizni yeyishgan. Sarpolarni to‘qqiz-to‘qqiz qilib kiyishgan. Qiz uzatdingmi endi jim o‘tir…Bo‘ldi ketaver.

Bashorat: “Yuzga aytganning zahri yo‘q”, “Olarda kirar jonim berarda chiqar jonim” qo‘ying oyi. Ziqnaligingiz jonimga tegdi. Ro‘zg‘orimni bo‘lak qilib bering yo javobimni bering.

Farmon: Nima?

Bashorat: Ketaman?

Farmon: Qayerga?

Bashorat: Oyimnikiga.

Farmon: Yoshing ellikdan oshib qolgan bo‘lsa oying necha yoshdaligini o‘zi ham bilmasa. Senga ko‘zi uchub turgandir. Borsang tanirmikan?

Bashorat: Nega tanimas ekanlar?

Farmon: Ko‘zi ko‘rmay qolganiga yetti yil bo‘lgan.

Bashorat: O‘zimni ko‘rmasalar, ovozimni taniydilar.

Farmon: Qulog‘ini tom bosib qolganiga yigirma yilcha bo‘lib qolgan. Qulog‘ini ostida zambarak otsang ham eti seskanmaydi.

Bashorat: “Ichingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga”-yaxshimanmi, yomonmanmi-oyimni farzandiman. Oyim mendan tonmaydilar. “Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im deyar ekan, tipratikon yumshog‘im deyar ekan. “Har kimniki o‘ziga oy ko‘rinar ko‘ziga”.

Farmon: “ Ko‘p gap eshakka yuk ”[14-bet. 32].

Asarda aytishuv shu zayl yakun topgan.

Asar davom etar ekan, oradan bir necha kun o‘tgacha Farmon xonadoniga ho‘jalik ishlari bilan qamoqqa tushib qolgan o‘g‘lini, bir ayol qutqarish maqsadida tashrif buyuradi. Farmon xol so‘rash asnosida Bashorat kelinining so‘zamolligiga ishora qiladi.

Farmon: Bashorat kelinim aytganday “Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur” Ishqilib o‘g‘lingiz tinch-omin yuribdimi?

Xotin: Xo‘jalik ishidagi odamda tinchlik bo‘larmidi? Uzi yemay, yeganlarni ko‘rolmaydiganlar ko‘p [23-bet. 32].

Quyidagi dialogda qo‘zg‘alon boshlanishidagi bahslashuvda ham, Bashoratning maqoldan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Mehri: Kelinglar, bir hasratlashaylik.

Bashorat: Hasratga balo bormi? Hasrat qilaverib, qilaverib betimga ajin tushib ketgan. O‘rta Osiyoning xaritasiga o‘xshayman. “Oyni etak bilan yopib bo‘larmidi”, o‘rgilay. Manga qarang, Nigora, qo‘zg‘alonni shu bugunoq boshlaymiz [26-bet. 32].

Muxtasar qilib aytganda, Said Ahmad qalamiga mansub bu kinokomediya yillar mobaynida xalqimiz ong-shuurida yashab kelmoqda. Sahnalarimizning markazini tark etganicha yo‘q. Nafaqat, dramalari balki, nasriy asarlari ham kitobxonlar e’tiboridan chetda qolganicha yo‘q. Asarni tahlil qilar ekanmiz, haqiqatda undagi ma’no – mazmun, o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Hali ham, adabiyot deb atalmish ulkan xazinaning marvaridi sifatida barhayot yashab kelmoqda, desak mubolag‘a emas, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqijon To‘xliyev. T.Shermurodov, Sh.Isayeva. Adabiyot (majmua).-T:. Bayoz, 2015.-640-bet.
2. Said Ahmad. “Kelinlar qo‘zg‘aloni” kinokomediya-T., 1976. - 32-bet.

NISHOTIYNING “ HUSN VA DIL” DOSTONIDA AN’ANA VA YANGILIK

Dilfuza ABDUSAYIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya
Ushbu tadqiqotimiz Mavlono Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoniga bag‘ishlanadi. Unda «Husn va Dil» dostoni va uning g‘oyaviy badiiy xususiyatlari, ijodkorning poetik mahoratini ochib berishga harakat qildik. Ijodkorning asari an’anaviylik va yangilanish zaminida Alisher Navoiyning “Xamsa”si bilan qiyoslanib tadqiq etildi.
Kalit so‘zlar: *Husn, Dil, Fuod, Diyor, Aql, Nazar, ishq, solik, Haq, oshiq, Badan qal'asi, obi hayot.*

Annotation
The subject of our research is the epic of Mawlana Mukhammadniyaz Nishoti «Husn va Dil» . In the course of the research, we tried to reveal the epic «Husn va Dil» and teh ideaological and artistic features of this epic. The author's work has been studied in the context of tradition and renewal in comparison with Alisher Navoi's «Khamsa».
Key words: *Husn, Dil, Fuod, Diyor, Aql, Nazar, Ishk, solik, Haq, oshik, castle of Badan, water life.*

O‘zbek mumtoz adabiyoti o‘zining mukammal, boy tarixiga ega. Xiva adabiy muhitining takrorlanmas shoiri Muhammadniyoz Nishotiyning «Husn va Dil» asari ana shunday asarlar sirasidandir. Bugungacha asar haqida V.Abdullayev, X.Rasul, M.Qosimov, I.Adizova kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Bizning zimmamizdagi vazifa esa, asar ustida yanada kengroq tadqiqotlar olib borishdan iborat.

Darhaqiqat, doston keng qamrovli ma'noga ega. Unda yashirin tugunlar nihoyatda ko‘p. Eng asosiysi esa shu tugunlarni ketma ket yecha olishda va ijodkor ifodalamoqchi bo‘lgan fikr va g‘oyani to‘g‘ri anglay olishda. Zero, har qanday buyuk ijodkor ijodida so‘z uning o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘ularidan bir necha hissa ortiq ma’nolarni ifodalaydi. Shuning uchun haqiqiy asarning g‘oyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir bo‘lib, ayrim ma’nolqar yashirinligicha qolaveradi. Shu bois ham har bitta asar yuzlab tahlillarda turlicha ma'no kasb etaveradi. Adabiyotni chinakamiga his qila olgan adabiyotshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan. Chunki u har qancha urinmasin, so‘zning majoziy mohiyatini barcha rang, ohang tovlanishlari bilan idrokdan o‘tkaza olmaydi. Shu bois birdaniga bir necha ramziy mazmunlarni

tarkibiga birlashtira olgan asar chinakam asardir. Nishotiyning «Husn va Dil» dostoni ushbu fikrimizning yorqin isbotidir.

Muhammadniyoz Nishotiy o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘zining bir qator lirik asarlari, “Qushlar munozarasi”, shu jumladan, shoir ijodining yuksak cho‘qqisi hisoblangan «Husn va Dil» dostoni kabi asarlar muallifi sifatida tanilgan hassos ijodkordir. Shoirning serqirra ijodi o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti, umuman, sharq adabiyotining yuksak an'analari bilan uzviy holda kamolga yetadi. Nishotiy asarlarining maydonga kelishida ungacha mavjud bo‘lgan, an'anaga aylangan asarlar turtki bo‘ldi. Sharqda “Husn va Ishq”, “Qissai Husn va Ishq” nomlari bilan ko‘pgina asarlar mavjud bo‘lib, ular qadimiy Husn-u Dil afsonasi asosida yaratilgan XVIII asr shoiri Nishotiy ham bu an’anaviy syujetga murojat qilib, “Husn- u Dil” dostonini yozdi. Bu asarni yaratishda u o‘zigacha yaratilgan shu sujetdagi asarlardan, ayniqsa, Fattohi va Mushfiqiylarning fors-tojik tilida yozgan qissalaridan ilhomlangan. Olima M.Qosimovaning takidlashicha, Nishotiy dostoni shu xildagi boshqa dostonlardan ko‘p jixatlari bilan farqlanadi. Jumladan, Fattohiy dostonida Nishotiy “Husn-u Dil” dostonida uchrovchi Murshidi Ilhom, qayiqchi, Faxr, Bulbul va Boz kabi obrizlar uchramaydi. Shuningdek, Fattohiy dostonlarida Gul va Daf, Naxl va Nay, Binafsha va Chang, Kosai chin va Nargis munozalari bo‘lib o‘tganligi haqidagi ma’lumot berilgan bo‘lsa, Nishotiy dostonida munozaralarning to‘liq bayoni berilgan. Ushbu munozaralar esa doston badiiyatini yanada to‘ldiradi, mazmunan boyitadi.

“Husn-u Dil” masnaviy shaklida, aruzning sa’ri bahrida yozilgan bo‘lib, 62 bob, 7092 bayt – 14184 misradan iborat. Har bir bob avvalidagi nasriy parchalar (nasriy mundarijalar) Sharq nasri uslubi bo‘lgan sajda bitligan. Doston badiiyati ancha mukammal. Asarning an'anaviyligi shundaki, undagi mazkur sujet fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida ko‘p tarqalgan. Bu haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik. Nishotiy Sharqda an’ana bo‘lgan Husn va Dil haqidagi afsonani dostonida qayta ishlab, unga ijodiy sayqal berdi. Shoir dostonini butunlay tasavvufiy mazmunda bitgan. Chunki undagi har bitta obraz tasavvufiy mazmun anglatishga xizmat qilgan. Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonini an’anaviy sujetda yaratilgan original asar, deyish mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa ushbu afsona uzoq tarixga ega. Ya'ni XVI asrda yashab o‘tgan shoir Ohiy xuddi shu sujetda doston yaratgan. Biroq afsonaning ommaga keng tarqalishida Nishotiyning qalamiga mansub dostongina turtki bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda Nishotiy doston poetikasiga o‘zgacha yangilik kiritdi. Bu esa uning obrazlar ko‘lamida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya'ni ijodkor olib kirgan obrazlar dostonning irfoniy ya'ni ilohiy sir asrorlarini

ochib bera oldi. Ta'kidlash joizki, asar dunyoviylikka da'vo qilsa-da, aslida asarning tub mohiyati uning haqiqiy tasavvufiy asar ekanligidan dalolatdir. Ya’ni, maqsad – ishq dardini kuylash. Biroq bu oddiy ishq emas balki ilohiy ishq, Haqqa oshiqlik. Fuod esa ilohiy ishqqa mubtalo oshiq. Mazkur izlanish davomida mana shu nuqtayi nazar asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qildi.

Shu kungacha olib borilgan tadqiqotlarda «Husn va Dil» «Xamsa» ga javob tariqasida yozilgan degan fikrlar ilgari suriladi. Darhaqiqat, ushbu fikrlar ham, albatta o‘z tasdig‘iga ega. Nishotiy asarni o‘zidan oldin yashab o‘tgan to‘rt shoir: Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy “Xamsa”sining ilk dostoniga javob tariqasida bitganini XI bobda shunday bayon qiladi:

To‘rt kitob andaki mazkur erur,
Xamsalig‘ oti bila mashhur erur.
Har birining avvalida bir kitob –
Bor edikim, andin edi fathi bob.
Birining oti: “Maxzani asrori shavq”,
Ul birisi: “Matlai’ anvori shavq”.
Yana biri: “Tuhfat ul-ahror” edi,
Biri aning: “Hayrat ul-abror” edi.
Man dog‘i anlarg‘a demoklik javob
Istabon ayttim bu so‘zi irtikob.

Ya'ni shoir ushbu misralarda o‘z asarini «Xamsa»ga javob tariqasida yozish istagini bayon etadi. Ustozi Sharofiddin eshon ham “Xamsa” besh kitob-u, ammo uni bitganlar to‘rt ekanini, Nishotiy yozsa, xomis – xamsa yozuvchilar ham beshta bo‘lib, tugal bo‘lishini aytib ilhomlantiradi va tasavvuf ilmidan Nishotiyga chuqur ta'lim beradi. Darhaqiqat, asar mazmuniga qaralganda Nishotiyning Navoiyga ixlosi baland ekanligi, ko‘p o‘rinlarda asar sujetida Navoiy « Farhod va Shirin»iga xos unsurlar borligini ham yaqqol sezish mumkin. Biroq haqiqatdan ham, Navoiyga izdosh bo‘lmoq istagida bo‘lgan har bitta ijodkor tasavvuf ilmidan boxabar bo‘lishi lozim edi. Nishotiy esa ustozidan ushbu ta'limni chuqur egalladi. Demak, “Husn-u Dil” Nishotiy yozmoqchi bo‘lgan “Xamsa”ning dastlabki dostoni sifatida yaratilgan.

«Xamsa» yozish an'analariga monand olib qaralganda asar ushbu an'anaga muvofiq kelmaydi chunki «Xamsa» ning birinchi dostoni an'anaga ko‘ra pand- nasihat, didaktik ruhda yozilishi kerakligi ayon, biroq Nishotiyning ushbu asari «Hayrat ul-abror» dan ko‘ra ko‘proq « Xamsa» ning ikkinchi dostoni «Farhod va Shirin» ga mos kelishini ko‘p jabhalarda kuzatishimiz mumkin. Ya'ni asarlardagi obrazlar, sujet, g‘oya barcha barchasi ikki asarni tubdan

birlashtiradigan omillar sanaladi. Navoiyda ilohiy ishqqa sarmast bo‘lgan, unga yetishish yo‘lida ming mashaqqat chekkan haqiqiy solik sifatida Farhod olingan bo‘lsa, Nishotiyda ushbu xususiyatlar Fuod obrazida jamlanadi. Ikki asar qiyosiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

- Navoiyda Farhod, Nishotiyda esa Fuod ham uzoq kutilgan, Ollohdan tilab olingan farzand edilar. Ya'ni Fuodning otasi Aqlshoh yillar mobaynida Tangridan farzand so‘raydi, kun kelib Nafisbonu unga bir o‘g‘il tug‘ib beradi. Va nihoyat Aqlshoh uzoq kutilgan nasibasini jon jigarini qo‘liga oladi.

-Fuodda Farhodda bo‘lgani kabi ilohiy nurlar barq urib turardi.Tug‘ilganidanoq bu uning yuzida aks etardi.

- Fuod ham zohiran Farhod kabi shoh biroq, botinan ikkisi ham Haqqa oshiq bir gado kabi edilar. Mol- dunyo, shohlik ular uchun ahamiyatsiz edi. Nishotiy bu holatni quyidagi baytda bayon etadi:

Jabhasida savlati shohiy ayon,
Tab’ida asrori ilohiy ayon.

- Ikkisi ham biror yorni ko‘rib oshiq bo‘lmadilar, balki Farhod uchun ham, Fuod uchun ham bu Tangrining inoyati, hukmi azal edi.

- Farhod ham Fuod ham dardman edi, ishq olovi kundan kun ularni bejo qilardi, har qancha tabiblar - u olimlar uning dardiga davo topa olmaydilar:

Bilmadi bir kimsaki bu mojaro,
Ermas avoriz, erur o‘zga balo.

- Farhod uchun ilohiy manzil Shirin bo‘lsa, Fuod uchun Husn edi. Ular bu yo‘lda juda ko‘p mashaqqat chekadilar. Fuod uchun bu yo‘lda bosib o‘tilishi kerak bo‘lgan ko‘plab manzillar bor edi. Manzil esa Ofiyat shahridan boshlanib Diydor shahriga borib nihoyasiga yetadi. Ya'ni Ofiyat shahridan Diydor shahriga yetishish Haqqa oshiq Fuodning haqiqiy ko‘ngil pokligi-yu, haqiqiy o‘zligiga erishgunigacha bo‘lgan masofa edi deyish mumkin. Uning Diydor shahriga yetib bora olishi esa bir insonning o‘zidagi kibr, nafs, jaholatni yengib Yaratganning jamoliga erishishi deb talqin qilish mumkin.

Dostondagi Aql, Fuod, Ishq, Husn, Nazar, Sabr, Himmat, Zarq, Raqib, Vahm, Noz, Qomat, G‘amza kabi obrazlarning barchasi majoziy –ramziy bo‘lib, ularning barchasi tasavvufiy mazmun anglatadi. Keltirilganlarning barchasi asar davomida Fuodga hamrohlik qiladi. Nega shoir obrazlarni nomlashda bu kabi yangilik kiritdi degan savol tug‘iladi. Shu o‘rinda hali tasdig‘ini topmagan, biror ilmiy asarda kiritilmagan bir fikrni ilgari surmoqchimiz. Ya'ni shoir

obrazlarni nomlashda nega aynan insondagi jamiiki yaxshi-yu yomon fazilat-u xislatlar nomlarini kiritdi yoki nima uchun insoniy xislatlarni alohida obraz darajasiga ko‘tardi? Bu orqali balki shoir asarni bir inson ta'nasiga qiyos etdi va undagi jamiiki xislatlar bu asarning sxemasi bo‘lib xizmat qildi. Asar uchun Fuodning ta'nasi bir tirgak bo‘lsa, shoir undagi xislatlarni alohida obrazlarga bo‘lib tashlashi go‘yoki shoir Haq jamoliga erishishni, shu yo‘lda hattoki jon berishga-da tayyor oshiqni parchalab tashladi va asar intihosida u o‘ziga haqiqiy oshiq uchun xos bo‘lganlarinigina tanlab oldi. Chunki shoir o‘z qahramonini xato va kamchiliklari bilan bir butunligicha Yaratganga loyiq ko‘ra olmas edi. Shu bois asar davomida go‘yoki bir insonni butun ruhiyati va xislatlari bilan bòlaklarga bo‘ldi-yu shu yo‘lda qaysi biridan foydalanishni qahramonning o‘ziga qo‘yib berdi. Haqiqiy oshiq esa bu yo‘lda, albatta, o‘zi uchun o‘z do‘stligini topa oladi. Chunki bir inson uchun do‘st ham dushman ham uning o‘zi. Bu fikrlarga kelishimizda yana bir dalil mavjud bo‘lib, bu asar boshida Aqlshohning o‘g‘li Fuod tug‘ilganida unga Badan qal'asini sovg‘a qilishidan ham anglash mumkin. Nega aynan Badan, Inson yoki Ruhiyat yoki Ko‘ngil qal'asi emas? Boisi Inson qachonki toza ruhiyat, pok ko‘ngilga ega bo‘lgandagina u inson degan nomga munosib bo‘ladi. Ruhiyati, ko‘ngli poklikka erishmagan inson hali insoniylikka munosib emas, uning ko‘tarib yurgani faqatgina badan, tana. Fuod garchi Haq ishqida yonib kuysada, hali oshiqlik sinovidan o‘tolgan emas, hali u insoniylikka to‘la munosib emas. Ruhiyati, qalbi hali ne ne sinovlar ko‘radi. Ana shu sinovlardan o‘tib olsagina u mana shu quruq Badan qal'asini sof Husn qal'asiga aylantirishi mumkin. Asardagi obrazlar ko‘lami, albatta alohida tadqiqot darajasiga ko‘tarishga arzigulik. Shu bois bu haqda hali anchagina keng fiklashga to‘g‘ri keladi.

Darhaqiqat, har qanday asarning qimmati, avvalo, mazmuniga qarab belgilanadi. Asar badiiyatida ma'no-mazmun asosiy kuchga ega bo‘lsa-da, faqatgina g‘oyaning o‘zi biror-bir asarni kitobxonga manzur qila olmaydi. Barcha zamonlarda o‘qiladigan chinakam badiiyat namunalarini tom ma'noda haqiqiy klassik asarni yaratish ijodkordan ulkan mehnat va serqirra qobiliyatni talab qiladi. Ushbu talablarga javob bermagan asarlar vaqt o‘tishi bilan o‘z o‘zidan unitilib ketadi. Muhammadniyoz Nishotiy esa adabiyot tarixida hech kimnikiga o‘xshamagan, betakror timsollar topa olgan, chinakam badiiy asar yaratgan siymolardan. Nishotiy ushbu asarni betakror obrazlar, takrorlanmas ramzlar bilan asar g‘oya va mazmunini yanada boyitdi va shu bilan bir qatorda an'anaviylikni takomillashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammmadniyoz Nishotiy o‘z zamonasining ko‘pgina yirik ijodkorlari singari ushbu asarini an’anaviy sujet asosida yaratdi. Mazkur sayyor sujetni yangi-

yangi obrazlari, hayotiy tajriba va iste'dodi bilan boyitib, ham sujet taraqqiyotiga, ham epik she'riyat rivojiga munosib hissa qo'shdi. Tanlangan sujet shoirga o'zligini anglash, haqiqiy ichki olamini kashf etishda vosita vazifasini bajardi. Shu kabi an'anaviy voqealar asosiga qurilgan asarlar faqat til xususiyati bilangina emas, obrazlarining yangicha talqini, badiiyati, davr ruhini qay darajada aks ettirganligi va fikr ko'lamining boyligi kabi qator jihatlari bilan farqlanadi. Garchi sharq adabiyotida sayyor sujetlar asosida ko'plab asarlar yaratilgan bo'lsa-da, turli davrlarda, o'zga tillarda yaratilgan bunday asarlarning har biri o'ziga xos, individual xususiyatlarga ega. Chunki har bir ijodkor o'z qahramonlari saviyasi, xulqi, xarakterini ko'zda tutgan g'oyaviy-estetik qarashlari, o'rni kelganda, davrning ijtimoiy-siyosiy talablari ruhi bilan yangittan yaratadi. Natijada, an'anaviy voqelik qayta ishlanib, yangi sifatlar bilan boyiydi. Bir sujet asosida vujudga kelgan asarlarga baho berganda, muallifning an'anaviy voqelikka munosabati, unga qo'shgan yangiliklari, o'zgartirishlari, ijodiy individualligini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning quyidagi fikrlarini dalil sifatida olishimiz mumkin: «Novatorlik yangi sujet asosida asar yaratishda emas, balki ma'lum sujetni o'zicha muvaffaqqiyatli o'zgartirish, o'zicha ishlab, tuzatib, takomilga yetkazishda, konkretlashtirishda va uning asosida yangi asar yaratishda nomoyon bo'ladi».

Asarga qanchalik chuqur kirgan sari doston kompozitsiyasi, sujet, g'oya, obrazlar ko'lami barcha barchasi nechog'lik mukammal tuzilganligini ko'rish mumkin. Shu bois shoir qalamiga tan bermaslikning iloji yo'q. Obraz yaratish va mazmun yo'lida o'rinli ishlatishda mahorat ko'rsatgan Nishotiy o'z asarini o'zidan oldin o'tgan salaflariga munosib darajaga ko'tara oldi. Xulosa qilib aytganda, «Husn va Dil» badiiyati g'oyat mukammal asar. Shu bois asar abadiylikka muhrlandi. Biroq, hozirgacha adabiyotshunosligimizda doston mazmunini to'g'ri va to'liq aks ettiruvchi tadqiqot yo'q. "Husn-u Dil" badiiy ko'rkamligi, estetik ta'sirchanligi bilan tahsinga sazovor. Dostonning badiiy xususiyatlarini yanada keng tadqiq qilish zarur va shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand,1960

2. Abdullaev V XVII-XVIII-asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dokt.diss.Samarqand, 1958.3. Abdullaev V. Nishotiy lirikasi//O'zbekiston va adabiyoti.1960. 6-son

4. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – T. : G'. G'ulom, 1991.

5. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. – T. Fan, 1975.

6. Adizova I. O'zbekiston mumtoz adabiyoti tarixi. –T,2006

CHINGIZ AYTMATOVNING “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANIDA VATAN MAVZUSINING AKS ETISHI

Gulmira ABDIRAIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqola Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari tahliliga bag‘ishlanadi. Asarda bir asrlik voqealar bir kunda sodir bo‘ladi. Asar muallifi asarda inson, koinot hamda ma’naviy muammolarga e’tibor qaratadi.
Kalit so‘zlar: *ijod, maktab, shuhrat, ona, dunyo.*

Annotation
This article is about Chingiz Aitmatov’s book “Asrga tatigulik kun”(The age of the century”).In the book, a century of events take place in one day.The author shows the problems of HUMAN, the universe, and spiritually in this day.
Key words: *creation, school, the slave, mother, world.*

Butun turkiy xalqlarning iftixori sanalmish CH.Aytmatov hozirgi zamon adabiyotining yorqin namoyondasidir.Uning asarlari jahonning deyarli barcha asosiy tillariga tarjima qilingan.Yozuvchining “Birinchi muallim”, “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Alvido, ey Gulsari”, “Oq kema” singari asarlari uning nomini jahonga tanitdi.Adibning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kasandra tamg‘asi”, “Tog‘lar qulaganda(Mangu kelinchak)” romanlarida nafaqat bir millat va mamlakatga, balki butun insoniyatga daxldor ma’naviy-axloqiy muammolar aks ettiriladi.

“Asrga tatigulik kun” romanining bosh qahramonlari Edigey Bo‘ron, Kazangap, Sobitjon, Jo‘lomon, Nayman ona hisoblanadi.Bundan tashqari Abutolib, Zarifa, Ukkubola, Edilboy Daroz kabi personajlar ham ishtirok etadi.CH.Aytmatov bu asarida manqurt obrazini kiritgan.SHu bilan birgalikda, qirg‘iz xalqining ko‘hna rivoyatini keltirib o‘tadi.Rivoyatga ko‘ra, Nayman onaning o‘g‘li bir yil oldin jungjanglar tomonidan halok etilgan otasining o‘chini olish uchun jangga otlanadi.Sario‘zakda bo‘lgan omonsiz olishuvda yarador bo‘ladi.Jang suronidan cho‘chigan ot ustidagi chalajon yigitni cho‘l ichkarisi, ya’ni yov tomonga sudrab ketadi.Jang qizg‘in tus olganidan buni hech kim payqamaydi…Jangdan so‘ng naymanlar uni necha kun izlashadi.Biroq, hech narsa topilmaydi.Dushman qabilasi tomonidan asirlikka olingan Jo‘lomon majburan manqurtga aylantiriladi.”Insonni tug‘ib-ulg‘aytirish qanchalar qiyin…Uni o‘ldirish esa bir lahzalik” deb unsiz yig‘laydi Nayman ona.Keyinchalik savdogarlar aytgan bir xabar izidan ona

o‘sha manqurt balki mening o‘g‘limdir, balki bolajonim tirik yurgandir deb yo‘lga otlanadi.Haqiqatdan ham o‘sha manqurt uning o‘g‘li bo‘lib chiqadi.Biroq, boshiga tuya terisi qoplanib, qulga aylantirilgan manqurt o‘z onasini o‘ldirib qo‘yadi.”Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin,- derdi ona o‘zicha gapirib,- biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o‘ylab topdi ekan?!Yo rabbiy, agar olamda bor bo‘lsang, bandalaringga bu yovuzlikni qanday ravo ko‘rding?Yer yuzida shusiz ham yovuzlik kammidi??? Ona o‘z o‘g‘li tomonidan o‘q otib o‘ldirilgach, yerga yiqilar ekan, oppoq ro‘moli qushga aylanib uchib ketadi va manqurtga iltijo qiladi:”Kimning farzandisan?Eslab ko‘r!Oting nima?”

CH.Aytmatov bu asariga epigraf qilib Grigor Narikatsining “Musibatnoma” kitobidan **“Bu kitob jism-u fig‘onimdir mening, Bu kitob jon-u jahonimdir mening”** qilib oladi.Bunda juda teran ma’no bor. Har bir xalqning joni, jahoni bu tarixi, o‘zligidir.Bularni unutgan millat yo‘q bo‘lishga mahkum!Kimligini eslay olmaydigan Manqurt o‘z onasini, ya’ni yurtini ham o‘dirishi hech gap emas.Kitobda odam degan yaratiqning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, elidan, g‘ururidan mahrum qilish joniga qasd qilishdan ham dahshatli jinoyat ekani Nayman ona fojiasi orqali bayon qilinadi.Ezgu insoniy tuyg‘ulardan mahrum, oamning ko‘nglini his etmaydigan, bobolar qo‘llagan udumlarni mensimaydigan Sobitjon Manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta’sirli ko‘rsatilgan.Bu roman odamning odamligini ta’minlab turadiga asosiy qadriyatlar haqida dard bilan bitilgan o‘lmas asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Yo‘ldoshev.Adabiyot.-T, 2014.
2. Chingiz Aytmatov.Asrga tatigulik kun.-Toshkent, 2018.
3. “Yoshlik” jurnali.- Toshkent, 2000-2020.

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSINING O‘RNI XUSUSIDA

Marhabo TURAPOVA
Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid she‘riyatida shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur siymosining o‘rni xususida ba‘zi mulohazalar olib borilgan va xulosalar chiqarilgan.
Kalit so‘zlar: *ilmi aruz, ilmi bade‘, ilmi qofiya,g‘azal, rukn, sharh.*

Annotation
In this article, some comments have been made and conclusions have been drawn about the role of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur in the poetry of Sirojiddin Sayyid.
Key words: *aruz, arts, science rhyme, ghazal, rukn, commentary.*

Sirojiddin Sayyid ijodidagi til sodda,ravonligi, bir o‘qishda o‘quvchiga tushunarliligi, badiiy ifodaning yuksak darajada tuzilganligi, mazmunga boyligi, har qanday qochirimlardan, dabdabali ortiqchaliklardan holiligi bilan ajralib turadi va kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Sirojiddin Sayyid she‘rlaridagi yana bir fazilat - ularda ulug‘salaflarga bo‘lgan yorqin ehtirom yorqin ifodalanishidir. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Maxtumquli, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag‘ishlangan she‘rlar, ular g‘azallariga bo‘glangan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi. Bir o‘zbek shoiri sifatida Bobur haqida yozishni burch deb bilgan ijodkorlardan biri ham O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyiddir. U Bobur haqida ko‘plab she‘rlar va “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” deb nomlangan firoq va sog‘inch dostonini yaratdi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday deydi:

“Boburnoma”ni o‘qib, Boburni o‘qib amin bo‘lganimiz: yo‘q, yuz oh emas—yuz ming-yuz ming oh-u zor, yuz ming-yuz ming sog‘inch-u firoqdan tuzilgan ekan bu umr, yuz ming emas, yuz ming uzra yana yuz ming bahor kelsa ham mangu munglig‘ bu ko‘ngilning ochilmog‘iga deyarli imkon yo‘q ekan. Ustoz adiblar maktabi va tajribasidan o‘rgangan holda, burch va havas taqazosi yuzasidan men ham bir qalamkash sifatida Bobur bobo ijodiga murojaat qilmoqqa jur‘at etdim. Va bu nihoyatda qisqa, ammo tuganmas hayotning, zim-ziyo olamni yoritgan chaqinday tez so‘ngan, lekin, mana, besh yuz yillardan buyon to‘xtamay davom etib kelayotgan mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini qo‘limdan kelguncha ifodalab berishga harakat qildim. Goh Bobur hazratlari tilidan, goh o‘zimdan, gohi she‘r, gohi g‘azal tarzida, goh ruboiy, goh muhammas shaklida

ko‘nglimdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko‘rdim. Shu jihatdan tagsarlavhada “doston” deb yozilgan bo‘lsa-da, bu bitiklarni doston yo‘lidagi bir jahd yo urinish deyilsa to‘g‘riroq bo‘lar.

Sirojiddin Sayyid ham Bobur haqidagi dostonining avvalida “Boburnoma” she‘rini keltiradi. She‘rni o‘qir ekanmiz ko‘z o‘ngimizda Bobur siymosi, uning suronli hayoti gavdalanadi. Sirojiddin Sayyid ham o‘n ikki yoshli bola qurol tutib jangga kirishini emas, boshqa buyuk orzularning ortidan ketishini istaydi. Yosh jonini bolalikning shirin qayg‘ular bilan o‘tkazmog‘ini xohlaydi.

Qirda chopib yurgan qulunlari bor,
Dasht-u kengliklarni aylar ixtiyor,
Hali maysadayin o‘ylovginasi,
Endi xat chiqarmish mo‘ylovginasi.
Qo‘ldagi o‘q-yoyi o‘ynar havoda,
O‘n ikki yoshli bir Temuriyzoda.

Sirojidin Sayyid ijodida Bobur obrazi talqini alohida sahifalarni tashkil qiladi. Uning ”Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli kitobida Bobur haqidagi she‘rlari jamlangan. Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shunday daho zotni qadrlamagan beqadr odamlardan nafratlanadi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.
Kecha uzun, manzil olis, yo‘l uzoq,
Sizga faqat yolgiz oy hamroh, Bobur.
Nonkor beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur!

She‘rda shoirning kuyunchak qalbini ko‘rishimiz mumkin. Shunday buyuk zotni qadrlamagan kimsalarni ayovsiz fosh etadi, ularga nafratini oshkor izhor qiladi. Bobur yashagan muhitni “muttahamlar dunyosi”, atrofidagi beklarni “nonkor, beoqibat” deya ta‘riflaydi. Tarix bizga ato etgan buyuk ne‘matni ham asray olmaganimizda shoirning qalbi ahduhlarga tolib ketadi.

Qismat qattiq, alam bisyor, ey g‘ofil,
Bu dunyoda bormi bir dilxox, Bobur.
Shoirligi shohligidan ulug‘roq,

Shohligi ham she‘riday ogoh Bobur.

Ushbu misralarda ham ulug‘ shoirning achchiq qismatiga ishora bor. Ammo Bobur shunday taqdir egasiki, ayni shu taqdir sabab u buyuk shoh va misilsiz darajada e‘tirofga loyiq shoirdir. Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, uning hayotida ro‘y bergan har bir jiddiy holatlarni e‘tibordan qochirmaslikka harakat qiladi. Jang-jadallari, badiiy ijodi, intim tuyg‘ularini tasvirlashda o‘z hissiy munosabatlarini yozayotgan she‘rlarining ruhiga singdiradi.

Turklar xatti nasibing bo‘lmasa, Bobur, ne tong,
Boburiy xatti emasdur, xatti sig‘noqiydurur.

Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim. Bobur tomonidan bitilgan ushbu baytlardan ta‘sirlangan Sirojiddin Sayyid “Xatti Boburiy” she‘rida bu haqida “Bobur – tilshunos” ma`nosida to‘xtalib o‘tadi.

Xat emasdir asli xatti Boburiy,
Xat emas–armonu axdi Boburiy.
Qalbi davot bo‘lganu qoni siyoh,
Goh siyohday qora baxti Boburiy.

Sirojiddin Sayyid nafaqat Boburning hayotidagi yirik voqe‘alarni qalamga oladi, balki u yozgan ruboiylardan ta‘sirlanib, ularga sharh sifatida ayrim she‘rlar yaratadi.

Tole‘ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Ushbu ruboiydan kelib chiqqan hasrat to‘la ma‘no-mazmunni Sirojiddin Sayyidning quyidagi she‘rida ham ilg‘ashimiz mumkin. Aynan shoirning o‘zi Bobur ruboiysidan ta‘sirlanganini aytib o‘tadi:

Yurtdan ketib, qaro mening yuzum bo‘ldi,
G‘urbat mening kecham ham kunduzim bo‘ldi.
Menga tuzding dardu hasrat tuzumini,
Yo Rab, aytgil, bu qandayin tuzum bo‘ldi.

Bobur yo‘l-yo‘lakay, jang-jadallar, davlat ishlaridan bo‘sh paytlarida ijod qilgandir, lekin u shunchaki havaskor shoir emas, ijodidagi badiiy soz jilolari, o‘xshatishlar buning isbotidir.

Hazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.

Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,

Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolbordim.

Bu kuz manzarasi podshoh shoirning insoniy taqdiridan so‘zlaydi. Muallifning munosabati va sharhlari she‘rdagi sog‘inch va dardni, Vatandan ayrilish fojiasini kuchaytirib boradi. Kuz,xazon umrning so‘ngidan nishona. Sirojiddin Sayyid Bobur ruhiyatidagi o‘zgarishlarni tasvirlashda Bobur mirzodan farqli o‘laroq kuz tasvirini emas, biroz ko‘tarilish qilib, qish manzarasi orqali shohning dard-u hijronlarini ifodalaydi.

Yomon yo‘lu, yomon holu, ayoz birlan qishim qattiq.

Diyoru yordin ayro qish ichra tashvishim qattiq.

Qalin qor ostida qolmish mening bor qismatim, yo Rab,

O‘zing boshqar menikim,boshima tushgan ishim qattiq.

Sirojiddin Sayyid she‘riyatini, o‘rganar ekanmiz, unda mumtoz bir ruhni, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga alohida ehtirom ko‘rsatilganiga guvoh bo‘ldik. Zero, bu Sirojiddin Sayyidning ona Vatan tarixini chuqur bilgani va sevganidan bo‘lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur. Tanlangan asarlar. –T.: 1958.

2. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. –T.: Fan, 1983.

3. Sirojiddin Sayyid. Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. –T.: 2011.

4. Sirojiddin Sayyid So‘z yo‘li Ikki jildlik tanlangan asarlar 2-jild. –T.:Sharq,2008

5. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. –T.:1960.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI: OT OBRAZI MISOLIDA

Nodira XUDOYNAZAROVA
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU
401-guruh talabasi

Annotatsiya
Har bir ijodkor o'z ijodida, albatta, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ya'ni, folklorizmlardan foydalanadi. Biz ushbu maqolamizda O'zbekiston Xalq Shoirasi Halima Xudoyberdiyevening ijodidagi ot obrazi bilan bog'liq folklorizmlar haqida fikr yuritamiz.
Kalit so'zlar: *Obraz, ot, folklorizm, an'ana, madaniyat, she'riyat.*

Annotation
Every artist uses the examples of folklore which are folklorism in their works. In this article we will discuss about folklorism related to simbol of horse in uzbek national poetess Halima Khudayberiyova's works.
Key words: *simbol, horse, folklorism, tradition, culture. poetry.*

Folklor elementlaridan, obrazlaridan badiiy adabiyotda foydalanish hamisha badiiy harakterga ega bo'lib kelgan. Badiiy adabiyotda bu jarayon folklorizm deb atalishini esa barcha adabiyot bilan shug'ullanadigan insonlar bilishadi. "Demak, folklorga xos barcha komponentlarning adabiyotdagi o'rni ijodiy qayta ishlanish, rivojlantirish orqali belgilanadigan, natijada bu komponentlar folklorga asoslangan, ammo yozma badiiy adabiyotning muhim zaruriy komponentiga aylanib qolgan bo'ladi. Xullas, yozuvchi o'z g'oyaviy niyati, mahoratiga qarab folklor materialiga turlicha munosabatda bo'ladi. Ya'ni bu o'rinda u folklor materialini aynan ishlatsa, yana bir o'rinda uni shu darajada o'z asarining ruhiga singdirib yuboradiki, uni oddiy folklorizmni qayd etish yo'li bilan aniqlab bo'lmaydi." [Sa'dullayeva Sh.; 62]. Ammo har bir yozuvchi o'zi foydalanayotgan obraziga yangi bir yuk yuklashi lozim. Bunday yangilik qilish, original bir fikr chiqara olish oson bo'lmasa ham, ammo xalq og'zaki ijodiga qiziqish zarracha ham susaymadi. Balki folklorizmning o'ziga xosliklaridan yozuvchi va shoirlar hamisha foydalanib izchil foydalanishga harakat qilib kelmoqdalar. Adabiyot o'zi bosib o'tgan shu qadar tarixiy yo'llar davomida xalq og'zaki ijodi buloqlaridan suv ichib bo'y cho'zishni aslo tark etmadi. Ammo har bir yozuvchi bu buloqdan o'zining chanqog'ini qondiradigan darajada oladi va kerakli miqdorda iste'mol qiladi. Aynan shu o'rinda har bir bir shoir va yozuvchining iste'dodi o'rtaga chiqadi. "Bu xususiyat ijodkorning ertak yoki dostonlar syujeti asosida asarlar

yaratishida yoki xalq maqoli va matallaridan foydalanganida emas, balki unda xalqqa xos fikrlash, obraz va epitetlar qo‘llash, qahramon harakterini yaratish, hatto psixologik munosabatlarini berish, qisqasi uning uslubi va manerasida mujassamlashgan bo‘ladi.” [Sa’dullayeva Sh.; 62]. Shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham folklordan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shoira ijodida ot obrazi bilan ham bog‘liq misralar va she’rlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. “Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ot totemiga ham alohida ahamiyat berilgan. … “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda G‘irot, “Alpomish”da Boychibor, qirg‘iz eposi “Manas”da Oqula, oltoy turkiylarining eposi “Maaday Qora”da Karish Quloq kabi otlar obraziga katta e’tibor berilishi totemistik qarashlar natijasidir.” Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak shoira ham ijod namunalarida ot obrazidan turli maqsadlarini ochishda foydalanadi. “Qaytish” she’rida ot obrazi bilan bog‘liq turli xil inson kechinmalarining chizgilarini ko‘ramiz:

Yiroq elatlarda quyosh porlaydi,
Talpinaman, otga qamchi bosaman.
… Nigohimni tortar olis manzillar,
Nechun boshing quyi uchmaysan, otim?
…. Yana qamchi bosdim, shu dam, o, afsus,
Ot ko‘kka sapchidi, yerga yiqildim.
Qaytib chopib u shamoldan tez,
Otning izlariga ma’yus tikildim.
Sadoqatli do‘stim ortiga qaytdi,
Uzoq ketolmadi notanish yo‘lda… [Xudoyberdiyeva H., 2019; 17].

Ot birinchi misrada maqsadni ifodalayabdi. Ya’ni muallif yiroq manzillarni o‘ziga oshiyon sifatida ko‘rmoqda. Ammo otning bo‘yni egik, bundan ko‘rinadiki, muallifning yo‘lida to‘siqlar mavjud. Qancha ketishga oshiqmasin, maqsadining oldida kuchsizday, shu sababdan ot uni ustidan yiqitib o‘zi ketadi. Shoira bu o‘rinda maqsadining, intilishining xattoki, o‘zidan ham kuchli ekanligini o‘quvchiga anglatmoqchi bo‘ladi. Ammo she’r keyingi misralarida ot yana orqaga qaytadi. Bu o‘rinda esa otning sadoqati orqali, manzilga hech bir zamon maqsad emas balki, maqsadning egasi yetishi mumkinligini ochiqlaydi shoira. Inson qanchalar qiyinchilikka duch kelmasin, uning qalbida hamisha umid yashaydi. U balki maqsad ko‘rinishida kelsin, balki orzu. Shu o‘rinda esa zukko o‘quvchining xayoliga Alpomishning oti Boychibor keladi. U ham egasini tashlab ketmaydi. Uni qutqarish uchun qaytadi. Insondagi umidning ham vazifasi shunday emasmi? She’rning yozilish yillariga e’tibor qaratamiz. She’r shoiraning 1973-yildagi

“Oq olmalar” to‘plamiga kiritilgan. Bu davrda shoira Toshkentda “Saodat” jurnalida faoliyat yuritar edi. Oradan ikki yil o‘tib esa, Moskvadagi Oliy Adabiyot kursiga tehsil uchun ketadi. Shoira yuqoridagi satrlarda maqsadiga yaqin qolgan bo‘lsa-da, ona tuproqning sog‘inchi, otasining erta vafoti sababli yolg‘iz qolgan onasining oldidagi mas’uliyati kabi o‘ylar uni ortga qaytaradi.

Oting nechun gijinglar bu payt,
Ro‘molimni sen oldingmi, ayt? - [Xudoyberdiyeva H., 2019; 22].

deya xitob qiladi shoira “Bizning tog‘da” she’rida. Qadimdan bizda tog‘ yigitlarining oti uning eng yaqin hamrohi hisoblangan. Qizning ro‘molini qo‘lga kiritgan yigitning oti o‘zidan ham xursandday tasvirlanadi she’rda. Aslida bu yerda ham ot orzuga yetganlikni ifodalamoqda. Agar yigitning oti chopqir chiqib, uloqni yutsa, qizning otasi qizini u yigitga berishga rozi bo‘ladi. Bu satrlarda shoira xuddi otga katta umid bog‘layotgan qizning ham quvonchini qo‘shib tasvirlaganday bo‘ladi. Barchin ham Alpomishni o‘yinni qozonishi uchun, Boychiborga yolvorganining nidosi she’rga ko‘chganday tasavvur uyg‘otadi.

Shoiraning “Qo‘msash” she’rida ham ot bilan bog‘liq holda insonning ayriliq bilan bog‘liq alamli kechinmalari jarang sochadi:

Yo‘ldan yelib o‘tar uchqur ot,
Bir-bir kechar bolalik yoddan.
Men chavandoz qizini hayot
Juda erta ayirdi otdan. [Xudoyberdiyeva H., 2019; 28].

Ot obrazi – xalq og‘zaki ijodining ajralmas totemistik qahramoni. Bu obrazda maqsad ham, orzu ham, umid ham, sadoqat va vafo ham mujassam. Shoira esa yuqoridagi satrlari bilan obrazga yangi bir yuk yuklaydi. Oldidan o‘tgan uchqur ot qo‘ldan ketgan va to‘laligicha yashalmagan hayot yuki. Otadan erta ayrilgan, baxti yarim qizning nidosi. Insonning otidan ayrilishi, bu maqsadidan, baxtidan ayrilishi bilan barobar ekan, bu hayotda har bir qizning eng kuchli mehr qo‘ygan insoni otasi bo‘lishini inobatga olsak, otasidan ayrilgan qiz ham bir muddat maqsadlaridan ayrilib qolganday bo‘ladi. Shoira otasining va o‘zining bolalik chog‘idagi xotiralarini aynan ot obraziga yuklab, yana ham ta’sirli qilib ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida, shularni olishimiz mumkin:

1.Shoira she’rlarida ot obrazini asosan otasi Ummatqulboy Xudoyberdi o‘g‘li bilan bog‘liq eslaydi. Shoiraning ijodidan namunalar mutolaa qilar ekanmiz, ot obrazining shoira hayotidagi ajralmas jonzot va she’rlaridagi yetakchi obraz bo‘lganini kuzatamiz. Ammo turli

satrlarda ayricha vazifa olgan ot obrazi, kitobxonga shoiraning maqsadlarini yel kabi uchqur olib keladi. Bu ham yozuvchining xalq og‘zaki ijodidagi ot obrazini o‘ziga xos tahlil qilishidagi zukkoligi deb aytishimiz mumkin.

2.Har bir yozuvchi o‘z ijodida bevosita xalq og‘zaki ijodiga murojaat qiladi. Bunda u totemistik obrazlardan o‘zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda foydalanadi. Halima Xudoyberdiyevadagi o‘ziga xoslik esa bu o‘rinda ot obrazidan ko‘proq xotira siniqlarining o‘z o‘quvchilariga yetkazishda foydalanganligida deyish mumkin.

3. Shoira ot obrazining asl totemistik vazifalaridan uzoqlashmagan holda, ayni o‘ringa azoblarini ham qo‘yadi. Bu esa yozuvchining obrazga qo‘shimcha vazifa yuklay olish mahoratini tasdiqlaydi.

E’TIQOD VA O‘ZLIKNI ANGLASH – LEV TOLSTOY

Sadoqat HAKIMJONOVA
ToshDO‘TAU, o‘zbek filologiyasi fakulteti,
4-kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada yozuvchining dinga bo‘lgan munosabati, iqrorlari va tushunchalariga doir fikrlar bilan birgalikda, davr muhiti, inson ruhiyatining anglab bo‘lmas qirralari. “Iqrornoma” asaridagi iqrorliklari haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: *Din, hayot, e’tiqod,muhit, iymon, ilm.*

Annotatsion
This article deals with the confessions and concepts of the author’s attitude to religion, the environment of the time, the incomprehensible aspects of the human psychology, and the confessions in the book” Confession”
Keywords: *religion, life, conviction, environment, science.*

To‘kis hayot kechirish ham insonni zeriktirishi, inson bu hayotda kamchiliklari, dard-u g‘amlari bilan dunyo go‘zalligini his qila olishi mumkinligini buyuk yozuvchiLev Nikolay Tolstoy qalamiga mansub asarlarida, o‘z iqrornomasida ham ko‘p duch kelganmiz. Ijodkorning yetarli mulki, boyligi, baxtli oilasi, farzandlari bor edi. Asarlari mashhur bo‘lib, pulga ham ehtiyoji yo‘q bo‘lganligi bois u hayotdan mazmun axtara boshladi. MarkMensonning “Beparvolikning nozik san’ati” asarida:”Ekzistensial falsafa namoyondasi Al’ber Kamyu aytganidek, “Hayotdan ma’no neligini izlasangiz, uning ta’mini totmaysiz”,-degan fikrini bayon qila turib, adibning o‘zi ham fikrini qo‘shimcha tarzda:“ o‘ziga to‘q va g‘am-hasratdan yiroq kishi men nega tug‘ildim, hayotdan mazmun nima?,-degan savollar bilan o‘zini qiynay boshlaydi”,-degan fikrini aytib o‘tadi[7.12-bet]. Biroq mening fikrimcha, inson o‘zligini, hayotdagi asosiy vazifasi nima ekanligini bilishga intilishi vashu yo‘lda izlanishi o‘rinli holat. Negaki, inson o‘zligini topishi, maqsad sari intilishi, bilimlarining oshishiga turki bo‘luvchi muhim omil, nazarimda. Lev Tolstoy ham shunday inson edi. Umrining oxrilarida “Iqrornoma” nomli kichik kundalik yozadi.O‘zbek kitonxoni uchun qiziq jihati shundaki, ushbu kitob orqali islom diniga qiziqishiga sabab bo‘lgan omillar bayon etilgan. Tolsoy Muhammad payg‘ambarga ham kuchli qiziqqan va mutolaa qilganini bilishimiz uchun uning “ Hazrati Muhammad(s.a.v.) hadislari” kitobini misol qilish mumkin.Bunda yozuvchi o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlarini bayon qilganini ko‘rish mumkin.. Yozuvchi iymon tushunchasiga ham alohida urg‘u beradi.

Iymon-hayot qudrati.Inson yashar ekan, u biror narsaga ishonadi, iymon keltiradi.U “nima uchundir yashamoq kerak ?”,-deb biror narsaga ishonmasa, iymon keltirmasa,unda u yashamas edi.Uasarlarida iymon tushunchasini mahkam tutdi. Ko‘plab hayotiy iqrorliklarini oshkora bayon etdi. Birgina “Iqrornoma” asarida ham bunga guvoh bo‘lamiz.

“ Xudo hech qachon uchta bo‘lmaydi deganimga cherkov mendan yuz o‘girdi. Bolalarim mening obro‘yim bilan yashashga haqli emas, deganimda oilamda tentak cholga aylandim. Kelajakda men haqimda fikr bildiradigan bo‘lsa, ularga Tolstoyni Muhammadchi deb tanishtiring, boshqa ism begona”. Ushbu iqrorlikka Tolstoyni nima yetakladi ekan? Filologiya fanlari nomzodi, professor Hamidulla Boltaboyevning fikricha, Lev Tolstoy juda ko‘plab dinlarni o‘rganadi. “Hayot nima? Uning mohiyati nimada?”ekanini izlab topmoqchi bo‘ldi. Buning uchun birgina provaslov cherkovining qoidalari doirasida qolib ketmadi. Eng qadimgi dinlar- hind vedalari, konfutsiylik, buddizmdan tortib eng zamonaviy diniy qarashlargacha o‘rganib chiqdi:”Men kitoblardan buddizmni ham, islomni ham o‘rgandim, hammadan ko‘ra ko‘proq ham kitoblardan, ham atrofimni qurshab olgan odamlarning hayotidan xristianlikni o‘rgandim”[4.3-bet].Ushbu maqolada yozuvchining dastlab iymonning negizi sifatida nasroniylikni bilgani, o‘zini doimo uning tarafdori ekanligi ham aytib o‘tilgan. Biroq bu fikr juda tez vaqtlarda o‘zgardi. Sabab esa: Biroq bir oyga kelib hayot masalari ko‘ndalang bo‘ldi, ularni hal qilmoq kerak edi. Cherkov bu masalalarni men yukinadigan iymon asoslariga zid tarzda hal qila boshladi”,-deydi Tolstoy bu haqida[4.4-bet]. U o‘z savollariga javobni hayotdan, hayot haqiqatlari va davr muhitidan ola boshlagandi. Lev Tolstoy “Men nima uchun yashayapman “degan savolga turli ilm vakillaridan ham javob izlay boshlaydi. Eng qiziq va ishonchli deya quyidagi fikrlarni olish o‘rinli edi deya olaman. “Cheksiz katta fazoda uzoq vaqt davomida cheksiz kichkina zarrachalar cheksiz murakkablikda turlarini o‘zgartirdilar. Agar senana shu turlar o‘zgarishining qonunini anglasang, nima uchun yashayotganingni ham anglab olasan”. Biroq bu javoblar uni aslo qoniqtirmasdi.

Lev Tolstoy islom diniga o‘zgacha mehr bilan qarashining bosh sababi sifatida ham hayot haqiqatlariga yaqin va sofligini ta’kidlash muhim. Balki shu sababdir adib o‘zining ellik yil davomida “bevaqt alahsirash” deb baholangan “Iqrornoma” asarini yozishga kirishdi. Ushbu asar chop etilishi va kitobxonlar qo‘liga yetib borishi uzoq vaqt talab qildi, biroq yillar bunga ta’sir etolmadi. Munaqqid Ozod Sharafiddinovning mehnati tufayli bugun o‘zbek kitobxoni ham ushbu kitob mutolaasiga sazovor bo‘ldi. Munaqqid ta’kidlaganidek ushbu asar:”Iqrornomadagi asosiy masala inson hayotining ma’no-mohiyati, iymon-e’tiqodi, vijdon, diyonat haqidagi o‘y-

mulohazalar, yashashdan maqsad nima ekanligini anglash yo‘lidagi sa’y-harakatlar,adoqsiz ruhiy iztiroblar, anglab yetilgan haqiqat-u iqrorlardir”.Iqrornoma asarini o‘qish davomida uning aynan islom diniga o‘zgacha muhabbat bilan qaraganining boisiga ko‘plab misollarda duch kelamiz. “..Parijda bo‘lgan vaqtimda qatl manzarasini ko‘rdimu, mendagi taraqqiyga e’tiqodning zamini bo‘sh ekaninisezib qoldim. Qatl qilingan odamning kallasi tanasidan judo bo‘lib, ikkovi ham gupillab qutiga tushganday bo‘lganini ko‘rib, aqlim bilan emas, butun vujudim bilan angladimki, mavjud narsaning aqlga muvofiqligi va taraqqiyot haqidagi hech qanday nazariya bu ishni sira-sira oqlay olmaydi”[1.38-bet]. Bu haqiqatning ildizlari Tolstoyning fikr-u yodini egallashga ulgurgandi. Yozuvchi: “Men nima uchun yashayapman “, “Men nima qilmog‘im kerak?” degan savollarga javob berishdan avval inson bitta masalaga javob bermog‘i lozim. Bu masala quyidagicha turur: “Butun bir insoniyat bor. Uning nima ekani menga ma’lum emas. Men uning bir zarrasiman, binobarin, shu zarraning qisqagina bir muddat mobaynidagi hayotini bilaman. Shunga qaramay, Men “butun insoniyatning hayoti nimadir degan masalani hal qilib berishim kerak”. Binobarin, odamzod o‘zining nima ekanini anglamoq uchun uning o‘zi kabi halio‘zligini anglab yetmagan ayrim-ayrim odamlardan tashkil topuvchi sirli imkoniyatning nima ekanligini anglab olmog‘i zarur“,-deya fikrini asoslaydi.

Filologiya fanlari nomzodi Uzoq Jo‘raqulov:”Ijod ahliga ham oson, ham qiyin. U dunyo dardlari bilan dardmand, o‘z holiga bir yig‘lasa, o‘zgalar holiga ming yig‘laydi. Osonligi shundaki, unda boshqalarda bo‘lmagan imkoniyat-ijod imkoniyati bor. Ijodkor uchun ta’til yo‘q, makon yo‘q, zamon yo‘q: u hamma joyda, hamma vaqt ijod qilishi mumkin. Keksalik ijodkorga dahl qilolmaydi. Hatto keksalik ijodkor uchun yana bir imkoniyat”,-deb aytgan fikri naqadar o‘rinli. [3.272-bet].Hazrati Alisher Navoiy umrining so‘ngi yillarida barcha tajribalari jamlangan “Mahbub ul-qulub” asarini yozadi. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z hayotini me’muar asari hisoblanmish “Boburnoma”da bayon qiladi. Lev Nikolay Tolstoy ham o‘zi yig‘gan bilimlari, olgan tajribalari va hayot haqiqatlarini o‘z tushunchasi bilan sug‘organ holda “Iqrornoma” asarini yaratar ekan, o‘zlikni anglash, e’tiqod, iymon, insonning dunyoga kelishdan maqsadi, vazifalari haqida kitobxonga savollar bilan yuzlanadi. Hech yashirmay xatolarini ham, tushunchalarini ham, to‘g‘ri deb bilgan ishlarining yanglish ekanligini ham asoslaydi. Munaqqid Ozod Sharafidinov mustaqillikdan so‘ng “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” deb nomlangan maqolasida to‘g‘ri yo‘l deb o‘ylagan yo‘lingda stalba chiqsa-yu unga borib urilishingni bilib turib ham borish mumkinmi?”,-deya o‘ziga va o‘quvchiga savol bilan yuzlanganidek, Tolstoy ham umrining oxrida e’tiqodi va iymoni oldida iqrorlik qiladi.Hayotning

tub mohiyatini anglashga intilib yashagan adib falsafiy, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va diniy ilmlarni ham mukammal egallash, ulardan o‘z ijodiy faoliyatida foydalanish, adabiy-estetik qarashlarida qo‘llashga harakat qildi. Aynan hasbihol tarzda yozilgan “Iqrornoma” asarida namoyon bo‘ldi. Ushbu asarni tom ma’nodagi yozuvchining o‘zi bilan murakkab, ziddiyatli muloqoti, hayotiy muammolar haqidagi tafakkur evrilishlari majmuyi desak, yanglishmaymiz nazarimda. Sayyoh haqidagi rivoyat orqali u shunday iqrorlikka keladiki, bu har bir insonning o‘ziga ko‘zgu tutayotgandek go‘yo. “Menga “Sen hayotning ma’nosini tushuna olmaysan, bu haqida hadeb o‘ylayverma, yashayver”,-deb har qancha uqtirishmasin, men buni qilolmayman, chunki avvallari buni ancha uzoq muddat davomida qilganman. Endilikda qarshimdan yugurib kelayotgan va meni o‘lim sari eltayotgan kun bilan tunni ko‘rmasligimning iloji yo‘q. Men faqat shuni ko‘raman, negaki, faqat shu haqiqatdir. Qolgan narsalarning hammasi -yolg‘on”. Tolstoy ham dunyoviy, ham diniy bilimlar orqali o‘z savoliga javob izladi va Sulaymon payg‘ambar, Shopengauerning “ Hayot yovuzlikdan iborat” degan qarashi mutlaq haqiqatga yaqin emasligini anglaydi. Bunday tushuncha olishiga sabab sifatida u qilgan gunohlari deb o‘yladi va “Mening hayotim nima?”,-deb o‘z-o‘zidan so‘raganda, “Yovuzlik va ma’nosizlik” deb javob olganligini aytadi. U asl haqiqat halol mehnatda, xalq dardi bilan yashash, poklanish, mehr-muhabbatli bo‘lishga intilishda ekanligini anglaydi, go‘yo. Tolstoy izlagan haqiqatini ilmdan,tafakkurdan emas, iymon-e’tiqoddan topish mumkinligiga iqror bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lev Tolstoy. Iqrornoma.-Toshkent:Adabiyot uchqunlari.-T.,2018.
2. Uzoq Jo‘raqulov.Nazariy poetika masalalari: Muallif, janr, xronotop.-T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2015
3. Hamidulla Boltaboyev. Daho adibning iymonli iqrori.-T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Hazrati Muhammad(s.a.v.) hadislari Lev Tolstoy saylanmasida.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Mark Menson.Beparvolikning nozik san’ati.-Toshkent, 2020.
6. Qadriyat.uz
7. Ziyo.uz

“QISSASI RABG‘UZIY’’ ASARIDA QURTQA OBRAZI

Dinoraxon MANSURJON QIZI
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 301-guruh talabasi

Annotatsiya
Maqolada XII –XIV asrlarda kampir obrazining jamiyatdagi o‘rni va unga bo‘lgan munosabat aks ettirilgan. Shuningdek, kampir obrazi tarixiylik prinsipiga ko‘ra davrlashtirilib, “Qissasi Rabg‘uziy’’ asaridagi hikoyatlar misolida tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: *Qurqta, kampir, enaga kampir, matriarxat, patriarxat, ekzogamik nikoh, yalmog‘iz.*

Annotation
In this article were described the role of the old woman in a public and her attitude to it in XII-XIV centuries. Also the character of the old woman was classified as according to historical and analyzed by stories in the novel “Kissasi Rabguzi’’.
Key words: *old woman, nurse, matriarchy, patriarchy, exogamous marriage.*

Xalq og‘zaki ijodiyoti ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, insoniyat paydo bo‘lgandan hozirgi kunga qadar unga hamroh bo‘lib kelayotgan eng qadimiy ijod turidir. Xalq og‘zaki ijodida kishilarning tasavvur olami, orzu- intilishlari, yashash tarzi, hayotning taraqqiyot bosqichlari aks etib, ular turli-tuman homiy va yordamchi kuchlar, anvoyi xil timsollar vositasida tasvirlangan. Mana shunday qadimiy obrazlardan biri kampir obrazi ham folklore asarlarining eng yetakchi qahramonlaridan biridir. Bu obraz keng qamrovli murakkab obraz bo‘lganligi tufayli yozma adabiyotda,xususan, Nosiriddin Rabg‘uziy ijodida ham kuzatiladi. Shuni aytish lozimki, kampir obrazi o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ko‘pincha yalmog‘iz, jodugar, alvasti, ajina, sehrgar kampir, shum kampir atamalarida, “Qissasi Rabg‘uziy’’ da esa qurtqa shaklida tilga olinadi. “Qissasi Rabg‘uziy’’da keltirilgan termin og‘zaki ijodda faollashmagan bo‘lib, bu so‘z XIII-XIV asrlarda xalq jonli tilida ishlatlgan. Asarda uchraydigan qurtqa-kampir obrazining badiiy qiyofasini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish zarur:

1. Matriarxat davri ta’siri sezilgan kampir obrazi
2. Patriarxat davri ta’sirida yaratilgan kampir obrazi
3. Dunyoni ilmiy tahlil qilinishi ta’sirida yaratilgan kampir obrazi

Insoniyat yaratilgan ilk davrlarda kishilar olamni o‘z dunyoqarashicha tasavvur qilishi natijasida har bir narsaning homiy kuchi bor, deb ishonishgan. Bunda ibtidoiy odamlar tasavvurida,eng avvalo, homiy kuch deganda, ayollar gavdalangan. Qadimgi Polineziya

xalqlarining og‘zaki ijod namunalarida kampir obrazi osmon va yerning Xudosi sifatida tasvirlanib, hayotdan ko‘z yumgan insonlarning ruhini narigi dunyoga olib o‘tishni nazorat qilgan.[1] Qadimgi Rimda go‘zal qiz Yunon osmon ma’budasi bo‘lib, nikoh rishtalarini bog‘lovchi, ayollarning to‘lg‘og‘ini yengillashtiruvchi kuchga ega bo‘lgan, deb tasavvur qilingan.[2] ‘’Avesto‘’da berilgan Anaxita obrazi ham hosildorlik, yog‘ingarchilik, homilador ayollarning og‘irini yengil qiluvchi ezgu iloha ekanligi haqida ma’lumot bor. [3] Shimoliy Avstraliya afsonalarida ayollarning rangli ilonlar bilan bog‘liqligi haqida qarashlar mavjud.[4]

Ayollarning turli kuch va xususiyatga ega bo‘lgan ilohlar,deb tasavvur qilinishi turli xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalgan hodisa bo‘lib, germanlarda Siv, greklarda Gera, urartlarda Xuba, shuningdek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida Anbar ona, Sustxotin, Choy momo kabi obrazlar bo‘lib, ular yomg‘ir chaqirish, hosildorlikni ta’minlovchi kuch deb tasavvur qilishgan. Xo‘sh, ayollar mavqeining mislsiz darajada balandligiga sabab nima? Dastlab insonlar jamiyat bo‘lib shakllanayotgan bir paytda ibtidoiy insonlar orasida ekzogomik nikoh turi avj oladi. Bunda o‘ta yaqin qarindoshlar: ota bilan qiz, aka bilan singil, ona bilan o‘g‘il bir-birlari bilan bemalol nikoh rishtasini bog‘lab, ikki, hattoki uch tomonlama qarindoshlik aloqasini bog‘lab, yaqin munosabatda bo‘lishgan. Ya’ni oiladagi ayol bir paytning o‘zida ham eriga, ham o‘g‘liga xotin, ham ona o‘rnida qabul qilingan.[5] B.Jumaniyozovning ‘’O‘zbek xalq eposida yalmog‘iz obrazi’’ nomli dissertatsiyasida “yalmog‘iz’’ atamasi ona urug‘id avrida “noma’lum jasur qiz’’ degan ma’noni anglatishini aytib o‘tgan.[6] ‘’Qissasi Rabg‘uziy’’ asarining Dovud(a.s) haqidagi qissa diqqatga molik. Haqiqatdan ham mazkur qissa axloqiy-ta’limiy jihatdan e’tiborli bo‘lib, biz uni Dovud va kampir dialogi misolida ko‘ramiz: ‘’Aymishlar, Dovud yalavoch tunla o‘zin belgisiz qilib ra’iatlar din so‘rar erdikim, podshoh sizning birla netak muomala qilur? Bir kecha andog‘ so‘zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi, bir qurtqa surati uza. Andin so‘radi: “Podishohingiz netak turur?’’teb.Qurtqa aytdi:’’Yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur’’.[7] Kampirning to‘g‘ridan-to‘g‘ri bergan javobi Davudga qattiq ta’sir qiladi, vijdonan qiynaladi. Shunda u yeydigan luqmasini o‘z mehnati bilan toppish maqsadida Olloh taolodan biror hunar o‘rgatishni iltijo qilib so‘raydi.Hikoyatda epizodik obraz sifatida qatnashgan kampirning bir og‘iz so‘zi kitobxonda unga bo‘lgan iliq munosabatni uyg‘otadi.Qurtqa shohni to‘g‘ri yo‘lni topishida vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning aynan shu xususiyati hikoyatlardagi kampir obrazi qiyofasida matriarxat davri belgilari saqlanganligini ko‘rsatadi. Davrlar o‘tishi bilan ona urug‘i davrini sekin-astalik bilan ota urug‘i egallay boshlaydi.Bu hol og‘zaki ijodda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Endilikda doimo ijobiy obraz sifatida har narsaga qodir

yalmog‘iz (noma’lum jasur qiz) qiyofasi o‘zgarib, salbiy qiyofadagi yalmog‘iz (yamlab yutadigan og‘iz) folklore asarlarining bosh qahramoniga aylandi.

“Qissasi Rabg‘uziy’’ asaridagi quyidagi hikoyatda ham ayollar haqida ba’zi fikrlar mavjud.Yusuf (a.s) qul sifatida Misrga keltirilgach, Azizi Misrning xotini Zulayho uni ko‘rib sevib qoladi va Yusufni sotibo lib, undan komil dil hosil qilmoqchi bo‘ladi. Biroq bu niyatiga hadeganda yetolmagach enaga kampirga dardini aytadi. Enaga kampir Zulayhoga ona kabi mehribon, shu bila nbirga, o‘ta ayyor va tadbirkor edi. Uning bu xususiyati yalmog‘izning takomil variant hisoblangan, hukmron tabaqaga xizmat qiluvchi maston obrazi qiyofasini eslatadi. Bunday ayyor, jodugar maston obrazlari xalq dostonlarida ham uchraydi. Buni biz qurtqaning Zulayhoga bergan maslahatida ko‘ramiz:’’Ey Zulayho, manga telim mol bergil.Ul molni xarj qilayin, bo‘lg‘aylkim tilakinga teggaysen’’, [8] deb uyqurib,uning ichida Yusuf va Zulayhoning rasmini turli holatda chizdirib, uyni qimmatbaho toshlar bilan bezaydi. Enaga garchand Zulayhoning dardiga da’vo topgan bo‘lsa-da, uning bu ishi Zulayhoning eri Azizi Misrga qilgan dastlabki xiyonati edi. Yozuvchi bu holatda enaga kampirga bo‘lgan salbiy munosabatini xalq orasida keng tarqalgan“ Yot qurtqani evga kirguzmak kerakmas. Agar qayu evga kirsa, buzmay chiqmas’’. [9]

Erning balosi iki olam balosi – qurtqa,
Qurtqa qari bo‘lursa, solg‘il etini qurtqa.
Yot qurtqani evingda ko‘rsang boshini kesgil,
Kuydur boshini o‘tqa, sovur kulini qortqa [10]

She’rdagi qurtqa so‘zi omonim bo‘lib, birinchi misrada qari kampir, ikkinchi misrada bo‘ri, uchinchi misrada osmon ma’nosida kelgan. Hikoyatda ko‘rinadiki, Rabg‘uziy qissada payg‘ambarlar faoliyati vositasida qurtqa-kampir obrazining shakl-shamoyili, jamiyatda tutgan o‘rni, bosh qahramonga munosabati kabi muammolarni bosh planga qo‘yadi. Qissadagi kampir obrazi badiiy funksiyasiga ko‘ra, yalmog‘izning keying vakili hisoblangan maston kampirlarni eslatadi va insonlarni yo‘ldan ozdiruvchi, jamiyatda razolat, qabohat urug‘ini sochuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Qissasi Rabg‘uziy” asarida kampir obrazi faol uchrovchi obrazlar sirasiga kiradi. Og‘zaki ijod namunalaridan yozma adabiyotga ko‘chgan bu obraz yozuvchiningo oldiga qo‘ygan maqsadini yoritishda, bosh qahramonning o‘ziga xos xususiyati, fe’l- atvori, payg‘ambar sifatidagi belgilarini aniqlashda, XIII-XIV asrda og‘zaki ijod namunalarida kampir obraziga munosabat qay darajada ekanligini ko‘rsatishda va ilmiy xulosa chiqarishda yordam

beradi. Ayniqsa, qurtqa obrazining badiiy qiyofasi, uning bajargan ishlari, xarakter- xususiyatlari misolida bosh qahramon komillik darajasida tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuratov M. “Avesto”da mifologik qatlam.-T., 2002. 98-bet
2. MelitenskiyYe.M. Poetika mifa.- M.:Nauka, 1976. 29-bet
3. Sarimsoqov. B. Saj va uning o‘zbek folklorida tutgan o‘rni.-T., 1973, 138-bet
4. Jumaniyozov B. O‘zbek xalq eposida yalmog‘iz obrazi.-T.,1996. 58-bet
5. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy.- T.: Yozuvchi, 1991.- 2-kitob.- 28-bet
6. Nosiruddin Rabg‘uziy. QissasiRabg‘uziy.- T.: Yozuvchi, 1991.- 1-kitob.- 121-bet

TARIQI SHUTTORDAGI SOLIK: ROBIYA ADVIYA FAZILATLARI

Rayxonoy YANGIBOYEVA
ToshDO‘TAU filologiya fakulteti 403-guruh talabasi

Annotatsiya
Mazkur maqolada mutasavvuf ayollarning eng mo‘tabari Robiya Adviya hayot yo‘li va xislatlarini manbalar («Tazkiratul avliyo» va « Nasoyimul mubabbat» asarlari) misolida tadqiq etilgan .
Kalit so‘zlar: *tariqat, so‘fiylik, jazba, ishqi ilohiy, obid, orif, bihisht*

Annotation
In this article analysis lifestyle and characters the best woman in sufism Rabia Advia (Comparative method of research Tazkiratul avliya» and «Nasaiym ul muhabat»)
Key words: *the way of take to God, sufism, jazba, passion divine, abid, arif,Eden*

“Agar ayollar biz aytgandek bo‘lsalar, erkaklardan afzaldirlar.
Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oyning muzakkar ism ekanligi unga faxr emas”
(A. Navoiy)

Robiya Adaviya Sharq tasavvufida haqiqiy muhabbat-ishqi ilohiy g‘oyasini targ‘ib etgan birinchi mutasavvuf ayoldir. U taxminan 713-718 yillar oralig‘ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to‘rtinchi farzand bo‘lgani uchun unga «Robiya» deb nom qo‘yishgan. Uni go‘dakligidayoq o‘g‘irlab, qul sifatida sotib yuborishgan ekan. («Tazkiratul avliyo» da ota-onasi va opalari vafot etgandan so‘ng qullikka mahkum etilgan). U tabiatan shoira va xalq qo‘shiqlarini yuksak mahorat bilan ijro etadigan laparchi-xonanda bo‘lgan. Ana shu sifatlari uchun Xojasi uni ozod etadi. Shundan so‘ng Robiya bu dunyo mehridan yuz o‘girib, ishqi qulga bog‘lanadi. Bir necha yil sahroda chodirnishinlik qilib, o‘ziga ko‘plab muridlarni jalb etgach, Basraga keladi; zamonasidagi ko‘plab donishmandlar bilan bahs-u talashlarda bo‘ladi. «Kashf-ul majhub li arbobul-qulub», «Tazkiratul avliyo», «Nasoyim ul muhabbat» singari manbalarda u haqida rang-barang, turli-xil, hikoyati-u rivoyatlar keltirilgan. Naql qilishlaricha, kunlardan bir kun Robiya bir qo‘lida otash va ikkinchi qo‘lida suv ushlagancha ko‘chada ketayotgan ekan, – «Bu ne hol, bularni ne qilmoqchisiz»,- so‘rashibdi uni o‘rab turgan odamlar.

« Olov bilan jannatga o‘t qo‘yaman, tokim odamlar bihishtga kirish umidi bilan yurmasinlar, suv bilan esa do‘zax otashini so‘ndiraman, tokim odamlar bu qo‘rqinch va azobdan abadul--abad qutulsinlar» – javob beribdi Robiya. Zeroki, u Allohga ibodatni chin muhabbat bilan, beta'ma, qilgan inoyatiga, bergan umriga shukronalik bilan ado etishni uqtirardi. Robiyaning aqidasicha, azaliyat haqiqati, ishqi ilohiy ma’rifatning asl mohiyatidir. Obid bilan Orif o‘rtasidagi farq ham ana shu haqiqat mohiyatini qanday anglab etishidadir. Uning ta’limoti asosida Odam-u Olam birligi yotadi. Shuning uchun ham olima g‘oyasining asosini pok axloq, yuksak darajadagi insonparvarlik tashkil qiladi. Robiya Adviya tasavvuf

tariqatining takrorlanmas siymosi edi. Tariqat bu Haqqa yetishish yo‘li hisoblanib, u 3 jihatga ko‘ra farqlanadi. Bular:

Tariqi axyor –xayrli insonlar yo‘li. Tariqi arbobi muomalat deb ham ta`riflangan ushbu yo‘lning asosini zuhd, taqvo va ibodat tashkil qilgan. Shu bois unga zohidlar va obidlar yo‘li sifatida ham qaralgan. Bu yo‘l – Haqqa yetishishning uzundan-uzoq yo‘li. Uni tanlaganlar orasida maqsadga erishganlar nihoyatda kam bo‘lgan.

Tariqi abror– yaxshi insonlar yo‘li bo‘lib, tariqi tasfiya va mujohada deb yuritilgan. Bu yo‘l nafs ila kurashish, riyozat ila qalbni yomonlik va chirkinlikdan poklash, axloqiy komillikka yetishish yo‘li hisoblanadi. Xoh Haq bilan bo‘lsin, xoh xalq bilan bo‘lsin munosabat va aloqada ixlos hamda to‘g‘rilikdan chekinmaslik– ushbu yo‘lning bosh sababidir.

Tariqi shuttor – oshiqlar yo‘li. Uning ikkinchi bir nomi – tariqi soirin. Bu – ishq, muhabbat va jazba bilan maqsadga erishiladigan yo‘l. Uyiga yuz burgan yoki kirgan kishi ishq va jazba maqomiga yuksalguniga qadar juda ko‘p maqomlardan o‘tmog‘i shart bo‘lgan. Chunki ushbu yo‘lda sayri suluk – asosdir. Xullas, tariqat–insonlarni maxsus ta`lim-tarbiya bilan go‘zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxiroqibatda esa Allohga yaqinlikni ta`minlaydigan o‘ziga xos maslak va mafkura yo‘lidir. Robiya ana shu 3-yo‘ldan bordi va umrini sabr va shukr,poklik himoyasiga, ishqi ilohiy umidiga baxshida etdi.

«Modomiki, gunohlaringizni yashirishga intilar ekansiz, yaxshiliklaringizni pinhon tutishga ham odatlaning», deydi hikmatlaridan birida Robiya.U arab tilida ko‘plab qo‘shiq va she’rlar yaratgan. Sarchashmalarda Robiya she’rlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, Farididdin Attor «Tazkiratul avliyo» hamda «Mantiqut tayr» dostonida Robiya haqida fikr yurita turib, she’rlaridan misol keltirib o‘tadi. Robiyaning karomat va shijoatlari xususida ko‘plab hikoyat va naqllar tarqalgan.

Hasan Basriy bir kuni Robiyaning ibodatxonasiga borib dedi:

– Ey Robiya! Kishidan o‘rgangan va hech kimdan eshitmagan, payvasta ko‘nglingga tushgan ilmdan manga bir harf o‘rgatgil.

Robiya dedi:

– Bir qamish if yigirib erdim. To ani sotib g‘izo qilg‘ayman. Ikki pulg‘a sottim. Birini bir ilkimga oldim va yana birini bir ilkimga oldim va qo‘rqtimkim, ikkisini bir qo‘limga olsam, ikkovlon jam’ bo‘lib meni yuldan chiqorg‘aylar. Bugun ko‘nglumga tushgan kushoyish ushbudir.

Naqldurkim, bir necha kishi ozmoyish va imtihon qilmoq uchun Robiyaiing qoshig‘a keldilar. G‘arazlari bukim, bir necha so‘z unga degaylar. Robiya anga javob topolmag‘ay. Bas dedilarkim: Xudo hamma fazilat va ziyodalikni va ulug‘likni er kishiga beribdur; payg‘ambarlik tojini er kishi boshiga qo‘yibdirlar, karomat po‘tasini er kishining beliga bog‘labdurlar. Hech xotinga payg‘ambarlik etmabdur. Sen bu karomatlarni qaydin urarsen?

Robiya dedi:

– Har neki dersizlar, rostdur: xudparastlik ham eranlardin chiqdi. «Sizning xudoiingizman» deb da’vo qilmoq ham eranlardan chiqdi. Hech xotin hargiz «hoji qiz» bo‘lmabdur, «hoji qizi» ham eranlardan chiqibdur. Mazkur voqea Robiya Adviyaning naqadar so‘zamol va so‘zga botirligini ko‘rsatsa, A. Navoiyning «Hayrat-ul abror» dostonidagi Ibrohim

Adham haqidagi hikoyat (2-maqolat Islom bobida) uning suyukli banda, kamolotga intilib va ruhiy yuksalib borayotganini dalillaydi.

Ibrohim Adham shahzodalikni tark etgach, iloh uning boshiga fano tojini qo‘ydi. U o‘z mamlakat-u saltanatini fano yeliga berdi-yu, saliro tomon joynamoz bilan yo‘lga tushdi va har qadamda ikki rak'at namozga bosh qo‘yib, o‘zi yoqtirgan Makkani madh etib, o‘n to‘rt yil yo‘l bosdi. Makkaga yetib kelgach, uni o‘z o‘rnida ko‘rmay hayron bo‘ldi-da: «Yo Iloh, bu qanaqasi bo‘ldi?» deb fig‘on chekdi. Masjid ichidan ovoz eshitildi: «Bir ojiza shu sahroda yayov yurib kelayotib, shavq-muhabbat yukidan bukchayib notavon bo‘lib qolgan ekan, Ka'ba uni ziyorat qilish uchun ketdi». Bu voqeaga hayron qolgan Ibrohim Adham orqasiga qarasa, Robiyaning kelayotganini ko‘ribdi. Dedikim: «Sening ziyorat makoning Arsh, osmonning yuqorisi bo‘lsa, Ka'ba tomonga azm etib ko‘rki, jahonni ne holatga qo‘yibsan?» deb so‘radi. Robiya dediki : «Dag‘allik qilma. Sahroda o‘n to‘rt yil yo‘I yurib, sening o‘zing olamga g‘avg‘o solibsan». Ibrohim dedi: «Ey pokiza, balki farishtalar ahlidek falakda kezuvchi ayol, nega men ming ranj chekib, ganj senga tegyapti?» Robiya unga: «Ogoh bo‘l, necha yil sen sahroda namoz o‘qish bilan band bo‘lgan esang, men yolborish, o‘tinish, umid bilan o‘tkazdim. Sen namoz-u riyo mevasidan bahramand bo‘lgan esang, bizni niyozu fano manziliga yetkazdi».

Boqma, Navoiy, yana noz ahlig‘a,
Arzi niyoz ay la niyoz ahlig‘a.

Havo va havas – orzu, mayl, istak. Tasavvufiy ma`noda har turli sayoz va o‘tkinchi orzularni amalga oshirmoq uchun nafs va hukm o‘tkazuvchi, aqlning ziddi bo‘lmish mayli tabiiydir. Havo yolg‘on da`vo bo‘lmish mayli tabiiydnr. Havo yolg‘on da`vo ishonchi, kibr va manmanlik manbai va barcha riyokorliklarning sarbonidir, Havo va havasga tobslik Haq va haqiqat ishqining sustligi yoki yo‘qligidan yuzaga chiqadi.Allohga munojotlarida nola qilib aytar ekan: «Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tama’ida toat qiladigan bo‘lsam, jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o‘tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!»

Alloh taologa quruq, ko‘r-ko‘rona mute’likning hojati yo‘q. Xudo g‘azabidan qo‘rqibgina amri ma’rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so‘fiylar: Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko‘ngilni nafsu hirs g‘uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g‘oyasini keng targ‘ib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qo‘shilmoqdir, dedilar.

Shu tariqa, dunyodan ko‘ngil uzgan, ammo zohidlarga o‘xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz SHeroziy) zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo o‘zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo‘lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe’l-atvori, yurish-turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) so‘zlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, ba’zilarining g‘aybdan bashorat beruvchi kamromatlari, sirli mo‘jizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan

tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko‘proq «so‘fiy» nomi qo‘llanilgan, chunki ushbu so‘zning ma’nosi ancha keng bo‘lib, boshqa tushuncha va atamalarni o‘z ichiga sig‘dirardi.

«Mutu qabla an tamutu» – tasavvuf mafkurasining shakllanishi va jadal taraqqiy topishida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning bir talay hadislari muhim o‘rin tutgan. So‘fiylik tushunchasining negizini tashkil etgan «mutu qabla an tamutu», ya`ni «O‘lmasdan burun o‘ling» degan hadis so‘fiy, eran, abdol – xullas, Haq oshiqlari uchun ilohiy bir dastur va amaliy hayot nizomiga aylangan. Darhaqiqat, «O‘lmasdan burun o‘lish» sifati va holini kamolga yetkazmasdan na tasavvufiy hayot va axloqda, na ishqu oshiqlikda oliy maqomlarga yuksalib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Imom Rabboniy, «...o‘lmasdan burun o‘lim haqiqatga aylanmaguncha, muqaddas Zotga yetib bo‘lmas... Bu fano holi valoyat (valiylik) martabalariga tashlanadigan ilk qadam va ishning ibtidosida hosil bo‘ladigan bir kamol darajasi erur», deganlar. Shu bois Haq taoloning xos odamlari sayru sulukda ishni «o‘lmasdan burun o‘lish» dan boshlagan va bu muroqaba tarzida amalga oshirilgan bo‘lib, uning ijro shaklini Muhammad Nuriy Shamsiddin Naqshbandiy shunday tasvirlagan: «Haq yo‘lchisi – solik muroqaba bilan mashg‘ul bo‘lib, shaxsiy istaklarndan butunlay kechar, aqliga kelgan narsalarni bir yonga surib, fikrlashdan ham to‘xtar. Shu hol ila vujud a`zolarin jonsiz hisoblab, ko‘zlarin ham yumar. Go‘yo shu ahvolda o‘lim hukmi kelganu u bu foniy dunyoni tark qilgan. Shundan so‘ng solik o‘zini qabrda tasavvur etgan. Oradan ma`lum fursat o‘tib, jasad va suyaklari ham chirigan. Vujud tuproqqa qorishib ketgan va undan hech nomu nishon qolmagan. Biroq uning ruhi bilan hisob-kitoblar davom etgan... Ana shunday muroqaba eng ozi bilan–bir, o‘rtacha –ikki, ko‘pi bilan –uch soat davom etgan. Buning oqibatida esa «O‘lmasdan burun o‘ling» amrining siri ochilgan». Robiya Adviya tom ma'noda nafs mayllarini o‘ldirgan, dunyoni Haq jamoliga yetishishdagi yo‘l deb bilgan. Hasan Basriy bilan bo‘lib o‘tgan suhbatida Robiyadan nimaga turmushga chiqmasligining sababini so‘raydi.Shunda Robiya nikoh vujud ustida vojibligini, o‘zida esa vujuddan nishon yo‘qligini aytadi. Buni qanday uddalading desalar, «O‘zimni o‘zim yo‘q qildim. Uni «qanday» va «qanaqa»siz anglayman»,- deya javob beribdi. (Imom G‘azzoliyning fikricha,Allohning sifati «qanday» va «qanaqa»siz bilinadi.

«Boyazid Bistomiydan Nuralishohi Gunobodiygacha»... kitobining muallifi Abdulrafe’ Haqiqat tomonidan aniqlanishicha Robiya Adaviya umrining oxirlarida Baytul muqaddasga ko‘chib borib yashagan va o‘sha erda 781 yili vafot etgan.

Robiya Adviya ne‘matlarga shukr qilishni,sinovlarga sabr qilishni,ibodat uchun ta‘ma qilmaslikni o‘rgatar ekan,bu qonuniyatlar hayotimizning ajralmas qismiga aylansagina haqiqiy juvonmard bo‘lishimiz mumkinligini anglatadi. Uning hayot yo‘li barcha uchun ibrat, so‘zlari ma‘rifat sarchashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik.- T.: Fan, 1977.
2. Farididdin Attor. Tazkiratul avliyo.-T.: “G‘. G‘ulom” nashriyoti, 2013.
3. Alisher Navoiy.Nasoyimul muhabbat.-T., 2010.
4.Tasavvuf manbalari.-T.:O‘zMU nashriyoti, 2004.
5. H.Homidiy. Ko‘hna sharq darrалari.- T.: Sharq, 2004.
6. Alisher Navoiy.Hayrat-ul abror.-T., 2018.
7.H.Boltaboev. O‘zbek mumtoz poetikasi tarixi. T.: “O‘zMu” nashriyoti, 2006.
8.O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. T.: O‘zMU nashriyoti, 2004.

SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA SHE’RIY O‘LCHOV MASALASI

Shahzodbek RUZMETOV
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada she’riy ritmni hosil qiluvchi asosiy unsur hisoblangan sharq va g‘arb an’anaviy she’riy vaznlari xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, Yunon va Sharq adabiyotidagi gimn hamda dostonlarda qo‘llanilgan she’riy vaznlar tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: *Poetika, ritm, lirika, aruz, bahr, sujet, qofiya, rukn.*

Annotation
This article discusses weight as one of the main elements that create a poetic rhythm, and analyzes the issue of its transformation into traditional dimensions in Eastern and Western literature. On this basis, the poetic weights used in epics and gimn in Greek and Oriental literature are analyzed.
Key words: *Poetics, rhythm, lyric, aruz, bahr, sujet, rhyme, rukn.*

Badiiy asarlar poetikasini tahlilga tortish va uni o‘rganishda shakl va ma’no munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. She’riy nutqning yetakchi unsurlaridan biri ritm hisoblanib, u shakl va mazmunga bevosita daxldordir. Chunki ritm she’riy asardagi misralarning ma’lum bir ohang asosida takrorlanib kelishi bo‘lib, asar mazmuni bilan munosabatga kirishadi. “She’riy ritm she’r yaratuvchining his va tuyg‘ularini o‘ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir... Ayrim hollarda u yoki bu ritm asosida yaratilgan she’riy asarlar o‘ta darajada ta’sirchan chiqqanligi uchun shu ritm boshqa ijodkorlar uchun mezon vazifasini o‘tashi mumkin. Natijada mazkur ritm asta-sekin an’anaviylik kasb etadi. Sharq xamsachiligi, rus ellegiyachiligi, xalq dostonlaridagi she’riy parchalarning turlicha tasviriy holatlar bilan bog‘liqligi yuqoridagi fikrni to‘la tasdiqlaydi” [Ҳотамов Н., Саримсоқов Б, 1979: 258]. Biz quyida adabiyotda an’anaviylikka aylangan dostonlar vazni, ularning kelib chiqish ildizlari va o‘ziga xosliklari haqida so‘z yuritamiz.

Ritm va poetik unsurlar haqidagi ilk qarashlar yozma shaklda antik adabiyotida vujudga keldi. Xususan, Aristotelning “Poetika” asari bunga dalil bo‘lib xizmat qiladi. Sharq she’riyatida bo‘lgani kabi antik davr adabiyoti, sanskrit tilidagi qadimgi hind adabiyotida ham ritmni o‘zida mujassam etgan o‘lchovlar mavjud edi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida hindlardagi aruz tizimiga o‘xshash maxsus belgilar, tovushlarning uzun va qisqaligi haqida so‘z yuritadi. Yunon adabiyotida ham maxsus she’riy vaznlar mavjud bo‘lgan, ammo qofiya tizimi shakllanmagan. Shuning uchun poetik fikrni ifodalashda asosiy vosita ohang bo‘lgan [Тронский И.М, 1988 :47]

Qadimgi zamon ellin tilida yozilgan she’riy asarlarning hammasi uzun va qisqa hijolarning almashinuvi asosiga qurilgandir. Yunon she’riyatida ham qisqa bo‘g‘inlarni egri chiziq, uzun bo‘g‘inlarni to‘g‘ri chiziq bilan belgilashgan. Mazkur belgilarning ma’lum tartibda takrorlanishi yunon she’riyatining vaznini hosil qilgan. Antik davr poeziyasida ishqiy mavzudagi asarlar

monodik lirika deb atalgan bo‘lib, uning rivojlanishida ikki ulug‘ shoir Alkey va Sapfoning hissasi beqiyosdir. Ular monodik lirikani o‘sha paytgacha yunon poeziyasida ko‘rilmagan chuqur insoniy his-tuyg‘ular bilan sug‘ordilar. Alkeydan keyin jahon poeziyasida bu vazn hamon uning nomi bilan ataladi.

V — V — V — V V — V —
V — V — V — V V — V —
V — V — V — V — V
— V V — V V — V — V

Sapfo poeziyasida lirikaning vazn turlari yana ham takomillashdi. Shoirning lirik she’rlarida qo‘llanilgan va keyinchalik unga nisbat berilgan vazn quyidagichadir:

— V — V — V V — V — V
— V — V — V V — V — V
— V — V — V V — V — V
— V V — V

She’rdagi hijolarning uzun-qisqaligi, ya’ni daktil’ (uzun) hamda spondiy (qisqa) turoqlarinining ma’lum tartibda almashtirish yo‘llari bilan qadimgi dostonnavislar o‘ziga xos ohanglarni hosil qilishgan. Bunda uzun hijolarning ko‘proq bo‘lishi – voqeaning ulug‘vorligini, harakatning salmoqdorligini ta’minlaydi; qisqa hijolarning ko‘pligi esa harakatga tezlik, yengillik, uyg‘unlik bag‘ishlaydi [Алимуҳаммедов А, 1975: 71].

Yunon adabiyotining asoschisi hisoblangan Homerning gimnlarida ham biz o‘ziga xos vaznlarning mavjudligiga guvoh bo‘lamiz [Алимуҳаммедов А, 1975: 13-21]. Gimnlar, asosan, ma’bud va ma’budalarga bag‘ishlangan. Xususan, ma’buda Afroditaga aytilgan gimnda go‘zallik ma’budasining troyalik cho‘pon yigit Anxisga bo‘lgan muhabbati aks etadi. Asar kichik muhabbatnomaga o‘xshaydi, asarda ishq tuyg‘ulari, ma’budaning jamoli ajoyib san’atkorlik bilan chizilgan. Ahamiyatlisi shundaki, asar epik poeziyada jangnoma dostonlar bitiladigan gekzametr vaznida yozilgan. Gekazmetr vazni quyidagicha bo‘lgan, “ —VV — VV —VV — VV— VV — —” ammo ulardagi mazmun bir-biridan farq qiladi. Bunga asosiy sabab gimnlar bayramlarda ijro etilib, dastalab ma’budlarga ehtirom sifatida gimn, so‘ngra doston aytilganligidir.

Sharq she’riyati ham antik davr yunon she’riyati singari bir qancha bosqichlarni bosib o‘tdi. Sharq she’riyatida azaldan qofiyalanuvchi so‘zlar va ritmik uyg‘unlik asosiy unsur bo‘lib kelgan. Sharq adabiyotining go‘zalligi ham shunda. Xususan, dastlabki davrlarda barmoq vaznidagi she’rlarning yaratilishi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” asarlaridagi she’riy misralarning shu vaznda bitilganiga guvoh bo‘lamiz.

Nafsing seni oxir damda gado qilg‘ay,
Din uyini g‘orat qilib ado qilg‘ay,
O‘lar vaqtda imoningdin judo qilg‘ay
Oqil ersang nafsi baddin bo‘lg‘in bezor

She’riy misralar 12 bo‘g‘inlik tartibda bo‘lib, bir xil ohang takrorlangan. Bizga ma’lumki, bo‘g‘inlar miqdorida 7 bo‘g‘inlik tartib asosan tez harakatlilikni ifodalab o‘ynoqi

ohangni hosil qiladi. 12 bo‘g‘inlik tartib esa sokinlik va didaktik xarakterga egadir. Biz bu kabi o‘xshashlikni mumtoz adabiyotimizning asosiy o‘lchov birligi bo‘lgan aruz vaznida ham kuzatishimiz mumkin. Sharq adabiyotida lirik asarlar, xususan dostonlar, asosan, yetti xil vaznda yozilishi ma’lum. Bular:

№	***Vazn nomi***	***Ruknlar va taqti’i***
1.	Sari’i musaddasi matviyi makshuf	Muftailun muftailun foilun — V V — — V V — — V —
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	Mafoiylun mafoiylun fauvlun V — — — V — — — V — —
3.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Maf’ulu mafoilun fauvlun — — V V — V — V — —
4.	Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf	Foilotun mafoilun failun — V— — V— V — VV —
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf	Fauvlun fauvlun fauvlun faal V — — V — — V— — V —
6.	Ramali musaddasi mahzuf	Foilotun foilotun foilun — V— — —V — — —V —
7.	Ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf	Foilotun failotun failun — V— — VV — — VV —

[Юсупова Д, 2011: 24]

Turkiy adabiyotda aruz vaznidagi ilk she’riy parchalar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida uchrashi haqida fanda turli munozaralar mavjud. Ustozimiz filologiya fanlari doktori Dilnavoz Yusupova o‘z tadqiqotlarida bu haqida bir qancha fikrlarni keltirgan bo‘lib, bular: tatar olimi X. Usmonov asarda vaznlarning qorishiq shaklda uchrashi, M. Hamroyev faqat barmoq vaznida yozilganligi, M. Bakirov esa na barmoq, na aruz vaznida yozilgan degan fikrlarni keltiradi. O‘zlari esa dastlabki fikrlarga hayrihohlik bildirib, aruziy parchalarning mavjudligi, A. Hojiahmedovning tadqiqotlariga ko‘ra 224 ta she’riy parchaning aksariyati quyidagi(— V— —, V—V —, —VV—, V V — —, V — — —, —V —, V— —) turoqlarga mos kelishini ilmiy asoslab beradi.

Bardi eran qonuq, ko‘rub qutqa saqar,
Qaldi yavuz uzuq, ko‘rub eshni yiqar.

Anvar Hojiahmedovning fikriga ko‘ra qadimgi turkiy she’riy o‘lchov tizimi cho‘ziq va qisqa hijolarning muayyan erkinlik bilan takrorlanishiga asoslanganligini qayd etadi.

Keyingi davrga kelib, vaznlar ana’anviylik kasb eta boshladi. Bunda fors adabiyotining o‘rni ham ahamiyatlidir. Dastlab arab adabiyotida paydo bo‘lgan asarlar, fors adabiyotiga, u orqali turkiy adabiyotga kirib kela boshladi. Bu jarayonda to‘liq aruz she’riy tizimi va vaznlari hosil bo‘ldi. Ayrim vaznlarda esa an’anaviylik vujudga keldi. Xususan “Xamsa” yoki didakatik ruhdagi, ageografik va shohlarga bag‘ishlangan asarlar bunga misol bo‘la oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, g‘arb va sharq adabiyot bir xil tarixiy taraqqiyotni boshdan o‘tkazgan. Ulardagi she’riy o‘lchovlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar buning dalili sifatida yuzaga chiqadi. Turkiy va forsiy adabiyot bir-biridan oziqlangan, ayni biz fikr yuritgan she’riy

o‘lchovlar ulardagi ritmni hosil qilshda asos bo‘lgan vaznlar mumtoz adabiyotda an’anaviylik kasb etib, keying davr adabiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимуҳаммедов А. Антик адабиёт тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
2. Мелетинский Е.М. Средневековый роман. Происхождение и класссические формы. – М.: Наука, 1983.
3. Тронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1988.
4. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
5. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Ритм // Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
6. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011.
7. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан,1985.
8. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан,2006.

“MAJMUAI SI SHUAROI PAYRAVI FERUZSHOHIY” TAZKIRASIDAGI SULTONIY G‘AZALLARI HAQIDA

Quvonchoy NURMETOVA
ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi

Annotatsiya
Maqolada Sultoniy ijodi haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, shoirning Ahmad Tabibiy tomonidan tuzilgan “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasidagi ayrim g‘azallari va Tabibiyning Sultoniy haqidagi ayrim masnaviylari haqida mulohazalar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: *Feruz, Ahmad Tabibiy, tazkira, Sultoniy, g‘azal, masnaviy, payrav g‘azal, to‘plam, bayoz, devoni Sultoniy, manba.*

Annotation
The article provides information about the work of the Sultan. In particular, some ghazals of the poet in the tazkira «Majmuai si shuaroi payravi Feruzshahi» compiled by Ahmad Tabibi and some commentaries on Tabibi's masnavi about the Sultan are described.
Keywords: *Feruz, Ahmad Tabibi, tazkira, Sultani, ghazal, masnavi, payrav ghazal, total, bayoz, devoni Sultani, source.*

Adabiyotshunosligimiz tarixida Feruz boshchiligida Xiva adabiy muhiti vakillari ijodi atroflicha tadqiq etilgan. Biroq bu davrga oid turli tazkiralar, bayozlar, she'riy to‘plamlarning tadqiqi bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirishini ko‘rsatmoqda. Negaki, bu davrga oid ayrim manbalarda hali ijodi tadqiq etilmagan, she'rlari joriy alifboda tabdil qilinmagan, hattoki ular faoliyatiga doir ma'lumotlar darslik yoki ilmiy adabiyotlarda ham uchramaydigan ijodlar anchagina. Hayoti va ijodi to‘lig‘icha o‘rganilmagan ana shunday ijodkorlardan biri Said Nosir to‘ra — Sultoniydir.

XX asr boshlari Feruz adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi ayrim manbalarda iste'dodli ijodkor, sohibi devon shoir Sultoniy haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Laffasiy “Tazkirai shuaro”sida shoirni quyidagicha tanishtiradi:

“Shoirning ismi Sultoniy Said Nosir to‘ra bo‘lib, Said Abdullaxon Muhammad Rahimxon Feruzning nabirasi bo‘lib u Muhammadyor to‘raning birinchi o‘g‘lidir. Sultoniy tarixi bir ming uch yuz dagi beshlanji yili onadan tavallud topib,ancha tarbiyali bo‘lgan holda tez kamolga yetishib ilm tahsilini Xiva mudarrislaridin o‘qib bir xili ma'lumotli bo‘lib, she'r mashqiga havaskor bo‘lib bobosi Feruzning ruxsati bilan o‘ziga Sultoniy taxallus qilib ancha she'rlar yozdi.Feruzdagi ul asarlarni tamomiy Bayoniy Muhammad Yusufbekka farmon qilib “Haft

shuaro" isminda bir necha devonlarni toshmatbaasida chop qildiradur.Shoir bundan tashqari Feruzga yana ancha g'azallar yozib turgan, shuningdek Sultoniy ismida bir devon ham yozgan…"[2;34].

Xodimning "Xorazm navozandalari" asarida esa shoir Sultoniy haqida: *"Sultoniy Said Nosir to'ra Xivaning tashqari qal'asida, Nurillabek hovlisida tug'ilgan. Demak, Sultoniy to'ra podshozoda oilasidan chiqqan. Sulton Muhammad Rahim ikkinchining buyrug'i orqali Yusuf Hoji Oxun, Siddiq Oxun,Bayoniy Yusufbeklar har hafta ikki marta ziyofat qilindi va shu asnoda, kitob o'qish,she'r tartiblash nevarasi, ya'ni bo'lajak shoirga shu uch kishining yordami orqali o'rgatildi, qolaversa, Nosir to'ra forsiyda ham yaxshi bo'ldi va shu muhit tufayli shoirlikka qadam qo'ydi..."[1;46-49]*— tarzidagi ma'lumotlarni uchratamiz.

Kuzatuvlarimiz natijasida, O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi yana bir manbada Sodiq she'rlaridan anchaginasi ko'chirilgani aniqlandi. Ushbu toshbosma manba №8725- raqami bilan saqlanadi. Ushbu manbada g'azal, muxammas kabi janrlardagi she'rlari ko'chirilgan.

Sultoniy g'azallarining anchaginasi jamlangan yana bir manba Ahmad Tabibiyning "Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy" tazkirasidir. Ushbu to'plamda shoirning taxminan yuzta g'azali ko'chirilgan. Tazkiradagi she'rlar shaklan va mazmunan yuksak darajadagi lirik asarlardir. Tazkiradagi she'rlarning badiiyat jihatidan yuksak darajadagi lirik asarlar ekanini ta'kidlash zarur.

Tabibiy tazkirasidagi ilk g'azal Feruzning *"Zihi bordur zuhuringga azal birla abad paydo, Tafakkur aylabon zoting, qila olmas xirad paydo"* matlasi bilan boshlanadi. Ushbu she'rga yozilgan ilk payrav g'azal esa Sultoniy qalamiga mansub [3;6[a]].

Malumki, Tabibiy tazkirasida shoirlarning payrav g'azallari oldidan ular haqida masnaviy korinishidagi ma'lumotlar berib boriladi. Tazkiradagi Sultoniy haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot:

Yetushgach bu ash'or Sultoniyga,
Ziyolig' yetib fikri ayvoniga, — matla'si bilan boshlanuvchi uch baytli masnaviydir. Ilk payrav g'azal esa:

Bo'lub sun'ing nasimidin azal birla abad paydo,
Xiradga gunah zoting bilgali yo Rab, ne had paydo — matlai bilan boshlanadi. E'tiborlisi, Laffasiy tazkirasida ham Sultoniy haqida ma'lumot berilgandan so'ng, xuddu shu uch baytli masnaviy va shu payrav g'azal keltirilgan. Demak, Ahmad Tabibiy tazkirani tuzishda Laffasiy tazkirasidan unumli foydalangan va Laffasiyning Sultoniy haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot va g'azalni keltirishni joiz topgan.

Tazkiradagi Sultoniyning ilk payrav g'azali quyidagichadir:

Bo‘lub suning nasimidin azal birla abad paydo,
Xiradga gunah zoting bilgali yo Rab, ne had paydo.

Munojot ahlining ko‘nglida hamding behisob asru,
Xarobot ahli ko‘nglida umiding beadad paydo.

Nechuk hamding gulistonini tarifiga til ochgum,
O‘zindin bolmasa, yo Rab, manga har dam madad paydo.

Saning Qodirliging tasdiqiga barhon erur sabo,
Dalil uldurki, bo‘lmamish osmonlar beumid paydo.

Irodangsiz emasdur, kirdikori dahri dun ichra,
Bani odamdin olsa har nechakim, neku bad paydo.

Qabuli lutfing olgonga ne g‘am dahr ahli royidin,
Ne sud elning qabulidin ki qahring qilsa rad paydo.

Sabri ojiz erur Sultoniyni oning vasfi fikrida,
Zihi ermas zuhuringga azal birla abad paydo.

Sultoniyning so‘nggi payrav g‘azali tazkirada 3067-raqamli besh baytli she'r bolib, ushbu g‘azal:

Rahm etib man zorning bazmiga kelgil, ey sanam,
Toki Sultoniydek mehringda ko‘z yoshim shaylay, — maqta'si bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Sultoniy ijodi ham shu paytga qadar o‘rganilmagan. Shoir ijodiga mansub lirik asarlar haqida ilmiy jamoatchilik deyarli tasavvurga ega emas. Shoir hayoti va ijodiga doir manbalarni qiyosiy o‘rganish, uning ijod namunalarini joriy alifboda tabdil qilish yechimini kutayotgan ilmiy muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodim. Xorazm navozandalari. –Toshkent,1994.
2. Laffasiy. Tazkirai shuaro.- Xorazm-Urganch, 1992.
3. G‘anixojaev F. Ahmad Tabibiy. — Toshkent: Fan, 1978.
4. Qosimov B. Izlay-izlay topganim. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.
5. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.

“BOBURNOMA”DA TARIXIY SHAXS NOMLARINING QO‘LLANISHI

Mohiniso SHOMURODOVA
ToshDO‘TAU, O‘zbek filologiyasi fakulteti,
2-kurs talabasi

Annotatsiya

Boburiylar sulolasining asoschisi qat’iyatli shoh va iste’dodli shoir, sinchkov olim va yuksak qalb sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yil davom etgan jang-u jadallarga to‘la hayotida ham betakror ilhom og‘ushida yashaydi. Bobur kelgusi avlodlarga beqiyos lirik va nasriy asarlarni meros qilib qoldirdi. Xususan, adibning memuar, tarixiy-badiiy “Boburnoma” asari asrlar davomida sharq-u g‘arb mutafakkirlarining e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Mazkur maqolada ham “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar nomlarining qo‘llanishi xususida kichik izlanish olib borildi.

Kalit so‘zlar*: nasr, memuar, hukmdor, shoir, ayol, tarixiy nomlar.*

Annotation

The founder of the Boburiys dynasty, a determined king and a talented poet, an intelligent scholar and a man of great heart Zahiriddin Muhammad Bobur lived a life full of 47 years of wars and unique inspiration. Bobur left a great legacy of poetry and prose to future generations. For exapmle, the author’s memoirial, historical and fiction work “Boburnoma” has been attracting the attention of Eastern and Western thinkers for centuries. In this article, a little research has been done on the use of the names of historical figures in the work “Boburnoma”.

Key words: *prose, memoiral, ruler, poet, woman, historical names.*

Zahiriddin Muhammad Bobur shoh va shoir, buyuk so‘z san’atkoridir. Bobur mirzo qalami hadya etgan betakror ijod namunalari o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi. “…U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo‘lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turadi. Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas. Turkiy tilde benihoya nafis devoni bor. “Mubayyin” nomli she’riy asar yozgan bo‘lib, fiqhga oid bu bag‘oyat foydali risola odamlarga maqbuldir. Turkiy aruzga oid asar bitgan bo‘lib, hech kim ungacha turkiy aruz haqida bu qadar aniq yozolmagan. Hazrati Eshon Xoja Ubaydullohning “Risolayi volidiyya” asarini nazmga solgan. Uning turkiy tilda “Vaqoe’” (“Boburnoma”) nomli tarixiy asari bo‘lib, juda jonli, ravon, beg‘ubor va tushunishga oson bir tarzda bitilgan. Musiqiy va boshqa san’atlarda ham Boburga teng keladigan odam uning xonadonida undan oldin yuzaga chiqmagan edi. [1. 2002-yil 2-son(gazetadan)]. “Boburnoma” asari tarix, adabiyot, tilshunoslik, geografiya, etnografiya, san’atshunoslik,, nabobot, hayvonot olami haqida o‘ta muhim va betakror ma’lumotlar beruvchi ajoyib asardir.

“Boburnoma” undagi tarixiy shaxslarning ko‘pligi, sulolalar, saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiy hujjat, urushlar tarixi, jang qurol-yarog‘lari, jangga saf tortish va jang usullari, davlatlararo va shohlararo munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir”[2. ziyouz.com]. Asarda hijriy sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi – to‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi yillar vaqealari aks ettirilgan bo‘lib, asar quyidagicha so‘zlar bilan boshlanadi: “Tangri Taolaning inoyati va koinot sarvari bo‘lgan hazrat Rasuli akramning shafoati, pokko‘ngil chahoryorlarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qqizninchi yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim”[3. 43-bet] Ko‘rinib turganidek, asarning daslabki misralaridayoq tarixiy ma’lumotdan bahramand bo‘lish mumkin. “Boburnoma” asarida o‘n beshinchi asrning oxiri va o‘n oltinchi asrning birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va Afg‘onistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o‘z aksini topgan, bundan tashqari asarda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari, tashqi va ichki dunyosi, xarakter-xususiyatlari haqida ko‘plab tarixiy manbalarda ham uchramaydigan muhim va noyob ma’lumotlar mavjud. “Boburnoma” Amir Temur, Shohrux mirzo, Abusaid mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Xoja Ubaydulloh Ahror, Umarshayx mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Sulton Mahmudxon, Ahmad Tanbal, Xisravshoh, Zunnun arg‘un, Ismoil Safaviy, Shoh Tahmasp, Abulmakorim, Xoja Mavlonoyi Qozi, Badiuzzamon mirzo, Abdullatif mirzo, Raana Sangaa singari shoh va shahzodalar, amir va beklar, pir-murshidlar haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgani bilan bag‘oyat qimmatlidir” [2. ziyouz.com]. Shunga ko‘ra, asardagi tarixiy shaxslar nomlarini bir necha guruhlarga bo‘lib, o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

I.Hukmdor va amaldorlar nomlari;

II. Shoir va ijodkorlar nomlari;

III. Ayollar nomlari

I. Asarda Bobur mirzoning otasi Umarshayx mirzoning tavalludi va nasabi haqida shunday deyilgan: “Sakkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to‘rtinchi o‘g‘li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulto Abusaid mirzo Sulton Muhammadmirzoning o‘g‘li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o‘g‘li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o‘g‘li edi. Umarshayx mirzo bila jahongir mirzodin kichik. Shohruh mirzodin ulug‘ edi” [4. 9-bet]. Muallif Mirzoning fe’l-atvori xususida yozganda, avvalo, uning pokiza iymonli, islom dini sunnatlarini bajo keltirishga intiluvchi inson bo‘lgani haqida yozadi: “Hanaviy mazhablik, pokiza e’tiqodlik

kishi erdi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog‘a irodati bor erdi, suhbatlarig‘a bisyor musharraf bulub edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar”[4. 10-bet] Mirzoning Nizomiy ganjaviy Va Amir Xisrav Dehlaviylarning “Xamsa”larini, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlarini ko‘p o‘qishini, o‘zida ham she’riy iste’dod bor, ammo she’r yozishga qunt qilmasligini ta’kidlaydi. Umarshayx mirzoning adolatli hukmdor bo‘lganini ko‘rsatuvchi bir voqea ham kitobxon e’tiborini tortadi. Unga ko‘ra, Xitoydan kelayotgan ming qoramollik karvonni Andijonning sharqiy tarafidagi tog‘lar tubida qor bosib, faqat ikki kishi qutulib qoladi. Bundan xabar topgan hukmdor Umarshayx mirzo odamlarini yuborib, karvonning hamma narsalarini yig‘diradi va o‘sha paytda karvon vorislarining bo‘lmagani tufayli ehtiyot yuzasidan saqlab, bir-ikki yil o‘tgach, Samarqand va Xurosondan vorislarini toptirib keltirib, mollarni eson-omon topshiradi. Asarda Umarshayx mirzoning farzandlari ham berilgan va ular haqida shunday yozilgan: “Avlodi: uch o‘g‘il, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o‘glonlardin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutlug‘ Nigorxonim edi. Yana bir o‘g‘ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aningonasi mo‘g‘ulning tuman beklaridinn edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o‘g‘ul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, g‘unchachi edi, Umid otliq. Mendin to‘rt yosh kichik edi [4. 11-bet]. Bundan tashqari, muallif otasi Umarshayx mirzoning shakl-shamoyili, jang va urushlari, viloyatlari haqida ham muhim ma’lumotlarni keltiradi. Umarshayx mirzoning amirlari xususida keltirilgan ma’lumotlar ham e’tiborga molikdir. Xususan, Xudoyberdi Temurtosh haqida asarda shunday yoziladi: “Xiriy hokimi Oqbug‘abekning og‘asining nasildindur. Sulton Abusaid mirzo Jo‘gi mirzoni Shohruxiyada qabag‘onda, Farg‘ona viloyatini Umarshayx mirzog‘a berib, eshikni bu Xudoyberdi Temurtoshg‘a boshlatib yiborib erdi” [4. 15-bet]. O‘sh atroflarida Ibrohim Bekchik bilan bo‘lgan urushda Xudoyberdi temurtosh ishtirok etib, shahid bo‘ladi. Umarshayx mirzoning yana bir amiri Hofiz Muhammadbek do‘ldoydir. U Sulton Malik Koshg‘ariyning o‘g‘li, Ahmad Hojibekning inisi bo‘lgan, Xudoyberdi Temurtosh vafotidan so‘ng Hofiz Muhammadbek do‘ldoy eshik og‘a bo‘ladi. Yana bir amiri bazmlarda qo‘shiqlarni yaxshi aytadigan, odmi Xoja Husaynbek edi. Shayx Mazidbek esa Umarshayx mirzo qoshida eng ulug‘ bek bo‘lgan.

Asarda Umarshayx mirzoning Qosimbek qavchin Boboquli Bobo Alibek Alido‘st tag‘oyi, Vays Log‘ariy, Mirg‘iyos tag‘oyi, Ali Darvesh kabi amir va beklarning ismlari zikr etilgandir.

Asarda hukmdorlardan Sulton Ahmad mirzo haqida ham muhim ma'lumotlarni o'qiymiz. Sulton Ahmad mirzo Sulton Abusaid mirzoning o'g'illaridan eng kattasi. Shakl-shamoyili xususida quyidagi ma'lumotlarni uchratamiz: "Baland bo'yluq, qunqor soqollik, qizil yuzluq, tanbal kishi erdi. Soqoli engagida erdi. Ikki yongoqida soqoli yo'q edi, Bisyor xushmuxovara kishi erdi. Dastorni ul zamon dasturi bila chahorpech chirmab, aloqasini ilgarrak qoshining ustiga qo'yar edi"[4.19-bet]. Muallif Sulton Ahmad Mirzoning hech narsa o'qimagan savodsiz ekanligini, shaharda ulg'aygan bo'lishiga qaramasdan, to'g'riso'z va soddaligini, iste'doddan bebahra ekanligini, ammo odil kishi ekanligi aytadi. Sulton Ahmad to'rt marta jang qilib, uch marotaba yengan. Mirzoning tasarrufidagi viloyatlari Samarqand va Buxoro, shuningdek, Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Xo'jand va O'ratepalarga ham bir muddat hokimlik qilganini bilib olamiz. Mirzoning amir va beklariga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Sulton Ahmad mirzoning amirlaridan Jonibek do'ldoy shunday ta'riflanadi: "G'arib axloq va atvorliq kishi ekandur. Andin g'arib nimalar xeyli rivoyat qilurlar. Ul jumladin biri budurkim, Samarqand hokimi ekan fursatlar o'zbakdin elchi kelur, o'zbak ulusida bu elchi zo'rg'a mashhur ekandur. O'zbak zo'r kishini bo'ka der emish. Jonibek derkim: "Bo'kamusen? Bo'ka bo'lsang kel kurashaling. Bu elchi har necha muzoyaqa qilur, qo'ymas, kurashurlar, Jonibek yiqar. Mardona kishi erdi" [4. 21-bet". Sulton Ahmad mirzo qoshidagi mo'tabar hisoblangan bek Darvesh Muhammad tarxon, yana biri zolim, fosiq, dimog'dor va qattiqqo'l deya ta'riflangan bek Abdulali tarxon edi. Sulton Ahmad mirzoning Sayyid Yusuf, Darveshbek, Muhammad Mazid, Boqi tarxon, Qulmuhammad Bug'do qavchin, Abdulkarim Ashrit uyg'ur kabi beklari nasabi va xususiyatlari bilan tilga olingan. Bobur mirzo uquvli va tadbirli bek Muhammad Mazid tarxonga Samarqandni ikkinchi va uchuncha marta olgan paytlarida o'zi ham yaxshi e'tibor ko'rsatganini yozadi.

Yana bir hukmdor Abusaid mirzoning uchinchi o'g'li, Sulton Ahmad mirzoning tug'ishgani Sulton Mahmud mirzodir. Sulton Mahmud past bo'yli, siyrak soqolli, semiz, kamhafsalaroq kishi deya ta'riflanadi. Mirzoning fe'l-atvori haqida yoza turib namozni kanda qilmasligini, tartib va boshqarish qobiliyati juda yaxshi ekanligini, hisob ilmini puxta bilishini ta'kidlaydi. Nazmiy iste'dodi haqida esa quyidagilarni yozadi: "Tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmog'on yaxshiroqdir" [4. 26-bet]. Bobur uning yomon e'tiqodli kishi bo'lib, atrofida bir necha maynavoz va beboklar yig'ilganini, devon va xaloyiq qoshida yomon va xunuk harakatlar qilishini aytadi. Sulton Mahmud ikki marta saf tortib jang qilgan. Har ikkalasida ham Sulton Husayn Boyqaro bilan

to‘qnashib, ikki marta ham yengiladi. “Boburnoma”da Sulton Mahmudning avlodlari haqida shunday yozilgan: “ Besh o‘g‘ul, o‘n bir qiz edi. Bori o‘g‘lonlaridan ulug‘ Sulton Ma’sud mirzo edi. Onasi Mir Buzurg Termiziyning qizi edi. Yana bir o‘g‘ul Boysung‘ar mirzo edi. Onasi Pashabegim edi. Yana bir o‘g‘ul Sulton Ali mirzo edi. Onasi Zuhrabegi og‘a edi, o‘zbak edi, g‘uma edi. Yana bir o‘g‘ul Sulton Husayn mirzo edi. Onasi Xonzodabegim, Mir Buzurgning nabirasi edi. Mirzo hayotida o‘n uch yoshida Tengri rahmatig‘a bordi. Yana bir o‘g‘ul Sulton Vays mirzo edi. Onasi Yunusxonning qizi,mening onamning singili Sulton Nigorxonim edi” [4. 27-bet]. “Boburnoma” da Sulton Mahmudning umarolaridan turkistonlik qipchoqlardan Xisravshoh, Balx darvozasida hazoralar bilan urushda Sulton Abusaid mirzo oldida bahs boylashib, musht jangiga kirgan Pirmuhammad elchi Bo‘g‘a qavchin, Sulton Ma’sud mirzoning ko‘ziga mil tortilishiga va Boysunqar mirzoning o‘ldirilishiga sababchi bo‘lgan Valibek, yana Mahmud barlos va Shayx Abdullo barloslar haqida to‘xtaladi.

Bobur mirzo Sulton Mahmudning ikkinchi o‘g‘li Boysunqar mirzo to‘g‘risida ham anchayin mufassal ma’lumotlarni yozadi: “Ulug‘ ko‘zluk, qo‘ba yuzluk, o‘rta bo‘yluq, turkman chehralik, malohaatliq yigit edi. Adolatpesha va odmi va xushtab’ va fazilatliq podshohzoda edi” [4. 63-bet]. Boburning yozishicha, Boysunqar mirzo ikki marta saf tortib, jang qilgan. Bir marta Sulton Mahmudxon bilan urushib, uch-to‘rt ming mo‘g‘ulning boshini kesadi. Yana bir marotaba Buxoroda Sultonali mirzo bilan urushib mag‘lub bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida Xuroson hukmdori Husaym Boyqaro haqida hurmat bilan yozadi: “Shujo‘ va mardona kishi edi. Borlar o‘zi qilich tegurubtur, balki har ma’rakada borlar qilich tegurubtur. Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Hysayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay. Tab’i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi “ Husayniy” edi. Ba’zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur” [4. 147-148-betlar]. Bobur Husayn mirzoning zamonini bir ajoyib zamon edi deb baholaydi. Muallif Sulton Husaynning kichiklardek qo‘chqor saqlab, kbutar saqlab, kabutarbozlik qilish, xo‘roz urushtirish kabi qiziq odatlari borligini ham aytadi. Husayn mirzoda o‘n to‘rt og‘il, o‘n bir qiz qolgan bo‘lib, o‘g‘illarining kattasi Badiuzzamon mirzo edi. Yana Shoh G‘arib mirzo (otasi zamonidayoq qazo qiladi), Muzaffar mirzo, Abulmuhsin mirzo, Kepak mirzo Abuturob mirzo, Muhammad Husayn mirzo, Faridun Husayn mirzo, Haydar mirzo, Muhammad Ma’sum mirzo, Farrux Husayn mirzo, Ibrohim Husayn mirzo, Ibni Husayn mirzo kabi og‘illari va ularning fe’l-atvori va boshqa xususiyatlari haqida ham yozadi. “Boburnoma” da Husayn Boyqaroning amir-u beklaridan Muhammad Burunduq barlos, Muzaffar barlos,

Ahmad Tavakkul, Alisherbek Navoiy, Hasan Shayx Temur, Nuyonbek, jahongir barlos, Ahmad Ali Forsiy, Abduxoliqbek, Ibrohim do‘ldoy, Zunnun arg‘unlarni tavsiflaydi. Ular orasida Alisher navoiyni alohida muhabbat va hurmat bilan tilga oladi: “Begi emas, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar… Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay” [4. 154-bet].

Bobur mirzo bobosi Yunusxonga ham alohida to‘xtalib, ul zotning Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy naslidan ekanligini ta’kidlaydi va Chingizxongacha bo‘lgan shajarasini sanaydi: “Yunusxon ibn Uvaysxon ibn Sherali o‘g‘lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug‘luq temurxon ibn Esan Bo‘g‘axon ibn Do‘vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mutugon ibn Chig‘atoyxon ibn Chingizxon”[4. 12-bet].

II. “Boburnoma” asarida hukmdor va amldorlar, amir-u beklar nomlari bilan birga ko‘plab shoir-u ijodkorlar haqida ham yozilgandir. “Boburnoma” da ellikka yaqin shoirning ismi sharifi aytilib, ularning asarlari tahlil etilgan yoki baho berilgan”[2. ziyouz.com]. Jumladan, Alisher Navoiy, Kamoliddin Binoyi, Abdurahmon Jomiy, Badriddin Hiloliy, Vafoiy, Husayn Gozurgohiy, Muhammad Solih, Hasan Ya’qub, Abdullo Hotifiy, Mir Murtoz, Amir Shayxim Suhayliy, Xondamir, Asiridin Axsikatiy, Bayramxon, Ahmad Hojibek, Mir Husayn Muammoiy va boshqa ko‘plab turkigo‘y va forsigo‘y ijodkorlarning nomlari zikr etilib, asarlaridan parchalar keltiriladi.

“Vafoiy” taxallusi bilan Ahmad Hojibek Sulton Ahmad mirzo qo‘lida xizmat qilar edi. Devon ham tartib bergan bu xushtab ijodkorning shunday forsiy bayti keltiriladi:

Mastam, ey muhtasib, imro‘z zi man dast bidor,

Ihtisobam bikun on ro‘z ki yobi hushyor [4. 22-bet]

(Mazmuni: Qilma bezovta meni, ey muhtasib mast,mastman bugun,

Istagancha qil so‘roq topgan kuning hushyor meni.) [3. 58-bet]

Bolatabiat, iste’dodli, chechan, samimiy bek Hasan Ya’qubning ham fors tilida yozgan bir bayti keltiriladi:

Bozo oy, ey humoyki, beto‘tii xatat,

Nazdik shud ki, zog‘ barad ustuxoni man [4. 16-bet]

(Mazmuni: Qaytib kelgil, ey Humoy, to‘tirang patlaringsiz,

Sal bo‘lmasa suyagimni qarg‘a olib ketgusi). [3. 52-bet]

Bobur mirzo Mullo Binoyi haqida quyidagicha yozadi: “ Doim qasida va g‘azal o‘tkarur edi. Navoda bir amal mening otimg‘a bog‘lab o‘tkardi. O‘shul asnoda bir ruboiy aytib o‘tkardi:

Ne g‘alla maro kazu tavonam no‘shid,

Ne muhmali g‘alla to tavonam po‘shid.

Onro kin a xo‘rdanasatu ne po‘shidan,

Dar ilm-u hunar kujo tavonad ko‘shid [4. 78-bet]

(Mazmuni: Yeb-ichgani menda na non, g‘allam bordir,

Pulsizlikdan na kiyim, na sallam bordir.

Yeb-ichgani va kiygani narsam yo‘g‘-u,

Qanday deyman: ilhom to‘la kallam bordir?) [3. 106-bet]

Bobur mirzo shu o‘rinda Shahrisabzdan Samarqandga kelgan shoir Xoja Abulbaraka Firoqiyning bir turkiy ruboiysini ham keltiradi:

Bu javrki qildi davr so‘rulg‘usdur,

Sultoni karam bu uzrni qo‘lg‘usidur.

To‘kulgan agarchi to‘lmasa, ey soqiy,

To‘kulgonimiz bu davrada to‘lg‘usidur [4. 79-bet]

Bobur va uning odamlari Hubyon dovoniga ko‘tarilib, Suhayl yulduzini ko‘rishadi. Shunda Boqi Chag‘oniyoniy quyidagi baytni o‘qiydi:

Tu Suhayli, to kujo tobi-yu kujo tali’ shavi,

Chashmi tu bar har ki meaftad nishoni davlat ast [4. 114-bet]

(Mazmuni: Sen Suhaylsen, qayda balqib, qayda porlaysan ekan,

Ko‘zlaring har kimga tushsa, bo‘ldi davlatdan nishon.) [3. 136-bet]

Bobur Shayxim Suhayliy haqida shunday yozadi: “Bir tavr she’r aytur edi. Qo‘rqqudek alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budur:

Shabi g‘am girdbodi oham az jo burd gardunro,

Furo‘ burd ajdahoi aham az jo burd gardunro” [4. 156-bet]

(Mazmuni: G‘am kechasi ohimning quyuni osmonni o‘rnidan qo‘zg‘atdi,

Ko‘z yoshim selining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi) [3.176-bet]

Yana bir ijodkor Sulton Husaynning ikkinchi og‘li “Garibiy” taxallusi bilan ijod qiluvchi Shoh G‘arib mirzo edi. Turkiy va forsiyda she’rlar yozardi. Ushbu bayt unikidir:

Darguzar didam pariro‘ye shudam davonaash,

Chist nomi o‘, kujo boshad nadonam xonaash [4. 149-bet]

(Mazmuni: Guzarda pari yuzni ko‘rib devona bo‘ldim,

Uning ismi nima, uyi qayerda ekanini bilmadim.) [3. 169-bet]

“Boburnoma” asarida ko‘plab shoirlar ichida yana bir ulug‘ shoir Alisher Navoiyga alohida to‘xtalib o‘tiladi: “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa” javobida, yana bir “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq…”[4. 153-bet]

III. “Boburnoma” asarida tarixiy ayollar nomlarining keltirilishi ham alohida o‘rin tutadi. Muallif otasining xotin va kanizlari, qizlarini tilga oladi. Xususan, o‘zining onasi – Qutluq Nigorxonim. U Yunusxonning ikkinchi qizi Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Bobur buvisi –Eson Davlatbegim hamda xolalari –Mehr Nigorxonim va Xub Nigorxonimlar haqida ham yozadi. “Xonning bu Esan Davlatbegimdan uch qizi bo‘ldi. Boridan ulug‘ Mehr Nigorxonim edikim, Sulton Abusaid mirzo ulug‘ o‘g‘li Sulton Ahmad mirzog‘a qo‘lub erdi… Ikkinchisi mening volidam Qutlug‘ Nigorxonim edi…Uchunchi qiz Xo‘b Nigorxonim edi, Muhammad Husayn Ko‘ragon dug‘latka berib edilar, bir qizi, bir o‘g‘li bo‘lib erdi”. [4. 13-bet] Shuningdek,Yunusxonning onasi esa sohibqiron Amir Temur qadrlagan turkistonlik qipchoq beklaridan Shayx Nuriddinbekning qizi yoki nevarasi bo‘lishini ham ta’kidlaydi. Xonning yana bir xotini Badaxshon shohi Shoh Sultonmuhammadning qizi Shohbegim edi, yana biri mo‘gul tuman beklari avlodidan Fotima sulton og‘a bo‘lgan. Mirzoning qizlari haqida Bobur mirzo shunday yozadi: Bori qizlaridin ulug‘ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug‘ erdi. Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi, mendin ikki yosh ulug‘ erdi.Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag‘i Nosir mirzo bila bir tuqg‘on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og‘a sulton otliq g‘unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Mahdum Sultonbegim edi. Qorako‘zbegim derlar edi, ikkalasi mirzoning Favtidan so‘ng bo‘ldilar”. [4.11-12-betlar]

Bundan tashqari, “Boburnoma” asarida Poshobegim, Sulton Nigorxonim, Zuhrabegim og‘a, Bikabegim, Poyanda sultonbegim, Oqbegim, Zaynab sultonbegim, Maxduma sultonbegim, Latifbegim, Habiba sultonbegim, Robiya sultonbegim (Qorako‘zbegim), Soliha sultonbegim, oysha sultonbegim, Sultonbegim, Ma’suma Sultonbegim, Fotima sultonbegim, Bayram sulton, Begimsulton, Zubayda og‘a, Shahribonu begim, Xadichabegim, Opoqbegim, Begisulton og‘acha va boshqa ko‘plab tarixiy ayollar nomlari, ularning nasl-nasabi va fe’l-atvori haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Shunday qilib, shoir o‘z xotiralarini badiiy uslubda sodda va ravon bayon etadi. O‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko‘rinishini, fe’l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta’rif etiladi. Ushbu

maqolada asosan Bobur mirzoga yaqin bo‘lgan tarixiy shaxslar obraziga to‘xtalib o‘tildi. Shuning o‘zi han Bobur mirzoning naqadar qobiliyatli nosir, kuchli xotira va yuksak qalb egasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Garchi Boburning jang-u jadallarga to‘la to‘xtovsiz sinovlar, Vatandan yiroqda, Vatanni qo‘msab o‘tgazgan kunlari olis tarixda qolgan bo‘lsa-da, ularning shiddati, nafasi “Boburnoma” asari tufayli bizga hamisha hamroh.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzo Muhammad Haydar. Bobur Podshoh (“Tarixi Rashidiy”dan) //*O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.*-T., 2002.-№ 8.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnomaю- T., 2017. –B. 43

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.-T.,1990 –B. 9-13.

5. Xayriddin Sultonov. Boburiynoma.-T.Sharq.1997.

6. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar.-T., 2018.

“MAJMUAI SI SHUAROI PAYRAVI FERUZSHOHIY” TAZKIRASIDAGI SODIQ G‘AZALLARI HAQIDA

Shahnoza ISROILOVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU universiteti

Annotatsiya
Ushbu maqolada Xiva adabiy muhiti vakili Sodiqiy ijodi haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, shoirning Ahmad Tabibiy tomonidan tuzilgan “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasidagi ayrim g‘azallari va Tabibiyning Sodiq haqidagi ayrim masnaviylari haqida mulohazalar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: *Feruz, Ahmad Tabibiy, tazkira, Sodiq, g‘azal, masnaviy, payrav g‘azal, to‘plam, bayoz, devoni Sodiq, manba.*

Annotation
This article provides information about the work of Sodiq, a representative of the Khiva literary community. In particular, some of the ghazals of the poet in the tazkira «Majmuai si shuaroi payravi Feruzshahi» compiled by Ahmad Tabibi and some of Masnavi of Tabibi about Sadiq are described.
Keywords*: Feruz, Ahmad Tabibi, tazkira, Sadiq, ghazal, masnavi, payrav ghazal, total, bayoz, devoni Sodiq, source.*

XX asr boshlari Feruz adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi ayrim manbalarda iste'dodli ijodkor, sohibi devon shoir, tarjimon, xattot Rahmonquli — Sodiqiy (Sodiqiy, Sodiq) haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Laffasiy “Tazkirai shuaro”sida shoirni quyidagicha tanishtiradi:

“Sodiqiykim Rahmonquli to‘raki, mashhuri omu xos bo‘lganidek, ul To‘ramurod to‘raning og‘li Said Muhammad xonning axtigi bolib, Rahimquli yoshlig‘ zamonasida ilm tahsilin Xiva ulamo mudarrislaridin o‘qib, bir xili ma'lumotli bo‘ladur”[2;34]. Shuningdek, ushbu tazkirada shoir haqida *“Rahmonquli forsiy va ham arabiy, hind lugatlig‘ asarlarini go‘yoki o‘z ona tili kabi o‘qib, fasohatlisonlig‘ bila tarjima qiladur erdi…”* — degan ta'riflarga ham duch kelamiz. Laffasiyning ma'lumot berishicha, Sodiq tarixni juda yaxshi bilgan, har xil gazeta va jurnallarni muntazam mutolaa qilib turgan. Feruz ko‘rsatmasi bilan “Sodiq” taxallusini olgan va she'rlar yoza boshlagan. E'tiborimizni tortgan holat, Laffasiyning Sodiq nazmiga bergan bahosidir: *“… Sodiqning har bir she'rlari nuqtaiy nazzoraga bir doxili ishqi majoziy bo‘lsa-da, asli ma'niy jihatdan oning har bir nuqtasidin ilm g‘avvoslari minglarcha ma'niy mafhum hosil qilib, daryoyi ummondin durri javohirlar-lali durri noyob mavjud qilur erdilar”.* Ko‘rinadiki,

Feruzning e'tiboriga tushgani, Laffasiyning shoir ijodi haqidagi yuksak bahosi Sodiqning iste'dodli ijodkorlardan bo‘lgani va uning hurmati baland bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ma'lumotlardan ayon bolishicha, Sodiq *“xushxatu xushxon” “xatti suls, xatti kofiy, xatti rayhoniy, xatti shikasta”*larni ona tilidek oqib, ham yoza olgan.

Xodimning “Xorazm navozandalari” asarida esa shoir Sodiq ijodi haqida: *“... Rahmonquli to‘ra eski maktabni bitkarib, madrasa ta'limotini to‘liq bitkargan. Forsiy, arabiy ilmlariga yaxshi olim edi. O‘zi shunday ilmlarga ega bo‘lsa ham xalq bila aloqasi juda ham yaxshi edi. Men shunday ilmlarga olimman degan da'vosi yoq edi. Ikkinchi bir odam bila so‘zlashmoqchi bo‘lsa, o‘zini kamtar tutar edi. Shoirliqi ham birinji o‘rinni olg‘on desa mumkin” [1;46-49]—* tarzidagi ma'lumotlarni uchratamiz.

Tadqiqotlardan, Feruz adabiy davrasi ijodkorlari asarlaridan namunalar ko‘chirilgan ayrim to‘plamlarda ham Sodiq she'rlari ko‘chirilgani ayon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №909 - raqamli manbada “Devoni Sodiq” nomli bir bo‘lim bo‘lib, unda shoir she'rlari jamlangan.

Sodiq ijodi janriga ko‘ra hozircha, g‘azal, muxammas, musaddas, qasida kabilardir. Afsuski, Sodiq ijodiga mansub lirik asarlar haqida ilmiy jamoatchilik deyarli tasavvurga ega emas. Zero, shoir she'riyati tadqiqi, ularning go‘zal badiiyat namunalari ekanini ko‘rsatadi.

Kuzatuvlarimiz natijasida, O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi yana bir manbada Sodiq she'rlaridan anchaginasi ko‘chirilgani aniqlandi. Ushbu toshbosma manba №8725- raqami bilan saqlanadi. Ushbu manbada g‘azal, muxammas kabi janrlardagi she'rlari ko‘chirilgan.

Sodiq g‘azallarining anchaginasi jamlangan yana bir manba Ahmad Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasidir. Ushbu to‘plamda shoirning taxminan yuzta g‘azali ko‘chirilgan. Tazkiradagi she'rlar shaklan va mazmunan yuksak darajadagi lirik asarlardir.

Tazkirasidagi ilk g‘azal Feruzning *“Topar kavnayn ichra maqsad ila komini Feruz, Inoyating bila bo‘lsa onga gar masnad paydo”* maqta'si bilan yakunlanadi. Ushbu she'rga yozilgan ikkinchi payrav g‘azal (tazkiradagi uchinchi g‘azal) esa Sodiq qalamiga mansub [3;6^{b}]. Shoir Sodiqning payrav g‘azallariga tazkirada dastlabki o‘rinlarda e'tibor berilgani ham shoirning hurmati nechog‘li baland bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tabibiy tazkirasida shoirlarning payrav g‘azallari oldidan ular haqida masnaviy ko‘rinishidagi ma'lumotlar berib boriladi. Tazkiradagi Sodiq haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot:

Yetushganda Sodiqga ushbu g‘azal,

Oqub komin etgach chuchuk chun asal,

Bu abyotni dedi ul nekinom,

Bo‘lub berdi shohi oliymaqom, — tarzida keltirilgan.

Tazkiradagi ilk g‘azal Feruzning:

Zihi bordur zuhuringga azal birla abad paydo,

Tafakkur aylabon zoting qila olmas xirad paydo, — matla'li yetti baytli g‘azali bilan boshlangan. Shoir Sodiqning ushbu she'rga yozilgan payrav g‘azali quyidagichadir:

Zihi Xoliqqa bo‘lmish san'ati birla jahon paydo,

Jahon ichra va xushu tayr birla insu jon paydo.

Ajab qudrat erurkim, xalq aylab ushbu olamni,

Hamul mehmon saroda qildi necha mehmon paydo.

Mutabbaq aylabon yer sathini ul Xoliqi olam,

Ham etdi qudrati birla muallaq osmon paydo.

Karam aylab birovga sarv guldek qomatu ruxsor,

Birovda ayladi qumri bulbuldek figon paydo.

Agarchi har zamonu har makonda Ul erur hozir,

Vale ermasdur Oning zoti pokiga makon paydo.

Inod ahli uchun zohir qilib qahrni, etti do‘zax,

Itoat qilgon elga ayladi sakiz jinon paydo.

Iloho, ayla Sodiq ko‘nglini ishqingga band andoq,

Kim onda bo‘lmasun g‘ayring xayolidin nishon paydo.

Sodiqning tazkiradagi ikkinchi g‘azali Feruzning *“manga”* radifli g‘azaliga payrav tarzida yozilgan bo‘lib, ushbu g‘azal:

Kecha-kunduz garchi ish jurm ila isyondur manga,

Rahmatingdin lekin ummid farovondur manga, — matla'si bilan boshlanadi.

Tazkirada Sodiqning so‘nggi payrav g‘azali esa:

Nechakim parvonavash ishqing otiga yoqilay,

Kulbam ichra bir kecha kelkim, boshingdin o‘rgulay, — matla'li besh baytli g‘azal bilan yakunlanadi.

Xulosa shuki, shoir Sodiq ijodi shu paytga qadar o‘rganilmagan. Afsuski, Sodiq ijodiga mansub lirik asarlar haqida ilmiy jamoatchilik deyarli tasavvurga ega emas. Shoir hayoti va ijodiga doir manbalarni qiyosiy o‘rganish, uning ijod namunalarini joriy alifboda tabdil qilish va ularni she'riyat me'zonlari asosida tahlil etish adabiyotshunosligimizning muammolaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodim. Xorazm navozandalari. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1994.

2.Laffasiy. Tazkirai shuaro. -Xorazm-Urganch. 1992.

3.Tabibiy. Tazkira. №1152.

4. G‘anixojaev F. Ahmad Tabibiy. — Toshkent: Fan, 1978.

5.Qosimov B. Izlay-izlay topganim. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.

6.Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Ma'naviyat, 2004.

PUBLITSISTIK ASARDA SHE`RNING O‘RNI
(HUMOYUN AKBAROVNING “QUYOSH HUZURIGA YO‘L OLGAN KARVON” TO‘PLAMIDAGI SHE`RLAR MISOLIDA)

Nurjahon UBAYDULLAYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya
Maqolada Humoyun Akbarovning “Quyosh huzuriga yo‘l olgan karvon” to‘plamidagi she’rlar tahlil qilingan. Publitsistik asarda she’rning o‘rni tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: *publitsistika, she’r, poetika, qahramon, holat, ijodkor.*

Annotation
The article analyzes the poems from Humoyun Akbarov's collection «Caravan to the Sun». The role of poetry in the journalistic work is analyzed.
Key words: *journalism, poetry, poetics, hero, situation, creator.*

Millat o‘z mustaqilligi davrida hayot va ruhiyat ko‘zgusi hisoblanadigan adabiyotida sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechiradi. Bu jarayonda o‘z - o‘zidan davr ma’naviyati, badiiy – estetik tafakkuri, yurtning istiqloli- yu istiqboli, buyuk tarixiga uyg‘un asarlar yaratilishi tabiiy. Shunday sharoitda, ayniqsa, yurt jamoli, o‘chmas tarixi, siyosiy manzaralari, global muammolari, go‘zal tabiati, buyuk farzandlari, erishgan muvaffaqqiyatlari, dunyo sahnasidagi o‘rni haqida so‘zlovchi, zamon ruhini aks ettiruvchi publitsistik asarlar muhim ahamiyatlidir.

Iste’dodli shoir, tarjimon va taniqli jurnalist Humoyun Akbarovning “Quyosh huzuriga yo‘l olgan karvon” [Humoyun, 2017] nomli kitobi davrning bunday talabiga javob beradi. Asarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar qamrab olingan. Vatanimizning suvrati, viloyatlarimizning o‘ziga xos qiyofalari bayoni uni o‘qigan o‘quvchiga Vatanni to‘lig‘icha idrok etishda juda katta ko‘mak beradi. Zotan, Qoraqalpoq diyorining qadim qal’alari, Amudaryoning sirli afsonalari, Xorazmning mangu san’ati, Buxoroning madrasalari, Sarmishsoy manzaralari, Alpomishning vatani – yu Jayxun oinasi tasvirlari, Qarshi navro‘zining xorij mehmonlari tasavvuridagi unutilmasizi, ulug‘ saltanat poytaxtining sarbaland obidalari, Zominning mo‘jizaviy tabiati, Gulistonning navobaxsh bulbullari, Sirdaryo sirlari, Ohangaronning o‘ziga mahliyo qiluvchi ohangrabosi, gullar shahrining farovonligi, Erkin Vohidov “hayqiriq”lariga aks- sado bergan purviqor tog‘lar ruhi, jon Andijonning samoviy

tulporlari, unutilmas armonlari, Toshkentning bugungi kun sahnasida nur taratayotganligi mazkur kitobdagi badiha ocherklar, esselar, suhbatlar va she`rlarda o‘z aksini topgan. Shoir, hunarmand, dehqon, baxshi, bog‘bon, san’atkor, xullas, professordan tortib beg‘ubor bolajonning o‘z Vataniga, vatandoshlariga samimiy muhabbati yaqqol, ta’sirli tasvirlangan. So‘zning nozik xis etilishi shoirning publisistikada o‘tkir qalami, ijodiy olami mavjudligini isbot etadi.Ijodkor asarda yurtimizning atoqli olimlari, shoirlari, san’atkorlari, arxeologlari bilan suhbatlar jarayonida yurtimizning o‘ziga xos tarixi, go‘zalligini ochishga intilgan. Xorazmda O‘zbekiston Qahramoni Qayrat Jumaniyozov, Termizda tarixchi Abdulla Xolmirzayev, Shaxrisabzda Nabi Xushvaqtov, Samarqandda filologiya fanlari nomzodi Erkin Musurmanov,Muslihiddin Muhiddinov, ulardan tashqari, olim Aziz Qayumov, mashhur haykaltarosh Jaloliddin Mirtojiyevlar bilan suhbatlar shular jumlasidandir.

Betakror lavhalar, unutilmas taassurotlarning ijodkor nigohida aks etishi, o‘tkir xotirasida jonlanishi ijod jarayonining jo‘shqinligini, tasvirlarning haqqoniyligini ta’minlaydi.

Humoyun Akbarov “Yurakdagi rangin kamalak” (1997), “Unutilgan gul” (1998), “Dilxiroj” (2000), “Ko‘nglim guli” (2005), “Yoshlik bekati” (2008), “Tuyg‘ular raqsi” (2010), “Intihosiz navolar” (2012) singari she`riy kitoblari muallifi, Persi Bishi Shellining “G‘arb shamoli” (2015), Aleksandr Pushkinning “Tumor”(2019) to‘plamlariga kiritilgan she`rlar, dostonlar, adabiyotshunoslikka oid asarlarining, shuningdek, buyuk rus yozuvchisi Chexov va ingliz shoiri Jon Milton asarlari tarjimonidir. [Mirvaliyev]

Ustoz adiblar Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Muhammad Ali kabilardan badiiy ijodga oid maslahatlar olishi ijodkorning falsafiy tafakkuri, nozik sezimlari, o‘tkir idroki, xalqona ohanglari yuzaga chiqishiga, barchasi birlashib ko‘ngilning tubiga sho‘ng‘ib ketuvchi kuylarga evrilishiga olib kelgan bo‘lsa, ne ajab?!

Ijodkorning “Quyosh huzuriga yo‘l olgan karvon” to‘plamidan joy olgan she`rlarda ham jonajon yurtiga muhabbati aks etib turadi.Bu to‘plamdagi maqola, suhbatlarning ijodkor ko‘nglidagi yuksak tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilganligi ularning har biriga bir yoki bir necha she’rlar kiritilganligidan anglashiladi. Shoir o‘zini ajablantirgan, o‘yga chorlagan asrorni shu she’rlar ta’sirida yanada mo‘jizaviyroq yetkazib beradi. Nasr, publisistika bilan ifodalab bo‘lmaydiga tuyg‘u va fikrlarini she’r, nazm vositasida ifodalagan ijodkorning vohadan taassuroti shunday:

Tabiatning imlosi sodda,
Mo‘jizaday bo‘lsa –da ayon,
Bir qarasang qoladi qalbda:

Yashil zamin va Moviy osmon.

- Shoir tabiatga qaratgan nigohning o‘zi ham mo‘jiza desak, adashmagan bo‘lamiz.

Yurtimizdanming – ming yillar madaniyat va savdo – sotiq yo‘li – “Buyuk Ipak yo‘li” kesib o‘tganligi barchamizga ma’lum. Buning qanchalar ulkan tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati bo‘lganligini ham tushunamiz. Jahonning eng durdona shaharlari Vatanimiz, eng buyuk donishmandlari ajdodimizdir. Ijodkorning qalami bu iftixorni “Buyuk Ipak yo‘li” she’rida shunday chizadi:

Bir taraf Chin qadar,
Bir yon Rimgacha,
Bugunimdan toki eng qadimgacha,
Buyuk Ipak yo‘li – oqqan daryosan,
Eng qutlug‘ manziling – yuragimgacha.

Ipaklari tillo, yorimga loyiq,
Qo‘ng‘irog‘i navo, torimga loyiq,
Karvon kelsa, do‘ppim ko‘kka otayin,
Yot yurtdagi oshno – bag‘rimga loyiq.

O, Buyuk yo‘l,
Har odimda bir manzil,
O‘rkach – o‘rkach to‘lqinlarda yayrar dil,
Yana yo‘lga chiqdi ulug‘ karvonim,
Murodu manzilim, yo‘llarim dong‘il! [Humoyun,2017;94]

She`r qofiyasi quyilib, qo‘shiqdek yangraydi. She`riy san’atlar, so‘z o‘yinlarining mohirona namoyishi ham ohangdorlikka o‘z hissasini qo‘shib, she`rdagi ko‘tarinki ruhiyatga sabab bo‘ladi. Dunyoning narigi chekkasidan bu chekkasigacha cho‘zilib, buyukligiga zamin yaratgan bu yo‘l haqida fikr yuritayotgan lirik qahramon she`rning ikkinchi misrasidayoq o‘yga chorlaydi:

Bugunimdan toki eng qadimgacha,

O‘z – o‘zidan savol tug‘iladi: Nima uchun “ O‘tmishimdan toki bugunimgacha” emas? Lirik qahramon bu o‘rinda zamonlarni taqqoslagan, Buyuk Ipak yo‘lining hozirgi kundagi mavqei va kechagi ahamiyatini ko‘zda tutgan, hammasidan ham, kechmishidan hozirini qidirish

emas, baxtli bugunidan shonli tarixini anglashi lozimligini, o‘zligini zamonadan chetlab, tarixga tashlay olmasligini, aksincha, bugungi o‘zligini dunyoga namoyish etib, tarixini qadrlashi lozimligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, mumtoz adabiyotda zid ma’noli so‘zlarning poetik matnlarda qo‘llanishi, uchrashi tazod san’ati deb e’tirof etiladi.Bu san’at mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod, tafoku deb ham ataladi. Yevropada esa bu “ antiteza” nomi bilan yuritiladi. Zid ma’noli so‘zlardan foydalanish badiiy matndagi obraz, holat va belgilarning antonimligi yordamida ta’sirchanligini oshirish uchundir. Ikkinchi misradagi “bugun va qadim” so‘zlari antonimik harakterga ega bo‘lish bilan birga, e’tibor qaratilayotgan asosiy tushuncha – yo‘lning barhayot ekanligini kuchliroq ta’kidlash uchun foydalanilgan.

Daryoning bir mavjlanib, bir osuda oqishini, tubida ne sinoatlar, gavxarlar yashirinib yotishini uchinchi misrada eslaymiz.Jilg‘a – yu ariqlar daryolarga, daryolar dengizlarga qo‘shiladi. Buyuk Ipak yo‘lining eng qutlug‘ manzili – bu lirik qahramonning yuragidir. Lirik qahramonning yuragi esa Vatandir. Ne – ne durdona shaharlarni bosib o‘tuvchi “daryo”ning qutlug‘ manzili (dengizi) bu lirik qahramonning Vatanidir.

Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.She’riy matnlardagi ohangdorlikka tovushlarning uslubiy qo‘llanishi natijasida erishiladi. Ushbu she`rning birinchi va ikkinchi bandlaridagi intonatsion butunlik, ohangdorlik emotsional – ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida assonans qo‘llanilgan. Assonans – aynan yoki yaqinunlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘lgan ohangdoshlikdir. Assonans qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she`rga ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi.

Ikkinchi bandda ohangdorlikni kuchaytirish maqsadida qofiyadan tashqari takroriy so‘z keltirilgan.Bilamizki, badiiy matnlarda bu usul uzoq tarixga ega. G‘azallarda qofiyadan keyin keluvchi so‘zlar “ radif” atamasi bilan o‘rganiladi. Takror usulidan foydalanayotgan ijodkor fikrni alohida ta’kidlashni, tasdiqlashni, kengroq, batafsilroq ifodalashni, unga o‘quvchining e’tibori mutlaq tushishini istaydi. She’rning bu bandidagi ikki misra grammatik jihatdan bir xil shakllangan va parallel aloqani yuzaga keltiradi. She’rdagi takrorning epifora shakli (misralar oxirida so‘z yoki so‘z birikmasi takrorlanishi) kompozitsion butunlikka hizmat qilgan.

Badiiy matnda barqaror birliklarning voqe’likni obrazli tasvirlashda, o‘quvchining ko‘z oldida aniq va teran gavdalantirishda o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. She’r tarkibida “do‘ppisini osmonga otdi” iborasi uchraydi. Bu bilan lirik qahramonning ruhiy holati yaqqolroq namoyon etiladi. Dunyoning go‘zal shaharlaridan keltirilgan ajoyibotlar, eshitilgan afsonalar, qimmatbaho

va nodir buyumlarni ortqilagan karvonning o‘z yurtiga kelishi lirik qahramonning ko‘zini quvnatadi, qalbini hayajonga chulg‘aydi va “do‘ppisini ko‘kka otiishi” ga sabab bo‘ladi.

Bilamizki, murojaat birliklari o‘tkir va ta’sirchan vositalardir. Mumtoz adabiyotda murojaat birliklari nido, iltifot san’atlari doirasida o‘rganilgan. Mazkur she`riy matnning uchinchi bandi boshlanishida zamonaviy adabiyotshunoslikda “ritorik murojaat” atamasi ostida o‘rganiladigan badiiy usul uchraydi:

O, Buyuk yo‘l

Ushbu o‘rinda lirik qahramon nutq faoliyatida keng qo‘llaniladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘layotgan aloqa munosabatini ifodalashda foydalaniladigan murojaat usulidan modal ma’noning ustuvorligini namoyish etish uchun foydalanadi. Lirik qahramon nutqidagi bu murojaat yo‘lning haqiqatdan ham buyuk ekanligini ta’kidlash uchun ishlatilgan. Shuning uchun ham bu murojaatdan so‘ng hech qanday so‘roq yoki alohida javob talab qilinadigan boshqa bir gap uchramaydi va ritoriklik kasb etadi. Shu bilan birga poetik nutq jarayonida tantanavorlik, ko‘tarinkilik ifodalanadi.

She’rning so‘ngi satrlari ko‘zlangan maqsadning, asosiy fikrning ko‘zgusi hisoblanadi. Shoir o‘z she’rini ulug‘ karvonning ulug‘ - dong‘il manzili va yo‘li borligini e’tirof etish bilan tugallaydi. Sinonimlarni qo‘llash jarayonida shoirning so‘z xazinasi boy ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Ijodkorning publitsistik asarida ellikdan ortiq she’rlar o‘rin olgan. Ularning har biri o‘ziga xos mazmun, badiiy quvvat, estetik bo‘yoqdorlik, ohangdorligi bilan to‘plamda muhim o‘rin egallaydi.

ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINING O‘RGANILISHI
(“XAZOYIN UL-MAONIY” MISOLIDA)

Orifjon OLIMJANOV
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasining o‘rganilishi, tadqiq etilishi masalasi “Xazoyin ul-maoniy” devoni misolida tahlilga tortilgan. Shoirning devon tuzish an’analariga kiritgan yangiligi hamda unga qat’iy amal qilish bo‘yicha fikrlari keltirib o‘tilgan. “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi lirik janrlar poetikasi haqida mufassil fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: *devon, debocha, lirik janr, poetika, axloqiy-falsafiy she’riyat.*

Annotation
In this article, the issue of studying and studying Alisher Navoi's lyrics was analyzed by the example of the” Khazayin ul-Mauni « wall. The poet's thoughts on the novelties introduced to the traditions of devon formation and strict adherence to it were mentioned. There is a detailed opinion about the poetics of lyrical genres in the khazayin ul-Mauni Devon.
Keywords: *devon, debocha, lyrical genre, poetics, moral-philosophical poetry.*

Alisher Navoiyning lirik merosi o‘zbek lirikasining milliy hamda qardosh adabiyotlarning eng ilg‘or an’analarini o‘zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichi hisoblanadi.Navoiy lirikasining tub mohiyati — falsafiy, ijtimoiy qarashlarning yuksak poetik shakldagi ifodasi bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Biz, birinchi marta, Navoiy ijodiyotida lirikaning davrning yetakchi falsafiy, ijtimoiy oqimlari bilan bevosita aloqasini ko‘ramiz.

Navoiyning lirik qahramoni — boy ma’naviy-axloqiy sifatlar sohibi bo‘lgan murak- kab bir tip. Uning ruhiy olami, xarakteriga xos muhim qirralar hayotga va o‘z zamonasiga bo‘lgan aktiv munosabati orqali ko‘z oldimizda yorqin namoyon bo‘ladi.U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosiy arbob. Ayni zamonda ishqining quvonch va alamlari, bekaslik va musofirlikning og‘ir ruhiy iztiroblaridan ham mahrum emas. Binobarin, bir o‘rinda, u ana shu insoniy tuyg‘ular girdobida turib oh-u nola qilsa, ikkinchi bir o‘rinda osmon-u falakni larzaga soladigan darajada na’ra tortadi.

Shoir shaxsida yoshlik davridayoq ko‘rina boshlagan mavjud muhitga tanqidiy munosabatda bo‘lish hissi davrlar o‘tishi bilan uning hayotiy tajribasi bilan bog‘liq holda, tobora kuchayib bordi va nihoyat u xilma-xil shakldagi chuqur muhokamalardan keyin «olamni odam manfaatlariga moyil qilib va u bilan birga odamni ham qaytadan yaratish kerak» degan buyuk xulosaga keldi.Shuning uchun ham mazmunan chuqur, g‘oyaviy pafos jihatidan yuksak va badiiy barkamol bu she’riy durdonalar shoir hayotligi chog‘idayoq milliy va hududiy chegaralarni yorib o‘tib, Xuroson, Movarounnahr, Kichik Osiyo va Sharqiy Turkistonda keng shuhrat qozondi.

Navoiy lirik she’rlarining xalq orasiga naqadar tez yoyilganligini shundan ham bilish mumkinki, shoir 24-25 yoshlik chog‘larida uning bir qancha she’rlari she’riyat muxlislari tomonidan to‘planib, maxsus devon holiga keltirilgan.Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Navoiy lirikasi haqidagi dastlabki fikrlar uning hayotlik paytida bayon qilingan va ularda shoir lirik merosining mohiyati ixcham, ammo mukammal baholangan.

Navoiyning «Orazin yopqach» deb boshlanuvchi mashhur bayti haqida Lutfiy bildirgan fikrni umuman shoir lirikasi haqida bayon qilingan dastlabki baho deb aytish mumkin.Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida Alisherning tengsiz iste’dodi, uning har ikki tilda she’r yozishi, biroq mayli turkan yozishga ko‘proq ekanligini ta’kidlagach, «ba on zaboi besh az vay va beh az vay kase she’r naguftaast va gavhari nazm nasufta» (u tilda (ya’ni turkiyda — Y. I.) hech kim undan ko‘p va undan yaxshiroq she’r ayta olmagan va nazm durlarini tera olmagan) deb yozadi.Ana shu bir jumlada Navoiy adabiy merosining, jumladan, lirik merosining eng muhim jihatlari (hajm jihatidan ham, mazmun va badiiy shakl nuqtai nazaridan ham) nihoyatda ustalik bilan ko‘rsatib berilgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, Navoiyning yosh zamondoshlaridan bo‘lmish Zahiriddin Boburning Navoiy she’riyati haqida «Boburnoma”da bayon qilgan fikri ham Abdurahmon Jomiy fikri bilan aynan mos keladi.

Hakimshoh Qazviniy ham «Majolisun-nafois» tarjimasining ilova qismida Alisher Navoiyning ham turkiy, ham forsiy tilda yuksak mahorat bilan she’rlar yozganligini bayon etib, o‘z fikrini quyidagicha xulosalaydi: «Hech kim turkiy she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan».

Umuman, XVI—XIX asrlarda Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Turkiya va O‘rta Osiyoda tuzilgan va Alisher Navoiy nomi kiritilgan tazkiralarda Navoiy ijodi, jumladan, uning lirikasi haqida bayon qilingan fikrlarni shunday umumlashtirish mumkin: Alisher Navoiy har ikki tilda (o‘zbek va fors tillarida) mahorat bilan she’rlar bitgan. Biroq uning ta’bi turkiy she’rga ko‘proq

moyil bo‘lgan. Turkiy tilda hech bir kishi undan ko‘proq va undan ko‘ra yaxshiroq she’r yaratgan emas.

H. T. Zarifov «Ruboiy» nomli maqolasida Navoiy ruboiylarining g‘oyaviy-badiiy mohiyatini tahlil etibgina qolmay, ayni zamonda ruboiy janrining spetsifik xususiyatlari, uning o‘zbek adabiyotida vujudga kelishi va rivojlanishi uchun zamin bo‘lgan milliy adabiy omillar haqida ham original mulohazalar yuritadi. «Lutfiy va Navoiy» deb atalgan katta hajmli maqolasida esa o‘zbek poeziyasi an’analarining Navoiy she’riyati taraqqiyotida tutgan o‘rni, xususan, Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek lirik poeziyasining yuqori cho‘qqisi bo‘lmish Lutfiy g‘azaliyotining Navoiy ijodiga ta’siri xususida jiddiy fikrlar bayon qiladi, bu ta’sirning muhim ko‘rinishlarini muayyan tarzda belgilashga harakat qiladi.

Y.E.Bertels «Navoiy» monografiyasida Navoiy devonlarining (jumladan, forsiy devoni) qo‘lyozmalari haqida ma’lumot beradi, ularni muqoyasa qiladi. Shu bilan birga, Navoiy turkiy g‘azallarining o‘ziga xos muhim tomonlari haqida fikr yuritib, ayrim g‘azallarning mufassal tahlilini beradi, Navoiy qit’alarining mohiyati haqida ham maxsus mulohazalar bayon qiladi.

M. Shayxzodaning «Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida» hamda «Ustodning san’atxonasida» maqolalari Navoiy lirikasidagi badiiy tasvir poetikasini o‘rganishdek muhim bir vazifani ado etish borasidagi dastlabki ijobiy natijalar deb aytish mumkin.

Oybekning Navoiy g‘azaliyoti haqidagi ikkita maqolasi ham shoir lirikasining asosiy mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan. Ularda Navoiy g‘azallari sharq g‘azalchiligi fonida olib tekshiriladi, bu g‘azallarning g‘oyaviy mazmunini tashkil etgan muhim unsurlar haqida fikr yuritiladi.

A. Hayitmetovning «Navoiy lirikasi» monografiyasida ulkan san’atkorning boy lirik merosi batafsil tahlil qilindi. Shoir lirikasininr asosiy janrlari, uning g‘oyaviy asoslari, asosiy obrazlari maxsus boblarda izchil tekshirildi, Navoiy lirik she’r- larining sharqona lirik tamoyillarga munosabati ustida muhim fikrlar bayon qilindi.N.M.Mallayev «O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida» nomli maqolasida Navoiy g‘azaliyoti taraqqiyoti uchun asos bo‘lgan mu- him omillar hamda Navoiy g‘azallarining bir qator xususiyatlari haqida mulohaza yuritgan.A. Abdug‘afurovning buyuk adib asarlaridagi satira va yumor tahliliga bag‘ishlangan «Navoiy ijodida satira» nomli monografiyasida shoir she’riyati, xususan, g‘azal va qit’alari tadqiqot doirasiga keng jalb etilgan.A. Rustamovning «Navoiyning

badiiy mahorati» asarida shoir poetikasi bilan aloqador ba’zi masalalar talqinida, «Xamsa» bilan bir qatorda, lirik she’rlarga ham murojaat qilingan.

Yuqorida eslatilgan asarlarning ba’zilarida Navoiy poetikasi bilan aloqador ba’zi masalalar, xususan, janr poetikasining ayrim qirralari u yoki bu darajada tahlil etilgan.

Ustoz Shayxzodaning Navoiy lirikasidagi badiiy tasvir poetikasiga bag‘ishlangan katta ko‘lamdagi asari esa tugallanmay qoldi. Alisher Navoiy poetikasining asosiy qirralari haqida muntazam tasavvur hosil qiladigan maxsus asarga bo‘lgan ehtiyoj hozir ham kun tartibidan tushgan emas.

Ma’lumki, o‘zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal holga kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog‘langan. Navoiy devonida biz, bir tomondan, o‘zbek poeziyasida o‘zining ma’lum an’analariga ega bo‘lgan lirik janrlarning mohiyat e’tibori bilan yangicha rivojini ko‘rsak, ikkinchi tomondan, fors adabiyotida o‘zining qat’iy qonuniyatlariga ega bo‘lgan, ammo o‘zbek adabiyotida (yoki umuman turkiy adabiyotda) paydo bo‘lmagan yoki u qadar rivoj topmagan ba’zi bir janrlarning yangi zamindagi hayotini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Binobarin, asosiy lirik janrlarni, adabiy qolip va an’analar bilan munosabati nuqtai nazaridan tizimli tahlil etish asosida, ularning ichki dinamikasi va adabiy jarayondagi mavqeini belgilash hamda shu asosda Navoiyning lirik janrlarning taraqqiyot tarixidagi rolini ko‘rsatish bizning zimmamizdagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Navoiyning poetika sohasidagi novatorligini uning devon tuzish an’anasiga bo‘lgan ijodiy munosabatidanoq yaqqol sezish mumkin. Alisher Navoiy «Xazoyinul-maoniy» uchun debocha yozgan. Bu debocha har jihatdan puxta ilmiy risola bo‘lib, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Unda muallif, o‘z zamondoshlarining uning she’rlariga bo‘lgan munosabati, mavjud devonlari va ularning yuzaga kelish sabablari hamda o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zining turli lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, xullas, butun poetik ijodining muxtasar va yorqin kartinasini chizadi.

Navoiy mazkur devon debochasida to‘rtala devonning .nomlanishi masalasida shunday yozadi:»...Avvalgi devonnikim, tufuliyat baxori gunchasi- ning ajib gullari va sigar gulzori bogchasining garib chechaklari bila orosta bo‘lub erdi, «G‘aroyibus-sig‘ar» deyildi. Ikkinchi devonnikim, yigitlik oshuftalig‘ va shabob oluftalig‘ yozi va dashtida yuzlangan nodir vaqoye’ bila piyrosta bo‘lub erdi, «Navodirush-shabob» ataldi. Va uchinchi devonnikim, vasat ul-hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan bade’ nishotlar kayfiyatin yozilib erdi,

«Badoye’ ul-vasat» ot qo‘yuldi. Va to‘rtinchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dard-u ranji foydalarikim, jonso‘z oh urmoq va jon topshurmoqdurkim, onda sabt bo‘lubtur, «Favoyidul-kibar» laqab berildi».

Navoiyning mazkur so‘zlarini, ya’ni devonlarning nomlanishini shartli deb qabul qilish kerak. Chunki u she’rlarni devonlarga taqsimlagan paytda, ularning haqiqiy xronologiyasini nazarda tutmagan, balki har bir she’rning ruhi, uslubiga ko‘proq e’tibor qilgan. Natijada, yoshlik chog‘ida yozgan ko‘pgina g‘azallarni keyingi uchta devoniga kirib qolganidek, qarilik chog‘ida yozgan g‘azallarining bir qismi ham avvalgi devonlarida uchraydi. Shuning uchun ham, Navoiy hayotining turli davrlarida yozilgan g‘azallar soni bir-biridan tafovut qilishiga qaramay, «Xazoyinul-maoniy» devonlaridagi g‘azallar soni teng (650 tadan).

Navoiyning devon poetikasi sohasidagi mavjud an’analarga tanqidiy munosabati yigitlik davridayoq shakllangan bo‘lib, u o‘zining bu boradagi mulohazalarini birinchi tuzgan devoni «Badoye’ ul-bidoya» debochasida ochiq bayon qilgan.

Alisher Navoiy mazkur debochada: «Necha nav’ ishkim munda mar’i bo‘lubturur, o‘zga davovinda ko‘rulmaydur. Ul budurkim»,—deb, o‘z devoniga xos to‘rtta original xususiyatni sanab ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar devonning tuzilishi hamda uning mohiyati, she’rlarning g‘oyaviy asoslari hamda uslubi uchun taalluqli.

Avvalo, mavjud devonlar 28 ta maxsus arab harflari asosida tuzilgan bo‘lib, shoirlar fors va turk tillari uchun xos bo‘lgan «to‘rt harfga taarruz qilmaydururlar». «Bu jihatdan ul to‘rt harf javharidin dog‘i o‘zga huruf javhari silkiga tortib, g‘azaliyotni o‘ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi».

Ikkinchidan, «har harf g‘azaliyotining avval bitilgan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyati- din tafovut rioya qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g‘ofil bo‘lmog‘liq noqisdur... Bu nav’ xayol xotirg‘a kelgan uchun har harf g‘azaliyotining avvalg‘i g‘azalni yo tengri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayhissalom na’ti bila mufattax yo bir mav’iza bilakim, bu ikki ishtin biriga dol bo‘lg‘ay, muvazzah qilindi».

Demak, Navoiy devonida har bir harf hamd yoki na’t xarakteridagi g‘azallar bilan boshlanadi va bu hol devon tarkibidagi har bir guruh g‘azallarga o‘ziga xos mustaqillik ruhini bag‘ishlaydi.

Navoiy devoniga xos uchinchi xususiyat bevosita uning mavzu doirasi va g‘oyaviy asoslari bilan aloqador. «...Bu devonda hamd va na’t va mav’izadin boshqa har sho‘rangez

g‘azaldinkim, istimoi mahvashlarg‘a mujibi sarkashlik va g‘amkashlarga mujibi mushavvashliq bo‘lg‘ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav’izatoso bayt ir- tikob qilindi...». Bu yerda ran devondagi she’rlarning tematik-g‘oyaviy jihatdan kengligi, falsafiy, didaktik va ijtimoiy jihatning kuchli ekanligi ustida bormoqda.

Shoir ta’kidlariningto‘rtinchisi esa bevosita g‘azalga taalluqli bo‘lib, uning g‘azalchilik traditsiyasiga bo‘lgan tanqidiy qarashlari hamda novatorligini aniqlashga imkon beradi.

Navoiyning mazkur mulohazalari uning birinchi devoni «Badoye’ ul-bidoya» munosabati bilan bayon qilingan. «Xazoyinul-maoniy» esa undan qariyb o‘ttiz yilcha keyin tuzilgan. Binobarin, Navoiy lirik merosining mukammal majmuasi hisoblangan bu asarda uning devon poetikasi borasidagi barcha rejalari to‘liq ifoda- sini topgan bo‘lishi, shubhasiz. Jumladan, «Xazoyinul-maoniy»da barcha harflarning boshlanish qismiga maxsus sarlavhalar qo‘yilgan. Shuningdek, qit’alar ham ularning mohiyatini yaxshiroq idrok etish uchun yordam beradigan, san’atkorona yozilgan maxsus sarlavhalar bilan ta’minlangan.

Bu devon poetikasi uchun xos fazilatlardan yana biri uning butun strukturasi qat’iy simmmetriya qonuni asosiga qurilganligidadir: devonning asosini tashkil etgan gazallar (2600 ta) to‘rtala devonga bir xilda (650 tadan) taqsimlangan; har bir qofiya yoki radifga barcha devonlarda she’r berilgan (iloji boricha, teng miqdorda va bir xil o‘rinda). Shuningdek, radif sifatida kelgan so‘zlar (xususan, arabcha so‘zlar) bir o‘zakka mansub bo‘lsa, ularning grammatik jihatdan yasalgan tartibi ham nazarda tutilgan (masalan: taxsis — maxsus).

Xullas, devon tuzish tarixida o‘ziga xos hodisa hisoblangan «Xazoyinul-maoniy» Navoiy lirik merosining haqiqiy ko‘zgusigina emas, balki o‘zbek mumtoz she’riyatining barcha fazilatlarini o‘zida mujassam etgan poetik ensiklopediya bo‘lib qoldi.

SAID AHMAD ASARLARIDA XALQ MAQOLLARI

Nargiza ISOMIDDINOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Adib Said Ahmad asarlarida keltirilgan o‘zbek xalq maqollarining qo‘llanilishi va xususiyati ochib berilgan. Asarlarda foydalanilgan maqollar berilgan. Xalq maqollarining o‘ziga xos xususiyati haqida fikr yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Said Ahmad, hikoya, maqol, xalq og‘zaki ijodi, komediya.*

Annotation: *This article describes the use and nature of Uzbek folk proverbs in the works of Said Ahmad. The proverbs used in the works are given. The peculiarities of folk proverbs are discussed.*
Key words: *Said Ahmad, story, proverb, folklore, comedy.*

Mashhur o‘zbek adibi Said Ahmad nasrning deyarli barcha janrlarida qalam tebratgan ijodkor hisoblanadi. Adib hikoyanavis sifatida tanilgan. Hajviy hikoyalar yaratish bo‘yicha Qahhor an’analarini davom ettirgan ijodkordir. Yozuvchi hajviy so‘zlardan mohirona foydalangan. Asarlarida fraza, maqollardan unumli foydalangan. Maqollar va iboralar adabiy asarlarning gultoji hisoblanadi. Asarning tilini yanada jozibali qiladi. Maqollar qisqa bo‘lishiga qaramay, og‘zaki adabiyotning eng didaktik xususiyatga ega turidir. Bu qisqa jumlalar ichiga ulkan ma’no singdirilgan. Said Ahmad asarlarida ham maqollardan kerakli o‘rinlarda foydalangan. Aynan maqollarning asarlarida keltirilishi ijod mahsulining ma’nosini, qahramonlarning ruhiyatini ochib bergan.

Maqollar – xalq og‘zaki ijodi janri hisoblanadi. Maqollar qisqa va lo‘nda, obrazli va chuqur mazmunga egadir. Maqollarda hayotiy tajriba, jamiyatga munosabat, ruhiy holat, tarbiya va ijobiy fazilatlar mujassamlashgan. Turkiy xalqlarda maqollardan namunalar dastlab Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”asatida keltirilgan. Asarlarda maqollarning qahramon tilidan yoki voqeani ifodalashda roli katta. O‘zbek xalqi kundalik hayotda ham juda ko‘p maqollarni qo‘llaydi.

Said Ahmadning ko‘plab asarlarida hajv bilan birga maqollarni ham uchratishimiz mumkin. Uning “Kelinlar qo‘zg‘aloni” komediyasida bir qancha maqollar keltirilgan. Asar qahramoni Bashorat tilidan aytilgan maqollarni kuzatadigan bo‘lsak, undagi ijtimoiy, ruhiy holatni sezamiz.

“Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo‘ling. Aslo sir ayta ko‘rmang, darrov sotadi. Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga”[214-bet].

Asar qahramoni Bashorat yangi kelin Nigoraga maslahat berish maqsadida bu maqolni keltiradi. Bu maqol negizida sir aytmaslik, hech kimga ishonmaslik ifoda etilgan.

Yozuvchi asarda Bashorat tilidan aytilgan maqollarda uning xarakterini ochib bergan. Ya’ni uning har bir gapiga maqol qo‘shib gapirishini yuzaga chiqargan. Asar matnida asosan bu qahramon tilidan keltirilgan maqollar ko‘p.

“Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak”, “Qudachilik-ming yilchilik”, “Yuzga aytganni zahri yo‘q”, “Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim”[225-bet].

“Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga”, “Qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im deyar ekan, tipratikon yumshog‘im deyar ekan”, “Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga”[226-bet].

“Menam edim seningdek, sen ham bo‘larsan meningdek”[231-bet].

“Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar”, “Oyni etak bilan yopib bo‘larmidi” [236-bet].

Asarda yana bir qahramon Farmonbibi tilidan aytilgan maqollarni ham uchratish mumkin. “Ko‘p gap eshakka yuk”[226-bet].

“Meni Bashorat kelinim aytganday:” Nima eksangiz, shuni o‘rasiz”. Endi boring”[235-bet].Ko‘rinib turganidek qaynonaga har gapida maqol ishlatadigan kelinining ta’siri sezilgan. Bu komediyada maqollardan foydalanish hajvni yuzaga keltirgan.

Asarda aytilmoqchi bo‘lgan fikr qisqa, lo‘nda qilib maqol bilan ifodalanganligi asarga o‘zgacha joziba, betakrorlik beradi.

Yana bir asar qahramoni Hasan tilidan aytilgan maqollarni ko‘rsak, bunda maslahat ma’nosida qo‘llanilgan.

“O‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan”, “Sichqonni o‘lgisi kelsa, mushuk bilan o‘ynashadi”[19-bet].

Said Ahmad hikoyalarida ham bir qancha maqollardan o‘rinli foydalangan.” Egri mo‘ridan-egri tutun”[138-bet]

“Siylaganni sigir bilmas”[116-bet].

Maqollar xalq og‘zaki ijodining qisqa, chuqur mazmunga ega janri hisoblanadi. Badiiy asarlardan maqollardan keng foydalaniladi. Chunki maqollar fikrni ixcham shaklda ifoda etishga xizmat qiladi. Maqollardan foydalanish asarni ko‘rkam qilishi bilan birga, asar qahramonining ichki ruhiyati, xarakterini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Said Ahmad o‘z asarlarida ham maqollardan foydalanib, o‘zgacha ruhiyat baxsh eta olgan.

Xalq hayotida muhim o‘rin tutgan maqollardan foydalanish asarni o‘qishli qiladi. Va anglatilayotgan fikrni ixcham yuzaga keltirishda foydalaniladi. Hozirda badiiy asarlarda xalq maqollaridan foydalanish bir qancha yutuqlarga olib kelishi mumkin.

1.Asarning ixchamligini ta’minlaydi.

2.Fikrni qisqa va oson kitobxonga yetkazadi.

3.Maqol qo‘llanilsa asarlar xalqqa yaqin bo‘ladi.

4. Unutilib ketgan maqollardan foydalanish ularni yana muomalaga qaytishiga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad.Tanlangan asarlar II jild.-T.:Sharq, 2000. 116-236-betlar.
2. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.-T.,2010.
3. O‘zbek xalq maqollari I-II jildlar.-T.: Fan,1987.
4. Said Ahmad .Sobiq o‘g‘ri.-T., 2008.

NAVOIY IJODIDA ILMI BADI'

Rayhon MALIKOVA
ToshDO'TAU, O'zbek filologiyasi fakulteti,
2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy adabiyotning asosiy unsuri hisoblangan ilmi badi' haqida ma'lumot beriladi. O'zbek mumtoz adabiyotining tengsiz namoyandasi, buyuk so'z san'atkori, g'azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy baytlarida ilmi badi'ning mahorat bilan foydalanilganligi yoritiladi.*
Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy,ilmi badi', g'azal, she'riy san'at, bayt, misra.*

Annotation: *This article gives you a brief overview on science fiction, which is a key element of fiction. Alisher Navoi, an incomparable representative of Uzbek classical literature, a great artist of words, the sultan of the ancient kingdom, describes the skillful use of science and art in his verses.*
Keywords: *Alisher Navoi, science fiction, gazalee, poetic art, distich, misra.*

"Mana besh yuz yildan ortiq muddatki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she'riyat mulkining sultoni, madaniyat va ma'naviyatimizning porloq quyoshi bo'lib kelmoqda. Navoiyning buyukligi va xalqimiz tarixidagi xizmatlari mutafakkir shoirligi bilangina belgilanmaydi, albatta. Navoiy badiiy ijod jabhasida qanchalik tengsiz bo'lsa, ilmda, ya'ni olimlikda ham shunchalik benazir. Navoiyning tilshunoslik, tarix va tasavvufshunoslikka bag'ishlangan asarlari hanuzgacha o'zining ilmiy qimmatini boy bergani yo'q."[4. 1-2-bet]

Alisher Navoiy ijodini o'rganish davomida uning g'oyaviy kengligiga, mukammal, naqadar betakror va nafisligiga guvoh bo'lamiz. Navoiy ijodida ilmi badi'ning qay tarzda qo'llanganini tahlil qilishdan oldin badiiy san'atlar haqida nazariy ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Ilmi badi'(arabcha badi'- go'zal, chiroyli, ajoyib, nodir, nafis, yangi paydo bo'lgan narsa) - Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha bo'lib, mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatiladigan va zamonaviy adabiyotlarda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar ilmi badi'ning asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi bad'i *sanoyi' ilmi* deb ham yuritiladi. Ushbu ilmga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, ularga Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom", Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi", Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" asarlari kiradi. Ilmi badi' fors-tojik

adabiyotshunosligida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a”, Rashididdin Vatvotning “Xadoyiq us-sehr”, Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam’’(uchinchi qismi), Vahid Tabriziyning “Jam’i muxtasar” kabi asarlari shu sohaga bag‘ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkiy tilda ilmi badi’ masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san’atlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda 97 san’at turi haqida so‘z boradi.

Ilmi badi’ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” risolasi bo‘lib, unda ilmi badi’ tarixida ilk marta badiiy san’atlar uch katta guruhga: lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlarga ajratilgan. Badiiy san’atlarni mumtoz manbalar asosida o‘rgangan olim Y.Is’hoqov mumtoz adabiyotimizda qo‘llanilgan asosiy san’atlarni ularning she’riy matn doirasidagi funksiyasi bilan aloqadorlikda 10 ta guruhda o‘rganishni tavsiya qiladi. Mumtoz she’riy san’atlar Z.Mamajonov tomonidan ham tasnif qilingan bo‘lib, olim ularni yuzaga kelish asosi nuqtayi nazaridan 12 guruhga ajratadi. Biz ushbu tasniflarning ijobiy jihatlarini e’tirof etgan va umumiy tarzda foydalangan holda mumtoz she’riyatimizda qo‘llanilgan san’atlarni asosan uchta katta guruh (Atoulloh Husayniy tasnifi) doirasida ko‘rib chiqamiz.

Lafziy san’atlar nutqning ifoda usuli, xususan, so‘z shakli bilan aloqador san’atlar bo‘lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga *tarsi’, tajnisli tarsi’, tajnis, radd (qaytarish)* san’ati va uning turlari, *qalb* va uning turlari*, saj’, tashtir, tajziya, tasri’, tasmit, aks, tardid, zulfqofiyatayn, tashvish, talavvun, mulamma’, muqatta’, muvassal, jam’ ul-huruf, murabba’ yoki musoviyattarafayn, mudavvar, mushokala* va boshqa san’atlarni kiritadi. Olimning fikricha, lafziy san’atlar ijodkor yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilishi kerak.[2. 176-bet]

Quyida Navoiy ijodidagi lafziy san’atlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Noma uchun xoma tarosh ayladim,
Xoma uchun noma xarosh ayladim.

‘‘Hayrat ul-abror’’ dostonidagi bu baytda *tarsi*’(bayt misralaridagi barcha so‘zlarning qofiyadosh bo‘lishi) san’ati qo‘llanilgan.

Har labing o‘lganni tirguzmakda jono, jon erur,
Bu jihatdan bir-birisi birla jonojon erur.

Ushbu matla’ bilan boshlangan g‘azalda ‘‘jon’’ so‘zi o‘n to‘qqiz, ‘‘jonon’’ so‘zi o‘n olti marta takrorlanib kelgan. Biroq bu qaytariqlar bizga noxush tuyulmaydi, aksincha, kuchli zavq uyg‘otadi, shoirning zakovati, topqirligiga qoyil qolamiz. Butun bir g‘azal *tajnis*, ya’ni bir o‘zakli, shakli o‘xshash, ammo ma’nolari xilma-xil so‘zlar vositasida barpo bo‘lgan. Navoiy tasvirlagan oshiqning sevgan yori xuddi Masih singari o‘likka jon bag‘ishlay oladi. Birinchi misradagi ‘‘jon’’ so‘zi inson ruhi ma’nosida, ikkinchi misradagi ‘‘jonojon’’ so‘zi inoq, ittifoq ma’nosida qo‘llangan. Shundan kelib chiqib baytni quyidagicha sharhlasak bo‘ladi: ‘‘Yorim, sening har bir labing o‘lgan kishini tiriltirish, unga qayta jon ato etish qudratiga ega. Bu ishda ular bir-biri bilan juda inoqdirlar’’. G‘azal boshlanmasida tasvirlangan bu ma’no g‘azal oxirigacha yanada kengayib, boyib, latofati ortib boradi. Butun g‘azal bo‘ylab tajnisni uzluksiz davom ettirish bir san’at bo‘lsa, uni muhim ijtimoiy-axloqiy g‘oya bilan bog‘lab rivojlantirish orqali go‘zal tasvirni vujudga keltirish yana bir san’at, yuksak shoirlik mahoratidir.

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.

Birinchi misradagi ikki so‘z ‘‘balo qaro‘’, keyingi misrada o‘rinlari almashingan holda ‘‘qaro balo‘’ tarzida qo‘llanmoqda. Mazkur g‘azal boshdan oyoq *tardi aks* san’atiga tayanadi. Shoirning qalami ostidan chiqqan so‘z shunchalik ma’no tovlanishlari bilan namoyon bo‘ladiki, ularni o‘qib hayratimiz ortadi, qalbimiz huzur topadi. Oddiygina ko‘z tasviriga bag‘ishlangan bu misralarda so‘zlarning jilvasini ko‘rish mumkin. Bu jilvakorlik tardi aks san’ati orqali vujudga kelmoqda. Gap birinchi misrada ko‘zning qoraligi haqida, keyingisida shu qoralikdan ko‘ngilga (jonga) tushgan g‘ulg‘ula haqidadir.

Jam’i ham birdurur inak fuqarobu rufaqo,
Siyg‘ayi mufradi ham ayni faqir o‘ldi rafiq.

Baytdagi ‘‘fuqaro‘’, ‘‘rufaqo‘’, ‘‘faqir’’ hamda ‘‘rafiq’’ so‘zlari qisman teskarilashtirilgan bo‘lib, *qalb* (muayyan so‘zni to‘la yoki qisman teskari qilib misra yoki bayt doirasida ikkinchi bor takrorlashga asoslangan lafziy san’at) san’atini yuzaga keltirgan.

Jonimdagi «jim» ikki dolingg‘a fido,
Andin so‘ng «alif» toza niholingg‘a fido
«Nun»i dog‘i anbarin hilolingg‘a fido,
Qolg‘on ikki nuqta ikki xolingg‘a fido

Ushbu ruboiyda arab alifbosi harflari ko‘rinishidan foydalanib yaratilgan obrazga asoslangan san’at turi *kitobot* qo‘llanilgan.Jon so‘zidagi jim (ج) yorning doli, sochlaridagi

gajaklariga, alif (ا) tik qomatiga, nun (ن) hilol, ya’ni yangi oydek egma qoshlariga, jim va nundagi ikki nuqta ikki xoliga qiyoslanyapti. Natijada arab harflaridan foydalanilib, jon (جان) so‘zi kelib chiqmoqda.

Badiiy san’atlarning ikkinchi katta guruhi ma’noning birlamchiligiga asoslanib, badi’ ilmida ma’naviy san’atlar deb yuritiladi. *Tashbih, talmih, tamsil, husni ta’lil, irsoli masal, laff va nashr, mubolag‘a, iyhom, tashxis, tanosub, ruju’, tajohuli orif, kalomi jomi’* kabilarni o‘z ichiga oladi.[2. 184-bet]

Navoiy sham’dek yig‘lab, kuyub holimni sharh aylay,
Ul oy bazmida bir tun rost oshiqlarg‘a bor o‘lg‘och.

Navoiy o‘zini shamga o‘xshatish asnosida *tashbih* san’atini misrada qo‘llamoqda.

Istaram, ey Xizr, kelgaymen qilib jon birla devonamen,
Ka’bayi ko‘yin xabar topquncha borg‘onimdin el.

Baytda Xizr, Ka’ba obrazlari vositasida *talmih* (she’rda tarixiy afsona va hikoya qahramonlari, payg‘ambarlar, adabiy asar qahramonlari nomlari, joy nomlari keltirilishi) san’ati vujudga kelgan.

Kishiga o‘xshamas go‘yo paridur,
Pari yo‘q, oftobi xovariydur.

Shoirning she’rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan badiiy san’at *ruju’* deyiladi. Yuqoridagi baytda undan foydalanilgan.Birinchi misrada oshiq o‘z yorini oddiy insonlarga o‘xshatmaydi, go‘yoki pariga qiyoslaydi. Keyingi misrada pari deyishdan voz kechib, sharq quyoshi deb atamoqda.

Soqiyo, men yutmag‘on xunobi hijron qoldimu?
Bermasang may, emdi qon yutmoqqa imkon qoldimu?

Alisher Navoiyning ushbu bayti *tajohuli orif* (shoirning muayyan narsa, holat yoki tushuncha mohiyatini bilmaslikka olish orqali obrazli holat yaratish) san’atining betakror namunasi hisoblanadi.Ushbu bayt tasavvufiy talqinda bo‘lib, bunda ‘‘Soqiy’’ deganda ishq sirlarini o‘rgatuvchi piri komil, ‘‘may’’ deyilganda ishq tushunilishi darkor.O‘zining holati o‘ziga ayon bo‘lib tursa-da, xuddiki hech narsadan bexabarday shoir soqiyga yuzlanib, ‘‘Yana qancha hijron azobini tortaman. Agar menga ishq bermasang, qon yutmoqlikdan boshqa imkonim qolmaydimi?’’ demoqda. Baytda ishqdan bebahra qolgan oshiq kechinmalari tasvirlangan.

Ilmi badi'ning uchinchi turi mushtarak san'atlar bo'lib quyidagi san'atlarni iborat: *tazod, tajnis, ishtiqoq, iqtibos, aqd, tazmin, tatabbu', baroati istihlol*.[2.192-bet]

Base issig'-sovug' ko'rdim zamonda,

Base achchig'-chuchuk tottim jahonda.

Ushbu baytda zid ma'noli so'zlarga asoslangan *tazod* san'ati qo'llanilgan. Baytda shoir hayotning bir tekisda o'tmasligini, shirin, baxtli lahzalar bo'lganidek, achchiq azoblar mavjudligini bayon qilgan. Aynan o'z boshidan shunday kunlarni o'tkazayotganini aytib o'tgan.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

Mumtoz adabiyotdagi an'anaviy ishqiy mavzuda bitilgan ''Bo'ldum sanga'' radifli g'azali maqta'sida ''Xuddi Navoiy singari senga asir-u benavo bo'lmaguncha, g'am-g'ussa changi(sozi)dan biron-bir kuy eshitmadim'', deya oshiq yorga murojaat qilmoqda. Baytda ''navoe'' va ''Navoiy'' asosdosh so'zlari keltirilib, *ishtiqoq* san'ati hosil qilingan. Bu esa baytning fusunkorligini yanada oshirgan.

Ilmi badi'ning Navoiy ijodida qanday mohirlik bilan qo'llanilganini yuqoridagi ayrim misollar asnosida ko'rib chiqdik. Bunday namunalarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Qaro ko'zum, kel-u mardumlug' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Ijodkorning ushbu birgina baytida bir necha san'atlar qo'llanilgan.

Birinchisi: *''Qaro ko'zum''* undalmasi - murojaati orqali shoir birinchi misrada *nido* san'atini qo'llagan.

Ikkinchisi: *''Qaro ko'zum''* deb yorni nazarda tutmoqda. Bu *istiora* tasvir vositasi hisoblanadi.

Uchinchisi: Odamgarchilik, odam, ko'z qorachig'i, gavhar ma'nolarni beruvchi *''mardumlig'' va ''mardum''* so'zlari orqali *tajnis*ni keltirib chiqargan.

To'rtinchisi: Birinchi misradagi *''qaro ko'zum''* va keyingi misradagi *''ko'zum qarosi''* so'zlari yordamida *tardi aks* san'ati namoyon bo'lgan.

Beshinchisi: ''*Mardum kabi''* birikmasi *tashbih* sanaladi.

Oltinchisi: *Ko'z va gavhar* kabi uyadosh so'zlardan foydalanib, *tanosub* san'atini qo'llagan. Bayt ma'nosi quyidagicha: ''Qora ko'zligim(go'zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini ko'rsatishni o'rgan, ko'zimning qorachig'iga gavhar kabi o'rnashgin''. Lirik qahramon, ya'ni oshiqning yoriga nisbatan aytilgan dil so'zlari yangramoqda.

Bir baytda mana shunday ko‘plab badiiy san’atlarni keltira olish Navoiy ijodining takrorlanmas va go‘zal jihatlaridan biridir.

Turfa xil janrlarda ijod qilgan shoir asarlarida badiiy san’atlarning deyarli barchasi o‘z o‘rnida, nozik did bilan foydalanilgan. Ijodkor baytlarida shoirona chizgilarni badiiy yo‘sinda tasvirlar ekan, satrlarda qo‘llangan she’riy san’atlar g‘azalning lafziy nazokatini, musiqiy ziynatini, joziba kuchini tuyishga ko‘mak beradi. Navoiy ijodidagi badiiy so‘z qudratini his qilishimiz, misralarga jo aylangan ma’no-mazmunni yanada teranroq anglashimizda badiiy san’atlarning o‘rni kattadir. Buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy badiiyat ilmini o‘zida to‘la-to‘kis namoyon etgan, insonparvarlik va ezgulik g‘oyalariga yo‘g‘rilgan ijodiy me’rosi bilan birga hamisha mangu barhayotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.To‘xliyev. Adabiyot.(Majmua). – T: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy.-T.,2010.

2. D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T., 2018.

3. F.Salayev, G.Qurboniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent:

Yangi asr avlodi, 2010.

4. I.Haqqul. Navoiyga qaytish.– Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2007.

5. N.Komilov. ‘‘Jon va jonon mojarosi’’ maqolasi.

“HURLIQO VA HAMRO” DOSTONIDA UCHRAYDIGAN AN’ANAVIY MOTIV VA SYUJETLARNING QIYOSIY TAHLILI

Zarina HAMIDOVA
AlisherNavoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek filologiya fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada “Hurliqo va Hamro” dostonida uchraydigan sinov motivi va u bilan bog‘liq syujetlar bir qator ertaklardagi shu tipdagi motivlar bilan qiyoslangan. Bu orqali mazkur motivning ramziy xarakteri yoritilgan. Obrazlardagi ramziyliklar ochib berilgan. Xalq og‘zaki ijodidagi an’anaviy syujetlarning ko‘chib yurishs ablari ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar*: motiv, sinovmotivi, syujet, sayyor syujet, doston, ertak, uchlik, an’anaviylik.*

Annotation
In this article, the test motive and related plots found in the Hurliqo and Hamro epos are compared with similar motifs in a number of fairy tales. Through this, the symbolic nature of this motif is highlighted. The symbolism in the images is revealed. The reasons for the migration of traditional plots in folklore are shown.
Keys words: *motive, test motive, plot, planetary plot, epic, fairy tale, trinity, tradition*

Syujet–qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan tarkibda joylashtirilishi, ya'ni badiiy asar mazmunini tashkil etadigan voqealar tizimi[2,109]. Badiiy adabiyotning barcha janrlarida muayyan tartibdagi syujet bo‘ladi. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lmish ertak va dostonlarda ham. Folklor tizimida sayyor syujetlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sayyor syujet bu bir asarda keltirilgan ma`lum bir voqelikning boshqa asarda takrorlanishi demakdir. “Hurliqo va Hamro” dostonida o‘zbek xalq dostonlari va ertaklarining biridan ikkinchisiga ko‘chib yuruvchi syujet namunalari uchraydi. Jumladan, dostonda uch aka-ukaning sinalish jarayonida uch yo‘ldan birini tanlash motivi ko‘plab ertaklarda ham uchraydi. Motivlar syujet tarkibidagi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biri hisoblanib, ularning ma’lum tizimda birlashuvidan syujet hosil bo‘ladi [2, 108].Quyida yuqorida ta’kidlaganimiz sinov motivining doston va ertaklarda uchrash holatini ko‘rib o‘tamiz. Shu bilan birga Shomirza Turdimov ustozimiz o‘zlarining «Hikmatlar xazinasi» kitoblarida xalq og‘zaki ijodida aka-ukalarning uch yo‘lni tanlash motivi haqida aniq asoslab berganlar [5, 204].

“Hurliqo va Hamro” dostonida Misr mamlakatining hukmdori Xusrav podshoh tush ko‘radi, tushida bulbulga oshiq bo‘ladi. Podshohning uch o‘g‘li – Feruz, Xurshid va Hamro bulbulni izlash uchun yo‘lga chiqishadi. Ular safardavomida“O‘ng yo‘lga borsa, sihat keltirgay, o‘rta yo‘lga borsa, kelgay yo kelmagay, chap yo‘lga borsa, aslo kelmagay»bitigibitilgantoshgaduchkelishadi. O‘ngdan katta o‘g‘li Feruz, o‘rtadan o‘rtancha o‘g‘il Xurshid, chapdan kichik o‘g‘il Hamro o‘zyo‘llariniayri-ayriholdadavometishadi. Hamro anchayo‘lyurib, bir gumbaz yoniga borib qoladi. U yerda Shohimardon pirning qabri bor edi. Shunda pir Eram bog‘ida Shabon ibn Shohruxning qizi Hurliqo shu yigitga qismat qilinganini aytadi. Chiltanlar Hurliqo va Hamroni nikohlab qo‘yadilar. Hurliqo Hamroni Siymin bog‘iga olib boradi, bulbuligo‘yoni ko‘rsatadi. So‘ngra Hamroni Misrga eltib qo‘yishini, yordam kerak bo‘lganda, eslashi uchun sochidan bir torini berib, shuni kuydirishi kerakligini aytadi. Endi Hamro og‘alarini izlay boshlaydi. Akalaridan biri kulolda o‘t yoquvchi, biri sovunchiga shogird ekan. Hamro bularga ot, to‘n olib beradi. Ukalarining qo‘lida bulbuligo‘yoni ko‘rgan akalar o‘zaro maslahatlashib, Hamroni ko‘zini o‘yib chohga tashlashadi. O‘zlari esa bulbuligo‘yoni olib otalari huzuriga borishadi. Bulbuligo‘yo bo‘lgan voqealarning hammasini shohga aytib beradi. Choxda yotgan Hamro Hurliqoning sochini kuydiradi va shu ondayoq Hurliqo yordamga hozir bo‘lib, o‘z yorini davolaydi [1]. Dostondasinovmotivibilanbog‘liqsyujetshutariqashakllangan.

“Bulbuligo‘yo” ertagidazolim podshoh yetti yilda tilladan chinor yasattiradi. Chinorning har kuni bitta bargi yo‘qolib qoladi. O‘g‘illarini esa bargni o‘g‘rilayotgan qushni izlashga yuboradi. O‘g‘illar ketaverib uch yo‘lqarshisidanchiqishadi. Bunda ham dostondagikabikatta o‘g‘il borsa kelarga, o‘rtancha o‘g‘il borsa xatarga, kichik o‘g‘il borsa kelmasga qarab ketadi. Akam bilan gaplashib ketaman deb o‘rtancha o‘g‘il katta akasining yo‘lidan yuradi. Bu ertakda ham kichik o‘g‘il qiyinchiliklar bilan otni ham, qizni ham, qushni ham qo‘lga kiritadi. Kichkina o‘g‘il maymun yordamida bu narsalarga ega bo‘ladi va maymun parini sevib qoladi. Maymun pari parilar podshohining qiziman, er qilmayman deb javob qaytaradi. Unga kokilidan beradi va qachonki u yordamga muhtoj bo‘lsa, shu kokilni kuydirishini aytadi. Kichik o‘g‘il akalarini izlaydi. Bu ertakda ham akalari o‘choqqa o‘t yoquvchi, biri sho‘rvapazga shogird edi. Akalarini qutqaradi, lekin buning evaziga akalari uni jazolashadi. Shunda maymun parining kokilini kuydirib yordamga chaqiradi. Kichik o‘g‘il qalandar bo‘lib otasining yoniga boradi.Otasi esa akalarini qilmishlari uchun jazolaydi.

“Shahzoda Ivan, Qaqnus va bo‘ri” rus xalq ertagida ham xuddi shu sayyor, ya'ni ko‘chma syujet uchraydi. Ertakda podshohning bog‘ida oltin olma daraxti bor edi. Daraxtdan har kuni

bitta barg yo‘qoladi. Podshoh o‘g‘illarini bargni o‘g‘rilayotgan qaqnus qushni izlashga yuboradi. Pyotr, Vasiliy va Ivan safarga otlanadi. Ular ham uch ayrilik yo‘lga borganda, tosh ustunga bitilgan yozuvni ko‘rishadi. To‘g‘riga yursa, och-yalong‘och qoladi, o‘ngga yursa, otidan ayriladi, chapga yursa, o‘zi halok bo‘ladi, oti tirik qoladi. Ivan esa o‘ngga yurishni tanlaydi. Yo‘lda esa bo‘ri otga hujum qiladi, bo‘rining Ivanga rahmi kelib, qushni izlashda, unga yordam berishini aytadi. Ivan bo‘ri yordamida otni ham, qizni ham, qushni ham qo‘lga kiritadi. Podshoh esa kenja o‘g‘liga xursand bo‘lib qarab turar ekan, navbatchilikda ham uxlab qolmagandi deydi. Shahzoda Ivan vijdon amri bilan yashab orzusiga yetadi.

Biz yuqorida doston va ertaklarda uchraydigan uch yo‘lga ayrilish sinov motivi bilan bog‘liq syujetlar bilan tanishdik. Ularning barchasida uch o‘g‘il farzand otasining sinovini yengib o‘tish uchun uch yo‘ldan birini tanlab, o‘z maqsadlariga yetishishi kerak.“Hurliqo va Hamro” dostoni hamda ertaklarda uchraydigan o‘xshash motivlarni, shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Doston va ertaklarda podshohning uch o‘g‘li bo‘lishi va uch o‘g‘ilning sinovga ketishi.

2. Ularning barchasida o‘g‘illarning uch ayrilish yo‘liga borib qolishi va unda yo‘l nomlarining ham bir xilligi:

a) borsa xatar; b) borsa kelar; c) borsa kelmas.

3. Ertaklarda ham, dostonda ham birinchi va ikkinchi o‘g‘illarning yengilishi, har doim uchinchi o‘g‘ilning qiyinchiliklar bilan g‘alaba qozonib, xazinani qo‘lga kiritishi.

4. Har birida ham birinchi va ikkinchi o‘g‘illarning biri oshpazga o‘t yoquvchi, biri hammomda go‘lah bo‘lishi.

5. “Bulbuligo‘yo” ertagi va“Hurliqo va Hamro” dostonida parilar uchinchi o‘g‘ilga yordam kerak bo‘lganda eslashi uchun sochlarining bir tolasidan kuydirishga berishi.

6. Ertaklarda ham, dostonda ham birinchi va ikkinchi o‘g‘illarning ukalariga ozor berishi, undan narsalarni qizg‘anib otalarining oldiga barcha narsalarni o‘zimiz oldik deb yolg‘on so‘zlashi va ukalarini choxga tashlab ketishi.

7. Kenja o‘g‘ilning bu vaziyatdan parilar yordamida qutulishi.

8. Otalarining hamma voqealardan xabar topib, malikani kichik o‘g‘ilga nikohlab berishi, va kenja o‘g‘lini voris qilishi.

Dostonvaertaklardagiuch aka-uka timsolida inson tafakkuridagi nafsni yengish, uning ichki olamidagi xirsiy istaklar, nafsiga qarshi kurashib,o‘z maqsadiga erishish yo‘li ochib berilgan. Asarlardagi uch yo‘l ramziy xarakterga ega. Bu bejiz tanlanmagan.

Inson tafakkurida uchta narsa tan, jon, ruh uyg‘unlashib, bir butunlikni tashkil qiladi. Vaholanki, shu inson borsa xatar, borsa noma'lum yo‘llarni o‘z ruhiyatida, tafakkurida bosib o‘tgan bo‘ladi va shuning natijasida maqsadiga erishadi, xazinani qo‘lga kiritadi. Kenja botir, ya'ni ertak va dostondagi kichik farzand ikkala yo‘lni ham bosib o‘tgan edi. Undagi asosiy maqsad, borsa kelmasga borib xazinani qo‘lga kiritish, nafsini yengib komillikka erishish va o‘z otida malikasini olib kelish edi, kenja botir bularning barchasiga erishdi. To‘ng‘ich va o‘rtancha botir timsolida ham ramziylik bor.

To‘ng‘ich botir bu nafsni yenga olmagan, unga qul bo‘lgan, o‘z istaklariga qarshi kurasha olmagan, ularga bo‘ysungan inson. O‘rtancha botir esa nafsni yenga olgan-u, ammo irodasini yenga olmagan, unga qarshi kurasha olmagan inson. Kenja botir bo‘lsa bularning barini yenggan, komillikka erishgan komil inson timsoli. Xuddi shuma`noda to‘ng‘ich botir nafsga qul bo‘lgan va bu qulning nafs qafasidan ozod bo‘lishi uchun oshpazga yordamchi bo‘lyapti. Irodasini yenga olmagan, unga qarshi kurasha olmagani uchun O‘rtancha botir hammomga o‘t yoquvchilik qilyapti. Chunki hammom bu poklanadigan joy. Suv orqali O‘rtancha botir tanasini poklayapti. Aynan shuning uchun ham hammom tanlangan. Kenja botir esa chigal yo‘l borsa kelmasga bordi. Qiyinchiliklar evaziga xazinani qo‘lga kiritdi. Nafsni yengib, komil inson darajasiga ko‘tarildi.

Ko‘ryapmizki, sayyor syujetlar xalq og‘zaki ijodining turli namunalarini bir-biri bilan birlashtirib turadi. «Hurliqo va Hamro» dostonida xalq ertaklaridagi syujetlar bilan o‘xshash anchagina bir xilliklarni ko‘rdik. Doston va ertaklarni uyg‘unlashtirib turgan bir qancha motivlar bor. Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblandi [2,105]. Uch ayrilik yo‘l, yo‘llarga berilgan ramziy nomlar, aka-ukalarning kasb tanlashi, kenja ukaning jasoratlari, parilar sochidan bir tola berishi shular jumlasidandir. Bu o‘xshash motivlar syujet ipini shakllantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Hurliqo va Hamro” doston. Niyozjon xalfa qo‘lyozmasi. Qo‘lyozmalar instituti.
2. Jo‘rayev M., EshonqulovJ. Folklorshunoslikka kirish. – T., 2017
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T., 2004.
4. Safarov O. Xalq og‘zaki ijodi. –T., 2005.
5.Turdimov Sh. Hikmatlar xazinasi. –T.: 2005.

BOLALAR ADABIYOTIDA SHE'RIY HIKOYA JANRI

Dilnavoz NAJIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi.

Annotatsiya
Maqolada liro-epik janrlardan she'riy hikoya janri, uning kelib chiqishi, bolalar adabiyotidagi o'ziga xos xususiyatlari, she'riy hikoya janrining Abdurahmon Akbar va o'zbek bolalar adabiyotidagi o'rni haqida qiziqarli fikrlar bildirilgan. Shuningdek eng qadimgi adabiyot na'munalarida uchraydigan sinkretiklikning zamonaviy adabiyotda, xususan bolalar adabiyotida uchrash sabablari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *she'riy hikoya, Abdurahmon Akbar, sinkretiklik, ballada, idill, epos*

Annotation
The article provides interesting insights into the genre of narrative poetry, lyro-epic genres, its origins, the peculiarities on children's literature, the role of the genre of poetry in Abdurahmon Akbar and Uzbek children's literature. It also explains why syncretism, found in the earliest examples of literature, is found in modern literature, especially children's literature.
Keywords*: poetic story, Abdurahman Akbar, syncretism, ballad, idyll, epic*

Badiiy adabiyotni Aristotel o'zining «Poetika» asarida 3 tur va turlicha janrlarga bo'lgan. Voqe'likni so'z orqali badiiy yo'sinda tasvirlashning qandaydir bir yangi 4- yo'lini insoniyat kashf etgani yo'q. Lekin bitta qorishiq adabiy tur bor. U lirika va epik tur xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Biz buni Liro-epik tur deb ataymiz. Liro-epik janrlar – voqelikni badiiy mujassamlashtirishda ham lirik, ham epik tasvir vositalari foydalanilgan she'riy asarlar. Bu jumladagi asarlarga xos asosiy xususiyat syujetlilik bilan lirik his-tuyg'u va kechinmalarning o'zaro uyg'unlashishidir. Liro-epik sheriyatning she'riy hikoya, she'riy roman, doston, lirik qissa, ballada, she'riy ertak, qasida, masal singari janrlarida yaratilgan asarlar, nasriy asarlar singari, syujet oqimiga ega bo'lsa-da, ulardan lirik his-tuyg'u va kechinmalar tasviriga katta o'rin ajratilganligi bilan farqlanadi. Liro-epik janrlarda kechinma va his-hayajom tasviri voqea va hodisalar tasviri bilan omuxta holda keladi. Sharq adabiyotida ham g'arb adabiyotida ham liro-epik janrlarning paydo bo'lish tarixi xalq ogzaki ijodiga borib taqaladi. O'zbek xalq dostonlarining avloddan avlodga o'tib, bizga qadar yetib kelgan namunalarida nasriy matnlar bilan she'riy matnlar o'zaro uyg'un holda kelgan. Baxshilar syujet tasvirida asosan nasriy yo'ldan foydalangan bo'lsalar, qahramonlarning turli xatti-harakatlariga munosabat (mamnunlik, kinoya, iztirob kabi) bildirishda she'riy nutqqa murojaat etganlar.

Bunday holat o‘zbek yozma adabiyotining ilk namunalaridan biri — «Qissasi Rabg‘uziy» da ham ko‘zga tashlanadi, bu ham folklor ta’siri sifatida izohlanadi. [Karimov N.] G‘arb adabiyotida adabiyot na’munasi sifatida baholanuvchi ilk yozma yodgorliklar liro-epik janrda yozilgan.

Epik so‘zining o‘zi ham Lotincha epikusdan kelib chiqqan bo‘lib, bu qadimgi yunoncha ἐπικός (epikos), ἔπος (epos) ga borib taqaladi va «so‘z, hikoya, she'r degan ma’nolarni anglatadi An’anaviy antik davr adabiyotshunosligida epik asar deyilganda she’riyat nazarda tutilgan [Derek M.,118]

Bunday asarlarning o‘ziga xos xususiyati oddiy odamlarga o‘xshamagan alohida qobiliyat egalarining mislsiz qahramonliklarini yoxud Xudolarning xatti-harakatlarini she’riy yo‘l bilan tasvirlash bo‘lgan. Bilgamish epik she’ri bunday adabiyot namunlarining dastlabgisi bo‘lib, g‘arb adabiyotida yaratilgan barcha janr va mavzularninglarning kelib chiqishi ushbu asarga borib taqaladi. Eski Ahddagi ko‘plab voqealar: to‘fon voqeasi, bahaybat ilon qo‘riqlaydigan umrboqiylik guli, ilohiy jangchilar va qahramonlar kurashi, qiyomat tasvirlari kabi mavzular Bilgamish epik she’riga borib taqaladi [Spark Notes, 2020-01-24].Epik she’rlar faqatgina Alpomish, Odissey kabi eposlarni emas, she’riy yo‘lda yoziladiga kichik hikoyalarni, raqs tushganda aytiladigan o‘ziga xos she’riy namunalarning ham umumiy nomi bo‘lib, bu tur quyidagi janrlarni o‘z ichiga olgan:

Epilion. (ko‘plik: epiliya) Epik she'riyatning bir turi bo‘lib, u romantik yoki mifologik mavzuga ega bo‘lgan qisqacha rivoyat she’rni anglatgan. Uning o‘ziga xosligi qisqaligida, jahon adabiyotshunoslari lirik janrlardan elegiyaning kelib chiqishini ushbu janr bilan bog‘lovchilar ham bor [Alien W., 1940; 1-26]

Ballada fransuzcha *balladée* raqs qo‘shig‘i, shotlandcha ballare raqs tushmoq (Balet so‘zi ham shu so‘zlardan kelib chiqqan) -musiqa jo‘rligida hikoya qilinadigan asar.

Idill (yunoncha eidullion – «qisqa she’r») - qishloq hayotini tavsiflovchi, qisqa she’rlar[2]

Keyinchalik adabiy tur va janrlarning sinkretik holatdan ajralib chiqishi patijasida Liro-epik tur ikki lirik va epik turga bo‘lingan. Garb adabiyotida renessans ta’siri ostida antik davr

[2] *Gomerdan farqli o‘laroq, Teokrit idillarda qahramonlar va urushlarni aks ettirmagan. U ichki, intim tuyg‘ular, kundalik hayotdagi manzaralarni tasvirlagan. Keyinchalik Rim shoirlari Virgiliy va Kattulus, italiyalik shoirlar Torquato Tasso, Sannazaro va Leopardi, ingliz shoiri Alfred, Lord Tennison (Idill qiroli) va Messinaning kabi ijodkorlar idillar yaratdilar. Gyote idil janridagi she'rlarini Hermann va Doroteya deb nomlaydi va Shiller ularni Gyote ijodining eng yuqori cho‘qqsii deb hisoblagan.*

adabiyotiga qaytish, undan ta’sirlanish, antik davrda yaratilgan asarlarni davr muammosini ko‘targan holda qayta ishlash boshlandi va adabiyotga turlarning aralashuvi – sinkretizm qaytdi. 20-asrning 60-yillarida o‘zbek adabiyotida yangi ijodiy yuksalish pallasi boshlanishi bilan she’riy roman, she’riy qissa singari yangi janrlar kirib keldi. Ballada janrining tabiatida esa xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar ustuvorlik qila boshladi. Bu omillar bolalar adabiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ammo bolalar adabiyotidagi sinkretizmni bevosita epilion, idill ballada yoxud she’riy roman kabi g‘arbdan kirib kelgan janrlar ta’sirida yuzaga kelgan degan fikr ham to‘laqonli ravishda o‘zini oqlamaydi. O‘zbek bolalar adabiyotidagi sinkraetizm hodisasini xalq og‘zaki ijodi na’munalaridagi sa’j bilan bog‘lagan to‘g‘riroq, nazarimizda. Bolalar adabiyotida ham she’riy ertak, she’riy hikoya kabi janrlar paydo bo‘ldiki, she’riy hikoyalarning salmoqlisi Abdurahmon Akbar qalamiga mansub. Taniqli adabiyotshunos Rahmatilla Barakayevning Abdurahmon Akbar ijodiga bergan bahosi ham e’tiborga loyiq. Muallif “Istiqlol davri bolalar adabiyoti: an’ana, vorislik va izlanish” nomli tadqiqotida shoir ijodining quyidagi qirrasiga alohida e’tibor qaratadi: “Abdurahmon Akbarning mumtoz adabiyotimizdagi qofiyali nasr (saj)ni eslatuvchi “Shoir dadam haqida she’riy hikoyalar” turkumini she’riy shaklga sig‘magan fikrlar tizimi deyish to‘g‘riroq bo‘lar edi. Abdurahmon bu she’rlari bilan bolalar adabiyotimizga fikrlovchi, o‘ychan bola timsolini olib kirdi. Besh she’riy hikoyadan tarkib topgan turkum shoir dadasining armon-u iztiroblarini, dard-u tashvishlarini eshitib qolib, jajji yuragiga sig‘dira olmay, to‘lqinlanib so‘zlayotgan bolakay tilidan hikoya qilinadi. Jumladan, “Ari” she’riy hikoyasida shunday deyiladi:

Devor buzdik dadam ikkimiz. Necha fasl yog‘ib yomg‘ir, qor, necha daf’a qolib qarovsiz, nurab, cho‘kib qolgandi devor. O‘sha, devor buzgan kunimiz havo salqin, g‘oyat tund edi, Ustki paxsa qulagach, dadam:— O‘g‘lim, qara, arilar, — dedi. So‘nayotgan gulxan cho‘g‘larin sochgandayin shamol har tomon, ini shikast topgan arilar uchishardi vizillab nolon. — Ehtiyot bol! — dedi-yu dadam, uyga chopdi to‘xtatib ishin. Ammo sanchib ulgurgan edi tirsagimga bir ari nishin. Ko‘kda qovoq uygan bulutlar shu payt sovuq tomchi tashlashdi. Nazarimda, uysiz arilar xuddi mendek „yiglay boshlashdi“. Goh devorni, goh inlarini timirskilab (ehtimol quchib), alamzada arilar oxir qaylargadir ketdilar uchib... Oson kechdi keyin ishimiz. Og‘riqni ham unutdim tamom. Jazosini olgan aridek, „taslim“ bo‘ldi devor batamom. Ish tugarkan kamzulin yechib, taskin bergan bo‘ldilar dadam: — Talanganman sendekligimda bundan katta arilarga ham. Dadam yana allanelar deb, surar ekan inni nariga, meni jonim og‘riy boshladi qo‘lim chaqib olgan ariga...

Yuqoridagi misoldan ko‘rish mumkinki, she’riy hikoyada

- biror voqea hikoya qilinishi;
- hikoyaning ichki qofiyaga egaligi:
- Lirizmga boyligi

bilan boshqa she’riy yoki nasriy janrlardan farq qiladi. Bu o‘ziga xoslik, o‘ynoqi qofiyag boyli va asosiysi didaktik fikr tashishga qaratilganlik bolani o‘ziga tortadi va qiziqtirib qo‘yadi. Ichki qofiyalanishga uyg‘un bo‘lgan so‘z takrorlari va bolakayning mo‘jaz taxayyul olamiga sig‘magan nogahoniy qiyoslar ushbu turkumga mansub she’riy hikoyalarning shaklan va mazmunan mukammalligini ta’minlaydi. She’rni o‘qigach, bola nima uchun qo‘li achishayotganidan emas, balki arilarning ini buzilganidan bezovta bo‘lyapti, joni og‘riyapti, degan savol paydo bo‘ladi. Demak bolalar uchun yozilgan she’riy hikoya, yoxud she’riy ertakda nasr va nazm elemenlari sinkretligi bilan birga, bolaning tafakkur dunyosiga savollar qo‘ya oladigan muammolar, ezgulik, donolik, go‘zallik aks etmog‘i lozim. Bu kabi she’riy hikoyalar shunchaki shoir kashfiyoti bo‘lib qolmay, xalq og‘zaki ijodida san’at darajasidagina o‘rganiluvchi sa’j san’ati bilan aloqadorlikda vujudga kelgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Liro-epik_janrlar Naim Karimov

2. Derek M. Buker (2002). «The Long and Longer of It: Epic Fantasy». The Science Fiction and Fantasy Readers' Advisory. ALA Editions. p. 118.

3. «SparkNotes: The Epic of Gilgamesh: Tablet VI». www.sparknotes.com. Retrieved 2020-01-24.

4. *Allen, W. (1940), «The Epyllion: A Chapter in the History of Literary Criticism»,* TAPA, ***71****: 1–26.*

SHE’RIY SAN’AT – ASLIDA HAM SHE’RIY SAN’ATMI?

Nilufar KENJAYEVA
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti,
407-guruh talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqola she’riy san’atning asosiy mohiyati va keng ko‘lamli nazariyasini izohlab berish. Shuningdek, uning nazariy omillarining keng targ‘ib qilinishiga to‘siq bo‘layotgan asosiy sabablarini ko‘rib chiqish va yechim topishga qaratilgan.
Kalit so‘zlar:*adabiyot, o‘zbek adabiyoti,she’riy san’at, nazm, nasr, badiiy san’at, mantiq, obraz*

Annotation
In this article to explain the basic essence and comprehensiv e threorty of poetic art.As well as to identify and address the root causeses of ets theoretical factors that prevent it from being widely disseminated.
Keywords:*Literature,uzbek literature, poetic art, nazm, prose, finearts, logic, image.*

Bilamizki, ko‘pincha nazmni tahlil qilganimizda undagi she’riy san’atlarni,albatta, izohlab ochib,asoslab bera olamiz.Bu narsa nazm tahlilining asoslaridan biriga aylangan.

Nasr tahlilida esa,urg‘u ko‘proq uning ma’nosiga va ahamiyatiga qaratiladi. Shu holatdan kelib chiqib aytish joizki, ko‘pgina o‘quvchilar va ayrim talabalar ham “She’riy san’atlar nazmda qo‘llanilmaydi-ku”-degan mulohazalarni tashlashadi. Bu muommolar avvalambor, nazariya konsepsiyasining pastligidan bo‘lsa, ikkinchi bir asos biz san’atlarni o‘qitayotib maktab darsligida keltirilgan she’riy san’atlarning asl negizini aniq tushuntirib bera olmaganligimizda va amaliyotni faqat bir yoqlamali ya’ni nazm bilan izohlashimizdadir. Ehtimolki,yana bir asosiy sabablardan biri o‘qituvchi nazariyani berayotgan vaqtda badiiy san’atlarning nomini she’riy san’at deb atashi bilan ham bola xotirasidagi anglash instikti o‘z-o‘zidan nazariyani bir yoqlama jihat bilan qabul qiladi.Natijada, muommo shu holatda yuzaga keladi. Demak, bu yerda asosiy sababchi o‘qituvchi bilimini to‘liq yetkazib bera olmagan bo‘lib chiqadi. Ammo she’riy san’atlar bo‘yicha berilgan nazariyalarda aslida ham she’riy san’atlar keng yoritilganmikin. Ko‘pgina nazariy kitoblarni o‘rganib chiqib ulardagi ma’lumot miqyosi keng va tushunarliligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin deyarli barchasida nazm bilan kechadi. Vaholanki, ayrim ko‘pgina she’riy san’atlar nasrda ham qo‘llaniladi.

Albatta, bu izohlar ilmiy kitoblar va o‘quv qo‘llanmalarda keltirilib keng yoritilib beriladi.Maktab darsligida esa o‘zbek adabiyotida mavjud 100 dan ortiq badiiy san’atlardan 12tasi keltirilgan.Tashxis, tashbeh, istiora, tazod, talmeh, husnita’lil, tajnis, ta’did, tanosub, tasdir, tasbe, tardiaks, nido, irsoli masal kabi badiiy san’at turlari keltiriladi.Bulardan “Tashxis” 9-sinf darsligida izohi bilan keltirilib asosiy yondashuv nazaraiyasi nazm bilan kechadi.7-sinfda keltilirilgan “Tanosub” san’ati ham nazmda izohlanadi va she’riy san’atlar deb murojaat qilinadi. Ammo yangilangan 10-sinf adabiyotida she’riy san’atlarning nazariyasi badiiy tasvir vositalari

deya izohlanadi.Ko‘pincha she’riy san’at qilib beriladigan badiiy tasvir vositalaridan, ya’ni ham she’riy san’at ham nasrda qo‘llanila oladigan badiiy san’atlarga bir nechta misol keltiramiz.

Tamsil (ar. – misol keltirish, dalillash) – she’r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san’at. Bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o‘rtasidagi munosabat, ya’ni mantiqiy aloqa ko‘pincha qiyosiy yo‘nalishda bo‘ladi. Tamsil san’ati mohiyatiga ko‘ra irsoli masal san’atiga o‘xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsoli masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi

Irsoli masal (ar. – maqol yoki matal yuborish) – baytda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni keltirishga asoslangan she’riy san’at. Ilmi badi’ga doir deyarli barcha manbalarda ushbu san’at haqida ma’lumotlar keltiriladi. Atoulloh Husayniy irsoli masal san’atining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratib, “irsol”so‘zi“yubormoq, jo‘natmoq” ma’nosini bildirishini, baytda masal keltirishdan maqsad esa uni muayyan kishiga jo‘natish ekanligini ham aytib o‘tadi.

Ko‘pincha badiiy san’atlar shu kabi she’riy san’atlar deb izohlanadi.Tamsil, irsoli masal, iyhom, tanosub, tazod kabi san’atlar ham nasrda ham nazmda qo‘llana oladi.Ayrim san’atlarning nasrda va nazmda alohida nomlanadigan turlari ham bor.Masalan: Saj – bu san’at ohangdorlik va kuchli emotsionnallikni beradi.Nasrda *nasri musajja*’,nazmda esa *nazmi musajja’* deb nomlanadi.

Xulosa qilib aytganda, berilayotgan tushuncha avvalambor o‘quvchiga tushunarli va ravon qilib yetkazilib berishi, adabiyot darsliklarida yoritilayotgan nazariyalarni tor ma’noda emas, balki keng ma’noda yoritilishi ham bilim saviyamizning aniq izchilligini ta’minlaydi. O‘quvchi qo‘llayotgan har bir yangi bilimning amaliy misollarini batafsil keltirish bilim, ko‘nikma va malakaning yanda takomillashuviga asos bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q.,Qosimov B.7-sinf adabiyoti.-Toshkent, 2017.
2. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K.10-sinf adabiyoti.-Toshkent, 2020.
3. Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1998.
4. Yusupova D. Aruz vazni va mumtoz poetika asoslari.-Toshkent, 2018.
5. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K.Adabiyot. -T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
6. Forum.ziyo.com
7. www.e-adabiyot.uz

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA OBRAZLAR DINAMIKASI

Sojida ESHMATOVA
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,
2- kurs talabasi

Annotatsiya
Bu maqolada Nazar Eshonqu lhikoyalari tahlilga tortilgan. Unda yozuvchi ijodidagi obrazlarning ruhiyati, qalb kechinmalarining bir-biriga mantiqiy bog‘liqligi va ijtimoiy shaxs bilan ijtimoiy davr o‘rtasidagi muammolar talqin qilinadi.
Kalit so‘zlar: *hikoya janri, badiiy obraz, badiiy tasvir, badiiy xarakter, Baynamomo, Biynamomo, it, rassom chol.*

Annotation
This article deals with the stories of Nazar Eshonqul. It interprets the psyche of the characters in the writer's work, the logical inter dependence of the experiences of the soul, and the problems between the social person and the social period.
Key words: *story, genre, artisticimage, artisticcharacter, Baynamomo, Biynagrandmother, dog, oldartistman.*

Badiiy adabiyot ummonida har qaysi janrning o‘ziga xos o‘rni bor, biroq har bir milliy adabiyotning kundalik nafasi, mentaliteti ko‘proq hikoyada namoyon bo‘ladi. "Adabiyot-hayotning in‘ikosidir" [1.56-bet] Bugungi kun o‘zbek nasrida, ayniqsa, hikoyanavislik
Borasida bir qator yozuvchilar ichida Nazar Eshonqulning o‘rni beqiyos. Adib hikoyalari inson qadr-qimmatini ulug‘lash, o‘zlikni anglash, azal bilan bog‘liqlik, insonning jamiyatda tutgan o‘rni, yashashdan maqsad, insonparvarlik kabi g‘oyalar hech kimnikiga o‘xshamaydigan detektiv suratlarda namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyotda xarakterlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Xarakter birinchi navbatda konkret hayotiy sharoitda o‘z individual xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo‘ladigan insonning aniq tasviri" [2.52-bet].

Aynan, Nazar Eshonqul hikoyalarida ham xarakterning nozik qirralarini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchining 2011-yilda chop etilgan "Shaftoli guli" to‘plamida turfa xil falsafiy-psixologik hikoyalar zamirida inson va jamiyat, milliy qadriyatlar, ayollarning or-nomusi toptalishi, sobiq ittifoq davridagi adolatsizliklar, shon-shuhratga moyillik kabi illatlarga e‘tiqod qo‘yib o‘zligini unutgan, oqibatda falokatga yuz tutgan real insonlar qismati rivoyat qilinadi. Adib ijodini shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. Asarda foydalanilgan badiiy tasvir vositalari bevosita obraz qiyofasini, vaziyatini o‘quvchining ko‘z oldiga olib kelishi, oxirgi xulosani kitobxonning

o‘ziga qoldirishi asarni o‘qishliligini yanada oshiradi. Nazar Eshonqul nasridagi obrazlar biri ikkinchisini takrorlamasa-da, lekin mantiqiy davomi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, hayotning qoraliklari, jamiyatning chirkin illatlarini, o‘zligini yo‘qotgan insonlar "Bahouddinningiti" va "Evolutsiya" hikoyalarida ham o‘ziga xos tarzda ochib berilgan. Undagi obrazlarning o‘z qiyofasini o‘zgartirib it va qo‘zichoqqa aylanib qolishida, ikki hikoyning bir-birini to‘ldirib, davomi sifatida kelishini ko‘ramiz. It obrazi islomgacha bo‘lgan adabiyotda ikki xil ma‘noda: mahluq va vafo, yor timsollarida qo‘llanilib kelingan. So‘z mulkining sultoni, Alisher Navoiy ham ijodida itni yengish, go‘yoki nafsni yengish bilan barobar deyilsa, boshqa bir o‘rinlarda vafodorlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu ikki hikoya sof modernistik ruhda yozilgan. Muallif mahluq sifatida o‘zini o‘rab turgan jamiyat-muhitni kuzatadi. Asarning tub mohiyatiga kirib borsak, bir ruhiy tahlil orqali e‘tiqodi sustlashgan, nafsga qul bo‘lgan, arosatda qolgan inson qiyofasi namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, hikoyachi ongidagi borliqni junbushga keltirgan ovoz, aslida-vafo, it obrazi esa iymon ramzidir. Iymoni butun e‘tiqodi pok insonning qo‘shig‘I azon kabi o‘tkinchi dunyoning tashvishlariga botgan, erta-yu kech qorin to‘yg‘izish g‘amida yurgan odamlarni hidoyatgac horlovchi ohangraboday, nazarimda!

Yozuvchining, ayniqsa, ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lgan "Maymun yetaklagan odam" va "Tobut" hikoyalarida o‘zaro uzviylikni ko‘ramiz. Undagi qahramonlar ruhiyatidagi mavhumlik, peyzaj tasviri, badiiy detallar mahorat bilan uyg‘unlashgan qora bo‘yoqlar, o‘quvchini qahramonlar hayoti bilan yashashga majbur qiladi. Adibning hikoyalarida tundlik, zulmat, umidsizlik, ishonchsizlik, qoraranglar, ruhiy tushkunlik holatlari ko‘plab uchraydi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasining ma‘nosiga e‘tibor bersak, ikki xil savol tug‘iladi. Maymunni yetaklagan odammi, yoki odamni yetaklagan maymun? Har ikkala holat chol chizgan suratga gavdalanadi. Bilamizki, san‘atda ham, adabiyotda ham ijod mahsuliga uyaratilayotgan muhit o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Birinchi navbatda, rassomning ishlayotgan xonasiga e‘tiborimizni qaratsak, “Ustunromlari chirigan, umuman xonadan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasm uyumlaridan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqdan kelardi"[3.55-bet]. Bu tasvir cholning suratlariga ko‘chib, chol o‘z san‘at asari orqali hayotini qoraliklarda ko‘radi. "Tobut"hikoyasida esa me‘morning qurgan shaharidan xuddi shunday hidga ishora bor. "Hammasidan ham shaharga kirishimiz bilan dimog‘imizga xuddi boshliqning nafasidan anqigan hidga o‘xshashu funaturilgani bizni shoshirib qo‘ydi" [4.84-bet]. Umuman, adib badbo‘y is orqali nima demoqchi? Yozuvchining

ikki hikoyasida ham" qo‘lansa hid' 'tasviri orqali qahramonlar ruhiyati ochib berilgan. Nima uchun aynan boshliqning nafasiga o‘xshash ekan? Fikrimcha, xalqni har-xil zulmlar bilan ezgan hokimiyat kishilari, minbarga chiqib o‘zlari amal qilmaydigan" qo‘lansa so‘z" lari orqali butun jamiyatni zaharlayotganday. Noxush is muntazam dimoqda tursa, kasallik keltirganidek, xalqni sekin-asta tanazzulga olib boradi. Bunda hid orqali qahramonlarning ruhiy holatidagi evrilishlarni o‘z aksini topadi.

Nazar Eshonqul ijodidagi bog‘liqliklarni kuzatar ekanmiz, uning "Shamolni tutib bo‘lmaydi" hikoyasi va "Urush odamlari" qissalaridagi Baynamomo va Biynamomo qiyofalarida urush tufayli yostig‘I qurigan, o‘g‘illarining firoqida kuygan alamzada ona timsolining guvohi bo‘lamiz. Biynamomo kim? Ba‘zi erkaklarda bo‘lmagan, o‘zi va xalqning or-nomusini, iffatini himoya qilib, fe’l-atvori ham erkakka o‘xshab ketgan g‘urur timsoli. Axir, ijtimoiy davr shunday bo‘lishni talab qilgan. Undan yana turmushga chiqishini so‘raganda: "Meni erim taloq qilmagan, hali ham nikohidaman" [5.33-bet] deya eriga bo‘lgan sadoqatini saqlab qolgan. Xuddi shunday vafo Baynamomo obrazi orqali ham yuzaga chiqadi." Xotiralariga isinib jon saqlagan" momo hayotning beshavqat sinovlariga jimgina isyon ko‘targan obraz. Yozuvchi dunyodagi barcha azob-uqubat faqatgina momoga atalgandek, 23yillik umrini zulmat misoli tasvirlaydi. Ko‘pchilikning taqdirini uning uyidagi sandiqchada ko‘rishimiz mumkin.

Asardagi qasos motive uning kulminatsiyasini yuzaga chiqargan. Bu o‘ch butun millat taqdiridan, chimildiq ko‘rmagan o‘g‘lining baxtidan, adolat istab qurbon bo‘lgan reining shum qismatidan, mustamlakachi hokimiyat va o‘z manfaatini ustun ko‘ruvchi nafs kimsalari ustidan olingan edi.

Nazar Eshonqulning asarlari quloqlashtirish, ya‘ni "Hech kim boy ham, kambag‘al ham bo‘lmaydi" shiori ostida kechadi. Muallif "hayotiylik"dan cheklanmagan holda ramziylikka murojaat qiladi. Adib o‘z yuragidan o‘tkazgan voqelikni tabiat bilan uyg‘un ravishda tasvirlaydi. Shu orqali kitobxonni mantiqiy fikrlashga, mulohaza qilishga chorlaydi. Bu bilan u yaratgan personajlarni tushunish va ularni his qilish osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Izzat Sultonov. Adabiyot nazariyasi: -T.:O‘qituvchi, 1986.

2.T. Boboyev: Adabiyotshunoslik asoslari.-T.:O‘zbekiston, 2002.

3. N. Eshonqul .Yalpiz hidi.-T., 1996.

4.www.ziyouz.com. kutubxona.

TARJIMASHUNOSLIK

PRINCIPLES FOR EFFECTIVE TEACHING AND LEARNING FOREIGN LANGUAGE

Nargiza YUSUPOVA
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti Universiteti "Xorijiy tillar" kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

Annotation
English language is very important nowadays. More and more people need English to attend universities and colleges, because now everybody have an opportunity to get higher education abroad. New ideas in science and medicine happen so quickly that it is impossible to translate everything into different languages. International relations are extended and strengthened through the exchange of scientific, technical, and cultural information. In this situation, foreign language teaching is a matter of state significance.
Key words: *interactive, teaching, method, abilities, bewildering, literacy, silent reading, intonation, accent, imitation.*

Over the last twenty years, FLT methodology has developed very rapidly and has been subject to changes and controversies that teachers often find bewildering. What teachers need is to know new methods and effective approaches. It was in recognition of this need that not only teachers but learners also need to know beforehand. In addition to that, language is not a subject of factual information or a store house of contents but a skill. Hence, its teaching requires a different treatment and different method of approach. [Jeremy Harmer. "How to teach English?" Longman]

Both teachers and learners have to keep before them certain principles for effective teaching and learning foreign language:

Principles of teaching English as a foreign language: Mother tongue is

always learnt easily because there is natural environment around. But this is not true about a foreign language. The child learns this language in his English classes held four or six periods a week. Therefore, it becomes difficult for him to learn the language. Consequently, a natural environment would be proceeded by:

1. Talking to students in the target language in the class, playground etc.,
2. Arranging group discussions.

Principles of habit formation: "Language is essentially a habit forming process, a process during which we acquire new habits."

An attempt should be made to form habits in the students for learning a language by the following processes:

(1) Habit of listening to and distinguishing between sounds.

(2) Habit of speaking with proper intonation and accent.

(3) Habit of silent reading.

(4) Habit of using correct grammar.

(5) Habit of imitation.

(6) Habit of using words in their proper contexts.

(7) Habit of repeating

(8) Habit of correct pronunciation

Proceed from the concrete to the abstract: The teacher must begin his lesson with concrete things. He must talk about things and not about words. He must talk about the normal actions and even give a demonstration and must. The action is concrete in the pedagogic sense and the name 'abstract' and by performing an action and giving the word, which expresses it, he is proceeding from the concrete to the abstract.

Make all lessons interesting and attractive*:* This principle is as important for the teaching of English as for any other subject. In the earlier stages, lessons can be made interesting and attractive. Wren says, "by utilizing objects and pictures interesting to the class, as subjects conversation, by allowing all boys to do something as well as to say something, by giving fullest play, within the limits of good discipline of the childish instinct for activity change and movement, interest can be aroused and maintained."[Miralyubov A.A "Theoretical principles and methods of teaching foreign languages" M.1982]

Maximum Actions and Gestures*:* A Language teacher should ensure that the students try to learn the language with maximum use of actions and gestures.

Teaching inductively*:* The teacher should try to do without such rules as the pupils cannot frame for themselves. If he wants to teach verb, he should not begin by giving its comprehensive definition and then verify his statement by giving a number of examples. Contrary to it, he should perform a number of actions and write their names on the board.

The principles of correlation with life: While teaching the subject, matter should be related to life, customs, traditions, peculiarities and characteristics of the particular society to

which the students belong. In this way, teaching can be more meaningful and learning can be transferred to real life situations.

Inspirational motive: Language teaching should be based on inspirational motive. The inspiration should lead the learner to learn more with the zeal of an internal urge. Language teaching should also be based on similar inspirational motive. The teacher and the pupil should consider language link as source of inspiration for life.

These are various principles of foreign language teaching. If the teacher wants to teach successfully in the class, he must follow these principles in teaching.

The direct method was established in Germany and France around 1900 and are best represented by the methods devised by Berlitz and de Sauzé. The direct method operates on the idea that second language learning must be an imitation of first language learning, as this is the natural way humans learn any language - a child never relies on another language to learn its first language, and thus the mother tongue is not necessary to learn a foreign language. Thesemethods place great stress on correct pronunciation and the target language from outset. Such methods rely on directly representing an experience into a linguistic construct rather than relying on abstractions like mimicry, translation and memorizing grammar rules and vocabulary. Learning of writing and spelling should be delayed until after the printed word has been introduced, and grammar and translation should also be avoided because this would involve the application of the learner's first language. The method relies on a step-by-step progression based on question-and-answer sessions which begin with naming common objects such as doors, pencils, floors, etc. It provides a motivating start as the learner begins using a foreign language almost immediately. [Gladilina I. P. Some methods of working at the lesson of the English language.]

Today, innovative learning technologies are used in several ways. If we use them in a wide variety of topics and lessons, the lesson will be more effective and learners will be encouraged to do so. Of course, using the introduction and implementation of innovations in the learning process increase the effectiveness of education. The use of different roles and games in teaching foreign languages can also increase the interest in language learning. Working in pairs or small groups helps learners communicate with others.

Role-plays, projects, video situations can greatly widen our horizons of creativity within the suggested methods. The system of role-plays is a valuable approach because it is very motivating and integrates all the language skills. It encourages the learners to work independently and together and involves genuine communication. More over role-plays take an

opportunity of using performances in the learning process. This method encourages cooperation and sharing of the ideas and skills within the group.

Work on the project is a creative process. Students co-operating with each other are engaged in search of problem solving significant for them. In majority of cases, it demands from learners an independent transfer of knowledge, skills and abilities to a new context of their use. Therefore, it is possible to confirm with confidence that at learners there develops a creative competence as an indicator of communicative foreign language skills. Thus in educational process such situation is created in which the use of a foreign language by students is natural and free, such as it acts in native language.

Conclusion

Interactive teaching methods and principles of foreign language teaching are a more advanced mode of teaching. The process of teaching in the classroom is to bring into full play both the initiative of teachers and students, through dialogue, discussion, and so on in order to achieve a variety of ways of the exchange of thought, emotion and information, thus to achieve the best learning effects.

References

1. Shukin A.N. Teaching Foreign Languages:Theory and Practice. Tutorial for teachers and students. M.Filomatis, 3 edition.
2. Kevin Yee. Language Teaching Methods, 2000.
3. Gladilina I. P. Some methods of working at the lesson of the English language//Foreign languages at school №3 2003
4. .Richards, Jack C.; Theodore S . Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge UK, 2001.
5. Miralyubov A.A “Theoretical principles and methods of teaching foreign languages” M.1982

ANTROPONIMLAR LINGVOKULTROLOGIK XUSUSIYATLARINING TARJIMADA AKS ETISHI
(O. GENRINING “NOMSIZ HIKOYA” ASARIDAGI ANTRAPONIMLAR TARJIMASI MISOLIDA)

Go‘zal QURBONOVA
ToshDO‘TAU, tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, 4-kurs talabasi

Annotatsiya
Antraponimlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi, chunki ism boshqa tilga tarjima qilinganda o‘zida olib yuruvchi shakl va ma‘noni saqlab qolishi lozim.Shu o‘rinda lingvokultrologiya sohasining ham ahamiyati katta. Ushbu maqolaning asosiymaqsadi ingliz tilidagi antraponimlar, ularning etimologiyasi hamda o‘zbek tiliga tarjima qilish usullarini tahlil qilish.
Kalit so‘zlar: *antraponim, realiya, transliteratsiya, transkripsiya, transformatsiya, asliyat tili, tarjima tili.*

Annotation
The translation of anthroponymies from one language to another is very difficult process, because when anthroponym is translated into another language, it should reflect its original meaning and shape. The importance of lingua cultrology is significant. The main objective of this article is to analyze anthroponymies in English, their etymology and the ways of translation into Uzbek language.
Key words: *anthroponymy, realia, transliteration, transcription, transformation, source language, target language.*

Inson dunyoga kelganidan so‘ng, unga o‘zini boshqalardan ajratish, farqlash zarurati sababli ham ism qo‘yiladi.Kishilarga ism qo‘yish jahondagi barcha xalqlarda juda qadim tarixdan yuzaga kelgan jarayon sifatida e’tirof etiladi. Nomlar o‘zida u mansub bo‘lgan xalqning turmush-tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tarixi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettirishi bilan birgalikda, o‘zga xalqlar bilan aloqasi haqidagi ma’lumotlar haqida ham darak berib turadi. Antraponimlar xalqlar madaniyatning ma’lum bir qismi bo‘lgani uchun ham, bugungi kunda ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan antraponimlarni yig‘ish hamda ularni lingvokultrologiya sohasi bilan chambarchas bog‘liq tarzda tahlil etish kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Antraponimlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayoni ham tarjimonlardan chuqur bilim va mas’uliyat talab etadi. Chunki ism boshqa tilga tarjima qilinganda o‘zida olib yuruvchi ma’no va shaklni yo‘qotib qo‘ymasligi zarur. Bu esa bizning

o‘sha xalq madaniyatiga, qadriyatlariga bo‘lgan hurmatimizdan dalolat berib turadi. Hamma ham o‘z ismining barcha tillarda birdek jarangdor bo‘lib yangrashini istashi, tabiiy. Shu kabi talablar biror bir asarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga yoki o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilayotganda ham qo‘yiladi. Ushbu jarayonda tarjimonlar tarjima nazariyasida mavjud bo‘lgan transformatsiya, transliteratsiya yoki kalkalash usullari orqali tarjimani amalga oshira oladilar. Agar tarjima qilishning imkoni yo‘q bo‘lgan ismlarga duch kelinsa, ular izoh berish yo‘li bilan o‘giriladi.

Ma’lumki, **antraponim** onomastika (nomshunoslik) ning bo‘limlaridan biri bo‘lib, mazkur soha kishilarga qo‘yiluvchi atoqli otlarni tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. Antroponim so‘zi yunonchadan olingan hamda uning lug‘aviy ma’nosi *antropos – shaxs + onoma- atoqli ot, nom*dir. U o‘z ichiga ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalarni qamrab oladi. Ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi antroponimiya deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik) ning kishi atoqli otlari (antroponimlar) ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. [1.13-bet].

O‘zbekcha ismlarning ko‘pchiligi arab va fors tilidan kirib kelgan. Masalan:

Arabcha ismlar:

Abdubosit – rizq ato etuvchining, Ollohning quli

Ahror – olijanob, himmatli, muruvvatli

Ahtam – mashhur, ardoqli

Anqogul – noyob, topilmas

Ansora – yordamchi, ko‘makchi

Mafruza – tanlab, saylab olingan

Mahbuba – suyukli, aziz, dilbar

Mahfirat – gunohi kechirilgan, ozod, hur

Rahbar – rahnoma, ustoz

Rashid - to‘g‘ri yo‘ldan yuruvchi

Forscha ismlar:

Ravshan - yorug‘, tiniq, beg‘ubor

Rohiya - yo‘li ochiq, kelajagi porloq

Ro‘zigul – rizq - u nasiba, guldek ko‘rkam

Ruxsor – yonoq, yuz, chehra

Nargiza – nargisdek zebo

Nazargul – Ollohning iltifoti

Nekdil – mehribon, rahmdil

Bahtigul – chiroyli, saodatli

Behbud – tinch, osoyishta

Antraponimika ingliz tilida ham shaxs nomlarini o‘rganuvchi soha sifatida ta’riflanadi. Xuddi o‘zbek tilidagi singari ingliz tilida ham antraponimlarni o‘rganish va tadqiq etish birgina tilshunoslarning vazifasi bo‘lmasdan bunga antrapologlar, tarixchilar, siyosiy geografiya sohasi vakillari va antrapolog olimlar jalb etiladi.

Dastlabki ingliz ismlari chaqaloqqa cherkovda cho‘qintirilganidan so‘ng berilgan va bu nomlarning ko‘pchiligi mashhur avliyolar ismlari bo‘lgan. Bugungi kunda hind- yevropa tillar guruhida, ayniqsa, Buyuk Britaniyada mavjud bo‘lganismlar tarixi xuddi shu voqeaga bilan bog‘lanadi. Masalan, Jon (John), Sara (Sarah), Mariya (Mary), Paul (Paul), Piter (Peter).

Zamonaviy ingliz ismlarining tarixi esa ko‘p o‘rinlarda lotinchaga borib taqaladi.

Ism	**Kelib chiqishi**	**Ma’nosi**	**O‘zbekchasi**
Laura	Lotincha	G‘alaba	Laura
Victor	Lotincha	G‘olib	Viktor
Vivian / Vivien	Lotincha	Quvnoq, xushchaqchaq	Viviyan, Viviyen
Maxim	Lotincha	Buyuk	Maksim
Rose / Rosa / Rosabella	Lotincha	Chiroyli (atirguldek)	Roza, Rozabella
Justin, Justina / Justine	Lotincha	Adolat, vijdon	Yustin, Yustina

Manbalarda aytilishicha, ingliz ismlari tarixi bir o‘rinda Kelt xalqlariga ham bog‘lanadi.Ular Angliyaga kirib kelishganidan so‘ng, shaxs nomlari ham tarqala borgan. Keltlar mehnatkash va jasur xalq bo‘lishgan. Ushbu xalqda ayollar ham xuddi erkaklar singari mardlik va donolik timsoli sifatida hurmat qozonishgan, hatto ba’zida qabila boshliqlari ham ayollardan saylangan. Shunga muvofiq tarzda ayolar ismlarida yuqorida aytib o‘tilgan xislatlar aks etgan.Taqqoslang:

Ayollar ismi	**Ma’nosi**	**Erkaklar ismi**	**Ma’nosi**

Bridget [Brijet]	kuch-qudratli, jasoratli	Arthur [Artur]	nodir,jasur
Donalda [Donalda]	yengilmas,qudratli	Berry [Berri]	qo‘rqmas
Glady [Gledy]	malika,qirol oilasiga mansub	Chad [Chad]	Kurashuvchan
Meredith [Meridet]	boshqaruvchi, qobiliyatli	Kimball [Kimbal]	qudratli, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega
Cadel [Kadel]	xushchachaq,o‘yinqaroq	Brian [Brian]	oliyjanob, himmatli

Ingliz xalqida ham chaqaloqqa ism qo‘yish ma’lum e’tiqodlarga asoslanib, ular ism o‘z egasiga boylik, baxt, omad, kuch - qudrat vijdon singari ijobiy xislatlarni tuhfa etishiga ishonishgan. Inglizlar ham chaqaloqqa ismni dastlab boshqalardan ajratib chaqirish maqsadida berishgan, lekin hozirgi kunga kelib ism barcha xalqlar hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ism qo‘yishdan oldin uning ma’nosi hamda shu ismning sohiblari haqida ma’lumotlar to‘planadi. Endi ba’zi ingliz ismlari ma’nolari bilan tanishib chiqsak:

O‘g‘il bolalar ismi:

Anderson – [Anderson] – tuhfa, sovg‘a, xudoning sovg‘asi

Ernest – [Ernest] - jiddiy

Thomas – [Tomas]- egizak, o‘xshash

Brown – [Broun] - malla, sariq sochli

Martin – [Martin] - kuch - qudratli

Edwards – [Edvard] - boylik, baxt

Taylor – [Taylor] – kiyim tikuvchi

Robinson – [Robinzon] – shon – sharaf, shuhrat

David – [Devid] – sevimli, suyukli

Qizlar ismi:

Linda – [Linda] - maftunkor

Margaret – [Margaret] – marvarid, dur

Helen – [Helen] – nur sochuvchi, yorqin

Donna – [Donna] – xonim, ayollarga xos

Barbara – [Barbara] – sayyoh, sayohatchi

Sarah – [Sara] – malikalardek go‘zal

Jennifer – [Jennifer] – adolat, vijdon

Patricia – [Patrika] – samimiy, oliyjanob, saxiy.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Tarjima ilmi va amaliyotida o‘girish qiyin bo‘lgan so‘zlar bir talay. Ularning asosiylari milliy o‘ziga xos so‘zlar bo‘lib, xalqaro terminda realiyalar deyiladi. **Realiyalar** deganda ma’lum bir millat va elatga xos narsa- hodisalarni ifodalovchi so‘zlar tushunchalar anglashiladi. Ularni boshqa tilga o‘girishda tarjima tilining taraqqiyot darajasiga qarab katta- kichik muammolar paydo bo‘ladi. Bu muammolarning yechimi, ularning tasnifi va tavsifi tarjima nazariyasida o‘rganilmoqda. Xususan, tarjima nazariyasida shaxs nomlari va laqablarini tarjima qilishning bir necha xil usullari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

Transliteratsiya – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko‘rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so‘zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash.[3.88-bet]

Transkripsiya – tarjima tilidan o‘girilayotgan tilga grafik vositalar asosida mexanik vositalar bilan berish.[3.88-bet]

Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi: Ilya – Ilyos, Solomon – Sulaymon, Avraam, Abraham– Ibrohim, Iisus – Iso (Masih), Kain – Qobil, Adam – Odam Ato, Yeva – Momo Havo, Aristotel – Arastu, Platon – Aflotun, Sokrat – Suqrot, Galen – Jolinus, Gippokrat – Buqrot, Ibn Sino – Avisenna. Ushbu misollarda bir xil ma’no va mazmunga ega bo‘lgan shaxs nomlarining ikki xil tilda aks etishi ko‘rsatilgan. Bu jarayonda ham til va madaniyat qoidalaridan kelib chiqqan holda yondashilgan, lekin shakl o‘zgarsa – da, ma’no saqlanib qolingan.

Turli xalqlarga xos bo‘lgan ismlar tarjimasida o‘sha ismni qaysi mamlakatdan kelib chiqqanligi va qaysi mamlakatga xosligi hisobga olinadi.

Germaniya	**Fransiya**	**Angliya**	**O‘zbekchasi**
Y eni	J e n i	J e n i	J e n i
Y o n	J a n	J o h n	J o n
Rixard	Richard	Richard	Richard

Antraponimlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish - tarjima qilish nihoyatda muhim va e’tibor talab etadigan masaladir. Xalqimizda “Narsalarni o‘z nomi bilan atang” degan naql bor, mazkur hikmatga sodiq qolgan holda yondashish tarjimonlarning bosh vazifalaridan biridir.

Fikrimizni O.Genrining o‘zbek tiliga ingliz tilidan Qandilat Yusupova tomonidan tarjima qilingan «Nomsiz hikoya» nomli asaridan olingan misollar bilan davom ettiramiz:

Asliyat: *Tripp was something in the mechanical department--I think he had something to do with the pictures, for he smelled of photographers' supplies, and his hands were always stained and cut up with acids.* [4. 7-bet]

Tarjima: – *Trip negadir doim qayg‘uli qiyofada ko‘rinar, yuz-qo‘llari hamisha kir-chir bo‘lib yurardi*.

Trip - o‘zbek tiliga transliteratsiya yo‘li bilan tarjima qilingan, ism oxiridagi ikki undoshlardan biri tushurib qoldirilgan. Ushbu nom asliyat tilida quyidagicha izohlanadi: inglizcha (asosan, janubiy hududlarda): raqqoslarga qo‘yiluvchi metanimik nom yoki harakatlanayotganda g‘alati yuradigan shaxslarga nisbatan laqab sifatida foydalaniladi. Inglizlarda asosan qassob yoki sayohatchilarga, nemislarda esa yog‘ochdan bezakli oyoq kiyim tikuvchilarga nisbatan qo‘yilgan. Ma’nosi: raqqos. O‘xshash shakllari: Trap, Grip, Rip, Frip, Krisp, Krip, Top, Prop, Tip, Trop.

Asliyat: *“I talked to her, and found that she was going to marry a young farmer named Dodd--Hiram Dodd--next week”.*[4.7-bet]

Tarjima: – *Xullas, shu bahona qiz bilan suhbatlashib qoldim. Qizning gaplaridan bildimki, u kelasi hafta Dod Hiram ismli yosh bir fermerga turmushga chiqayotgan ekan.*

Dod - ismi ham transliteratsiya usuli bilan o‘girilgan. Dod qadimgi keltlardan kelib chiqqan Uelscha nomdir. Ism 14-asrgacha keng iste’molda bo‘lgan turli xil eski ingliz tilidagi shaxs nomlari Dod, Doda, Dud yoki Dudaning shakllaridan biridir. Dod ismi shuningdek, nemischa “dud” yoki “dod”, ya’ni “dumaloq” so‘zidan olingan bo‘lishi va shu sababli ham bo‘yi kichkina yoki axmoq odamga nisbatan beriladigan laqabni bildirishi ham mumkin. Dod familiyasi eski ingliz tilidagi “dydrian” so‘zidan olingan bo‘lib “yolg‘onchi” ma’nosini anglatadi degan qarashlar ham mavjuddir.

Dodning familiyasi Hiram ham transliteratsiya yo‘li bilan tarjima qilingan.**Hiram-** kelib chiqish tarixi Finikiyaga borib taqalsa-da, bu nom yahudiy tilida “baland martabali shaxs” degan ma’noni anglatadi. Qadimgi Falastindagi Tir shahri shohining ismi ham shunday bo‘lgan. Ingliz

tiliga Hiram ismi Protestant islohotidan keyin kirib kelgan. XVII asrda Puritanlar tomonidan Amerikaga olib kirilgan va keng tarqalgan. O‘xshash shakllari Hiram, Hirum (Inglizcha).

Asliyat: *Eve at the age of five minutes must have been a ringer for Miss Ada Lowery at nineteen or twenty*. –[4.7-bet]

Tarjima: *Besh o‘n daqiqacha uning yuxiga tikilib, qizning yoshini aniqlashga urindim va ivhimda bu navnihol Ada Louri juda borsa endi o‘n to‘qqiz yoki yigirma yoshga kirgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim*.

Louri - bu nom transkripsiya orqali olib o‘tilgan bo‘lib, o‘zbek alifbosida **w** harfi mavjud bo‘lmaganligi uchun ham ism **u** unlisiga o‘zgartirilgan. Ushbu ismning tarixi Irlandlarga borib taqaladi, Shimoliy Angliyada va Shotlandiyada uning erkalatib chaqiriladigan shakli Laurensiyadir. O‘xshash shakllari: Louri, Lori, Loura, Overa, Lorey.

Asliyat: *G--George Brown and I were sweet- hearts since he was eight and I was five.* [4. 8-bet]

Tarjima: *Jorj Braun va men juda-juda yoshligimizdan, Jorj sakkiz va men besh yoshda ekanligimizdan buyon bir- birimizni sevardik.*

Jorj - bu ism ham transliteratsiya bilan tilimizga moslashtirilgan. Mazkur nom inglizlarda juda mashhur bo‘lib, uning kelib chiqishi quyidagicha: ingliz, uels, fransuz, janubiy hind tillarida mavjud nom bo‘lib, Jorj aslida dehqon yoki qishloq odamiga nisbatan ishlatilgan. Bu so‘z antik davrda papa she’riyati bilan an’analar aralashuvi davrida shaxs ismi sifatida paydo bo‘ldi. G‘arbiy Yevropada uning nufuzi Salb yurish davrida ancha yuksaldi, chunki bu davrda pravoslav cherkovi bilan yanada ko‘proq aloqa o‘rnatilgandi, bundan tashqari ushbu nom bilan atalgan bir nechta avliyolar va shahidlar mil.avv 303- yilda Nikomediyada vafot etishgan edi. Amerikaga shaxs nomi sifatida, ko‘pgina Yevropa tillaridan, jumladan Jorjos, Jorjidas, Jorjopols va Papa Jorj, “rohib Jorj” shaklida kirib kelgan. Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda bu nom yunoncha shaklining inglizchalashtirilgan varianti Jorj tarzida uchraydi.Hindistonda ushbu nom Xristianlar o‘rtasida, AQShda esa janubiy Hindistonlik oilalar o‘rtasida keng tarqalgan hisoblanadi. O‘xshash shakllari: Jorjer, Jorj, Jorjen, Jorji, Jorjas.

Endi Jorjning familiyasi **Braun** haqida to‘xtalib o‘tsak.Ushbu nom ham tarjima jarayonida **w** ning **u** ga o‘zgarishiga uchragan.Ism asliyat tilida quyidagicha izohlanadi. Ingliz, shotland va irland tillarida kishilarning soch, tana ranglariga nisbatlab kishilarga qo‘yiluvchi laqab bo‘lib, uning O‘rta asrlar ingliz tilidagi shakli “Bron”, Qadimgi fransuz va ingliz tilidagi shakli “Brun” bo‘lgan. Ushbu so‘z keyinchalik qadimgi ingliz va nors tillarida shaxs ismi sifatida shakllana

bordi. Brun, shuningdek, nemischada ismni shakllantiruvchi qo‘shimcha bo‘lgan. Shunday qilib, Brungar, Brunvin singari Eski Ingliz tilidagi ismlarning qisqa shakli Brun bo‘lgan. Amerikaning ismlar lug‘atiga Brun boshqa tillardagi bilan bir xil ma’noda kirib kelgan. O‘xshash shakllari: Bron, Broun, Brun, Braun, Brin, Biron.

Asliyat: *“Go on, Mr. Chalmers,” said he, “and tell the lady what's the proper caper”.*[4.8-bet]

Tarjima: - *Xo‘sh, nima deysiz endi, janob Challers,_deb qoldi Trip menga yuzlanib,- bu yosh xonimga qanday yo‘l ko‘rsatadiz?*

Challers - asliyat tilida Chalmers tarzida yoziladi, tilimizga Challers ko‘rinishida olib kirilgan. O‘rta asrlarda Challers nomi Fransiyada birinchi marta foydalanilgan edi. Aslida, qadimgi fransuz tilidan kelib chiqqan ko‘pgina shaxs ismlari 11-asrda Shotlandiya va Angliyaga Normanlar istilosi bilan kirib kelgan. O‘rta asrlarda ko‘pchilik fransuz ismlari ota-onaning xurmatiga, sharafiga bag‘ishlab qo‘yilgan va ismlar kishining kasbiga ham bog‘liq tarzda bo‘lgan.Ko‘pchilik, masalan, Challers oilasi, o‘zlarining familiyasi sifatida o‘z kasbining nomini qabul qildilar. Biroq, kasbiy familiyani merosxo‘r o‘sha merosning egasiga aylanmagunga qadar qabul qila olmagan. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu nom qadimgi fransuzcha “chamber” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u xona ma’nosini anglatadi va keyinchalik u zodagonlar uylaridagi ma’muriy idorani ifodalovchi xonaga nisbatan qo‘llanila borgan.

Asliyat: *I told 'em at home I was going to spend the day with Susie Adams.* [4.8-bet]

Tarjima: - *Uydagilarga hech narsadan shubhalanib yurmasliklari uchun ularga dugonam Syuzi Adamsnikiga ketayotganimni aytib qo‘ydim.*

Syuzi - transliteratsiya usulida tarjima qilingan.Bu nom ingliz tilida ikki xil shaklda yoziladi “Susie” va “Suzie”.Ikkala nom ham Syuzan yoki Syuzannaning erkalatib chaqiriladigan shakli.Ism yahudiy tilida “gul” degan ma’noni anglatadi. Yevropa hamda O‘rta Sharq bo‘ylab ismning turlicha ko‘rinishlariga duch kelishingiz mumkin, lekin **z** bilan talaffuz etiladigan shakli faqat Sharqiy Yevropa va Niderlandiyada uchraydi.

Tadqiqot davomida, badiiy asardan olingan misollar yordamida antraponimlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan yutuq va kamchiliklar bilan ham tanishib chiqildi. Agar ismda ishtirok etgan barcha harflar ikki til alifbosida ham aks etgan bo‘lsa, tarjimonga ushbu nomni tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, o‘zbekcha- Rahmat – inglizchada ham Rahmat tarzida berilishi yoki Hiram ismining o‘zbek tiliga Hiram shaklida olib o‘tilishini aytib o‘tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.-Namangan, 2006 - B.13.

2.Ergasheva M. Hozirgi zamon ingliz tilida ayol va erkak ismlari qatnashgan frazeologik birliklarning qo‘llanilishi. - Qarshi, 2013.

3. Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma’ruzalar matnlari. –Toshkent, 2012.-88b.

4. O. Henry. No story. 2018. – 7p.

5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. - T.: O‘qituvchi, 1978.-154b.

6. Xurram Rahimov. Nomlarning munosib tarjimasi. – T.: Yoshlik, 2017.

7. Yusupova Q, Ibrohimova N. Dunyodagi eng baxtli odam. – T.: O‘qituvchi, 2018. – 224b.

LINGUOCULTUROLOGICAL PROBLEMS OF TRANSLATION

Khurshida RIZAEVA
4th year student of Theory and Practice of Translation Faculty
Alisher NavoiTashkent State University of Uzbek
Language and Literature

Annotatsiya
Ushbu mqolada tarjimada lingvokulturologiya tushunchasini yoritib berish, u bilan bog'liq muammolarni o'rganib chiqish hamda o'zbek va ingliz tilidagi badiiy tarjima jarayonida ma'lum bir birliklarni lingvomadaniy jihatdan to'g'ri tarjima qilish usullari yoritilgan .
Kalit so'zlar: *lingvokulturalogiya, madaniyat, frezologizmlar va maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari.*

Annotation
This article deals with the explanation the concept of linguaculturology in translation, to study the problems associated with it, and to identify ways of linguistically and culturally correct translation of certain units in the process of literary translation into Uzbek and English.
Keywords:*Linguoculturology, culture phraseologisms and lingvoculturological features of proverbs.*

The origin, development, culture of the people, its worldview, national-cultural consciousness, factors of thinking have an ancient history. After the appearance of the first man, his consciousness began to rise culturally as a result of his formation. The word «culture» was first used by the English scholar Edward B. Taylor in his book Primitive Culture, published in 1871, which refers to culture, knowledge, beliefs, laws and traditions, and customs adopted by various members of society. Whether it is an artistic or an oral translation, it is difficult to understand the text or the speech of the writer. Because it is a work of art belonging to another culture, a skilled translator must be aware of their culture and customs. Therefore, in order to have a deeper understanding and analysis of the translation process, we need to pay close attention to the relationship between language and culture and to be able to obtain a well-organized knowledge from this surface. In her monograph "Linguocultural Aspects of Translation", Shoira Usmanova quotes Gary Witherspoon, a linguist who has been able to give a linguistic view of culture: «If we look at culture from a linguistic point of view, we have a one-sided understanding of culture.»[3] In the 1990s, a new branch of science emerged between

[3]Shoira Usmanova"Linguocultural Aspects of Translation"

linguistics and cultural studies, linguoculturology. It was recognized as an independent branch of linguistics. To date, the problem of the compatibility of language and culture has attracted the attention of many scholars, linguists and researchers. Various approaches to this topic are being studied in the fields of linguistics, such as linguocultural studies, psycholinguistics, ethnolinguistics, sociolinguistics, history, literature, and translation studies. Research by scholars has addressed the issue of language and cultural balance, proving that they are interconnected permanent units or important complementary components. Cultural values are expressed in language, and language is the main means of conveying them to the people. Language embodies the worldview, the identity of a people, and its national culture.

Translation is one of the most complex psycholinguistic processes in the relationship between culture and language. Translation aims to find the appropriate linguistic units in the expression of the true meaning of the information and to use them effectively. It emphasizes the interaction of our culture with the culture of a foreign language and its specific differences, as well as certain cognitive processes associated with understanding the world.

Linguoculturology is one of the leading linguistic studies, which studies the rules of national-cultural organization of speech communication related to the spirit of language or mental language phenomena. It also represents the linguistic reflection of the national psyche. If culturology studies the nature of human self-awareness in nature, society, art, history, and other areas of social and cultural existence, linguistics studies the worldview reflected in language as mental models of the world's linguistic landscape.The main research subject of linguoculturology is both language and culture, which are in a state of constant interaction.

The deeper and more detailed the study of culture, the clearer it becomes to human thought. Therefore, one always seeks to inculcate in one's mind the events that are reflected in one's mind through one's culture. The objects and events that take place in a person's life can be thought of as a cultural tool. For example, it seems impossible to include the sun or the moon in culture. But it is known that these concepts exist in the culture of all nations. But some European peoples (Slavs and Germans) who live in cool climates view the sun as a sign of warmth, reverence, and compliment. In the culture of the Arab states, however, the sun is negatively evaluated during the summer, equating it with the scorching heat that makes them difficult. This means that the sun can be understood not only as a natural phenomenon, but also as a product of culture. One of the main tasks of linguoculturology is to study the linguistic expression of the above-mentioned specific differences that exist in the cultures of different peoples.

In the harmonization of language and culture, as well as in the process of translation, man is involuntarily confronted with the units that make up the important lexical structure of the language. In this case, the translator faces many difficulties in translating a work of art and text of a nation.

Along with cultural dominants, proper nouns are a symbol of the nation's enlightenment and spirituality, describing the unique place and formation of humanity in society, its direct and indirect relationship to society, and the impact of society on human life.Translating Proper Nouns from one language to another is a rather complex and multifaceted process. This is because proper nouns have their own characteristics as carriers of information about a nation's national culture, including that they may have a secondary figurative meaning. In addition, the specific semantic structures of proper nouns determine the complexity of the translation process.

T.A Kazakova emphasizes the lexical methods of translation of proper nouns. The main function of proper nouns is to identify individuals who, in addition to performing their function in the translation process, participate as comparative autonomies that are not subject to context. Proper nouns are important in that they have the ability to reinforce the text being translated in a variety of ways. How to translate them into a foreign language depends on the choice of the translator.[4]

Translating the proper nouns into English by transliteration poses a number of complications related to the simple aspects. First, the number of phonemes in the English proper nouns transcription does not exist in Uzbek. Second, the development of Old English spelling led to significant pronunciation changes. There is an increase in pronunciation and non-pronunciation of letters and letter combinations in words.

Proper nouns are translated using the following groups of transcription and transliteration methods: ***anthroponyms (human names), abbreviated names, nicknames, surnames, toponyms, astronomies, chorons, ethnonyms, names of musical instruments, nicknames of animals, organizations, institutions, books, movies, magazines, spacecraft, firms, company names, and more.***

While some proper nouns use transcription and transliteration techniques to translate into another language, they also need to use other translation methods in addition to them. An example of this is the semantic representation method. For example, ***Amir Temur - Amir Temur, Temurlane, Temur the Great.***

[44]"Практические основы перевода" Т.А.Казакова, "Союз",2000г

Another common way to translate proper nouns, including language units, is to translate through the calque method. It recreates the structural combinators of words or phrases, not sounds. In the calque method, the parts (morphemes) or phrases (lexemes) that make up words are translated by the corresponding language elements present in the language being translated.Most of the words in the political, scientific, and cultural fields are translated by the calquemethod.

For example:***Head of the government*- Mamlakat rahbari**

***Supreme court*- Oily sud**

***Prime mnister*- Bosh vazir**

If the geographical names of mountains, seas, lakes, and other places in nature contain components that can be translated, they are also translated by calque method:

Orange river – *sariq daryo*

White sea – *oq dengiz*

Rocky mountains – *qoyali tog'lar, roki tog'lari*

South China Sea – *Janubiy Xitoy dengizi*

The problem of proper nouns translation in interlingual and intercultural relations and even in interethnic relations has remained relevant despite the fact that it has been studied for a long time. The complexity and shortcomings of the translation of Proper Nouns are due to both subjective (translator's perfect knowledge of the language and general cultural knowledge) and objective (proper nouns are formed in language and oral speech) reasons. Proper nouns finding solutions to problems that arise when translating from one language to another requires a high level of skill on the part of the translator. This, in turn, serves to ensure effective and successful communication between languages and cultures.

Adequate interpretation of phraseological units in translation, which are more complex linguistic means than lexical units of language, is one of the most complex and, at the same time, very responsible issues of translation practice. Because phraseological units, as artistic and descriptive means of speech, are involved in the expression of a wide variety of methodological tasks rather than a simple, neutral statement of thought, given their function, is closely related to recreating its value.

The translation of phraseological units poses certain difficulties in translation. These linguistic units, which are considered to be the cultural symbols of a particular people, need in-depth analysis by linguocultural studies, which is a modern branch of linguistics. Phraseological

units in a language undergo certain changes during the transfer to another language and lose their formality in the same way as the original language phraseological unit. Phraseological units as a sign of the culture of a particular people require complete alternative in the translation process.

Translation by means of equivalents. The similarity of the phraseological units of different peoples in all respects is often explained by the commonality in the living conditions, customs, and logical observations of the peoples. Indeed, phraseology, like other means of language, is based on a variety of universal norms of expression and life observations. The phraseological equivalents of these two languages, which are materially similar, are in many respects also semantically and methodologically functional, because in such cases the units are based on the same concepts based on the same life experience. These different phraseological units can easily replace each other in translation.For example, stable units such as in English ***«Cold war», «Ap open hand», «To suck somebody's blood»*** are absolute equivalents of Uzbek ***phraseologies"Sovuq urush", "Ochiq qo'l", "Birovning qonini so'rmoq"*** in the process of translation, one of them can easily replace the other in all speech situations. Some phraseological equivalents of two languages cannot replace each other in some textual situations. While some semantic and methodological functions of ambiguous bilingual phraseological units are similar, some are different.For example, the English "***The dogs bark, but the caravan goes on"*** and the Uzbek ***"It hurar, karvon otar"*** units, which are similar in terms of both material and semantic and methodological functions, always have the same meaning and methodological function. The phraseology ***"Temirni qizig'ida bos"*** which is international in many languages of the world, does not correspond to its English equivalent "Strike while the iron is hot" in all contexts.

Translation using alternative options. Alternatives are easily interchangeable in translation. This is because there are no national words in the structure of these units that impede their exchange. However, translators sometimes fail to take advantage of the opportunities available in their own language and allow inadequate interpretation of the expression. For example, in Jek London's novel "Martin Eden" for a figurative expression of meaning***"biror narsa to'g'risida yaxshi axborotga ega bo'lmoq"***phraseological unit ***"To have something at one's finger-ends" (biror narsa panjasining uchida bo'lmoq)***was used, which was adequately translated into Russian by the alternative version ***"Знатькаксвоипятьпальцев"***

Such interchangeable phraseological units are usually created for the figurative or emotional expression of the same event, action, character, and are fully compatible with each other. For example, in English, ***To burn one's house to get rid of the mice"***the basic

components of both the phraseological unit and its Uzbek alternative are «to burn». Both linguistic units symbolize the same action - to do something wrong for a trivial reason, the basic components of which are the words ***«hasty» «Hasty climbers have sudden falls» and « Shoshgan qiz erga yolchimas «*** All three units are criticized for the same feature - haste.

Visual translation. It is sometimes not possible to translate a certain phraseological unit using the equivalent, alternative or calque. In such cases, translators are reluctant to resort to the descriptive method of translation practice, in which the meanings of units are explained by means of free-meaning words or phrases. In these cases, there can be no question of re-creating the methodological tasks that are integrated into the original phraseological units. In these cases, the effect of the statement is diminished and the accuracy is lost. This, in turn, reduces the literary value of the original text.For example, the unit "***To make a mountain out of a molehill"*** differs from its synonym ***"to exaggerate"*** and the unit ***"Silent as the grave"*** differs from the word ***"silent"*** in its imagery. Therefore, while the English word ***"to exaggerate"*** can be translated into Uzbek by the lexical equivalent of the words "boʻrttirib yubormoq", "silent", "jim", the above phraseological units are translated into Uzbek. Translation by means of methodologically neutral words such as "boʻrttirib yubormoq", "jim" leads to the extinction of figurativeness embodied in English units. Only the translation of these phrases with the alternative version of ***"Ninaday narsani tuyaday qilmoq"***and ***"Qabrday jim"*** creates functional adequacy.

Translators often resort to a variety of verbal aids to recreate the stylistic functions of the original phraseological units, which can to some extent replace the original, if they are pronounced with the necessary tone. However, because such tools differ little from the descriptive method, in some cases they may not replace the methodological impact created by the original figurative phraseology.

In conclusion, in order to fully comprehend the artistic and aesthetic reality created by the author, the translator must have a correct understanding of the semantic and methodological-aesthetic aspects of the linguistic means in the work of art, while having the power of wide observation. However, sometimes the linguistic possibilities of the original and translated languages are usually incompatible, ie the content and aesthetic value of the words and phrases of the two languages cannot replace each other in a number of texts, which creates many translation difficulties. To overcome such difficulties, the interpreter must have universal knowledge. This is because only a person who has studied the culture of other peoples, the

process of its creation, and the interaction of cultures can appreciate and preserve the heritage left by their ancestors. Cultural knowledge helps to work without difficulty in any field. It is especially important to have a rich cultural knowledge in the field of translation. Literary translation is also a complex process that requires an interpreter to be knowledgeable in all areas. Translating various linguocultural analogies poses a number of challenges.

BIBLIOGRAPY OF USED LITERATURE

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Yozuvchilar uyishmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3652-son qarori. Xalq so‘zi online.05.04.2018

2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.-215с.

3. Amerikana. Anglo-russkiylingvostranovedcheskiy slovar / Pod red. N.V.Chernova. - Smolensk, 1996;Malseva D. G. Germaniya: strana i yazik: Lingvostranovedcheskiy slovar. - M.,1998; Muravleva N.V. Avstriya: Lingvostranovedcheskiy slovar. - M., 1997

4. Korunets I.V. Theory and Practice of Translating. - Vinnytsia: Nova Knyga,2001.–265p.

INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDAGI MUSHTARAK G‘OYALAR

Gulyora SOHIBOYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti filologiya va tillarni
o‘qitish fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya
Maqolada ingliz va o‘zbek ertaklari qiyoslangan. O‘zbek va ingliz ertaklaridagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilingan. Ertaklarda madaniyat va ijtimoiy hayot ifodasi ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: *ertak, ijtimoiy hayot, madaniyat, urf-odat, xalq, qahramon.*

Annotation
The article compares English and uzbek fairy tales. Similarities and differences in Uzbek and English fairy tales are analyzed. In this article was analyzed fairy tales reveal the expression of culture and social life.
Key words: *fairy tale, social life, culture, tradition, people, hero.*

Xalqning urf-odati,an’analarini, tarixiy hayotini ko‘zgu qilishga arzigulik mezonlar talay.Bu orqali millat taraqqiyotini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.Ana shunday milliy mentalitet ko‘zgusi xalq ertaklaridir.Xalq ertaklari bizga o‘tmishdan sado beribgina qolmay,insonning yashash o‘lchovi, o‘zaro munosabatlar,mehr-oqibat kabi yuksak qadriyatlari bilan o‘rnak maktabidir.Dono xalqimiz:»Ertaklar yaxshilikka yetaklar»,-deb bejiz ta’kidlashmagan.Bu maqolada ikki xalq,ya’ni o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining o‘zaro mushtarak g‘oyalarini ochib berishga harakat qilinadi.

Ingliz xalq ertaklari o‘ziga xos,sodda va ravon.Filologlar va kulturologlar ingliz xalq ertaklari boshqa xalqlarnikidan tubdan farq qilishini isbotlashgan.Angliya ertaklarida personajlar g‘ayrioddiy motivlarga ega.Qahramonlar yuksak cho‘qqilarni zabt etishni,kimnidir mag‘lub etishni,boylikka egalik qilishni,rus ertaklariga xos bo‘lgan har qanday mahoratga ega bo‘lishn izohlaydigan syujetlar kam uchraydi.Aksincha, ertak qahramonlari tashqi sharoitda ko‘proq harakat qilishadi,masalan, burchni anglash yoki muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik.Syujetlar oddiy ko‘rinishi mumkin,biroq ular ko‘proq er yigit,mard kishiga tegishli,shuning uchun ochko‘zlik va ambitsiyani ta’kidlamaydi.

Biz bilgan o‘sha mashhur “Uch og‘a-ini botirlar» ertagida og‘a-inilar mard,jasur, “yomon bilan yurmagan”,”yomon joyda turmagan”,oldidagi maqsad sari dadil intiluvchi haqiqiy yigitlar obrazidir.Yana e’tiborli jihati uch aka-uka,uch kun uch tun,har bir tunning uch qismi,uch opa-

singil va uch jumboqning takrorlanishi bejiz emas,demak bunda qaytariqlarning har biri maxsus estetik yuklamani bajaradi.So‘z san'atining boshqa turlari bo‘lgani kabi. Misol uchun badiiy asarlardagi o‘xshatish,sifatlashdek. Mazkur tasvir vositalari xalq ertaklarini qimmatini belgilashda muhim omil hisoblanadi.Bu ertakning ingliz xalqidagi «Uch kichkina cho‘chqa» ertagi bilan o‘zaro bog‘liq taraflari borligini payqaymiz. Boisi “mening uyim bu -mening qal’am” deydi jajji obraz,bu bilan oila muqaddas dargoh ekanligi ingliz xalq og‘zaki ijodida ham aks etgan.Bu ikkala ertak qahramonlarida beparvo bo‘lmaslik,har qanday masalani hal etishda ehtiyotkor bo‘lish,yaqinlarga bo‘lgan oqibat darhol anglanadi.

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida yetti raqami ham alohida sehrli qudratga ega.Sehrli ertaklardagi bu raqam ertak syujetini yakuniga yetaklaydi: “Snow white and seven Dwarf”- “Oppog‘oy va yetti gnom”.Umuman yetti gnom singari g‘ayrioddiy ko‘makchilar qahramonning mifologik tabiatini tashkil etadi.M.Jo‘rayevning ta’kidlashicha,folklorda yetti raqami magik raqam sifatida an’anaviylashuvi ajdodlarimiz tabiatidagi ibtidoiy qarashlarga borib taqaladi.Raqamlarning bu kabi xususiyatlari millat va elatlar tarixida ularning o‘rni bir xil ekanligini ta'kidlaydi.

Ikki xalq ertaklarida o‘xshash mavzularni ko‘plab uchratish mumkin.Masalan,ingliz ertagi “Sohibjamol va maxluq”,o‘zbek xalq ertagi “Ilonshoh” bir xil syujetga ega.Har ikkala ertakda ham jodugar kampir qahramonni sehrlab maxluqqa aylantiradi va maxluq qizning muhabbati bilan sehr kuchidan ozod bo‘ladi.

Yana bir xarakterlanadigan ertaklardan biri “Zumrad va Qimmat”dir.Obrazlar tasvirlanishi,syujetlar,har bir motiv o‘zgacha.Qimmat obrazi orqali badxulqlik,ishyoqmaslik,odamlarni mensimaslik kabi salbiy jihatlar tasvirlangan.Ertak yakunida bu qahramon o‘z jazosini olgan.Bu bilan “Yomonlik jazosiz qolmas”ligi kitobxonga uqtirilgan. “Novvoyning qizi” angliya ertagi ham shu jihatdan bizning ertakka o‘xshash.Chunki qahramon qiz ham Qimmatdek o‘ziga bino qo‘ygan,hech kimni mensimaydigan,qandaydir kampirga e’tibor qaratmaydigan obraz.Bu ertak yakunida ham novvoy qiz ukkiga aylanib,o‘z “mukofot”ini oladi.

Yana “Sinderella” angliya ertagi bilan ham o‘gaylik motivi jihatdan o‘xshash «Zumrad va Qimmat».Ikkalasida ham birlashtiruvchi g‘oya,ya’ni o‘gay qiz ezgulik timsoli sifatida gavdalanadi.Zumrad va Sinderellaning asosiy vazifalari o‘gaylik va adolatsizlik,yovuzlik va insofsizlikka qarshi chiqishi bilan belgilanadi.Ikki xalq qahramoni ham o‘ta haqgo‘y,odobli,aqlli,mehnatsevar,garchi o‘gay onalari tazyiqi ostida bo‘lsalar ham kelajakka ishonch ko‘zi bilan boquvchi pokiza qalb egalari.Aytish joizki,o‘gay qiz turkumidagi ertaklar

o‘ziga xos xususiyati,nasihatomuz xususiyatlari va ta’limiy-didaktik g‘oyalari bilan ajralib turadi. Yana o‘xshashliklardan biri bosh qahramon ideallashtirib olinadi,bu bilan birga zulm,zo‘ravonlik qoralanadi.Bu orqali kitobxon ezgulik sari yetaklanadi.Ertakda: “Zumrad ko‘p chiroyli,odobli,muloyim,aqlli qiz ekan,uni ko‘rganda ko‘zlar qamashib,chiroyiga hattoki oy ham hasad qilarkan.Butun tabiat uning yaxshiligidan orom olar ekan”.

«Cinderella»da:She was so kind and looked like as thousand lights shone open her,she was so beatiful that everyone who saw her was amazed.She was so open hearted and always helped in everybody even to animals».Garchi bu ertaklar ikki xalqqa tegishli bo‘lsa-da,ertakdagi g‘oya adolatning qaror topishiga,mehnatsevarlikka,ezgulikning g‘olib bo‘lishiga asoslangan.

«Egri va To‘g‘ri»ertagi ham to‘g‘rilikka yetaklab,egrilikdan qaytaradi,boisi egri yo‘lning oxiri voy. “Shum tabib” ingliz ertagida ham so‘nggi pushaymon insonning o‘ziga dushmanligi,qing‘irishning qiyig‘i fosh bo‘lishi isbotlangan.Shu ikkala xalq og‘zaki ijodi hayotiy-maishiy ertaklar qatoriga kiradi.Bunday turlarda asosan egrilik ustidan to‘g‘rilik g‘olib chiqishi,do‘stlik ulug‘lanadi,yaxshilik,saxiylik,mehnatsevarlik ulug‘lanadi.

“The Gingerbread man” va “Johnny-cake” ertaklari ham ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshaydi,lekin ular har xil ertaklar.Bu ertaklar tuzilishiga ko‘ra rus xalq ertagi “Bo‘g‘irsoq”qao‘xshaydi. “Catskin”va “Cup of rushes” ertaklar ham o‘xshash bo‘lsa-da,farqini o‘qish jarayonida bilib olish mumkin.

Inglizlar haqiqatni yaxshi ko‘radigan sinchkov odamlar hisoblanadi.Bu ingliz xalq ertaklarida aks etadi.Ularning syujetlari haqiqat va tafsilotlarga boy,ba’zan haddan tashqari quruq va batafsil.Ba’zan butun ertak faktlar bilan vaziyatlar tavsifiga asoslanadi,hech qanday rad etish bo‘lmaydi.Syujet burilishlari va hissiy o‘rinlar kamdan kam uchraydi.Hatto ertaklar ham oddiy odamlar hayotidagi oddiy voqeadek o‘qiladi,sababi bu janrdagi barcha hodisalar haqiqatda sodir bo‘lgandek juda aniq,batafsil tasvirlanadi.Birinchi ingliz xalq ertaklar to‘plamlari 19-asrning oxirlarida yig‘ilgan,bu ishni ingliz folklori klubi prezidenti Jozef Jeykobs amalga oshirgan.To‘plam ikki jilddan iborat.

Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan biri xalq hayoti, psixologiyasi,dunyoqarashi,urf-odatlari bilar bog‘langanligi va insonlarga ma'naviy,axloqiy tarbiya berishidir.Uzoq proletar yozuvchisi A.M.Gorkiy o‘zining “Ming bir kecha”asari so‘zboshisida ertak janri,uning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bergan.Bejiz P.P.Bakiv “Ertaklar orqali hayotni ko‘rasan”,-deb ta’kidlamagan.

Jahon xalqlari og‘zaki ijodida, xususan o‘zbek folklorida ham ertaklar kompozitsiyasida an'anaviy morfologik holatning mavjudligi folklorshunos olimlar tomonidan isbotlangan.

Ko‘ryapmizki,qaysi xalq ertagi bo‘lmasin,ularni birlashtiruvchi pok g‘oyalar bisyor.Chunki asos zamirida inson manfaati yotadi.Xulosa qilib aytish joizki,millat va elatidan qat’i nazar, hamma xalqlarnng og‘zaki ijod namunalaridan bahramand bo‘lish darkor,sababi ularni ko‘rinmas g‘oya va maqsadlar bog‘lab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov.O O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.Darslik. -T.:Musiqa,2011.
2. K.Imomov O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.-Toshkent:O‘qituvchi,1990.
3. Пропп В. Я. Морфология сказки. -Москва: Наука, 1965.

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDOGOGIK USLUBLARDAN FOYDALANISH
(“UFQ” TRILOGIYASI MISOLIDA)

Mohigul MOVLONOVA
Toshkent viloyat CHDPI
akademik litseyi oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada mashhur adib Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan berilgan darslikdagi parchani o‘quvchilarga dars jarayonida qanday yetkazib berish, pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta’limiy ssenariylardan foydalangan holda o‘quvchilarni dars jarayonidagi faol ishtirokchiga aylantirish yo‘llari hamda adabiyot fanidagi mavzulardan kelib chiqib, berilgan mavzu orqali o‘quvchilarga chuqur tarbiya berish yo‘llarini yaratish.
Kalit so‘zlar: *“Ufq” romani, trilogiya, innovatsion, pedagogik texnologiya.*

Annotation
This article describes how to present an excerpt from the trilogy of the famous writer Said Ahmad «Ufa» to students in the classroom, how to increase the effectiveness of teaching using educational technologies, how to make students active participants in the classroom using educational scenarios. And create ways to deeply teach students on a given topic based on topics from the field of literature.
Key words: *novel «Ufq», trilogy, innovative, pedagogical technology*

Ma’lumki, adabiyot darsligida o‘zbek adabiyotining shoh asarlari bo‘lgan yirik epik va dramatik asarlardan parchalar berilgan. O‘quvchi nafaqat parcha bilan tanishishi, balki asar haqida ham to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi darsning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga “interfaol usullar” nomi bilan kirib kelgan usullar o‘qituvchi uchun ortiqcha kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Ilmiy konferensiya, taqdimot (reklama), bilimdonlar bellashuvi, bahs va munozaralardan o‘rinli foydalanilsa, o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi, so‘z boyligi, og‘zaki nutqi oshadi.

Said Ahmadning hajman katta bo‘lgan, o‘zbek xalqi hayotining o‘n yilini qamrab olgan “Ufq” trilogiyasini “taqdimot” usulida quyidagi ketma-ketlikda o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Taqdimot usulining afzalligi shundaki, o‘quvchilarga shartlar oldindan e’lon qilinadi. O‘quvchilar romanni to‘liq o‘qib chiqadilar va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlaydilar.

Darsning kirish qismida O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning hayot yo‘li va ijodiy merosi haqida hikoya qiluvchi slayd namoyish etiladi. Rasmlarni o‘qituvchi va oldindan tayyorlangan 2-3 ta o‘quvchi sharhlab boradi.

Darsning asosiy qismi - “Ufq” trilogiyasi taqdimoti o‘qituvchining kirish so‘zlari bilan boshlanadi: “Ufq” trilogiyasi yozuvchi ijodida alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi asar ustida o‘n yildan ortiq tinimsiz ter to‘kadi. Asar o‘zbek xalqi hayotining o‘n yillik davrini, ya’ni urush arafasi, urush va urushdan keyingi yillarini qamrab olgan. Adib ana shunday tarixiy voqealar orqali xalqning ma’naviy boyligini ochadi, mehnatkash xalqning xarakteriga xos boqiy fazilatlarni – mardlik, tantilik, oliyjanoblik, birdamlik kabi tuyg‘ularni o‘ta samimiy va ro‘y-u rost talqin qiladi. Xuddi mana shu fazilatlar tufayli xalq 45 kun ichida qo‘l kuchi bilan ulkan kanalni bunyod etadi. Urush davrida adoqsiz azob-uqubatlarni, musibatlarni yengib o‘tadi. Trilogiyada har bir personajning o‘z hayot yo‘li, xarakteri, o‘ziga xos xususiyatlari jonli va aniq chizib beriladi. Asarda Farg‘ona vodiysi, Marg‘ilon, Oltiariq, Kuyganyor, Zirillama, Chorterak, Qoratepa, Nayman kabi joy nomlari uchraydi va voqealar shu joylarda bo‘lib o‘tadi.

Trilogiya “Qirq besh kun“,”Hijron kunlari”, “Ufq bo‘sag‘asida “ deb nomlangan uchta romanni o‘z ichiga olgan. O‘quvchilar uyga berilgan topshiriq asosida trilogiyaning uchta romaniga tayyorgarlik ko‘rib kelishgan va o‘z guruhlarini shu kitob nomi bilan atashgan: 1-guruh “Qirq besh kun”; 2-guruh “Hijron kunlari”; 3-guruh “Ufq bo‘sag‘asida” deb ataladi.Taqdimot shartlari quyidagilardan iborat:

1-shart: asar haqida qisqa ma’lumot berish va sujet elementlariga to‘xtalib o‘tish; kitobning nomlanishiga izoh berish.

2-shart: roman qahramonlariga qiyosiy tavsif berish.

3-shart: romandan olingan parcha asosida “Tursunboy nima uchun vatan xoiniga aylanadi?” jadvalini to‘ldirish.

Shartlarning baholanishi “5” ballik tizim asosida bo‘lib, bunda o‘quvchilarning o‘zlarini tutishlari, nutqining aniq va ravonligi hamda guruhning uyushqoqlik bilan ishlash jarayoni e’tiborga olinadi.

“Qirq besh kun” jamoasining taqdimoti:

(Ko‘rgazmali qurollar: “Ufq” romani, Usmon Yusupov, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Tamaroxonim, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon portretlari, Katta Farg‘ona kanali qurilishi tasvirlangan fotosuratlar, proyektor, ekran.)

1-o‘quvchi: “Ufq” trilogiyasining birinchi kitobi Katta Farg‘ona kanali qurilishi voqealariga bag‘ishlangan bo‘lib, u “Qirq besh kun” deb nomlangan. Yozuvchining asosiy maqsadi Katta Farg‘ona kanali qurilishining hamma jarayonini bosqichma - bosqich yoritib berish emas, balki kanal qurilishining umumiy manzarasi hamda bu jarayondagi o‘zbek xalqining g‘ayrat-shijoatini tasvirlash bo‘lgan va bunga to‘la erishgan. Haqiqatan ham, Katta Farg‘ona kanalining qurilishi respublikamiz tarixidagi aql bovar qilmaydigan, g‘oyat noyob mo‘jiza bo‘lgan. Bir necha yuz ming xalq bir tan, bir jon bo‘lib bir yuz sakson chaqirimlik kanalni qirq besh kunda qurib bitiradi. Asarning nomlanishi ham aynan shu tarixiy voqea bilan bog‘liq. Asar 1939-1940 yillar voqealarini o‘z ichiga oladi.

2-o‘quvchi: “Qirq besh kun” romanida Azizxon, Ummatali, Tursunboy, Ikromjon, Jannat xola, Eshpolvon, Jo‘ra polvon, Lutfinisa, Akbarali, Vazira kabi obrazlar o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, asarda tarixiy shaxslar ham gavdalantiriladi. Masalan, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov, Stalin, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Tamaraxonim shular jumlasidan. Asar voqealari mana shu obrazlar atrofida birlashadi.

3-o‘quvchi: Endi “Qirq besh kun” romanining sujet elementlariga to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab, sujet elemetlarining o‘ziga ta’rif beramiz. Sujet elementlarining birinchisi -ekspozitsiya. Ekspozitsiya – lotincha “tushuntirish” degan ma’noni bildiradi. Asarning kirish qismida ro‘y beradigan o‘rin -joy tasviri. “Qirq besh kun” romanining ekspozitsiyasi Zirillama qishlog‘ining tasviri, yaktagining bariga 4-5ta handalak solib kelayotgan 50 yoshlardagi kishining shoshilmay yurishi va ko‘cha yuzida joylashgan uylarning fayzli tasviri bilan boshlanadi.

4-o‘quvchi: Sujetning ikkinchi qismi – tugundir. Tugun-badiiy asarda voqea va qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatning paydo bo‘lishidir. Asarning tuguni deb Azizxonning Lutfinisani o‘g‘irlashi voqeasini olishimiz mumkin. Azizxon sinfdoshi Lutfinisani sevadi, lekin Lutfinisanining akasi Akbarali Azizxonga singlisini bermaydi. Shu voqeadan so‘ng Azizxon bilan Akbarali o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi.

1-o‘quvchi: Sujetning keyingi qismi – voqealar rivojidir. Voqealar rivoji tugundan so‘ng asarda voqealarning kuchayib, keskinlashib borishidir. Asardagi voqealar rivoji Azizxonning Lutfinisani to‘yi kuni o‘g‘irlab qishloqdan chiqib ketishi, mirob Belyavskiy bilan uchrashib kanal qurilishiga kelib qolishi va jon-jahdi bilan ishlashi voqealaridir.

2-o‘quvchi: Sujet elementlarining eng oliy nuqtasi- bu kulminatsion nuqta. Kulminatsiya so‘zi lotincha “cho‘qqi” degan ma’noni bildiradi. Badiiy asardagi voqealar rivojining eng oliy nuqtasi, ish-harakat va kurashning keskinlashgan o‘rni. Romanning kulminatsion nuqtasi esa Kuyganyorda ayollar brigadasi bilan kanal qazish ishlarida jonbozlik ko‘rsatayotgan, bolaligidan yetimlikda akasining qo‘lida kelinoyisining eski kiyimlarini kiyib katta bo‘lgan, mehr ko‘rmagan, faqat Azizxonning muhabbati bilangina shod bo‘lgan Lutfinisaning akasi Akbarali tomonidan pichoqlab o‘ldirilishidir.

3-o‘quvchi: Sujet elementlarining eng oxirgi qismi- yechim. Yechim badiiy asar asosida yotgan ziddiyatning hal etilishidir. Asarning yechimi esa Katta Farg‘ona kanali qurilishining bitkazilishi, Lutfinisa qotilining taqdir tomonidan jazolanishidir.

4-o‘quvchi: Endi esa romandagi bosh qahramon Azizxon ta’rifiga to‘xtalamiz. “Qirq besh’’ kun romanining bosh qahramoni Azizxon yozuvchining yutug‘i sanaladi. Yozuvchi butun xalqning mehnati, harakatlari tasvirini Azizxonning taqdiri bilan tutash holda beradi. Asarda Azizxonning qisqa bir muddat – 45 kun ichidagi hayoti aks etadi. Shu 45 kun uning butun borlig‘ini alg‘ov- dalg‘ov qilib yuboradi. Kechagina ko‘cha changitib, o‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olib, kuch- quvvatini qayerga qo‘yishni bilmay, yurt ko‘zidan chetda mayda, foydasiz ishlar bilan shug‘ullanib yurgan bola kanal qurilishiga keladi-yu, mehnat qahramoniga aylanadi, xalq nazariga tushadi, partiyaning, davlat arboblarining e’tiboriga tushadi. Ilk bor u o‘zining hayotdagi o‘rni, el-yurt, ota-ona oldidagi farzandlik burchi haqida o‘ylay boshlaydi, endi u o‘zining qilmishlari haqida o‘ziga hisob beradigan bo‘ladi. Shu 45 kun ichida uning shaxsiy hayotida butun bur umriga tatiydigan hodisalar ro‘y beradi. Majburan uzatilayotgan sevgilisi Lutfinisani qutqaradi. Qisqa vaqt bo‘lsa-da baxtli bo‘ladi, lekin o‘z akasi Akbarali tomonidan Lutfinisa pichoqlab o‘ldiriladi. Azizxon tuganmas qiynoqlar qa’rida qoladi.

“Hijron kunlari’’ guruhi taqdimoti:

(Ko‘rgazmali qurollar: “Ufq” romani, II jahon urushi tasvirlari, o‘zbek yigitlarining frontdagi suratlari va front orqasida mehnat qilayotgan o‘zbek xalqining o‘g‘ir hayoti aks ettirilgan slayd.)

1-o‘quvchi: “Hijron kunlari”- “Ufq” trilogiyasining ikkinchi romani hisoblanadi. Asarda II jahon urushi voqealari, urush davrida front orqasidagi mehnatkash o‘zbek xalqining og‘ir hayoti va, shu bilan bir qatorda, jamoat ishiga fidoyilik va tantilik kabi tuyg‘ulari aks ettiriladi. Trilogiyaning “Qirq besh kun” romani 1939 -1940 yillar voqealari bilan yakunlanadi. “Hijron kunlari” romani esa bevosita uning uzviy davomi hisoblanadi. “Qirq besh kun” romanida

uchramagan obrazlar “Hijron kunlari” romaniga kirib keladi. Masalan: Nizomjon, Dildor, A’zamjon, Asrora, Risolat, Inoyat oqsoqol va boshqalar. Asar **ekspozitsiyasi –** “Charosga rang kirib qoldi” jumlasi bilan boshlanib, asar voqealarining yoz oyida ro‘y berayotganligiga ishora qiladi. Sujet Farg‘onaning Chorterak qishlog‘i tasviri, Nizomjon va Dildorning uchrashib qolishi lavhasi bilan boshlanadi.

2-o‘quvchi: Asarning tuguni Dildorning Nizomjonni emas, uning urushdan yarador bo‘lib vaqtinchalik ta‘tilga kelgan akasi A’zamjonni sevib qolishidir.

Asarning voqealar rivoji deb esa Nizomjonning akasinining to‘yi kuni uyidan bosh olib chiqib ketishi, Ikromjon bilan uchrashib, uning uyiga borib qolishi va butunlay o‘sha joyda qolib ketishi, A’zamjondan “qoraxat” kelishi voqealarini olishimiz mumkin.

3-o‘quvchi: “Hijron kunlari” romanining kulminatsion nuqtasi esa urushdan qochib ketib ota-onasining boshini egib qo‘ygan “vatan xoini” deb nom olgan to‘rt oydan beri to‘qayda hayvonlardek iflos-isqirt holda yashayotgan, o‘z onasining tobutini ham ko‘tarishga yaramagan noqobil, qochoq o‘g‘il Tursunboy bilan otasi Ikromjonning nogahon to‘qayda uchrashib qolishi voqeasidir.

4-o‘quvchi: Asarning yechimi – Tursunboyning oila, yor-u do‘stlaridan uzoqda, chaqirsa ovozi yetmaydigan to‘qayda xor-u zor bo‘lib o‘lishi, Nizomjon bilan Zebining bir-biriga ko‘ngil qo‘yishi, Dildorga A’zamjondan tirik ekanligi haqidagi xabarning kelishidir.

1-o‘quvchi: “Qirq besh kun” romani bilan “Hijron kunlari” romanini bir-biriga bog‘lab turuvchi qahramonlarning keyingi hayoti voqealar rivojida aks etadi. Jumladan, Zirillama qishlog‘ini zirillatgan Azizxon “Qirq besh kun” romanida kanal qazishda mehnat fidoyisiga aylanib, partiyaning va xalqning e’tiboriga tushadi. Shu bilan birga sevgilisi Lutfinisadan ayrilib, adoqsiz azob-uqubatda qoladi. “Hijron kunlari” romanida esa u urushga ketib qahramonlik ko‘rsatadi. Azizxon tufayli Zirillama qishlog‘i butun mamlakatga taniladi.

2-o‘quvchi: Yana bir qahramon Tursunboyni esa “Qirq besh kun” romanida olifta, erkatoy, tantiq, dangasa, faqat o‘ziga oro beradigan, qizlarni o‘ziga qaratishni yaxshi ko‘radigan obraz sifatida ko‘ramiz. “Hijron kunlari” romanida bu obrazning salbiy jihatlari yanada mukammallashib, “Vatan xoini” darajasigacha borib yetadi va o‘quvchida nafrat uyg‘otadi.

“**Ufq bo‘sag‘asida” jamoasining taqdimoti:**

(Ko‘rgazmali qurollar: “Ufq” romani, Yozyovon, Nayman cho‘llarining urushdan oldingi va o‘zlashtirilgandan keyingi tasviri; botayotgan quyosh- ufq tasviri ekranda namoyon bo‘ladi.)

1-o‘quvchi: “Ufq bo‘sag‘asida” romani “Ufq” trilogiyasining yakunlovchi asaridir. Trilogiyanining “Ufq” deb atalishi ham mana shu uchinchi qism bilan bog‘liq. Bu roman ikkinchi jahon urushi tugagandan keyingi dastlabki yillar voqealarini, Yozyovon va Nayman cho‘llarining o‘zlashtirilishini tasvirlab beradi. Uchinchi kitobda ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mardlik, tantilik, birdamlik, olijanoblik kabi tuyg‘ular ulug‘lanadi. Molparastlik, xudbinlik, vafosizlik kabi illatlar qoralanadi. Asarda oldingi ikkita romanda tasvirlangan qahramonlarning keyingi hayotlari aks ettiriladi. Masalan, “Qirq besh kun” romanidagi Ikromjon, Ummatali, To‘lanboy, Raimberdilarning uchinchi romanda yangi-yangi qirralari ochiladi, Nayman cho‘llarini o‘zlashtirishdagi fidokorona mehnatlari tasvirlanadi. “Hijron kunlari” orqali kirib kelgan Nizomjon, Dildor, Asroralar esa romandan romanga o‘sadi, ulg‘ayadi, taqdir sinovlarida toblanib, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ladilar

2-o‘quvchi: Asar ekspozitsiyasi “Gorchakovo stansiyasiga odam sig‘maydi” jumlasi va “qoraxat” kelib hamma o‘lgan deb o‘ylagan A’zamjonning urushdan omon qaytishi hamda butun oila a’zolari, shu jumladan, Dildorning uni vokzalda kutib olish jarayoni bilan boshlanadi.

3-o‘quvchi: Asarning tugun qismi ham ana shu voqeadan keyin ro‘y beradi, ya’ni qaynotasi Inoyat oqsoqol bilan qaynopasi Risolatning eridan “qoraxat” olgandan keyin ko‘rsatgan a’zoblariga chiday olmagan Dildor eri urushdan qaytgach ham uning uyiga bormaydi.” Agar oilang, o‘g‘ling kerak bo‘lsa, o‘zing biz bilan yashaysan”, deb shart qo‘yadi. Shundan so‘ng voqealar rivoji davom etadi. A’zamjon bilan Dildor yarashib, Yozyovon cho‘lini o‘zlashtirish uchun qishloqdoshlari bilan cho‘lga jo‘naydi. Afsuski, A’zamjon Dildorni yana tashlab ketadi va va boshqa qizga uylanib oladi.

4-o‘quvchi: Romanning kulminatsiyon nuqtasi esa umrida og‘ir ish qilib ko‘rmagan, lekin cho‘lda qora moyga botib traktor haydab jonbozlik ko‘rsatayotgan, eri tashlab ketgan Dildorning uchinchi marta sevilishi va sevib qolishidir. “Ufq bo‘sag‘asida” romaniga yangi kirib kelgan, urushda qahramonlik ko‘rsatib ikki ko‘ksi to‘la orden va medallar bilan qaytgan qahramon Xolmatjonga oshiq bo‘lib qolishidir.

1-o‘quvchi: Asarning yechimi Yozyovon va Nayman cho‘llarining o‘zlashtirilishi, asar qahramonlarining baxtli bo‘lishi, ya’ni Dildor bilan Xolmatjon, Nizomjon bilan Zebixon, Asrora bilan Karimjon va Azizxonning urushdan qaytib kelishi haqidagi voqealardir.

2-o‘quvchi: Asarning “Ufq bo‘sag‘asida” deb nomlanishiga sabab trilogiyaning bosh qahramoni Ikromjon ufqni, uning tovlanishini tomosha qilishni sevardi. Ufqni o‘zlari o‘zlashtirgan Nayman cho‘liga, aniqrog‘i, Naymanni ufqqa olib borishni istardi. Ikromjon tong

otayotgan paytda o‘g‘li Nizomjonning yelkasiga bosh qo‘ygancha, ufq bo‘sag‘asida ufqqa tikilgancha jon beradi.

3-o‘quvchi: Ufq so‘zining yana bir ma’nosi “istiqbol’’ degani. Ramziy ma’noda xalq tomonidan o‘zlashtirilgan Nayman cho‘lining, Nayman qishlog‘ining istiqboli porloqdir. Aniqrog‘i istiqbol bo‘sag‘asidagi Nayman qishlog‘i degan ma’noni ifodalaydi.

O‘qituvchi, taqdimotning ikkinchi shartiga ko‘ra, guruhlarga asar qahramonlari nomlari yozilgan varaqlarni tarqatadi (1-guruhga: Ikromjon va Inoyat oqsoqol;

2-guruhga: Azizxon va Tursunboy; 3-guruhga: Dildor va Asrora.) Har bir guruh ikkitadan qahramonga ta’rif yozadi va sharhlab beradi Mavzuni mustahkamlash uchun ‘’VENN diagrammasi’’ to‘ldiriladi.

Uchinchi shartga ko‘ra guruhlarga “Nima uchun?” sxemasi tarqatiladi.

O‘quvchilar “Tursunboy nima uchun Vatan xoiniga aylanadi?” savoliga yozma javob beradilar .

O‘qituvchi guruhlarning barcha shartlar asosida yig‘ilgan ballarini umumlashtirib, sharhlab yakuniy baholarini e’lon qiladi. Uyga vazifa sifatida Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasini o qib kelish va obrazlarga ta’rif yozish vazifasini beradi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi va undan olingan “Qochoq” parchasini shu yo‘sinda o‘rganish, shubhasiz, ijobiy natija beradi. O‘quvchi badiiy asar kompozitsiyasi haqida ham nazariy, ham amaliy ma’lumot oladi. Tursunboyning inson qiyofasini yo‘qotishiga sabab bo‘lgan haqiqiy omillarni tushunib yetadi. “Ufq” trilogiyasini to‘liq o‘qib chiqish istagi paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. –T.: G‘afur G‘ulom, 2019. -187 b.
2. Yarashova Barchinoy. Bitiruv malakaviy ishi. – T., 2017. – 54 b.
3. http//. Library.ziyonet.uz.

MADANIY NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Maftuna MATNIYAZOVA
Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi
7-son maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada mantiqiy nutq va uni shakllantiruvchi vositalar xususida so‘z yuritilgan. Nutqning fikr bildirishdagi ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: *madaniy nutq, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nuqtning mantiqiyligi, nutqning sofligi, nutqning ta’sirchanligi.*

Annotation
This article discusses logical speech and the tools that shape it. The importance of speech in expressing opinions is explained.
Key words:*cultural speech, correctness of speech, accuracy of speech, rationality of point, purity of speech, effectiveness of speech*

Maktabda o‘quvchilar nafaqat aniq va gumanitar fanlarning asoslarini balkim odamiylik, insoniylikning qonun-qoidalarini ham o‘rganadilar. Bolalarga uni singdirishda o‘qituvchining o‘rni nihoyatda kattadir. Shu sababga ko‘ra uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsiga katta e’tibor berilgan. Fransuz mutafakkiri J.Dilton **“Xalq uchun nondan keyin eng keragi maktabdir”** – degan edi. O‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida kamol topishida o‘qituvchining o‘rnini hech kim bosa olmaydi. Ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy malakalarini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o‘qituvchi nutqining ham o‘ziga xos o‘rni mavjud.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo‘lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko‘rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba’zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo‘lishini kuzatib qayd etib boradi.

Odam nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi

hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi va kitobxonga to‘liq yetib borishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra nutq oldiga ma’lum talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq bo‘lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb qaraladi.

Nutqning to‘g‘riligi uning adabiy tili me’yorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi me’yorlar hisobga olinadi.:

a) talaffuz me’yorlari:

b) morfologik me’yorlar:

Adabiy til dialect va shevalardan o‘z morfologik me’yorlariga ko‘ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda sozlarning kelishiklarda turlanishi, fe’llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so‘z va so‘z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko‘ramiz.

v) sintaktik me’yorlar: Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlari.

g) imloviy me’yorlar: Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me’yorlariga tayanadi. Bu me’yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o‘z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me’yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

d) lug‘aviy me’yorlar:

Har bir xalq tili o‘sha millat a’zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo‘lgan so‘z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo‘lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so‘zlashuv tili esa adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma’nosiga ko‘ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so‘zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha sozlar adabiy tilda qo‘llanilavermaydi.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo‘lgan materiali o‘rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

a) sinonimlardan o‘rinli foydalanish;

b) antonimlardan to‘g‘ri foydalanish;

c) ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘rinli qo‘llash;

d) so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash;

e) iboralarni to‘g‘ri qo‘llash;

O‘qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o‘rinni egallaydi. Ular o‘quvchi bilimining dunyoqarashining bilishi hisoblanadi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma’lum. G‘arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel “Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi” degan bo‘lsa, Kaykovus: “Ey, farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so‘zlaganda ma’noli gapir, notiqlikning alomatidir”. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e’tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar.

Nutqning har tomonlama to‘g‘ri bo‘lishi uchun narsa aniqligining o‘zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik ham bo‘lishi zarur. A.Qahhor “Men yozilgan sahifani hatto jumlani ham ustidan tuzata olmayman. Jumla hatto butun bir sahifaning bir so‘zini o‘chirib, o‘rniga, boshqasini yozish uchun boshqa qog‘ozga o‘sha jumla, hatto sahifani ko‘chirib yozaman. Nutq bilan qilingan mehnat dard va quvonchni yuzaga chiqara oladi” – degan edi.

Nutqn**ing mantiqiyligi.** Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto‘g‘ri tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqiylikni buzadi. Mantiqiy izchillkining buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib yetmasligiga, ba’zan, umuman, anglashmasligiga olib kelishi mumkin.

Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so‘zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo‘yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir.

So‘zlarning o‘zi ifodalanayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyligi bo‘lsa, soz birikmalari, gaplar, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo‘ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir.

Mantiqiyligiga putur yetgan gaplarga misollar:

- Olti oylik davlatga sut sotish rejasi bajarildi.
- U bir kitobga 5 so‘mdan qo‘yib sotmoqda.
- Akulalar tirik bola tug‘adi.
- Erkak paypoqlar narxi 30 foizga arzonlashdi.

O‘qituvchi nutqining mantiqiyligi. Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrning o‘zaro mutanosibligi mantiqiyligi deb yuritiladi.

Mantiqli nutqda gaplardan fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo‘lmaydi. Mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Noaniq nutq mantiqiy bo‘la olmaydi. Nutqda mantiqlikka erishish uchun unda qo‘llangan so‘zlar bilan ularning predmetlik ma’nolari mos bo‘lishi lozim.

So‘zlar qat’iy aniqlikda qo‘llanganda ham mantiqlik buzilishi mumkin, chunki aniqlik leksik nutq bilan mantiqiylik sintaktik qurilishi bilan bog‘langandir. Mantiqiylikning predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqda til birliklarining o‘zaro ichki munosabatlari mosligidan iborat. Mantiqiylikni ta’minlash 2 shartga asoslanadi. Birinchisi, ekstrolingvistik shart. Bu shart to‘g‘ri mulohaza qilishning normalari va printsiplarini egallashni taqozo etadi. To‘g‘ri nutq uchun kurashuvchi eng avvalo, mantiqiy fikrlashni o‘rganishi lozim.

Ikkinchi shart sof lingvistik bo‘lib, nutqiy tuzilish belgining bir-biriga zid bo‘lmasligini, mazmuniy bog‘liqligini uyushtiruvchi til vositalarini bilishni talab qiladi.

Nutqning sofligi.G‘ayri adabiy til unsurlaridan holi bo‘lgan nutq sof nutq deyiladi.

Nutqning sofligiga quyidagilar putur yetkazadi:

a) dialektalizmlar;
b) g‘ayri tildan olingan so‘zlar;
c) jargon va argolar;
d) vulgarizmlar;
e) parazit so‘zlar.

Nutqning ta’sirchanligi. Tinglovchi va o‘quvchi ruhida o‘zgarish, hayajon yasovchi nutq ta’sirchan nutq deyiladi. Bunday nutq oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

a) tinglovchi e’tiborini tortish;
b) tinglovchi qiziqishini oshirish;
c) nutq dalil, isbot misollarning yetarli bo‘lishini ta’minlash;
d) fikrni bayon etishda qiziqarli shakllardan foydalanish; so‘zlashda tabiiylikka erishish.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qilib, o‘qituvchi nutqining chiroyli, turli g‘aliz jumlalardan holi bo‘lishida, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko‘rinishlari, nutqning talaffuziga doir yuqorida sanab o‘tgan sifatlarga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Qo‘ng‘urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1992.
2. E.A.Begmatov. Notiqning nodir boyligi. T., “O‘zbekiston”, 1980.
3. H.Abdurahmonov, N,Mahmudov. So‘z etikasi. T., “Fan”, 1981 y.

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Saodat KAMBAROVA
ToshDO'TAU, O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya
Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni ilmiy ijodga qiziqtirish yo'llari xususida so'z yuritiladi. O'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini "Boburnoma" asarini o'rganish, jumladan, Hindiston o'lkasining nabotot olamiga xos xususiyatlarni qiyosiy tadqiq etish misolida tashkil qilish masalasi yoritiladi.
Kalit so'zlar: *muammo, ilmiy muammo, o'quv muammosi, bilish faoliyati, tadqiqot, tadqiqotchilik ko'nikmasi, qiyoslash.*

Annotation
The article discusses ways to increase the coefficient of research in high school students, the interest in scientific creativity. The issue of teaching, living and organizing the work "Boburnoma" on the example of comparative implementation of the problems of the plant kingdom of Indian teachers is covered.
Key words: *problem, scientific problem, learning problem, cognitive activity, research, research skills, comparison.*

Bugun uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish; ularda ijodkorlik va izlanuvchanlik faoliyatining muhim elementlarini tarkib toptirish; o'rganilayotgan obyekt xususiyatlarini tahlil qilishga nisbatan motivatsiya uyg'otish; o'zi qiziqqan fan sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish va undan amalda foydalanish malakasini shakllantirish muhim masalalardan biriga aylandi. Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda *ilmiy tadqiqot* bilan *o'quv tadqiqoti* tushunchalari o'rtasidagi farqni aniqlab olish maqsadga muvofiq. Rejalashtirilgan ish hajmi, yangiligi va muddati bu tushunchalar o'rtasidagi farqni oydinlashtiradi. Binobarin, ilmiy tadqiqotda obyektiv ilmiy muammoga yechim izlansa, o'quv tadqiqotida subyektiv, ya'ni o'quvchining o'zi yangilik deb bilgan ilmiy muamomoning hal etilishi nazarda tutiladi. Jarayonda qo'yilayotgan ta'limiy muammo o'quvchilarda mavjud bilim, tajriba va qiziqishlariga mos holda qo'yilishiga e'tibor qaratilmasa, o'quv muammosi hal qilinmay qolishi kuzatiladi. Mazkur muammo ta'limda o'z yechimini topgan bo'lsa ham o'quvchi uchun yangilik sanalgan jihatlarni qayta kashf qilishiga imkon yaratiladi.

Metodist I.Rajabovaning ta’kidlashicha, o‘qitish jarayoniga ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish o‘quvchilar bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yuqori bosqichi sanaladi [2: 28-b.]. Bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yish o‘quv muammosini qiziqarli tarzda qo‘ya bilish va ta’limni hamkorlikda olib borish tamoyiliga bog‘liq bo‘lib, bular o‘z navbatida o‘quvchidan individuallik, ijodiylik, faollik va tashabbuskorlik talab etadigan mustaqil ish shakllarini taqozo etadi. Ularni bajarish usullarini o‘quvchining o‘zi tanlashi, takomillashtirishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, baholashi va ma’lum natijalarni qo‘lga kiritishi bilan xarakterlanadi.

Umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida o‘quvchilarni ilmiy tadqiqotchilikka yo‘naltirish alohida o‘rin tutadi. Bu borada ensiklopedik olim Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, xususan, “Boburnoma” asari o‘tmish ajdodlarimiz turmush tarzi, intilishlari, e’tiqodi va a’mollarini o‘quvchi tasavvurida jonlantirishi, fanning turli sohalarini qamrab olish nuqtayi nazaridan o‘quvchilarni izlanishlar olib borishga qiziqtiruvchi manba bo‘la oladi. Dasturda o‘rganilishi belgilangan bandlar keng qamrovliligi sabab ular ichidan aniq bir yo‘nalishni tanlash maqsadga muvofiq bo‘lib, bu *nimani, nima maqsadda va qanday qilib o‘rganish* masalasiga chuqurroq yondashishni nazarda tutadi. E’tiborlisi shundaki, muallifning Hind o‘lkasi geografik o‘rni, chegaralari, o‘simlik va hayvonot olamini sinchkovlik bilan o‘rganishiga doir masala tadqiqot maqsadi, yo‘nalishi va mohiyatini rejaga muvofiq bayon etish, yangi g‘oyalar, dalillar bilan isbotlash, asosli xulosalar chiqarishda muhim sanaladi.

Tadqiqot mavzusi o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki o‘quvchilar tomonidan tanlanishi mumkin. Topshiriq butun sinf oldiga qo‘yiladi, o‘quvchilar uni jamoa bo‘lib yoki individual tarzda bajarishlari belgilab olinadi. Bunda adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik, tarix, estetik yoki axloqiy masalalar bo‘yicha ijodiy xarakterdagi mavzular ko‘zda tutiladi. Ijodkorning ayrim sohalarga xos ilmiy yondashuvlarini o‘rganish tadqiqot mavzusining “Boburnoma”da nabotot olamiga doir qiyosiy qarashlar (Hindiston o‘lkasi misolida)” tarzida qo‘yilishiga asos bo‘ladi. Zero, tadqiqotning amaliy ahamiyati va natijalari mavzuning to‘g‘ri tanlanishidan boshlanadi.

“Boburnoma”dagi voqea-hodisalar, tabiat, hayvonot olami, tog‘ va daryolar inson hayoti bilan uyg‘unlikda chiziladi. Bu qiyoslashlar zamirida tabiat in’om etgan ne’matlarning inson hayotidagi ahamiyati o‘zining ilmiy tasdig‘ini topgan. O‘quvchilarni atrofimizdagi har bir narsa-hodisaga, o‘simliklar va hayvonot olami sinoatlariga nisbatan sinchkov nazar bilan qarash, tabiatni asrash, bunyodkorlik ruhida tarbiyalash masalasi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning mavjudligi uning yechimiga doir bilimlarni izlab topishni talab etadi. Shu

bois Boburning ziddiyatlarga to‘la murakkab hayoti davomida hatto kichik bir detalni ham e’tibordan chetda qoldirmagan nozikta’b va teran nigohli kuzatuvchiligini dalillash tadqiqot muammosini shakllantirishga asos bo‘la oladi. Asardan Boburning botanik olim sifatidagi faoliyatiga doir faktlarni o‘rganish tadqiqot ishining maqsadini shakllantiradi. Bu maqsadga erishishda o‘quvchilar oldiga “Boburnoma” asarini chuqur o‘rganishga doir vazifalar qo‘yiladi. Mazkur vazifalar “Boburnoma”dan nabotot olamining yashirin jihatlari ko‘z ochgan lavhalarni aniqlash va ularga munosabat bildirish shaklida amalga oshiriladi. Loyiha obyekti sifatida “Boburnoma”gi nabotot tasviri, xususan, Hindiston o‘lkasi o‘simliklarining xususiyatlarini o‘rganish jarayoni belgilanadi. Muallifning kuzatuvchilik va hikoyachilik mahoratini o‘rganish mazmuni, shakl, metod va vositalari loyiha predmetini tashkil etadi.

Loyiha bajarilishining ish rejasida Boburning Hindistonga yurishlariga doir voqealar aks etgan matn bilan yaqindan tanishish; b) matndan Hind mamlakati nabotot dunyosining bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini belgilash; v) Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlarini o‘rganish va tahlil qilish; g) masalaga tanqidiy ruhda yondashish, o‘z fikrlarini asoslash, tizimlashtirish va xulosalash; d) davr va makon tasvirini qiyoslash masalalari belgilanadi.

Yaxshi ma’lumki, Bobur o‘z yurishlari davomida shahar, qishloq va viloyatlarning tabiat manzaralariga alohida e’tibor bilan qaraydi hamda bir-biridan mutlaqo farqlanuvchi notanish zamin o‘simliklari va hayvonot olamining betakrorligini mohir rassomdek jonlantirishga intiladi. Tasvirda qiyoslash usulidan foydalanadi. Zero, qiyoslashga oddiy hol, ya’ni kishining o‘zganikini o‘zinikini bilan solishtirish, noma’lum sifatlarga oydinlik kiritishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji deb qarash mumkin bo‘lsa-da, mohiyatan ilmiylikka asoslanish zarurligini unutmaslik darkor.

Hindiston tuprog‘iga qadam qo‘yar ekan, Bobur birorta yaratiq va hodisalarni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi: *“Bizning viloyatlarga boqa o‘zga olamedur. Tog‘va daryosi jangal va sahrosi, mavozi’ va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yong‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur* [1: 264-b.].

Boburning qiyoslashdagi individualligi o‘quvchi e’tiborini tortadigan qiziqarli va muhim ma’lumotlarni umumlashmalar tarzida bera olishida ayonlashadi. Masalan, *amalbed* noranj va limu mevalari bilan qiyoslanar ekan, ular o‘rtasidagi farq boshqa hech bir mevalarda kuzatilmasligi bilan o‘zgachaligini e’tirof etadi. Amalbedning xususiyati yuqorida tilga olingan birorta ham mevada takrorlanmaydi: *“Andoq dedilarkim, ignani muning ichiga solsalar erir,*

turshlig‘idinmu ekin yoki xosiyatinmu ekin. Turshlig‘i noranj va limucha bo‘lg‘ay” [1: 264-b.].

Boburning tasvirdagi mahoratiga baho berar ekan, adabiyotshunos olima D.Hoshimova muallifga xos qiyosiy yondashuvlarni “soddadillik bilan qabul qilish emas, uni o‘rganish, har qanday fikrni aql tarozisi bilan o‘lchab, keyin xulosa chiqarish” [3: 32-b.] zarurligini ta’kidlashi bejiz emas. Zero, ajdodimizning har bir so‘zi zamirida o‘tkir nigoh, teran tafakkur, zargarona ifoda, eng muhimi, aniq va tadqiq etishga loyiq faktlar mujassamligini unutmaslik zarur. Haqiqatan ham, “Boburnoma”da keltirilgan tasvirlar shunchaki ko‘rgan-kechirganlar tarzida emas, balki oddiy kitobxonini ham bilimlarni qiyosiy o‘rganish orqali ularga xoslikni aniqlash va chegaralay olishga yo‘naltirishi nuqtayi nazaridan qimmatlidir.

Xulosa qilganda, o‘quvchilarning izlanish faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali bilim olish jarayonining tadqiqot elementlari bilan uyg‘unlashuviga qulay sharoit yaratiladi; o‘quvchining ichki pozitsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, o‘quv va bilish motivlari to‘g‘ri shakllanishi ta’minlanadi. Eng muhimi, ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni xususida dastlabki ko‘nikmalar hosil qilinishiga erishiladi.

Foydalanilgan dabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 250-b.

2. Rajabova I. O‘qitish tizimiga tizimli tafakkkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish // Kasb-hunar ta’limi. –Toshkent, 2013. № 1. – 28-b.

3. Hoshimova D. Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlari // Til va adabiyot ta’limi. –T., 2010. –№ 6. – 32-b.

QASIDADA VAZN VA MAZMUN UYG‘UNLIGI
(XX ASR IKKINCHI YARMI O‘ZBEK SHE’RIYATI MISOLIDA)

Shaxnoza RAXMONOVA
ToshDO‘TAU, O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida yaratilgan qasidalar Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov ijodi misolida talqin qilindi. Ularda vazn va mazmun uyg‘unligi o‘rganildi. Shuningdek, Sobir Abdulla hazaji murabba’i musabbag‘ vaznini qasidachilikka olib kirgani ta’kidlandi. “Toshkent qasidasi”da qo‘llanilgan ushbu vazndan turkiy she’riyatda avval foydalanilmagan edi. Chustiy ijodida esa ilk marta muxammas-qasidalar tahlil qilindi. U qasida janrining shakl imkoniyatlarini kengaytirib, “Yurak” qasidasini muxammas shaklida bitdi va unda “turkiy” deb ataluvchi ramali musammani maqsur vaznini qo‘lladi.

Kalit so‘zlar: *aruz, qasida, muxammas-qasida, janr, vazn, mazmun, ramal bahri, hazaj bahri, mutaqorib bahri.*

Annotation

In this article odes analyzed which were created on the basis of Khabibiy, Sobir Abdullah, Chusti, Erkin Vakhidov’s created works. Harmony of means and weight is learned on them. Furthermore, in the article, it is emphasized that Sobir Abdullah brought a new weight of khajazi murabbai musabbagh to the ode’s world. It has never been used from this weight in Turkish poetry, which was used in the “Tashkent ode”. Ode of muxammas is analyzed in the works of Chusti for the first time. He enhanced figure, the possibility of odes genre and he wrote “Yurak” ode in the muxammas genre then he used ramali musammani maqsur weight which was called “turkiy”.

Key words: *Aruz (ʿarūż), kasida, muxammas-kasida, genre, metrics, rhythm, ramal, hajaz, mutakorib.*

XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida istifoda etilgan baytli she’rlardan biri qasidadir. Qasida arabcha “qasd” so‘zidan olingan bo‘lib, maqsad, niyat, intilish ma’nolarini bildiradi. Bu she’riy janrga mansub asarlar ko‘pincha muhim tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, shohlar madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, xuddi oda kabi tantanovar uslubda yuzaga kelgan [9: 88-bet]. Qasidaning ko‘pincha taxallussiz, g‘azalga xos qofiya tartibida ekanligi ko‘rinadi. Ushbu janr hajm jihatidan chegaralanmagan. “Unda baytlar soni 12 tadan kam bo‘lmasligi kerak. Oxirgi chegarasi necha bayt bo‘lishi haqida klassik adabiyotimizda ham, hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham barqaror fikr aytilgan emas” [6: 129-bet]. Qasidalar mavzusiga ko‘ra vasf, madh, hajv, marsiya,

munojot va falsafiy qasidalarga bo‘linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida “Devonu lug‘otit-turk”da “qo‘nug‘” shaklida uchraydi [12: 62-bet].

Kuzatishlarimiz asnosida Habibiy ijodida 2 ta qasida mavjudligi aniqlandi. Ularning birinchisi

Qo‘shilgay	bukun zav-	q+ila ik	ki yor
V – –	V – –	V – –	V ~
Ikovdan	muhabbat	bo‘lib o-	sh(i) kor [10: 44-bet]
V – –	V – –	V – –	V ~

bayti bilan boshlanib, *mutaqoribi musammani maqsur* (ruknlari va taqtisi: fauvlun fauvlun fauvlun fauvl V – – V – – V – – V ~) vaznida yozilgan. Matla’ning ikkinchi misrasidagi “*ikkovdan*” so‘zini vazn talabibilan taslimga* uchragan va natijada bu so‘zni “ikovdan” tarzida qo‘lladik. Asl matnda esa “ikkovdan” singari ifodalangan. Mazkur o‘lchovda aruzshunos olimlarimizning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek adabiyotida dastlab Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni, keyinchalik esa Alisher Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidagi 61, 112 g‘azallari yaratilgan. Habibiyning ikkinchi qasidasi esa

Ey shonli,	sharafli qah	ramonlar,
..– – V	V – V –	V – –
Hurmatli	Vatanga meh	ribonlar[10: 47-bet]
..– – V	V – V –	V – –

bayti bilan boshlanib, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqtisi: *maf’uvlu mafoilun fauvlun* – – V/V – V –/ V – –) o‘lchovida bitilgan. Shoirning har ikkala qasidasi o‘z davri uchun dolzarb mavzularga bag‘ishlangan.

Ustozlaridan ijodning talay sirlarini o‘rgangan Sobir Abdulla qasidalar yaratishda ham ularga bevosita ergashdi. Uning “Devon”iga kirgan “Toshkent qasidasi” hajman 34 baytdan iborat. Tuzilishiga ko‘ra qasidai mujarrada (chala qasida), mavzusiga ko‘ra esa madh qasidadir. She’r quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Izoh: taslim “yemirmak” ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, so‘zlarni vaznga moslash uchun ularning o‘zak-negizlaridagi biron harfni tushirish usulini ifodalaydi.

Qadimiy no	mi Shosh – Toshkent,
V – – –	V – – ~
Bo‘libsen qay	ta yosh Toshkent [2: 272-bet].
V – – –	V – – ~

Go‘zal va maftunkor ma’vo beqiyosliklari ulug‘langan satrlarga shoirning poytaxt shaharga cheksiz muhabbati jo bo‘lgani seziladi: “Sharqda mayog‘imsen: Haqiqat! Sen quyosh – Toshkent”. Keltirilgan bayt hazaj bahrining *hazaji murabba’i musabbag‘* (ruknlari va taqtiyi: *mafoiylun mafoiylon* V – – –/V – – ~)da bo‘lib, juft misralari a-a, toq misralari a-b tarzida qofiyalangan.

Sobir Abdullaning ikkinchi “Quyosh” qasidasi to‘rt jildlik Asarlar to‘plamidan o‘rin olgan bo‘lib, aruz tizimining *muzori’i musammani axrab* vaznida yozilgan. Ushbu qasida quyoshning madhiga bag‘ishlanadi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, qasidaning hajmi mumtoz qasidalarga mos emas. Chunki she’r hajman 10 bayt, 20 misrani tashkil qiladi.

Chustiy ijodida ham “Navro‘z”, “Norin”, “Yurak” qasidalari mavjud. Shoirning “Yurak” qasidasi muxammas shaklida yaratilgan. Olimlarimiznig qayd etishlaricha, mumtoz adabiyotimizda turkiy tilda yozilgan qasidaning bu shakli kuzatilmagan[7; 6; 3; 12]. Qasida hajman 10 band, 50 misrani tashkil qiladi:

Bir yurak bordirki, mustahkam po‘lat qo‘rg‘oni bor,
Unda saqlangan xazina bebaho vijdoni bor,
Aqlu hush otliq salobatliq necha posboni bor,
Nayzalar teshmas, o‘q o‘tmas, ishqdan qalqoni bor,
Unga vaslin va’da qilgan mehribon jononi bor [11: 290-bet]

singari band *ramali musammani maqsur* (ruknlari va taqtii: *foilotun foilotun foilotun foilon* –V – –/–V – –/–V – –/–V ~) vaznida yozilgan bo‘lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a... tarzida qofiyalangan. Qasidaning qofiyalanmaydigan misralari esa *ramali musammani mahzuf* (ruknlari va taqtii: *foilotun foilotun foilotun foilun* –V – –/–V – –/–V – –/–V –) o‘lchovidadir. She’rda Chustiy yurakda “*mustahkam po‘lat qo‘rg‘oni, bebaho vijdoni, salobatliq necha posboni, ishqdan qalqoni, mehribon joni bor*”ligini ta’kidlaydi.

Turkiy aruz imkoniyatlarini g‘azal janri orqali boyitgan Erkin Vohidov qasidalar yaratishda ham mumtoz an’analarga ijodiy yondashdi. Uning Alloh yaratgan butun maxluqot orasida eng sharif yaratiq bo‘lgan insonga bag‘ishlangan “Inson”, o‘z davrining milliy madhiyasi darajasiga ko‘tarilgan “O‘zbegim” qasidalari ushbu janrning betakror namunalaridir. Mazkur qasidalar aruz tizimining turkona vazni bo‘lmish *ramali musammani mahzuf* o‘lchovida yaratilishi bilan yanada milliylik kasb etgan.

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o‘zbegim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbegim [4: 151-bet].

Qasida uchun tanlangan radif (o‘zbegim) bevosita uning vaznini ham belgilab bergan deb aytish mumkin. Cho‘ziq, qisqa va cho‘ziq hijolardan iborat bo‘lgan ushbu so‘z misraning oxirida kelib, uning “foilun” tarmoq rukni, binobarin, mahzuf bilan yakunlanishini taqozo qilgan, natijada, qasidaning ramali musammani mahzuf vaznida yozilishini ta’minlagan.

Erkin Vohidov ushbu qasidada o‘zbekning “ming asrlar ichra pinhon” tarixini ko‘hna Samarqandda saqlanib qolgan Afrosiyob yodgorligidan, Mo‘g‘uliston va Sibirdagi O‘rxun hamda Enasoy daryolari qirg‘oqlaridan topilgan qadimgi turkiy toshbitiklardan izlash lozimligini aytadi. Qasida davomida o‘tmishimizning yana boshqa ibratli sahifalari varaqlanar ekan, shoir ona xalq tarixini mukammal talqin etmoqqa ojiz ekaniga kamtarlik ila ishora qiladi:

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbegim [4: 151-bet].

Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasini xalqimiz sha’ni va shavkatiga badiiy so‘zdan tiklangan muhtasham obida deb baholasak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shoirning deyarli har bir she’rida falsafa, “tesha tegmagan” fikrlar bor. Bu jihatidan “Inson” qasidasi alohida ajralib turadi. Qasidada farishtadek pok va iblisdek yovuz, tog‘ kabi

buyuk va qum zarrasi kabi mayda, choh kabi tuban, donishmanddek oqil va telbadek nodon mavjudot – inson olami shu qadar dard bilan ifodalangan.

Sobitu sayyorada
Inson o‘zing, inson o‘zing,
Mulki olam ichra bir
Xoqon o‘zing, sulton o‘zing [4: 392-bet].

Shoirning “Qo‘llar” qasidasi ham mavjud. She’r *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqtii: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun* V – – – /V – – – /V – – – /V – – –) vaznida yaratilib, mavzusiga ko‘ra qasidanavislik tarixida yangi hodisa hisoblanadi. Ushbu qasida uchun tanlangan “*bu qo‘llardir, bu qo‘llardir*” radifi ham uning hazajdan boshqa o‘lchovda yozila olmasligini ko‘rsatadi.

Taningda kamtarin a’zo
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir,
Mudom mehnat uchun paydo
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir [4: 397-bet].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lyaptiki, XX asr ikkinchi yarmi she’riyatida Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Erkin Vohidov qasida janrining betakror namunalarini yaratdilar. Qasida janrining istifodasi ham muvaffaqiyat bilan davom etdi. Sobir Abdulla hazaji murabba’i musabbag‘ vaznini qasidachilikka olib kirdi. “Toshkent qasidasi”da qo‘llanilgan ushbu vazndan turkiy she’riyatda avval foydalanilmagan edi. Chustiy esa qasida janrining shakl imkoniyatlarini kengaytirib, “Yurak” qasidasini muxammas shaklida bitdi va unda “turkiy” deb ataluvchi ramali musammani maqsur vaznini qo‘lladi. Shakldagi bu o‘zgarishlarga qaramay, bu davr mustazodida mumtoz qasidaga xos an’anaviylik saqlanib qoldi. Bu davr qasidalari asosan muraddaf bo‘lib, ularda istifoda etilgan vaznlar aksariyat hollarda tanlangan radiflar bilan uyg‘unlik kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonova Sh. Erkin Vohidov qasidalarining vazn xususiyatlari / Эркин Воҳидов ижодини маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Тошкент, 2017. – Б. 326-328.

2. Абдулла Собир. Девон. – Т.: Бадиий адабиёт, 1965. – Б. 272.

3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – Б. 246.

4. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б. 151.

5. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: “SHARQ” НМАК, 2018. – Б. 688.

6. Носиров О. Ва бошқ. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 129.

7. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 202.

8. Раҳмонова Ш. Традиционные темы и особенности метрики узбекских газелей второй половины XX века / Международная научная конференция студентов, аспирантов и молодых учёных «Ломоносов-2014». Россия, Москва МГУ. 7-11 Апрель 2014 г.

9. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: 2004. – Б. 188.

10. Ҳабибий. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 536.

11. Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 290.

12. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: TAMADDUN, 2016. – Б. 304.

MUMTOZ ASARLARNI O‘RGATISHDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

(Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari misolida)

Maftunaxon AKBAROVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf darsligida keltirilgan Gulxaniy qalamiga mansub “Zarbulmasal” asarini o‘qitishda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, asarni tekstual tahlil qilish to‘g‘risida so‘z borgan. O‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, dars jarayononi samarali o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: *badiiy asar, didaktik tahlil, masal, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari, badiiy matn, mumtoz nasr, tekstual tahlil, mustaqil fikrlashga o‘rgatish*

Annotation
This article deals with teaching students to think independently, textual analysis of the work «Zarbulmasal» by Gulkhani, which is given in the textbook of 6th grade of secondary schools. Recommendations are given to increase students' interest in the work and to make the teaching process more effective.
Keywords: *a work of art, didactic analysis, parable, Gulkhani's «Zarbulmasal», literary text, classic prose, textual analysis, teaching independent thinking.*

Bizga ma’lumki, badiiy asar –badiiy ijod mahsuli bo‘lib, unda muallif so‘z vositasida inson his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali o‘zining maqsadini ifodalaydi. Adabiyot fanining asosiy obyekti badiiy asardir. Adabiyot darslarida o‘quvchilar milliy va jahon adabiyotining yetuk namunalarini o‘qiydilar, o‘rganadilar, tahlil qiladilar. Adabiyot darslarida badiiy asarlar bilan ishlash ijodkorning asarlari zamiriga singdirgan yuksak insoniy g‘oyalarni o‘quvchining – shakllanib kelayotgan insonning ko‘ngil mulkiga aylantirish demakdir. Bunda o‘quvchilar ularni faqat o‘qishi bilan emas, balki tom ma’noda uqishi, o‘rganishi va bilganlarini yozma bayon qilishi ham zarur. [4. 114-b].

Adabiyot darsliklarida, bizga ma’lumki, yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma’lumot, asardan parcha va asarning mohiyatini ochib beruvchi “asar haqida” maqola, undan so‘ng asar janri haqida nazariy ma’lumot keltiriladi. Ushbu maqolada o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni 6-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari orqali ko‘rib chiqamiz. “Zarbulmasal” –majoziy asar. Undagi shoirning g‘oyalari, maqsadi –turli obrazlar,

maqol, matal, hikoyat va rivoyatlar vositasida pardali tarzda ifodalanadi. Asarda shoirning vatan, xalq qismati, insonning ma'naviy dunyosi borasidagi o'y-fikrlari, dardu armonlari, nola-fig'onlari o'z ifodasini topgan. Shoirning asosiy maqsadi, kishilarni o'ziga tanitish, nuqsonlaridan ogoh etish. Chunki o'zini anglash Ollohni tanishga olib boruvchi vositadir [3. 275-b].

Darslikda Gulxaniyning nasriy shakldagi "Kabutar bilan Zog'", "Toshbaqa bilan chayon", hamda masnaviy shaklida yozilgan "Maymun bilan Najjor" masallari berilgan. Bunda oldingi sinfda Sa'diy She'roziy hikoyatlari orqali shakllana boshlagan mumtoz nasrni tahlil qilishning dastlabki tajribasi, matn ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan. Bu orqali o'quvchilarda mumtoz hikoya bilan masalning o'xshash va farqli tomonlari to'g'risida tasavvur uyg'otiladi, masallarga xos bo'lgan majoziylikni ko'ra bilish, undan ma'no chiqarish va xulosa qilish bo'yicha ilk bilim va tajribalar shakllantirilishi ko'zlangan.

Asarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlarini shakllantirish turli xil fikrlashga undaydigan savollar berishdan boshlanishi lozim. Bunda har qanday mustaqil fikr matndan kelib chiqishi, matnning sehru jozibasini ochishga xizmat qilishi joiz. Shu o'rinda, tekstual tahlil metodidan foydalangan holda bu jarayon amalga oshiriladi. Umuman olganda, tekstual tahlil ko'proq 5-6-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Ko'pincha, lirik yoki kichikroq hajmli nasriy asarlarni didaktik tahlil etishda bu usul juda qo'l keladi. Ta'kidlash joizki, asar yuzasidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat faqat matnga tayanishi, matndan kelib chiqishi, matnning jozibasini ochishga xizmat qilishi lozim. Shuning uchun ham har qanday usulda didaktik tahlilni amalga oshirishdan oldin, albatta, o'quvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanish bo'lishlari shart. Aks holda tahlilda kuzatilgan maqsadga erishib bo'lmaydi.

An'anaviy adabiyot darslarida o'quvchilar birinchi darsda yozuvchining hayoti va ijodi, kelgusi darsda asar bilan tanishadilar. Oxirgi dars esa, "asar haqida" maqolasiga bag'ishlanadi. Darslarda asosiy urg'u –yozuvchining hayot yo'li, asarlari nomi-yu ularning qachon yozilganligi, asar ichidagi mayda detallardan tortib, asarning syujetiga qaratiladi. Bu esa o'quvchilarni adabiyot darslaridan bezdirishga, mutlaqo mustaqil fiklamasliklariga olib keladi. Aslida, adabiyot darslarining asosiy vazifasi faqatgina asarga, uning mohiyatiga, tahliliga qaratilishi lozim. Ko'pincha o'quvchilar asar bilan to'liq tanishishdan qochib, "asar haqida" maqolasini o'qish bilan kifoyalanadilar. Darsliklarda berilgan muallifning "asar haqida" maqolasi o'quvchilarni mustaqil fikrlashdan to'xtatib, ularni muallifning fikriga ergashib qolishiga asosiy

sabab bo‘ladi. Undan tashqari, nazariy ma’lumotlar asar tahlil qilib bo‘lingandan so‘ng berilishi, bu o‘quvchilarda ma’lumotning nazariy qismini qabul qilmaslikka olib keladi. Shuning uchun, nazariy ma’lumotlar asardan oldin berilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyot o‘qituvchisi, avvalo, o‘quvchini asar bilan tanishtirishdan oldin asar bilan bog‘liq jihatlarini hozirgi kun bilan, o‘quvchining hayoti bilan bog‘lagan holda, ularga qiziqarli savollar berib, ularni asarga qiziqtirishi lozim. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridan olingan parchalar o‘quvchi yoshiga mos ravishda tanlangan. Ularning ma’naviy rivojiga hissa qo‘shadigan asarlardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi asar matni tanishtirilishidan oldingi jarayonlarda, adib yashab o‘tgan davri, o‘sha paytdagi xonliklar taqdiri, asarning qisqacha yaratilish tarixi haqida o‘quvchilarga ma’lumot berib o‘tishi kerak. Asar tahlili jarayonigacha o‘quvchilar asarni uyda o‘qib, notanish so‘zlarni yod olib kelgan bo‘lishlari kerak.

Asar tahlili jarayonida o‘qituvchi shunday savollar berishi kerakki, u savollar asar ichidagi detallar haqida emas, balki o‘quvchining hozirgi hayotiga bog‘langan bo‘lishi lozim. Bu savollar bilan, har bir o‘quvchining mustaqil fikrlarini tinglash lozim. Javoblar ham, o‘z o‘rnida, bir-birini takrorlamaydigan bo‘lishi tabiiy. Bunda har bir o‘quvchi haq. Ma’lumki, har bir sinf o‘quvchisi o‘z yoshida ma’lum hayotiy haqiqatlarni idrok eta oladi, shuningdek, muayyan tuyg‘ularni qalb prizmasidan o‘tkazishga qodir bo‘ladi. Bu haqiqat tavsiyalarimizda individuallik tamoyiliga ham e’tibor qaratishni taqozo etdi. Shu o‘rinda individuallik “har bir o‘quvchining o‘ziga xos ruhiyati, kechinmalar tizimi, ta’sirchanlik xususiyati, estetik tajribasi borligini hisobga olish yo‘li” [7. 95-b] ekanligini ham eslatib o‘tamiz.

O‘qituvchi o‘z savollari bilan “Zarbulmasal”dagi keltirilgan masallarning bosh g‘oyasi – insonlarni g‘aflatdan ogoh etish, uning nuqsonlarini fosh etib, kamolot yo‘lini ko‘rsatish, komil insonni tarbiyalash kabi ezgu xislatlar ekanligini o‘quvchi qalbiga singdirishi, ularda ifodalangan ma’no nozikliklarini tahlil orqali ko‘rsata olishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarini tashkil etishda xilma-xil metod va usullardan foydalanish mumkin. Dars samaradorligi o‘qituvchining darsni ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishi, bilimi, ijodkorlik qobiliyati bilan belgilanadi. O‘quvchilarda tahlil malakasini tarkib toptirish ham nazariy, ham amaliy bilimlar va malakalarni birlashtiruvchi ta’lim jarayonini o‘z ichiga oladi. Yangilangan ta’lim texnologiyasi talabiga ko‘ra, o‘quvchini oddiy tinglovchi darajasidan faol izlanuvchi, fikrlovchi, ijodkor o‘quvchi darajasiga yetkazish maqsadi ana shunday amaliy jarayonlarda yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II-qism. –T.: Ma’naviyat, 2017
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Barkamol fayz media, 2018.
3. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). –T.: Noshir nashriyoti, 2019.
4. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: Fan, 2006.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka). T.: 2020
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti/ O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017.
7. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA TA’LIM - TARBIYA MASALASI

E’zoza ALIMOVA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada «Abdulla Qahhor asarlarida ta'lim-tarbiya masalasi»mavzusiga oid tushunchalar va fikrlar tahlil qilinib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy idrok, mute’lik, tarbiya, ma’naviy qiyofa, burjuaziya realizm.

Annotation

The article analyzes the concepts and ideas on the topic of “Education in the works of Abdullah Qahhor.

Key words: aristic perception, muteness, upbringing, spirituslity, bourgeois realism.

Adabiy ta’lim har bir o‘quvchidan o‘zgacha badiiy idrokni, asarni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishinitabiiy hol sifatida baholaydi, to‘g‘ri deb biladi. O‘quvchilar bitta asarni o‘qib o‘raganishsa-da, undan turlicha hissiy ta’sirga, quvvatga ega bo‘ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar. O‘quvchilarning badiiy tafakkurini o‘stirishda; badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini to‘liq ochib berilishida; so‘z sehri, qudratini teran his qilinishida; hayotning asl suratini – badiiy talqinini o‘qib, zaruririy xulosalar hosil qilinishida; o‘tmish bilan bugun o‘rtasidagi taraqqiyot darajasini muqoyasa qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o‘rganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida; o‘quvchining olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, Abdulla Qahhor asarlarining ham alohida o‘rni, mavqei bor.Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining shakllanishi va rivojlanishi Abdulla Qahhor nomi bilan bog‘liq.Buyuk adibimiz Abdulla Qahhorning asarlari ixcham iboralar,teran fikr va o‘tkir kinoyaga boyligi bilan kitobxonlar qalbiga kirib borgan.Yozuvchi o‘z asarlarida turli-tuman insonlar taqdiri vositasida insonlarda uchraydigan fikrlashdan mahrumlik,qoloqlik,mute’lik va ojizlik kabi illatlarni yumor vositasida ochib bergan.Ijodkor asarlari bir qarashda hajviy xarakterdagidek tuyuladi,lekin asarlarini teran mushohada etadigan bo‘lsak, ularda achchiq kulgi ifoda etilganiga guvoh

bo‘lamiz.Yozuvchi ijodida yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi,bu tarbiyada oilaning tutgan o‘rni masalasi qator hikoyalaridan o‘rin olgan.Masalan,adibning “Adabiyot muallimi“,”O‘jar”,”Ayb kimda?” hikoyalarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.Yozuvchi “Adabiyot muallimi” hikoyasida o‘z fanini yaxsh bilmaydigan kishilarni yoshlarga nafosat va ezgulik tarbiyasi bo‘lgan adabiyot fanini o‘rgatishdagi jiddiy xatoliklarini kuyunchaklik bilan tasvirlaydi. Hikoyada asarbosh qahramoihlaridan biri Boqijon Baqoyev “nafis adabiyot muallimi” deb ta’riflanadi. O‘zining aytishicha “nafis adabiyot muallimi “ o‘rtoq Boqijon Baqoyev og‘ilga kirib ta’bi xira bo‘ldi: sigirning qulog‘iga yana kana tushibdi”.Boqijon Baqoyevning qaynsinglisi Hamida bilan bo‘lgan suhbatida esa bu hodisa ancha oydinlashadi. Hamidaning Chexov haqida bergan savoliga javobida esa hammasiga aniqlik kiritiladi.Bu adabiyot muallimining ma’naviy qiyofasi uning qayinsinglisi Hamida bilan bo‘lgan suhbatida oydinlashadi. Hamidaning Chexov haqida bergan savoliga Boqijon Baqoyevning bergan javobidan ta’lim jarayoniga adashib kirib qolganligi yanada yorqinroq tasvirlanadi:Chexovmi? Xmm…burjuaziya realizmi haqida so‘zlaganda, eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak.Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi.Turgan gapki,Chexovning ijodi boshdan – oyoq,butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi,ya’ni ….ximmm…Mukarram,tovuqqa moyak qo‘ydingmi?Qo‘yish kerak,bolmasa daydi bo‘lib ketadi…Ko‘rib turganimizdek Boqijon Baqoyevning nutqidan uning adabiyotdan bexabarligi,o‘zini bilimdon qilib ko‘rsatishi,aravani quruq olib qochishi oydinlashadi.Hikoya qahramonining fikrlash yo‘sinida aniqlik yo‘q,u duch kelgan tarafga qarab ketaveradi.U o‘z aybini tan olgisi kelmaydi,o‘zini bilimdon qilib ko‘rsatishga harakat qiladi.Hikoya yakunida esa Hamidaning boshida turli xil atamalardan boshqa hech nima qolmaydi.Keyingi hikoyada esa oiladagi muhitning farzand tarbiyasiga tasiri haqida so‘z boradi.”Ayb kimda” hikoyasida atigi uchta qahramon bor: Xamroyev, ayoli Sobiraxon va o‘g‘li Hamdam.Bu hikoyada ota-onaning farzand tarbiyasida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.Asarda ota-ona o‘zlari bilmagan holda farzandlariga “o‘rnak” bo‘lishadi.Sobiraxon o‘g‘li Hamdamni aya deyish o‘rniga “Turandot“deyotganlikda ayblaydi.Chunki bu laqabni unga o‘tgan yilgi ziyofatda Xamroyevning o‘zi qo‘ygan edi. Guvohi bo‘lganimizdek “qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Ikki tanqidchining bola tarbiyasi haqidagi fikrlari ham ularning bilimi-yu saviyasini ko‘rsatib turadi.Kimgadir nimanidir o‘rgatish uchun,avvalo,o‘sha narsa o‘zimizda bo‘lishi lozim.Ichi bo‘sh narsa qanchalik qattiq jaranglamasin,u baribir bo‘shligicha qoladi.Adib hikoyalari orqali mana shu oddiy haqiqatga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamova Sh. Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish tajribasidan.-T., 20112.Mirzarahimova M. 7-sinfda Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rganish //“Til va adabiyot ta’limi” ilmiy-metodik jurnali.-T., 2006.- № 2. 3.Matjonov S., Saidmurodov X. Ulug‘ adib ijodini o‘rganishda oshkora muloqot.// “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy-metodik jurnali.-T., 1910.- № 10.

“HAYOTGA MUHABBAT”ASARINI O‘QITISH VA TAHLIL QILISHDA SAVOLLARDAN BOSQICHMA-BOSQICH FOYDALANISH

Sohiba ABDURAXMONOVA
Alisher Navoiy nomidagi TOSHDO‘TAU
4-kurs talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqola Jek Londonning “Hayotga muhabbat” asarini o‘qitishda savollar orqali bosqichma-bosqich borishning samarali ekanligi haqida.Bunda savollar albatta mantiqiylikka va izchillikka qaratilgan bo‘lishi, o‘quvchilarni badiiy asar orqali asarni yaxshi tahlil qila oladigan kitobxon qilish kerakligi aytilgan.Asarni tahlil qilishda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va integratsiyadan unumli foydalanish maqsadida bosqichli savollar tuzilgan.
Kalit so‘zlar: *kognitiv qobiliyat, asarni o‘qishdan oldingi bosqich(pre-reading activities), asarni o‘qish davomidagi bosqich (while reading activities), asarni o‘qishdan keyingi bosqich(post-reading activities),integratsiyalash.*

Annotation. *This article is about the effectiveness of taking a step-by-step approach to teaching Jack London's “Love for life”. It says that questions should be logical and coherent, and that students should be able to analyze the work through art. In the analysis of the work, step-by-step questions are formulated in order to develop cognitive skills and make effective use of integration.*
Key words: *cognitive ability, pre-reading activities, while reading activities, post-reading activities, integration.*

Bugungi kunda kitobxonlikni rivojlantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida badiiy adabiyotga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish asosiy maqsadlarimizdan biridir. Bu esa shubhasiz, adabiyot o‘qituvchilarining zimmasida. Avvalo, o‘qituvchi o‘ziga va adabiyotga nisbatan o‘quvchilarning har biri qalbida mehr uyg‘otishi kerak. Bunda o‘qituvchi samarali usullarni qo‘llay olishi lozim. Badiiy asarni tahlil qilishda uni hayot bilan bog‘lay olish, integratsiyalash kabilar muhim sanaladi. Asarni tahlil qilishda beriladigan savollarning o‘rni judayam katta. Bugungi kunda faqat faktlarga asoslangan savollar ko‘p va ularning barchasi xotiraga tayanadi. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va kognitiv bilimlarini rivojlantirish uchun esa adabiyot darslarida berilayotgan savollarning o‘rni nihoyatda ahamiyatli. Shu maqsadda o‘quvchilarni badiiy asarga qiziqtirish va ularni badiiy asarga olib kirish uchun quyidagi bosqichlar muhim sanaladi:

1. Asarni o‘qishdan oldin beriladigan savollar (Pre-reading activities). Bu kabi savollarni berishdan maqsad o‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish.

2. Asarni o‘qish davomida beriladigan savollar (While reading activities). Bu kabi savollardan maqsad asarning muhim va tugunli nuqtalarini o‘quvchilarga yetkazish va ularning kognitiv bilimlarini rivojlantirish.

3. Asarni o‘qishdan keyingi savollar(Post-reading activities). Asarni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lay olish.Har bir o‘quvchiga asar g‘oyasini anglashida ko‘makchi bo‘lish va asar haqida o‘z xulosalarini chiqarishda yordam berish.

Bu bosqichlar quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

1. Asarni o‘qishdan oldingi bosqich:

a) O‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga motivatsiya beradi.

b) O‘quvchilar mavzu bo‘yicha oldingi bilimlaridan foydalanadilar.

c) O‘quvchilarni asar voqealari kontekstiga tayyorlaydi.

d) O‘quv jarayoni va o‘quvchilarning bilimlari va qiziqishlari o‘rtasida ko‘prik qurish vazifasini bajaradi.

Bu bosqichda o‘quvchilar e’tiborga olishlari kerak:

- Muallifning mavzu haqida yozishining sababi.
- Ma’lum bir asar yozishning barcha usullari.
- O‘zlarining savollari ro‘yxatini tuzish.

2. Asarni o‘qish davomidagi bosqich:

Ushbu bosqich takomillashtirishga qaratilgan

a) O‘quvchilar o‘qish matnida yozuvchining maqsadi,asarning til tuzulishi va mantiqiy tashkil etilishini tushunadilar.

b) Matnni o‘qish uchun tushunishni rivojlantirish va yordam berish.

c) O‘quvchilarga o‘zining tanqidiy fikrlash qobiiyatlarini shakllantiradi.

d) O‘quvchilarga notanish so‘zlar ma’nosini topish va taxmin qilish uchun kontekstual tuzulmalar uchun lug‘atning ahamiyatini eslatadi.

e) O‘quvchilarga lingvistik va sotsiologik bilimlarni rivojlanishiga yordam beradi.

f) O‘quvchilarni madaniy va madaniyatlararo urf-odat va an’analardan xabardor qiladi.

g) Ongli ravishda o‘qishni ta’minlaydi.

h) Umumiy va aniq ma’lumotlarni qidirishga o‘rgatadi.

3. Asarni o‘qishdan keyingi bosqich:

a) O‘quvchilarga olgan bilimlarini o‘xshash bilimlarga solishtirishni o‘rgatish;

b) Ularning o‘qish ko‘nikmalarini boshqa til bilimlari bilan birlashtirishga yordam berish, Bular: tinglash,so‘zlash va yozish;

c) Asar so‘zlarini umumlashtirish uchun kalit so‘zlar va tuzilmalardan foydalanish;

d) Asar matnidan asar g‘oyasini chiqazib olish;

e) Ta’riflarni talqin qilish;

f) Muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha umumlashtirishga o‘rgatadi[1;2-b].

Bizga ayonki, **“Hayotga muhabbat”** asari 10-sinf o‘quvchilari darsligidan o‘rin olgan. 10-sinf o‘quvchilari anchagina teran fikrli, badiiy asarlarni mushohada qila oladigan yoshda bo‘lishadi. Shunga qaramay, darsga loqaydo‘quvchilar ham topiladi. O‘qituvchining vazifasi dars mashg‘ulotlariga o‘quvchilarning barchasini iloji boricha diqqatini jalb qila olishdir. Shu jihatlarni hisobga olib “Hayotga muhabbat” asarini tahlil qilishda quyidagi bosqichli savollarning o‘rni ahamiyatli.

I. Asarni o‘qishdan oldin beriladigan savollar(Pre-reading activities)

1. Tasavvur qiling kimsasiz o‘rmonda adashib qoldingiz.Bu holatda qanday yo‘l tutardingiz?

2. Hayotga muhabbat deganda nimani tushunasiz?

3. Inson va tabiat munosabatida qay biri ustun deb o‘ylaysiz? Inson tabiatning mutlaq hukmronimi?

II. Asarni o‘qish davomida beriladigan savollar(While reading activities).

1. Asarda bosh qahramon ismsiz keltirilgan bunga sabab ?

2. Bill hamrohini tashlab ketishining sababi nimada?

3. Nima sababdan insonga o‘lja sifatida bo‘ri tanlangan deb o‘ylaysiz ayiq yoki boshqa hayvon emas?

4. Nima uchun asar qahramoni mashaqqat bilan topgan oltinlaridan voz kechdi?

5. Insonning bo‘rini o‘ldirish holatini qanday izohlaysiz?

6. Odamning ozuqa g‘amlashi, karavotni suxariga to‘ldirib yuborishini kasallik deb bo‘ladimi? Bo‘lsa u qanday kasallik?

III. Asarni o‘qishdan keyingi savollar(Post-reading activities).

1. Asar nomi nega bunday nomlanishiga izoh bering?

2. Asarda nima sababdan kasal bo‘ri tanlangan?Kasal bo‘ri va yo‘lovchi holatini izohlang.

3. Ushbu asardan qanday tarbiyaviy jihatlar olishimiz mumkin.Asarni do‘stlaringizga ham tavsiya qila olasizmi?

4. Bill hamda uning hamrohi oxirigacha birga bo‘lsalar voqea bunday kechmasdi deb o‘ylaysizmi?

5.Asar qahramonlaridan biriga xat yozing va unda qahramonga maslahat va munosbatlaringiz aks etsin.

Bu kabi savollar tuzilmasini yana davom ettirish mumkin. Maqsad esa Oliy ta’limga kirish maqsadida raqamlarga, faktlarga va ismlarga tayangan holda tuzilgan test savollariga tayyorlanayotgan o‘quvchilarni emas asar mohiyatini tushunadigan, asarning g‘oyasini tahlil qila oladigan chinakam kitobxonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish,ularni asar matnidan javob izlashga majbur etadigan savollar berish va ushbu savollar orqali ongli ravishda o‘z xulosalarini chiqara olishga ko‘maklashish zarur.O‘qituvchi o‘z savollari orqali o‘quvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi;qolipda fikrlashga yo‘l qo‘ymasligi,nafaqat dars mualliflari,balki o‘rtoqlarining fikr-mulohazalarini takrorlamasliklari,har bir o ‘quvchi oldiga o ‘ziga xos muammo qo‘ya olishi va uni yechishi va uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirish zarur [2;77-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiyot darsliklarida o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatadigan savollar tizimini ishlab chiqqan holda uni bosqichli usulda berish samarali.Yaxshi savol yarim tadqiqot deganlaridek,savollarning saviyasi asar mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent-2018.
2. https://www.researchgate.net/publication/237244567 .

G‘AZALLARDA VAZN VA MAZMUN UYG‘UNLIGI (CHARXIY, ERKIN VOHIDOV G‘AZALLARI MISOLIDA)

Dilorom TOSHBOYEVA
ToshDO‘TAU, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, 3- kurs

Annotatsiya
Ushbu maqolada mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanilgan g‘azal janri haqida so‘z boradi. Bu janrning paydo bo‘lishi, turkiy adabiyotga kirib kelishi manbalar asosida yoritilgan. Ma’lumki, g‘azal aruz tizimi vaznlarida yoziladi. Turkiy adabiyotda keng qo‘llanilgan ramal va hazaj bahrlari haqida nazariy ma’lumot beriladi. Bu bahrlarning o‘ziga xos xususiyatlari misollar asosida ko‘rsatilgan. Vazn tanlashda she’r mavzusining muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, mazkur ishda mumtoz she’rlarni o‘qishda ohangning ahamiyati kattaligi aytib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *G‘azal, bahr, janr, aruz, ramal, hazaj, vazn, ohang.*

Annatation
This article is about the ghazal genre that is widely used in our classical poetry. The emergence of this genre and its entry into turkish literature is explained on the basis of examples. The ghazal is written in aruz (ʿarūż) prosody. Theoretical information about the Ramal and Hazaj bahrs, which are widely used in Turkish literature. The peculiarities of these bahrs are illustrated by examples. Opinions have been expressed about the importance of the theme of the poem in the choise of prosody. It is written that melody is of great importance in the reading of classical poems in this stady.
Key words: *Ghazal, bahr, genre, aruz (ʿarūż), ramal, hazaj, prosody, melody.*

Mumtoz adabiyotning go‘zal namunasi hisoblanmish g‘azal aruzda ijod qilgan har bir lirik shoir ijodida uchraydi. G‘azal arabcha so‘z bo‘lib “ayollarga xushomad qilish” ma’nosini anglatadi. XIX asrda yashagan Hindistonlik olim Qobul Muhammad “Haft qulzum” nomli asarida: “Bilki, g‘azal lug‘atda ayollarga do‘st bo‘lishga intilish demaktir”, − deb yozadi. Ammo g‘azal faqat ishq mavzusi bilan cheklanmaydi. U kishiga xos barcha hislar doirasini qamrab oladi: unda hatto muhabbat mavzusi asos bo‘lgan taqdirda ham umumahloqiy va falsafiy fikrlarni ifodalash mumkin. G‘azalning o‘zbek adabiyotidagi ilk namunalari Rabg‘uziyning “Qisas ul-Rabg‘uziy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari tarkibida uchraydi. IX-XI asrlarda turkiy adabiyotga kirib kelgan g‘azal zamon o‘tishi bilan amaliy va nazariy jihatdan boyib, mavzu qamrovi ham kengayib bordi.

G‘azal baytlardan tashkil topadi. Baytlar bir-biridan nisbatan mustaqillikka ega bo‘ladi. Baytlar hajmi haqida bir to‘xtamga kelinmagan. O.Karimov “Mumtoz she’riyat janrlari” kitobida g‘azal hajmi besh baytdan o‘n besh baytgacha, Y.Is’hoqov esa amaliyotda yigirmadan ortiq

(hatto 27) baytli g‘azallar ham uchraydi deb ma’lumot beradi. O.Nosirov “O‘zbek klassik she’riyati janrlar” kitobida: “G‘azalning chegarasi 19 baytgachadir. Undan ortiq bo‘lsa uni qasida deydilar”, - deb yozadi. G‘azalda ba’zi baytlarning o‘z nomlari bor. Dastlabki birinchi bayt matla’ bo‘lib, unda ikki misra o‘zaro qofiyalanadi. Hatto qo‘sh matla’li g‘azallar ham mavjud [4. 16-bet]. Oxirgi bayt maqta’ deb nomlanadi va unda taxallus qo‘llanadi. Ba’zan maqta’dan oldingi baytda ham qo‘llanishi mumkin. Shuningdek taxallussiz g‘azallar ham uchraydi. Ham ohang, ham ma’no tomondan yetuk baytlarga nisbatan shohbayt atamasi qo‘llaniladi. A.Navoiy ijodida bunday baytlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

O‘zbek adabiyotida g‘azalni oliy cho‘qqiga olib chiqqan ijodkor, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Uning “Xazoyin-ul maoniy”devonining o‘ziga 2600 g‘azal kiritilgan. G‘azal aruzdagi o‘n to‘qqizta bahrning barchasida yozilishi mumkin. Birgina “Xazoyin ul-maoniy” o‘zida 13 bahr 90 ga yaqin vazn qo‘llanilgan[7. 7-bet]. Ilk o‘zbek g‘azaliyotidan tortib keyingi davrlargacha yaratilgan g‘azallar ko‘proq aruzning ramal bahrida bo‘lgan [5. 18-bet]. Hazrat Navoiy ijodida ham bu bahrda yaratilgan g‘azallar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Aruz tizimida har bir bahr bir necha vaznlarni o‘z ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrga mansubligidan qat’i nazar, o‘ziga xos ohangga ega. Masalan, hazaj bahrining hazaji musammani solim vazni sokin va vazmin ohang kasb etsa, xuddi shu bahr tarkibidagi hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf yengil va o‘ynoqi ohangda ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu vazn hazaji musammani solimga mos bo‘lgan mahzun tuyg‘ular ifodasini “ko‘tara olmaydi”. Shu nuqtai nazardan g‘azallarning bahrlar tarkibidagi vaznlar kesimida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq [5. 19-bet].

Agar mumtoz adabiyotimiz g‘azalnavisligida Hazrat Navoiy xizmatlari beqiyos bo‘lsa, zamonaviy g‘azalnavislikda E.Vohidov alohida o‘rin egallaydi. U mumtoz g‘azalni yangiladi va zamon ruhiga moslashtirdi.

Ulfatimdir sham yanglig‘ kechalar tanho qalam,
Foilotun foilotun foilotun foilun
Men-ku she’r majnunidirman sarvqad Laylo qalam.
Foilotun foilotun foilotun foilun

Mavzu an’anaviy − ishq. Mazmunni ochishda oddiy “qalam”dan foydalaniladi. Baytning oddiyligi kundalik hayotda ishlatiladigan qalam orqali oliy va murakkab tushuncha muhabbat

mukammal ifodalanadi. E.Vohidovning kashfiyoti qalamni ulfatga aylanganligi va uni Layloga o‘xshatilishida ko‘rinadi. Ma’lum bo‘ladiki, shoir an’anaviy shakllarda yangi ma’no, mazmun ifodalaydi. Uning g‘azallari faqat mazmunan emas, balki vazn qoidalariga amal qilinganligi bilan ham mazkur janr nazariyasining asosiy talablariga javob bera oladi. G‘azal uchun ramal bahri tanlangan. Bu bahr turkiy til tabiatiga nihoyatda mos tushadi. Baytda ramal bahrining foilotun rukni sakkiz marta qo‘llaniladi, faqat oxirgi ruknda solim emas, mahzuf(oxirgi hijoni tashlash orqali hosil qilinadi) holatida uchraydi. Vaznning to‘liq nomi *ramali musammani mahzufdir*. Navoiy o‘zbekcha she’rlarining 1101 tasi aynan shu vaznda bitilgan [7. 26-bet]. Bu vazn XX asrda ijod qilgan shoirlar ijodida ham yetakchilik qildi. Habibiyning 127 ta, Sobir Abdullaning 99 ta, Chustiyning 201 ta g‘azali *ramali musammani mahzufda* yozilgan. Erkin Vohidov ijodida ayni vaznda yozilgan 54 ta [5. 22-bet] g‘azal uchraydi.

Tashxis san’ati bilan jilolangan “Uzum” radifli mashhur g‘azalining matla’si shohbayt darajasiga ko‘tarilgan.

Termular shabnamli yaproq, ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab, tong sahar giryon uzum [6. 60-bet].

Maqta’si Hazrat Navoiyning “Ashraqat” g‘azalidagi satrlarga qiyos etilgan [8. 369-bet] mazkur g‘azal boshdan oyoq *ramali musammani mahzuf* vaznida bitilgan. Ruknlar, ularning tarkibidagi cho‘ziq va qisqa hijolarning shu xildagi takrori yoqimli, yengil va musiqabop ohangni yuzaga keltiradi. Radifga olingan uzum so‘zi bir qisqa va bir cho‘ziq hijo(V−)ga to‘g‘ri keladi va oxirgi ruknni mahzuf bo‘lishini talab qiladi. Erkin Vohidov g‘azal janrining vazni va shaklini saqlagan holda ishqning yangicha talqinini yaratadi. Yorga oshiq uzumning ishqdagi iztiroblarini hayotiy misollar orqali tasvirladi.

Kimki oshiqlikni da’vo, aylasa shuldir jazo,
Oqibat xum ichra bo‘ldi, mahkumi zindon uzum.

Yetilib pishgan uzumning may uchun ozuqa bo‘lishi asosida mumtoz adabiyotdagi komillik yo‘lidagi qiynalishlarga ishora qiladi. Bu bilan shoir o‘zini Navoiyning chinakam izdoshi ekanligini ko‘rsatadi.

Muruvvat birla, yorim, yo‘qlasang bir vasl bog‘ingga,

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Qaro zulfing kabi ko‘nglim qushi tashlar oyog‘ingga [9. 5-bet].

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Mazkur bayt Charxiy qalamiga mansub bo‘lib, eng yoqimli vaznlardan biri hisoblangan *hazaji musammani solim*da yozilgan. Uning taqte’si V − − −/V − − −/V− − −/V− − − ko‘rinishida bo‘ladi. Hazaj bahri ramal bahridan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. U mafoiylun aslining takroridan hosil bo‘ladi. Turkiy she’riyatda bu bahrda bitilgan g‘azallarning ko‘pchiligi kuyga solingan. Aslida g‘azalning o‘zi – musiqa. Bittagina tovushning noto‘g‘ri o‘qilishi butun g‘azal jozibasini yo‘qotishi mumkin. Birinchi misradagi vasl so‘zi o‘z holicha emas, balki bir “i” tovushini orttirib vasli holida o‘qilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir g‘azalning mazmun-ma’nosidan kelib chiqadigan ritmiy xususiyatlari bor.

Yaqindan bilmasang ham xasta xolimni vafoparvar,

Uzoqdan loaqal shafqat bilan ilgin quchog‘inga.

She’r o‘qilishida ohang alohida ahamiyat kasb etadi. Aniqsa aruz vaznida bu yaqqol ko‘rinadi. Hazaj bahridagi bir qisqa va uch cho‘ziq hijo(V − − −)ning muayyan takrori o‘ziga xos musiqiy ohangni keltirib chiqaradi. Oxirgi rukndagi vafoparvar va quchog‘ingga so‘zlari aynan shu ohangga mos tushadi. Natijada vazn va mazmun uyg‘unligi yuzaga keladi. Agar g‘azal o‘z vazniga solib o‘qilmasa, undagi ma’nolar to‘gri anglashilmaydi. Zero, ijodkor g‘azal bitarkan, undagi so‘zlarni vazn imkoniyat va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlaydi.

Aruzda yozish oson emas. Buning uchun so‘zni his etish, uni chertib tanlay bilish lozim. G‘azal yozmoqchi bo‘lgan ijodkordan mumtoz adabiyot bilimdoni bo‘lishi, shuningdek, ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiya sirlarini egallamog‘i talab etiladi. Yaqin davrlar mobaynida o‘zbek she’riyatida g‘azal yuqori o‘rinni egallamagan bo‘lsa ham, adabiyotdan butunlay chetga chiqib ketmadi. XX asrda qator ijodkorlar, zamonaviy adabiyotda E.Vohidov, A.Oripov, J.Kamol va boshqalar tomonidan bu janrning go‘zal namunalari yaratildi. Unga nisbatan qarashlar ham ma’lum darajada o‘zgardi. Bugungi kunda g‘azalni faqat shakl-mazmun jihatdan emas, balki vazn va mazmun uyg‘unligi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mavzuga mos vaznni to‘g‘ri tanlay olish ham shoirning badiiy mahoratini ko‘rsatadigan omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Fitrat. Aruz haqida risola.−T.: O‘qituvchi, 1997. − B. 9.
4. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: Sharq, 1998. − B. 119.
5. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014.B.− 251.
6. Nosirov O. O‘zbek klassik she’riyati janrlari.−T.: O‘qituvchi, 1979. − B. 19.
7. Rahmonova Sh. XX asr ikkinchi yarmi aruzning poetik shakl va vazn takomilidagio‘rni. Filol. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. – T., 2020. – Б. 152.
8. Vohidov E. O‘zbegim−T.: Yangi asr avlodi, 2017. − B. 49.
9. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim-Media, 2019. − B. 25.
10. B. To‘xliyev. Adabiyot (majmua)−T.: Bayoz, 2015.−B. 369.
11. Charxiy. Qiyolab o‘tdi.−T.: Akademnashr, 2010.−B. 5.
12. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

Dilafruz Muhammadiyeva
"Boburnoma"dagi maqol va matallarni tarjima qilish tamoyillari 5

Mushtariy Xolmuradova
"Qutadg'u bilig"dagi dunyo kezgan turkiy so'zlar 12

Shoxnoza Xo'janiyazova
Alisher Navoiyning "Holoti Pahlavon Muhammad" asaridagi musiqiy atamalar 16

Surayyo Ziyotova
"Mehrobdan chayon" asarida qavm-qarindoshlik leksikasi 20

Rafiqjon Zaripov
Olamning lisoniy manzarasida o'zbek tilining taraqqiy etayotgan qiyofasi 25

Durdona BULTAKOVA
Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida keltirilgan turkiy tilga xos bo'lgan so'zlar (lakunalar) tadqiqi 29

Feruza SODIQOVA
Sheva – tilni oziqlantiruvchi ildizdir 33

Nazokat XAITBAYEVA
Bolalar yozma nutqini psixolingvistik rivojlantirish 37

Rasulova N.N.
Gastronomiyaga oid barqaror birikmalarning til taraqqiyotidagi o'rni 40

Dilshoda JUMANBOYEVA
O'zbek tilida osmon jismlarining ifodalanishi 44

Go'zal QO'ZIBOYEVA
Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslik fani rivojiga qo'shgan hissasi 48

Gulzoda SAFAROVA
G'afur G'ulom asarlarida emotsional-bo'yoqdor so'zlarning qo'llanilishi 51

Madina SAMATBOYEVA
"Tarixi muluki ajam"da antroponimlar etimologiyasi (2-qism kayoniylar sulolasi asosida) 58

Dilbar MIRNOSIROVA
O'zbek bolalari nutqida leksik assotsiatsiyaning ifodalanishi 63

Parizoda RO‘ZIBOYEVA, Mahbuba RO‘ZIBOYEVA
O‘zbek ayollari muloqot xulqining lingvokul- turologik tadqiqi 67

Shohida QURAQOVA
Ichimlik nomlari tavsifi 74

Sevara DOSMUHAMEDOVA
Yangiyo‘l shevasini toshkent shahar shevasi bilan qiyosiy o‘rganish xususida 77

Munisa ISAQOVA
Mumtoz manbalarda “so‘z” talqini 80

Mohinurbonu XO‘JAMOVA
“o‘tmoq’’ leksemasining semantik xususiyatlari 83

Farangiz UMIDOVA
Ko‘chirma gap va iqtibosning o‘ziga xos xususiyatlari 86

Jamoldin YOQUBOV
“Shaytanat”: tanqid, tahlil, munosabat 91

Nafisa KARIMOVA
Ijodkorning bilingvistik salohiyati va badiiy asar 95

Qizlarxon BOLTAYEVA
Badiiy adabiyotda qalb muolajasi 99

Mohira ABDURAHMONOVA
Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanidagi ramziy obrazlar poetikasi 103

Jobir ISMATULLOYEV
O‘zbek nasrida musavvir behzod obrazining badiiy talqini 107

Sohiba XATAMOVA
Adabiy portret janri xususiyatlari 112

Mirzabek XOLYOROV
Abdulla Oripov she’riyatida “ona” siymosining badiiy tasviri 116

Abdunazar SHAROPOV
To‘ra Sulaymon dostonlarining xalq dostonlari bilan hamohangligi 121

Madina VAHOBOVA
Yashil rang poetikasi halima ahmedova ijodining muhim xususiyati sifatida 125

Nafisa SULAYMANOVA
Lev Nikolayevich Tolstoyning “Tirilish” asari xususida ayrim mulohazalar 136

Maftuna TOLIBJONOVA
Said Ahmadning tildan foydalanish mahorati 141

Dilfuza ABDUSAYIMOVA
Nishotiyning “Husn va dil” dostonida an’ana va yangilik 145

Gulmira ABDIRAIMOVA
Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanida vatan mavzusining aks etishi 151

Marhabo TURAPOVA
Sirojiddin Sayyid ijodida Zahiriddin Muhammad Bobur siymosining o‘rni xususida 153

Nodira XUDOYNAZAROVA
Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida xalq og‘zaki ijodi an’analari: ot obrazi misolida 157

Sadoqat HAKIMJONOVA
E’tiqod va o‘zlikni anglash – Lev Tolstoy 161

Dinoraxon MANSURJON QIZI
“Qissasi Rabg‘uziy” asarida qurtqa obrazi 165

Rayxonoy YANGIBOYEVA
Tariqi Shuttordagi solik: robiya Adviya fazilatlari 169

Shahzodbek RUZMETOV
Sharq va g‘arb adabiyotida she’riy o‘lchov masalasi 174

Quvonchoy NURMETOVA
“Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasidagi sultoniy g‘azallari haqida 177

Mohiniso SHOMURODOVA
“Boburnoma”da tarixiy shaxs nomlarining qo‘llanishi 180

Shahnoza ISROILOVA
“Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasidagi sodiq g‘azallari haqida 189

Nurjahon UBAYDULLAYEVA
Publitsistik asarda she`rning o‘rni (Humoyun Akbarovning “Quyosh huzuriga yo‘l olgan karvon” to‘plamidagi she’rlar misolida) 193

Orifjon OLIMJANOV
Alisher Navoiy lirik merosining o‘rganilishi (“Xazoyin ul-maoniy” misolida) 198

Nargiza ISOMIDDINOVA
Said Ahmad asarlarida xalq maqollari 204

Rayhon MALIKOVA
Navoiy ijodida ilmi badi' 207

Zarina HAMIDOVA
"Hurliqo va Hamro" dostonida uchraydigan an'anaviy motiv va syujetlarning qiyosiy tahlili 213

Dilnavoz NAJIMOVA
Bolalar adabiyotida she'riy hikoya janri 217

Nilufar KENJAYEVA
She'riy san'at – aslida ham she'riy san'atmi? 221

Sojida ESHMATOVA
Nazar Eshonqul hikoyalarida obrazlar dinamikasi 223

Nargiza YUSUPOVA
Principles for effective teaching and learning foreign language 227

Go'zal QURBONOVA
Antroponimlar lingvokultrologik xususiyatlarining tarjimada aks etishi (O. Genrining "Nomsiz hikoya" asaridagi antraponimlar tarjimasi misolida) 231

Khurshida RIZAEVA
Linguoculturological problems of translation 240

Gulyora SOHIBOYEVA
Ingliz va o'zbek ertaklaridagi mushtarak g'oyalar 247

Mohigul MOVLONOVA
Adabiyot darslarida zamonaviy pedogogik uslublardan foydalanish ("Ufq" trilogiyasi misolida) 252

Maftuna MATNIYAZOVA
Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi vositalar 259

Saodat KAMBAROVA
Adabiy ta'limda o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish 264

Shaxnoza RAXMONOVA
Qasidada vazn va mazmun uyg'unligi (XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati misolida) 268

Maftunaxon AKBAROVA
Mumtoz asarlarni o‘rgatishda o‘quvchilarni mustaqilfikrlashga o‘rgatish (Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari misolida) 274

E’zoza ALIMOVA
Abdulla Qahhor asarlarida ta’lim - tarbiya masalasi 278

Sohiba ABDURAXMONOVA
“Hayotga muhabbat”asarini o‘qitish va tahlil qilishda savollardan bosqichma-bosqich foydalanish 281

Dilorom TOSHBOYEVA
G‘azallarda vazn va mazmun uyg‘unligi (charxiy, erkin vohidov g‘azallari misolida) 285

“FILOLOGIYA MASALALARI – YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2020-yil 16-noyabr

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent – 2020.

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, f.f.d, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori;

Z.Abdurashidov, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;

N. Jo‘raqo‘ziyev, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;

M. Xolmurodova, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati raisi;